MUNDARIJA // оглавление

Интеграция технологий искусственного интеллекта в сферу обеспечения общественной безопасности
03 **Джураев Р.М.**

Voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarining kelib chiqish sabablari va ularning oldini olish muammolari
08 **Rustambayev M.X.**

Qo‘riqlash faoliyatining huquqiy asoslari tahlili
13 **Ganiyev M.J.**

Международные соглашения по воде в регионе Центральная Азия
18 **Турсунов О.Б.**

Xizmat faoliyatda harbiy xizmatchilarning xavotirlanish darajasini aniqlash usuli
26 **Shermatov F.T.**

O‘zbekistonda suv munosabatlari sohasida xavfsizlikni ta’minlashning huquqiy muammolari
32 **Usmonov M.B.**

Biznes sohasidagi shartnomalarni tizimlashtirish haqida ba’zi ilmiy-nazariy mulohazalar
36 **Ruziyev R.Dj.**

41 Gegelning huquq falsafasi
Muxitdinov F.M.

Fuqarolik sud ishlarini yuritishni jadallashtirish jarayonida isbotlash va dalillardan foydalanish xususiyatlari
46 **Davletov O‘.M.**

Совершенствование процесса производства по делам об административных правонарушениях в Республике Узбекистан
49 **Таллибаев У.Ш., Казимов С.С.**

Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonun normalarini bojxona amaliyotida tavsiflashning o‘ziga xos jihatlari
52 **Ismoilov H.I., Yusupov Sh.L.**

Muassis:
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

“JAMOAT XAVFSIZLIGI” ilmiy-amaliy jurnali harbiy, siyosiy, yuridik, tarix, texnika, filologiya, iqtisodiyot, pedagogika va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAKning 2021-yil 30-sentabr kunidagi 306/4-son qarori. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-yil 20-oktabrda 148674-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Fuqarolik sud ishlarini yuritishning protsessual kafolatlari tushunchasi, mohiyati va tizimi
57 **Mansurova X.N.**

Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari va xodimlarining huquqiy madaniyatini shakllantirish
63 **Kuvondikov Z.K.**

Huquqiy madaniyat oliy harbiy ta’lim muassasalari kursantlarini kasbiy kompetensiyasi
71 **Xodiyev R.X.**

Передовой опыт армий зарубежных стран по применению учебно-тренировочных баз с интерактивными тренажерными комплексами виртуальной реальности
76 **Девяткин А.В.**

Теоретические основы совершенствования правовой культуры у курсантов академии Национальной гвардии Республики Казахстан
85 **Махмудов Р.М., Имиров С.К.**

Jamoat xavfsizligi va tartibini saqlashda jamoatchilik tuzilmalari faoliyati
95 **Vaxidov F.R.**

MUNDARIJA // оглавление

100 Jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasida kompitentli kadrlarni tayyorlashning istiqbolli jihatlari (uchuvchisiz uchadigan apparatlardan foydalanish tajribasi va rivojlanish tahlili asosida)
Qodirov T.T.

105 G‘ildirakli jangovar mashinalarning tuzilishiga oid multimedia va texnik vositalarni qo‘llashning ahamiyati
G‘uchchiyev A.A.

109 Jangovor akustik vositalar va ularning rivojlanish tarixi
Bokiyev M.G.

113 К вопросу о совершенствовании методики обучения русскому языку курсантов
Атаева Р.Р.

118 Sudlangan shaxslarga xorijiy tillarni o‘rgatishning huquqiy asoslari
Ikanova L.S.

121 Некоторые проблемы женской занятости в современном Узбекистане
Абдуллаева М.С.

129 Harbiy xizmatchilarning gender munosabatlarini psixologik tahlili
Ahmadjonova N.A.

134 Harbiy-kasbiy professionallikni rivojlantirishda imijning ijtimoiy-psixologik jihatlari
Ravshanov L.U.

138 Axloqiy-ruhiy tayyorgarlikning qo‘shinlar jangovar xizmat faoliyati samaradorligini oshirishdagi o‘rni va uning o‘ziga xos xususiyatlari
Azizov S.X., Nurjanov A.Yu

143 Harbiy xizmatga chaqiriluvchilarning harbiy xizmatga moslashishidagi qiyinchiliklar bo‘yicha nazariy yondashuvlar
Ikmatullayev G‘.Z.

148 Milliy gvardiyaning fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorligi mexanizmlarini takomillashtirish
Haydarov A.U.

153 Harbiy xizmatchilarda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalari
Madjitov F.F.

156 Некоторые особенности развития культуры в Казахстане в начале 20 века
Малдыбаев К.Б.

159 Afg‘on muammosini bartaraf etish – mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlashning muhim tendensiyasi sifatida
Sattorov A.

165 Uchinchi renessans poydevorini yaratisda milliy o‘zligi anglashi va tarixiy ongni rivojlantirishning falsafiy jihatlari
Miraxmedov J.M.

170 O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasida moliyaviy nazoratni amalga oshirish uslubiyoti
Djaydakbayev M.T.

180 O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning ustuvor yo‘nalshlari
Soatov S.S.

185 Zamonaviy jamiyatda texnologiyaning jamoat xavfsizligiga ta’siri
Xoliqov Sh.A., MusanovK.P.

192 O‘zbekiston Respublikasida yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishda zamonaviy soliq ma’murchiligini joriy etishga oid
Nabiyev F.N.

198 Harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasida pensiya ta’minotining o‘rni
Berdiyeva U.U.

206 Global iqlim o‘zgarishlari sharoitida inkluziv iqtisodiy o‘sishni ta’minlash bo‘yicha
Elov A.A.

ИНТЕГРАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СФЕРУ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

ДЖУРАЕВ РУСТАМ МИРЗАЕВИЧ
Командующий Национальной гвардией Республики Узбекистан,
генерал-майор, заслуженный юрист Республики Узбекистан

Аннотация. **В статье рассмотрена интеграция технологий искусственного интеллекта (ИИ) в систему обеспечения общественной безопасности. Особое внимание уделено анализу существующих возможностей применения ИИ для мониторинга правопорядка, предотвращения преступлений, реагированиия на чрезвычайные ситуации. Приведены примеры успешного внедрения ИИ в систему правоохранительных органов и служб безопасности, описаны потенциальные преимущества, такие как повышение оперативности и точности в оценке рисков, обсуждены возможные риски и вопросы этического порядка, связанные с применением ИИ при использовании персональных данных и возможных нарушений прав человека.**

Ключевые слова: искусственный интеллект, общественная безопасность, правоохранительные органы, мониторинг, предотвращение преступлений, обработка данных, этика, персональные данные, чрезвычайные ситуации, автоматизация.

Всё более актуальной становится в современном обществе роль искусственного интеллекта. Огромное влияние искуственный интеллект оказывает и на сферу общественной безопасности, так как он способен оказывать неоценимую помощь правоохранительным органам в плане реагирования на стихийные бедствия и чрезвычайные ситуации, поддержание порядка и защиту граждан. Технологии искусственного интеллекта, такие как цифровой анализ данных и машинное обучение, предоставляют важнейшие инструменты, способные помочь в прогнозировании и моделировании чрезвычайных ситуаций, в своевременном реагировании на угрозы, в грамотном распределении ресурсов при обеспечении общественной безопасности и общении с гражданами. Широкий спектр приложений искусственного интеллекта способен кардинально изменить многие аспекты общественной безопасности. В зарубежных странах правоохранительные органы используют ИИ для предотвращения преступлений и более эффективного реагирования на происходящее, службы экстренной помощи используют ИИ для прогнозирования вероятности определенных типов бедствий, обеспечивая своевременное наличие ресурсов для смягчения последствий, а органы управления дорожным движением используют искусственный интеллект для анализа структуры дорожного движения и природных условий, способствуя тем самым предотвращению аварийных ситуаций. С неуклонным развитием искусственного интеллекта его роль в обеспечении общественной безопасности будет с каждым днём возрастать по своим масштабам и значимости.

Описание материалов и методов:

«Искусственный интеллект» уже давно является предметом научной фантастики. Однако сейчас мы живём в эпоху, когда искусственный интеллект (ИИ) стал реальностью и оказывает весьма реальное и глубокое влияние на нашу повседневную жизнь.

Применение ИИ можно обнаружить во многих сферах нашей жизни, от сельского хозяйства до промышленности, связи, образования, финансов, государственного управления, сферы услуг, производства, медицины и транспорта. Бесспорно ИИ приносит пользу общественной безопасности и уголовному правосудию. Например, в зарубежных государствах системы безопасности дорожного движения выявляют

нарушения и обеспечивают соблюдение правил дорожного движения, а прогнозы преступности позволяют более эффективно распределять ресурсы полиции.

Искусственный интеллект - это быстро развивающаяся область компьютерных технологий. В середине 1950-х годов Джон Маккарти, которого считают отцом искусственного интеллекта, определил его как “Науку и технику создания интеллектуальных машин”[1].

Искусственный интеллект, широко известный как ИИ, относится к моделированию человеческого интеллекта в машинах, которые запрограммированы думать как люди и имитировать их действия. Это отрасль компьютерных наук, целью которой является создание систем, способных обрабатывать информацию и принимать решения способом, аналогичным человеческому мозгу.

Одним из аспектов человеческого интеллекта является способность учиться на собственном опыте. Машинное обучение - это применение искусственного интеллекта, которое имитирует эту способность и позволяет машинам и их программному обеспечению учиться на собственном опыте. [2]

Особенно важно с точки зрения уголовного правосудия это распознавание образов. Люди эффективно распознают шаблоны, и благодаря опыту мы учимся различать объекты, людей, сложные человеческие эмоции, информацию и условия повседневной жизни. Искусственный интеллект стремится воспроизвести эту человеческую способность в программных алгоритмах и компьютерным языком. Например, самообучающиеся алгоритмы используют наборы данных, чтобы понять, как идентифицировать людей по их изображениям, выполнять сложные вычислительные и робототехнические задачи, понимать покупательские привычки и модели поведения в Интернете, выявлять заболевания с помощью сложных рентгенологических сканирований.

ИИ активно исследуется как ресурс обеспечения общественной безопасности по многим направлениям. Одно из конкретных применений ИИ — распознавание лиц — можно найти повсеместно как в государственном, так и в частном секторах.

Точное и своевременное изучение огромного количества изображений и видеозаписей, которые могут иметь отношение к делу, — это трудоёмкая и кропотливая работа, которая может привести к человеческим ошибкам из-за усталости и других отвлекающих факторов. В отличие от людей, машины не устают. В рамках таких инициатив, как проект Janus computer-vision от Intelligence Advanced Research Projects, аналитики проводят испытания алгоритмов, позволяющих научиться отличать одного человека от другого по чертам лица так же, как это делает человек-аналитик.

Передовые инновации в области искусственного интеллекта все чаще используются для мониторинга общественных и частных территорий с конечной целью достижения более высоких мер безопасности. Благодаря способности технологий анализировать огромные объёмы данных в режиме реального времени службы безопасности способны обнаруживать аномалии и потенциальные угрозы быстрее, чем это сможет сделать человек, пусть даже и с большим опытом и колоссальной работоспособностью. Таким образом, использование искусственного интеллекта не только повышает точность данных, но и значительно увеличивает время реагирования на инциденты безопасности. Выходя за рамки простого наблюдения, инновации в области искусственного интеллекта адаптируются для прогнозирования возможных нарушений безопасности до того, как они произойдут. Сложные алгоритмы способны выявлять подозрительные закономерности в данных, позволяя принимать превентивные меры.

Стоит отметить, что Научно-исследовательский институт электроники и телекоммуникаций (ETRI) Южной Кореи недавно объявил, что они завершили разработку «Dejaview», инновационной технологии, использующей записи камер видеонаблюдения, статистику, связанную с преступностью, технологию определения местоположения и т.д., которая служит для обнаружения сигналов о потенциальных преступлениях и прогнозирования возможности совершения преступления. Согласно тесту производительности, проведённому Ассоциацией телекоммуникационных технологий (TTA), эффективность прогнозирования преступности в специально разработанной карте преступности была оценена на уровне 82,8% [3], что является крайне эффективным показателем в реалиях сегодняшнего дня.

ISSN 3030-3230

На данный момент вышеназванная система проходит тестовое применение в аэропортах, на заводах и в общественных местах.

Интеграция в систему обеспечения общественной безопасности и общественного порядка Республики Узбекистан оказала бы неоценимую помощь в деле совеpенствования системы управления и координации силами и средствами правоохранительных органов, а также сократила бы время реагирования на чрезвычайные ситуации.

Несмотря на многообещающие преимущества, существует множество препятствий для внедрения систем искусственного интеллекта для осуществления мер общественной безопасности. Одной из распространённых проблем является отсутствие стандартизации и интеграции данных. ИИ часто требует разнообразных и обширных наборов данных для эффективного обучения и предоставления надёжных результатов, но организации общественной безопасности часто испытывают трудности со сбором, стандартизацией и интеграцией этих наборов данных. Надёжное управление данными является важным условием успешного внедрения ИИ. [4] Следовательно, отсутствие надлежащих стратегий управления данными может значительно снизить потенциал инструментов искусственного интеллекта. Другой проблемой являются этические соображения и вопросы конфиденциальности, связанные с применением искусственного интеллекта. Технологии искусственного интеллекта, особенно в сфере наблюдения и прогнозирования действий правоохранительных органов, часто вызывают вопросы о личной свободе и неприкосновенности частной жизни граждан. Общественное восприятие этих платформ обычно настороженное из-за опасений, что системы искусственного интеллекта вторгнутся в их частную жизнь. Кроме того, существует серьёзная обеспокоенность по поводу потенциального неправильного использования искусственного интеллекта и возможности предвзятости алгоритмов, которая, если ее не устранить, все еще может быть несправедливо нацелена на определенные демографические группы.

Алгоритмическая предвзятость была обнаружена в 1970-80-е годы в практике Медицинской школы больницы Св. Георгия в Соединенном Королевстве, которая использовала компьютерную программу для первоначального отбора абитуриентов. Программа, имитировавшая выбор, сделанный приёмный комиссией в прошлом, отказала в собеседовании шестидесяти кандидатам, по той лишь причине, что они были женщинами или имели неевропейские имена. Важно, что программный код не был работой какого-то программиста-злоумышленника. Напротив, предвзятость возникла в процессе приёма кандидатов потому, что была фактически заложена в данные ранее принятых решений. [5]

Таким образом искусственный интеллект в процессе машинного обучения исходя из полученных данных может развить в себе «алгоритм предвзятости», способный влиять в дальнейшем на его решения. Данное явление возникает в ИИ из-за отсутствия принципов гуманизма и других связанных с ним принципов, присущих человеческому интеллекту.

Эти проблемы требуют своего решения для обеспечения общественного доверия и успешного внедрения искусственного интеллекта в сферу общественной безопасности.

Внедрение искусственного интеллекта во многие сферы нашей жизни неизбежно влечёт за собой возникновение проблемы конфиденциальности, особенно в сфере общественной безопасности. Приложения искусственного интеллекта делают наш мир безопаснее, однако существует противоречие между стремлением к общественной безопасности и защитой частной жизни личности. [6] Требуется особое внимание для обеспечения соответствия этическим стандартам и ненарушения права на неприкосновенность частной жизни при применении искусственного интеллекта для обеспечения общественной безопасности. Следовательно для этого необходимо создать прозрачную и надежную нормативно-правовую базу, охватывающую способы сбора, хранения, использования и обмена данными. Одновременно с созданием нормативно-правовой базы следует обеспечить надлежащее инвестирование в просвещение людей о правах, потенциальных угрозах и грамотном применении инструментов, основанных на искуственном интеллекте. При достижении баланса использования технологий и укрепления общественного доверия искусственный интеллект может

существенным образом повлиять на обеспечение общественной безопасности, не затрагивая вопросов конфиденциальности.

По мере нашего неуклонного движения к мировой глобализации роль искусственного интеллекта в поддержании и улучшении общественной безопасности будет только возрастать: качественный скачок искусственного интеллекта будет менять методологии, поскольку он обладает способностью анализа огромного количества данных в режиме реального времени, способен точно прогнозировать потенциальные угрозы и предвосхищать непосредственную опасность. Особым образом выверенные алгоритмы и инновационные модели машинного обучения позволят создавать более умные системы наблюдения и эффективные стратегии прогнозирования преступности. Кроме того, роль искусственного интеллекта со временем будет выходить за рамки физической безопасности и распространяться на кибербезопасность, что означает упреждающее выявление и устранение разнообразных киберугроз. Развитие беспилотных систем, управляемых искусственным интеллектом, таких как дроны и автономные транспортные средства, значительно улучшат поисково-спасательные операции и борьбу со стихийными бедствиями и пожаротушение. [7] Искусственный интеллект добьётся больших успехов в организации дорожного движения и в деле обеспечения безопасности дорожного движения за счёт использования данных в режиме реального времени для лучшего управления транспортными средствами, снижения аварийности и заторов. Применение искусственного интеллекта будет способствовать устранению субъективного отношения и предвзятости в правоохранительных органах. Но внедрение искусственного интеллекта в сферу общественной безопасности не должно повлечь серьёзных проблем в вопросах конфиденциальности и потенциального злоупотребления.

Искусственный интеллект открывает новые возможности для обеспечения общественной безопасности. IT-технологии ярко продемонстрировали потенциал по расширению возможностей прогнозирования, оказания помощи в процессах принятия решений и предоставлении решений в режиме реального времени во время чрезвычайных ситуаций. Применение искусственного интеллекта в прогнозировании и предотвращении преступлений доказывает, что современные технологии способны работать на основе составленных системой прогнозов, а принятие решений на основе систематизированных данных позволяет своевременно предпринимать упреждающие шаги. Роль искусственного интеллекта в обеспечении общественной безопасности становится все более значительной, но важно осознавать возникающие проблемы, такие как вопросы конфиденциальности, этики и справеливости, что в свою очередь требует необходимости эффективно решать эти проблемы. Государственным учреждениям необходимо создать нормативную базу для возможности широкого применения искусственного интеллекта в сфере общественной безопасности при одновременном обеспечении прав граждан и неприкосновенности частной жизни. Будущее, бесспорно, остаётся за искусственным интеллектом, влияние которого в сфере общественной безопасности по мере стремительного развития технологий будет только возрастать.

Annotatsiya. Maqolada sun’iy intellekt (AI) texnologiyalarini jamoat xavfsizligi tizimiga integratsiyalashuvi ko‘rib chiqiladi. Jinoyatlarning oldini olish, qonun va tartibni monitoring qilish va favqulodda vaziyatlarga javob berishda sun’iy intellektdan foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Huquqni muhofaza qilish organlari va xavfsizlik xizmatlariga sun’iy intellektni muvaffaqiyatli joriy etish misollari keltirilgan, xavflarni baholashda samaradorlik va aniqlikni oshirish kabi potentsial foydalar tasvirlangan. Shaxsiy ma‘lumotlar va inson huquqlari kontekstida sun’iy intellektdan foydalanish bilan bog‘liq mumkin bo‘lgan xavf va axloqiy masalalar ham muhokama qilinadi.

ISSN 3030-3230

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, jamoat xavfsizligi, huquqni muhofaza qilish, monitoring, jinoyatchilikning oldini olish, ma’lumotlarni qayta ishlash, axloq qoidalari, shaxsiy ma’lumotlar, favqulodda vaziyatlar, avtomatlashtirish.

Abstract: The article explores the integration of artificial intelligence (AI) technologies into the public safety system. Special attention is given to analyzing the potential applications of AI in crime prevention, law enforcement monitoring, and emergency response. Examples of successful AI implementation in law enforcement and security services are provided, highlighting the potential benefits, such as increased efficiency and accuracy in risk assessment. The article also discusses possible risks and ethical issues related to the use of AI in the context of personal data and human rights.

Key words: artificial intelligence, public safety, law enforcement, monitoring, crime prevention, data processing, ethics, personal data, emergencies, automation

Использованная литература:

1. Haenlein, Michael & Kaplan, Andreas. (2019). A Brief History of Artificial Intelligence: On the Past, Present, and Future of Artificial Intelligence. California Management Review. 61. 000812561986492. 10.1177/0008125619864925.

2. El Naqa, I., Murphy, M.J. (2015). What Is Machine Learning?. In: El Naqa, I., Li, R., Murphy, M. (eds) Machine Learning in Radiation Oncology. Springer, Cham. https://doi.org/10.1007/978-3-319-18305-3_1

3. Korean researchers develop AI CCTVs to detect, predict criminal activities // https://techxplore.com/news/2024-09-korean-ai-cctvs-criminal.html

4. Chiancone, C. (2024, June 13). Transforming public safety with AI. LinkedIn. Retrieved from https://www.linkedin.com/pulse/transforming-public-safety-ai-chris-chiancone-zijaf

5. Tech, G. (2024, May 21). Do public safety benefits outweigh risks of police AI?. Government Technology. Retrieved from https://www.govtech.com/public-safety/do-public-safety-benefits-outweigh-risks-of-police-ai

6. NeoData Group. (2023). The role of artificial intelligence in enhancing public safety and security. Retrieved from https://neodatagroup.ai/the-role-of-artificial-intelligence-in-enhancing-public-safety-and-security/

7. National Institute of Justice. (2018). Using artificial intelligence to address criminal justice needs. Retrieved from https://www.ojp.gov/pdffiles1/nij/252038.pdf

8. Seagate US. (2023). AI enhances public safety operations in smart cities. Retrieved from https://www.seagate.com/blog/ai-enhances-public-safety-in-smart-cities/

VOYAGA YETMAGANLAR HUQUQBUZARLIKLARINING KELIB CHIQISH SABABLARI VA ULARNING OLDINI OLISH MUAMMOLARI

RUSTAMBAYEV MIRZAYUSUP XAKIMOVICH
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig‘i, yuridik fanlar doktori, professor

Annotatsiya. Maqolada voyaga yetmaganlarning uydan va davlat ta’lim muassasalaridan ruxsatsiz ketib qolishi oqibatida huquqbuzarliklar sodir etish holatlari va ularning oldini olish choralarini takomillashtirish masalalari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: voyaga yetmaganlar, uydan ruxsatsiz chiqib ketish, oila, ota-ona, bola, bolalarga nisbatan zo‘ravonlik, bola huquqlari, haqorat qilish, kamsitish, urish-qiynash, huquqbuzarlik.

Amaliyotni o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, voyaga yetmaganlarning uydan ruxsatsiz chiqib ketishining asosiy sababi bo‘lib, oiladagi ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi nizolar, bolalarga nisbatan zo‘ravonlik hisoblanadi. Kattalarning bolalarga munosabati hamisha ham bolani sevish, tushunish va hurmat qilishdan iborat bo‘lavermaydi, uning qiziqishlari, iste’dodi, mayllariga e’tibor berilmaydi.

Ota-onalar ko‘pincha o‘zlarining shaxsiy muammolarini hal qilish bilan band bo‘lib, ular bilan bolalar o‘rtasida tez-tez nizolar kelib chiqmoqda, oilada tushunmovchilik holatlari hukmronlik qilmoqda. Natijada bola o‘zini ortiqcha va keraksiz his qilib, bu oilada bolaning quvonch manbai, mehr-muhabbat obyekti bo‘lishini to‘xtashiga sabab bo‘lmoqda.

Bolaning uyidan qochishi bilan uning insoniy qadr-qimmatini haqorat qilish, kamsitish va huquqbuzarliklar sodir etish o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik mavjud. Oiladagi zo‘ravonlik va beparvolik bola hayotining barcha sohalariga ta’sir qiladi: maktabga davomati pasayadi, ko‘cha kompaniyasi ota-ona hukmronligining o‘rnini bosadi, uydan ruxsatsiz chiqib ketiladi, huquqbuzarliklar sodir etiladi, psixofaol moddalar iste’mol qilinadi.

Rossiya Federatsiyasi Oliy sudining 1998-yil 27-maydagi 10-sonli “Sudlar tomonidan bolalarni tarbiyalash bilan bog‘liq nizolarni hal qilishda qonun hujjatlarini qo‘llash to‘g‘risida”gi [1] qarorida “Yomon muomala” quyidagicha ifodalanadi:

☑ **oziq-ovqat, poyabzal, kiyim-kechakdan mahrum qilish, ma’lum yoshdagi bolaning psixofiziologik ehtiyojlari tufayli kunlik rejimni qo‘pol ravishda buzish, uyqu, dam olishdan mahrum qilish, oddiy gigiyena me’yorlariga va bolani davolash bo‘yicha shifokor tavsiyalariga rioya qilmaslik;**

☑ **ta’lim va davolashning nomaqbul usullaridan, ya’ni bolalarni jismoniy, aqliy va hissiy zo‘ravonlikning barcha turlaridan foydalanishdan iborat faol harakatlar, bolaga nisbatan talablar, unga nisbatan dushmanlik ko‘rsatish;**

☑ **yaqin qarindoshlarga nisbatan jismoniy va ruhiy zo‘ravonlikning muntazam namoyon bo‘lishi (masalan, onani bola borligida kaltaklash).**

Yuridik adabiyotlarda bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning quyidagi asosiy shakllari ajratib ko‘rsatiladi: axloqiy zo‘ravonlik, jismoniy zo‘ravonlik, jinsiy zo‘ravonlik yoki korrupsiya deb ataladigan aqliy (emotsional) zo‘ravonlik va bolaning ehtiyojlarini e’tiborsiz qoldirish.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga berilgan sharhlarda [2] (Og‘irlashtiruvchi jinoyatlar) biz tomonimizdan “maxsus shafqatsizlik” tushunchasini kiritish taklif qilingan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2000-yil 15-avgustdagi 21-sonli qarori (o‘zgartirish va qo‘shimchalari bilan) [3] qoidalarini tahlil qilib, uni yuqoridagi “maxsus shafqatsizlik” va “shafqatsiz muomala” tushunchalari bilan to‘ldirish zarur ko‘rinadi. “Maxsus shafqatsizlik” jinoyat ishida og‘irlashtiruvchi holatlarni aniqroq aniqlash imkonini beradi.

Ruhiy (emotsional) zo‘ravonlik - ota-onalarning, vasiylarning yoki bolani tarbiyalash uchun mas’ul bo‘lgan boshqa shaxslarning davriy, uzoq muddatli yoki doimiy ruhiy ta’siri, unda patologik xarakter xususiyatlarining paydo bo‘lishiga olib keladi yoki uning shaxsiyatini

ISSN 3030-3230

rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi.

Suiiste’mollikning ushbu shakli quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- **bolani ochiq rad etish va doimiy tanqid qilish;**
- **jismoniy zo‘ravonliksiz og‘zaki shaklda namoyon bo‘ladigan bolaga tahdidlar;**
- **bolaning qadr-qimmatini haqorat qilish va kamsitish;**
- **bolani qasddan jismoniy yoki ijtimoiy izolatsiya qilish;**
- **bolaga yoshi va imkoniyatlariga mos kelmaydigan talablarni qo‘yish;**
- **kattalar tomonidan yolg‘on gapirish va va’dalarni bajarmaslik;**
- **bitta qo‘pol ruhiy ta’sir, bolaga psixologik jarohat yetkazish va hokazo.**

Bolaning ehtiyojlari, niyatlari, his-tuyg‘ulari, munosabatlariga nisbatan zo‘ravonlik, uni kamsitish yoki uning intilishlariga zid bo‘lgan harakatlarga majburlash bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning eng keng tarqalgan turi hisoblanadi. Bolaning ehtiyojlarini e’tiborsiz qoldirish (axloqiy shafqatsizlik), bunga ota-onalar, vasiylar yoki bolani tarbiyalash uchun mas’ul bo‘lgan boshqa shaxslar tomonidan yo‘qligi uning sog‘lig‘iga yoki rivojlanishiga xavf tug‘diradi. Doimiy axloqiy zo‘ravonlik ko‘pincha bolalarning uydan chiqib ketishiga olib keladi.

Jismoniy zo‘ravonlik - bu bolaga qasddan jismoniy shikast yetkazish, shuningdek, bolaning huzurida uning qarindoshlariga jismoniy zarar yetkazishdir. Ushbu jarohatlar bolaning o‘limiga sabab bo‘lishi, voyaga yetmaganlarning jismoniy yoki ruhiy salomatligiga jiddiy zarar yetkazishi yoki yosh rivojlanishining kechikishiga olib kelishi mumkin.

Jinsiy zo‘ravonlik - manfaat, qoniqish yoki g‘arazli maqsadlarga erishish uchun bolaning yoshi yetukligi yoki boshqa sabablarga ko‘ra ongli yoki ongsiz ravishda uning roziligi bilan yoki uning roziligisiz kattalar bilan jinsiy aloqaga kirishishidir.

Maktabdagi noto‘g‘ri munosabat o‘qituvchi va bolalar o‘rtasidagi ziddiyatlarga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Maktab ko‘pincha intizomni har qanday vositalar bilan saqlashga intilib, repressiv ta’sir choralarini qo‘llaydi. Shu bilan birga, maktabdagi muvaffaqiyatsizlik oilaviy nizolarni keltirib chiqaradi. Bu holatlarning asosiy sababi quyidagilarda namoyon bo‘ladi: ta’lim muassasalarida o‘qituvchilar kasbiy mahoratining yetishmasligi; tengdoshlari bilan nizolar; sog‘liqni saqlash muammolari, shu jumladan bolaning aqliy rivojlanishidagi og‘ishlar; ota-onalar nazoratining yo‘qligi; voyaga yetmagan bolaning turli sabablarga ko‘ra ajralib ketgan ota-onalariga muhabbati, ularga qaytish istagi; bandlik va ijtimoiy foydali faoliyatdagi qiyinchiliklar; har xil turdagi norasmiy uyushmalar va sektalarning ta’siri va boshqalar.

Rossiya Ta’lim vazirligining Sotsiologik tadqiqotlar markazi tomonidan uydan ruxsatsiz chiqib ketgan yetti yoshdan o‘n yetti yoshgacha bo‘lgan ikki ming nafar voyaga yetmagan bolalarning uyni tark etishining asosiy sabablari quyidagilar hisoblanadi:

- **ota-onalarning mastligi, buning natijasida ularning tarbiyaviy majburiyatlarini bajarmasliklari (40,5%);**
- **oiladagi nizolar (16,5%);**
- **moliyaviy ahvolning yomonligi (13,3%);**
- **ota-onaning ajralishi va buning oqibatida bolalarning doimiy ravishda begonalar uyida bo‘lishi (10,8%).**

Ushbu sabablar Rossiya uchun ham, O‘zbekiston uchun ham xos bo‘lib, voyaga yetmaganlar o‘rtasida jinoyatlar sodir etilishining asosiy sabablari sifatida namoyon bo‘lmoqda. O‘tkazilgan tadqiqotlar davlat ta’lim muassasalaridagi nosog‘lom oilalar bolalarining jismoniy va aqliy rivojlanishda qandaydir og‘ishlar borligini, ularda aqliy zaiflik, jinsiy o‘ziga xoslikni buzish, giyohvandlik va huquqbuzarlik alomatlari mavjudligidan dalolat bermoqda. Bundan tashqari, bola muloqot qilishni bilmaydi, asabiylashadi, e’tibor qidiradi va ayni paytda uni rad etadi, unda tajovuzkorlik yoki begonalashuv alomatlari ko‘rinadi.

Voyaga yetmaganlarning davlat ta’lim muassasalaridan ruxsatsiz chiqib ketishining sabablari o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ular quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- **o‘smirlarning davlat ta’lim muassasasi sharoitida yashashni istamasligi;**
- **o‘qituvchilar va bolalar o‘rtasida yuzaga keladigan ziddiyatli vaziyatlar;**
- **tengdoshlari, kattalar tomonidan jismoniy zo‘ravonlikning mavjudligi;**
- **mansabdor shaxslar tomonidan voyaga**

yetmaganlarning bo‘sh vaqtini tashkil etish choralarini o‘z vaqtida ko‘rmaslik;

➤ **voyaga yetmaganlarning o‘zboshimchalik bilan chiqib ketish sabablarini bartaraf etish choralariga mansabdor shaxslar tomonidan yetarlicha munosabat bildirilmayotganligi;**

➤ **ruxsatsiz chiqib ketishning, ayniqsa takroriy holatlarning oldini olish uchun o‘quvchilar bilan individual profilaktika ishlarini noprofessional olib borish va boshqalar.**

Ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan ta’lim muassasalarini o‘zboshimchalik bilan tark etgan o‘quvchilarni samarali topish va qidirishni qiyinlashtiradigan bir qator muammolar mavjud:

- **muassasa ma’muriyati har doim ham darhol ichki ishlar bo‘limiga murojaat qilmaydi;**
- **o‘quvchilarning shaxsiy ishlarida yoshiga mos fotosurat o‘zgartirilmaydi;**
- **voyaga yetmaganlar haqida qo‘shimcha ma’lumot borligi bo‘yicha kamchiliklar (u ilgari yashagan joy, ota-onasi, qarindoshlari, do‘stlari, o‘spirin bo‘lishi mumkin bo‘lgan tanishlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar, o‘smirni tezda qidirishga yordam beradigan boshqa ma’lumotlar);**
- **o‘smirning tashqi ko‘rinishining to‘liq bo‘lmagan tavsifi (bo‘yi, maxsus belgilarning mavjudligi: chandiqlar, tug‘ilish belgilari, tatuirovka va boshqalar);**
- **mavjud kasallik haqida ma’lumotning yo‘qligi;**
- **bolalar jamoasidagi ziddiyatli vaziyatlar, jismoniy kuch qo‘llash to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yashirish.**

Voyaga yetmaganlarning uydan va davlat ta’lim muassasalaridan ruxsatsiz chiqib ketishining oldini olish chora-tadbirlarini doimiy olib borilishi bu kabi noxush holatlarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasining 2010-yil 29-sentabrdagi O‘RQ-263-sonli “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning oldini olish to‘g‘risida”gi [4] qonuniga ko‘ra, profilaktika tizimi tarkibiga voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyalar, ichki ishlar organlari va ichki ishlar bo‘limining voyaga yetmaganlar o‘rtasidagi profilaktika bo‘linmalari, voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish markazlari, ta’lim organlari va ta’lim muassasalari, ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari, vasiylik va homiylik organlari, sog‘liqni saqlash organlari, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari, madaniyat va sport muassasalari, turizm sohasidagi tashkilotlar va ommaviy axborot vositalarining ishtiroki, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ishtiroki, davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari mas’ul organlar hisoblanadi.

Profilaktika tizimi subyektlari o‘rtasidagi yaqin hamkorlik quyidagi muammolarni hal qilishda o‘ta zarurdir:

- ijtimoiy xavfli vaziyatda bo‘lgan oilalarni o‘z vaqtida ijtimoiy va reabilitatsiya yordamini ko‘rsatish maqsadida ularni erta aniqlash;
- oilada yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar to‘g‘risida o‘zaro ma’lumot berish;
- bolalar uylarini, maktab-internatlarni, ijtimoiy himoya muassasalarini tark etishning sabablari va shartlarini o‘rganish;
- oilada shafqatsiz munosabatda bo‘lgan bolaning hayoti va sog‘lig‘iga tahdidni o‘z vaqtida bartaraf etish, uni ijtimoiy reabilitatsiyaga muhtoj bo‘lgan voyaga yetmaganlar uchun ixtisoslashtirilgan muassasaga joylashtirish;
- ota-onalarni o‘z vaqtida jalb etish, bolalarga nisbatan shafqatsiz munosabatda bo‘lishga, O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan javobgarlikka tortilishini ta’minlash;
- o‘zboshimchalik bilan oilasini tark etgan voyaga yetmaganlarga, maktab-internatlar, ijtimoiy himoya muassasalariga psixofaol moddalarni iste’mol qiluvchi (narkologik davolash muassasalari imkoniyatlaridan foydalangan holda) tibbiy-ijtimoiy, psixologik-pedagogik yordamni o‘z vaqtida ko‘rsatish;
- o‘z oilasini, mehribonlik uylarini, maktab-internatlarni, ijtimoiy himoya muassasalarini ruxsatsiz tark etgan bolalarni ushbu muassasalarga yoki oilalarga qaytarish va x.z.

Bolalarning o‘zboshimchalik bilan chiqib ketishining oldini olish va barvaqt aniqlash bo‘yicha qo‘shimcha chora sifatida voyaga yetmaganlarning soat 22:00 dan 06:00 gacha jamoat joylarida bo‘lishiga cheklov belgilangan. Shuni aytish kerakki, O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 7-yanvardagi O‘RQ-139-son “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi [5] qonunida bunday cheklov belgilanmagan. Bu kabi cheklovlarni ko‘pchilik xorijiy davlatlarning qonunchilik hujjatlarida belgilanganligini ko‘rish mumkin. Masalan,

ISSN 3030-3230

“Rossiya Federatsiyasida bola huquqlarining asosiy kafolatlari to‘g‘risida”gi Federal qonunida bu vaqtda bolalarning ota-onalari yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarning hamrohligisiz bo‘lishi taqiqlangan jamoat joylari ro‘yxati keltirilgan bo‘lib, voyaga yetmaganlarning ushbu joylarda bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun javobgarlik ham nazarda tutilgan.

Bugungi kunda Rossiya Federatsiyasining 20 ta hududida “komendantlik soati” joriy qilingan. Masalan, Krasnodar o‘lkasida ota-onalari (qonuniy vakillari), qarindoshlari yoki ota-onalari (qonuniy vakillari) tomonidan vakolat berilgan shaxslar hamrohligisiz jamoat joylarida bo‘lgan voyaga yetmaganlar - 7 yoshgacha bo‘lganlar kun davomida, 7-14 yoshdagilar 21 00 dan 6 00gacha, 14-17 yoshdagilar 22 00 dan 6 00 gacha qarovsiz hisoblanadilar.

O‘zbekiston Respublikasi “Ichki ishlar vazirligining profilaktika inspektorlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi nizomiga ko‘ra, ular ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha bo‘limlari xodimlariga ota-onalarni yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarni aniqlashda yordam ko‘rsatishlari kerak. Voyaga yetmaganlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzadigan, ularga nisbatan qonunga xilof harakatlar sodir etuvchi, shuningdek, ta’lim, tibbiyot yoki boshqa muassasalarning xodimlarini tarbiyalash va o‘qitish bo‘yicha majburiyatlarni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik hamda ularga nisbatan tegishli choralar ko‘rmaslik javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Ma’muriy hududning profilaktika inspektorlari oilaviy-maishiy munosabatlar sohasida huquqbuzarlik sodir etgan, spirtli ichimliklarni iste’mol qilgan, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalarni iste’mol qilgan shaxslarni, shu jumladan voyaga yetmagan bolalari tarbiyasida bo‘lgan ota-onalarni tarbiyalash va saqlash bo‘yicha majburiyatlarini lozim darajada bajarmayotgan shaxslarni aniqlaydilar va o‘rganadilar. Profilaktika inspektori ushbu ma’lumotlarni voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha bo‘limga beradi va o‘z vakolatlari doirasida ularga bunday ota-onalarga profilaktik ta’sir ko‘rsatishda yordam ko‘rsatadi, bolalarni o‘zboshimchalik bilan uyni tark etishga yordam beradigan sabablar va shartlarni bartaraf etish bo‘yicha birgalikda choralar ko‘radilar.

Voyaga yetmaganlarning uydan va davlat ta’lim muassasalaridan o‘zboshimchalik bilan chiqib ketishiga sabab bo‘lgan shart-sharoitlarni bartaraf etish uchun voyaga yetmaganlar bilan ishlash bo‘limi xodimlari:

- oiladagi zo‘ravonlik, kattalar tomonidan bolalarni tarbiyalash, o‘qitish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha o‘z vazifalarini bajarmaslikning dastlabki bosqichida oilaga yakka tartibdagi profilaktik tashriflar buyuradilar, voyaga yetmaganlar, ularning ota-onalari, boshqa qonuniy vakillari bilan suhbatlar o‘tkazadilar;

- bolalari uydan ruxsatsiz chiqib ketgan ota-onalar bilan uchrashuvlar davomida bunday xatti-harakatlarning sabablarini aniqlaydilar, ota-onalar va bolalar o‘rtasida muloqot, o‘zaro hurmat zarurligi haqida kattalarga tushuntirish ishlari olib boradilar;

- ruxsatsiz chiqib ketish holatlarining oldini olish maqsadida voyaga yetmaganlar, ularning o‘qituvchilari va tarbiyachilari bilan individual suhbatlar o‘tkazish uchun davlat ta’lim muassasalari ma’muriyati bilan o‘zaro hamkorlik qiladilar;

- oilada nizoli vaziyatlarning oldini olish, ularni bartaraf etish maqsadida voyaga yetmaganlar, ularning ota-onalari va qonuniy vakillari bilan huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari tomonidan profilaktika tizimi vakillari birgalikda huquqiy va boshqa mavzularda uchrashuvlar va suhbatlar tashkil etadilar;

- voyaga yetmaganlar ishlari va ularning huquqlarini himoya qilish komissiyalari, aholini ijtimoiy himoya qilish organlari vakillari bilan muntazam ravishda ishchi uchrashuvlar o‘tkazib, ularda ruxsatsiz chiqib ketishning oldini olish, qarovsiz qolgan bolalarni aniqlash va joylashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar kompleksini ko‘rib chiqadilar;

- qidiruvda bo‘lgan qarovsiz, sargardonlikka moyil bo‘lgan voyaga yetmaganlarni aniqlash, ushbu toifadagi shaxslarning jamlangan joylarini aniqlash bo‘yicha maqsadli profilaktik reydlar va operatsiyalarni ishlab chiqadilar va o‘tkazishda ishtirok etadilar;

- voyaga yetmaganlarning qarovsizligi holatlarida, bolalarni tarbiyalash majburiyatlarini qasddan bajarmagan ota-onalarga yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarga nisbatan jinoiy va ma’muriy choralar ko‘radilar va ularning huquqbuzarlik sodir etishiga sabab bo‘lgan g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarini tahlil qiladilar;

- fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga va profilaktika tizimi organlariga: a) o‘smirlarni to‘garaklar, sport seksiyalari,

klublar va boshqa mashg‘ulotlarga jalb qilish bilan shug‘ullanadigan barcha turdagi va har qanday idoraviy mansublikdagi mavjud maktabdan tashqari muassasalarni saqlab qolish va yangilarini yaratish to‘g‘risida; b) bandlik masalalari bo‘yicha; v) 14 yoshga to‘lmagan o‘quvchilarni ta’lim muassasalaridan chiqarib yuborishga yo‘l qo‘yilmasligi to‘g‘risida; g) o‘quvchilarga nisbatan qo‘pollik, zo‘ravonlikka yo‘l qo‘ygan davlat ta’lim muassasalari rahbarlari va xodimlarining javobgarligi to‘g‘risida; e) voyaga yetmaganlarga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan turli xil norasmiy birlashmalar va sektalarning faoliyatini taqiqlash va tugatish to‘g‘risida takliflar kiritadilar;

- jamoat tashkilotlari, shu jumladan diniy tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlik qiladilar.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash kerakki, o‘zboshimchalik bilan oilasini, ta’lim muassasasini, maktab-internatlarni tashlab ketayotgan voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklarning oldini olish uchun aholining ijtimoiy muhofaza qilish muassasalari, jamoat tashkilotlari, mahalla, maktablar bilan profilaktika ishlarini muvaffaqiyatli olib borish, ular o‘rtasida samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, ota-onalar va ta’lim muassasasi mas’ullariga nisbatan qo‘llaniladigan huquqiy javobgarlik ta’sir choralarini takomillashtirish ko‘zlangan maqsadga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “Bolalarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunini qabul qilish bolalarni huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda ular tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarliklarning oldini olishga xizmat qiladi.

Аннотация. В статье проанализированы вопросы совершения правонарушений, связанных с самовольным уходом несовершеннолетних из дома и государственных учебных учреждений, даны предложения по совершенствованию профилактической деятельности и мер пресечения.

Ключевые слова: несовершеннолетние, самовольный уход из дома, семья, родители, ребёнок, насилие, права ребёнка, оскорбление, унижение, побои, правонарушение.

Abstract. The article analyzes cases of violations caused by unauthorized departure of minors from home and public educational institutions and the issues of improving their preventive measures.

Key words: minors, leaving home without permission, family, parent, child, child abuse, child rights, abuse, discrimination, beat-up, trespass.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Россия Федерацияси Олий суди Пленумининг 1998 йил 27 майдаги 10-сонли “Судлар томонидан болаларни тарбиялаш билан боғлиқ низоларни ҳал қилишда қонун ҳужжатларини қўллаш тўғрисида”ги қарори;

2. Рустамбаев М.Х. Комментарий к Уголовному кодексу Республики Узбекистан. Общая часть /М.Х. Рустамбаев. Т.: ИПТД “Oqituvchi”, 2004;

3. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2000 йил 15 сентябрдаги “Вояга етмаганлар томонидан содир этилган жиноятлар тўғрисидаги ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида”ги 21-сонли қарори //Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг қарорлари тўплами. 1996-2006 йиллар. Иккинчи жилд -Т.: Ўзбекистон Республикаси Олий суди, 2007. - С. 296-303.

4. Ўзбекистон Республикасининг 2010 йил 29 сентябрдаги ЎРҚ-263-сон “Вояга етмаганлар ўртасида назоратсизлик ва ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш тўғрисида”ги қонуни //Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами, 2008 й., 1-2-сон, 1-модда; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.07.2018 й., 03/18/486/1559; 2019 йил 7 декабр, 03/19/587/4122-сон; 2020 йил 11 март, 03/20/608/0278-сон;

5. Ўзбекистон Республикасининг “Бола ҳуқуқларининг кафолатлари тўғрисида”ги 2008 йил 7 январдаги ЎРҚ-139-сон Қонуни //Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг ахборотномаси, 2008, 1-сон, 1-модда.

ISSN 3030-3230

QO‘RIQLASH FAOLIYATINING HUQUQIY ASOSLARI TAHLILI

GANIYEV MAMIRJON JOMOLDINOVICH
O‘zbekiston Respublikasi
Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida Qo‘riqlash faoliyatining huquqiy asoslari, uning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari ilmiy jihatdan yoritilgan. Alohida e’tibor Qo‘riqlash faoliyatining huquqiy asoslari tadrijiy va tizimli tahlil qilinishiga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Qo‘riqlash faoliyati, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya, Qonun, Farmon, Qaror, normativ-huquqiy hujjat, jismoniy va yuridik shaxslar, xavfsiz xonadon, xodim.

O‘zbekiston Respublikasida Qo‘riqlash faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslari yillar mobaynida tizimli ravishda shakllantirilib kelingan.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 1991-yil 28-noyabrdagi 332-sonli buyrug‘iga muvofiq Ichki ishlar vazirligi Muassasadan tashqari Qo‘riqlash bosh boshqarmasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Respublika “Qo‘riqlash” birlashmasi sifatida tashkil etilib, birlashmaning yangi nizomi tasdiqlandi.

Shuningdek, 1993-yilning 1-martida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Respublika “Qo‘riqlash” birlashmasini O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Muassasadan tashqari Qo‘riqlash bosh boshqarmasi etib qayta tashkil qilish to‘g‘risida”gi 110-sonli qarori qabul qilindi[1].

Ushbu qarorga muvofiq, yuridik shaxs hisoblangan, yuridik va jismoniy shaxslarga shartnoma asosida qo‘riqlash xizmatlarini ko‘rsatishga ixtisoslashgan yagona davlat tashkiloti – Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Respublika “Qo‘riqlash” birlashmasini Ichki ishlar vazirligi Muassasadan tashqari Qo‘riqlash bosh boshqarmasi etib qayta tashkil etildi.

2017-yilga qadar Respublika “Qo‘riqlash” birlashmasi faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 1991-yil 28-noyabrdagi 332-sonli buyrug‘iga muvofiq tashkil etilib, jismoniy va yuridik shaxslarga shartnoma asosida qo‘riqlash xizmatlarini ko‘rsatib keldi.

Qo‘riqlash faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solish yuzasidan aniq chora-tadbirlar 2017-yildan amalga oshirila boshlandi.

Xususan, mamlakatimizda mol-mulkni jinoiy tajovuzlardan himoyalash, o‘g‘rilik jinoyatlarini profilaktika qilish ishlari samaradorligini oshirish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev quyidagi fikrlari katta ahamiyatga ega: “keyingi paytlarda aholimiz tomonidan qiyinchilik va mashaqqatli mehnat natijasida ishlab topilgan mol-mulkka jinoiy tajovuzlar qilish kabi salbiy holatlarga to‘liq chek qo‘yilmagani fuqarolarimizning haqli e’tirozlariga sabab bo‘lmoqda. Bugungi kunda inson manfaatlari bilan bog‘liq masalalarni kechiktirmasdan hal qilish zarur”.[2]

2016-2017 yillarda mamlakatda huquq-tartibot organlari faoliyatini isloh qilish borasida boshlangan harakatlar zamirida jinoyatchilikni oldini olish va jinoyatlarni profilaktika qilish siyosati muhim ahamiyat kasb etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tashabbusi bilan boshlangan huquq-tartibot organlari faoliyatini isloh qilish siyosatining asosiy shartlaridan biri – ularning huquqiy asoslarini yaratish va takomillashtirish edi. Shu maqsadda, 2016-yilning 16-sentabrida O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonuni[3] muhtaram Prezidentimiz tomonidan imzolanib, 2017-yilning 16-martidan qonuniy kuchga kirdi.

“Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonunning 4-moddasiga muvofiq davlat obyektlari, o‘ta muhim, toifalangan va boshqa obyektlarni, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini qo‘riqlash Ichki ishlar vazirligi tasarrufidagi Qo‘riqlash bo‘linmalarining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-apreldagi “Ichki ishlar organlarining

faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi **PF-5005 son Farmoniga muvofiq Qo'riqlash xizmatida tub islohotlarni amalga oshirish ko'zda tutildi**[4].

Islohotlar quyidagilarni nazarda tutishi belgilangan edi:

- **Qo'riqlash xizmatidan foydalanish imkoniyatini kengaytirish maqsadida obyektlarni qo'riqlash va boshqa xizmatlar uchun amaldagi to'lovlar miqdorini kamaytirish;**
- **xodimlar va bo'linmalar ishini baholash normativlari va mezonlarini belgilash;**
- **idoraviy qo'riqlash bo'linmalari ustidan nazorat qilish tartibini belgilash.**

Shulardan kelib chiqib, yuqorida qayd etilgan Qonun va Farmon talablari asosida va ularda belgilangan tadbirlar, talablar va me'yorlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 23 iyundagi "Ichki ishlar organlari Qo'riqlash xizmati faoliyatini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori e'lon qilindi. [5]

Qarorda Ichki ishlar organlarining Qo'riqlash tizimlarini boshqarishga ixtisoslashgan Qo'riqlash bosh boshqarmasi faoliyatining huquqiy holati belgilab berildi va O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Qo'riqlash bosh boshqarmasining nizomi e'lon qilindi.

Ichki ishlar organlari qo'riqlash xizmatining nizomida:

- **qo'riqlash xizmatining xorijiy mamlakatlar amaliyoti va amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq qo'riqlash xizmatini tashkil etish;**
- **qo'riqlash xizmatining asosiy vazifalari, majburiyatlari va huquqlari;**
- **shaxslararo nizo ishlab chiqarishda keng tarqalgan nizo turi. Uning mohiyati (moddiy, moliyaviy, mehnat) taqsimlashda rahbariyat oldida bo‘linmaning manfaatlarini himoya qilishdan iborat. Bunday nizo vertikal nizo deb ham ataladi. Shaxslararo nizo turli sabablar – nuqtai nazarlarning bir-biriga to‘g‘ri kelmasligi, xarakterlarning har xilligi va hokazolar tufayli shaxslar o‘rtasidagi to‘qnashuvlarda namoyon bo‘ladi;**
- **guruh va shaxs o‘rtasida nizo guruh xulq-atvor me’yorlari, qadriyatlari guruh a’zolar ularni qabul qilmagan holatda bu a’zolarning o‘z qadriyatlari va xulq-atvor me’yorlari bilan farq qilganda vujudga keladi;**
- **guruhlararo nizo tashkilotning ikkita tarkibiy bo‘limi yoki bo‘linma ichidagi norasmiy guruhlar o‘rtasida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan nizodir.**

Tashkiliy nizo bu - xodimlar, tashkilot jamoalari o‘rtasida ularning birgalikdagi mehnat faoliyati jarayonida manfaatlar qarama-qarshiligi, kelishuvning yo‘qligi, hattoki biron-bir ishbilarmonlik masalasini hal etish jarayonida qarama-qarshiliklar tufayli vujudga keladi. [5]

Nizolar ko‘p tomonlama, dinamik, rivojlanayotgan jarayonni ifodalaydi. Nizolar rivojlanishining uchta asosiy bosqichini ajratib ko‘rsatish mumkin: nizodan oldingi vaziyat nizoning o‘zi nizoning hal etilishi.

Nizolarni vujudga keltiruvchi sabablar ayrim bo‘linmalar va xodimlarning maqsad va vazifalari muvofiqlashtirilmaganligi va bir-biriga qarama-qarshiligi rahbariyatning Funksional xizmat bilan, masalan, mehnat intizomining buzilishi sababli to‘qnashuvi); huquq va majburiyatlarning aniq cheklanmaganligi; resurslarning cheklanganligi (resurslarni taqsimlash jarayoni uchun nizolarning vujudga kelishi xarakterli); ijrochining professional tayyorgarlik darajasi pastligi;

“Arzanda”larga asoslanmagan (ayniqsa, ommaviy) tanbeh berish yoki ularni maqtash; xulq-atvor va hayotiy tajribadagi farqlar; o‘sish istiqbollarining noaniqligi; ish sharoitlarining yomonligi (bino harorati, noto‘g‘ri joylashtirish va h.k.); menejer tomonidan e’tiborning yetarli emasligi (qo‘l ostidagi xodimlarning muhtojliklariga e’tiborsizlik, ayrim xodimlarga

nisbatan yaxshilikni ravo ko‘rmaslik, tanqidni qabul qilmaslik va b.); boshqa muvaffaqiyatga erishgan shaxslarga hasad, ishni adolatsiz baholashdan xafa bo‘lish (psixologik fenomen).

Nizo oqibatlari:

Funksional oqibatlar tashkilot, mehnat jamoasi, xodim uchun foydali, ijobiy

Nizoni hal qilishda har ikkala tomon uchun ma’qul qaror qabul qilinishida namoyon bo‘ladi. Qarama – qarshi tomonlar nizo yechimiga teng manfaat nuqtai nazaridan yondashilganda mamnun qoladigan. Bunday oqibat o‘z navbatida nizo yechimi bo‘yicha qabul qilinadigan qaror to‘siqlarini, ya’ni qarama – qarshi tomonlarning bir – biriga bo‘lgan:

adovatni;xusumatni;dushmanlikni;

adolatsiz kabi g‘arazli to‘siqlarni yumshatishga yoki butunlay yo‘qotishga imkon beradi.

Funksional oqibatning boshqa ko‘rinishida qarama – qarshi tomonlarning ko‘proq hamkorlik qilishga, hattoki kelgusida ham o‘rtada nizo chiqmaslikka bo‘lgan moyilliklari namoyon bo‘ladi. [6]

Agar nizolarni boshqarishning samarali yo‘llari topilmasa, u holda maqsadga erishishga halaqit beruvchi quyidagi ko‘rinishdagi disfunksional oqibatlar yuzaga kelishi mumkin ya’ni:

qoniqmaganlik, mamnun bo‘lmaslik, norozilik; yomon ruhiy holat; qo‘nimsizlikning oshishi; mehnat unumdorligining pasayishi; kelajakda hamkorlikning susayishi; o‘zining guruhiga ko‘proq sadoqat va boshqa guruhlar bilan raqobatni susaytirish; qarshi tomonni faqat “dushman” deb gumonsirash, o‘zining maqsadini ijobiy, qarshi tomonning maqsadini esa faqat “salbiy” deb o‘ylash; hamkorlikka chek qo‘yish va qarama – qarshi tomonlar bilan nizoga chiqish; o‘zaro munosabat va hamkorlikni susaytirib, adovatni, xusumatni kuchaytirish; urg‘uni o‘zgartirish: diqqat e’tiborni ko‘proq real muammoni yechishga emas, balki nizo jarayonida “g‘olib” chiqishga qaratish.

Nizolarni boshqarish

Eng ideal holatda menejer nizolarni hal qilibgina (bartaraf etib) qolmasdan, ularni boshqara olishi ham lozim deb hisoblanadi.

Nizolarni boshqarish nizoli vaziyatni o‘zgartirish, zarurat tug‘ilganda esa umuman bartaraf qilishdan iborat. Nizoni hal etishning hal qiluvchi belgisi to‘qnashuvni, ya’ni nizo predmeti, maqsadi, obyektini bekor qilishdir.

Nizoli vaziyatlarni boshqarishning bir qator samarali usullari mavjud. Ularni quyidagi yirik guruhga bo‘lish mumkin.

Tarkibiy – tashkiliy usullarga quyidagilar kiradi.

Ishga bo‘lgan talabni tushuntirish usuli. Bu usul disfunksional usulga mutlaqo zid bo‘lib, bunda har bir xodim va bo‘limlardan qanday natija kutilishi tushuntiriladi.

Muvofiqlashtirish va integratsiyalash usuli. Bu usul og‘zaki buyruq zanjiri deb yuritiladi.

Tarkibiy-tashkiliy usullar

Ishga bo‘lgan talabni tushuntirish

Muvofiqlashtirish va integratsiyalash

Umumtashkiliy kompleks maqsadlar

Mukofotlashning tarkibiy tizimini takomillashtirish

Strategik usullar

Uzoqlashish

Silliqlashish

Majburlash

Kelishuv

Muammoni hal etish

Nizoli vaziyatlarning oldini olish yoki ziddiyatni yumshatishning beshta strategik usuli ma’lum.

Uzoqlashish - komil inson janjaldan uzoqlashishga harakat qiladi. Kelishmovchilik avjiga chiqqanda u muhokamaga qatnashmaydi. Bunday usul nizoli vaziyatning yechilishiga manfaatdor bo‘lmagan va o‘zaro munosabatlarning zohiriy yaxshiligicha qolishini istashgan hollarda tomonlar tarafidan qo‘llaniladi. Bunday holatli zaruriyat hali yetilmagan yoki ziddiyatga chiquvchilarning lavozim darajalari yaqin bo‘lgan hollarda kuzatiladi.

Silliqlanish - bu usul kishilarni yaxshilikka undash yo‘li bilan nizoni bartaraf qilishga qaratilgan. Ziddiyatli vaziyatda qarama-qarshi tomonlar bir-biri bilan hushmuomalali bo‘lishga, arzimagan narsaga achchiqlanish, umuman bir vaqtning o‘zida birga suzayotgan qayiqni “qaltis tebratish” yaramasligiga chaqirishadi.

Majburlash - bu tomonlardan birining xohish-irodasini, so‘zini majburan, zo‘rlab qabul qildirish. So‘zini o‘tkazmoqchi bo‘lgan tomon qarshi tomonning fikri bilan hisoblashmaydi, uni inkor etadi. Bunday strategiyani qo‘llaydigan tomon tajovuzkorlik bilan o‘z xohishini qarshi tomonga majburlab o‘tkazadi. Bu usulni ko‘proq rahbarlar qo‘l ostida ishlaydiganlarga nisbatan qo‘llashadi. [4]

Kelishuv - nizoli holatdan muvaffaqiyatli chiqishning eng muhim sharti - bu murosaga kela olish. Kelishuv bilan nizolarni hal etish, bu yuqori baholanuvchi strategik usul bo‘lib, bunda

ISSN 3030-3230

ikkala tomonni qanoatlantiruvchi yechimga kelinadi.


Muammoni hal qilish - bu usul barcha tomonlarni qanoatlantiruvchi yechimni topish uchun nizoni chaqiruvchi sabablarni chuqur tahlil qilish va barchaning fikrlarini inobatga olishga asoslanadi. Bu usul tarafdorlari o‘z maqsadiga boshqalar maqsadi orqali emas, balki nizoning eng oqilona yechimini topish evaziga erishishni xushlaydilar.

Tadqiqotimizda Aloqa harbiy institutining 67 nafar sanaluvchilari ishtirok etdi. Ularning 1 nafardan 26, 25, 24 yoshlar, 3 nafari 23 yosh, 7 nafari 22 yosh,


45 nafari 21 yosh, 9 nafari 20 yoshni tashkil etadi.(1-rasmga qarang)

Tadqiqotimizda ishtirok etgan sinaluvchilarning 10 nafari Farg‘ona, 2 nafari Andijon, 4 nafari Namangan, 18 nafari Samarqand, 3 nafari Surxondaryo, 1 nafardan Sirdaryo va Navoiy viloyatlari, 2 nafari Toshkent viloyati, 7 nafari Jizzax, 5 nafardan Qoraqalpog‘iston, Buxoro, Qashqadaryo viloyatlarini tashkil etadi.(2-rasmga qarang)

Tadqiqotimiz natijalar tahlilida biz sinaluvchilarning nizolashuvchanlik, haddan tashqari zo‘riqish, faoliyat doirasida zo‘riqish va komandirlar bilan bog‘liq munosabatlarda zo‘riqish o‘rtacha qiymatlari bo‘yicha guruhiy tahlil qilamiz. Nizolashuvchanlik shkalasining normasi 6 yoki 10, hisoblanadi. Guruhdagi



1-rasm. Sinaluvchilarning Yoshi haqida ma’lumot



2-rasm. Sinaluvchilarning yashash joyi ko‘rsatkichlari

sinaluvchilarning vaziyatli xavotirlanish shkalasi o‘rtacha ko‘rsatkichi esa

7 hisoblanadi. Bundan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, ushbu guruhda nizolashuvchanlik quyi darajasi mavjudligini kuzatishimiz mumkin. Keyingi shkala haddan tashqari zo‘riqish shkalasi bo‘yicha norma 6 yoki 10, hisoblanadi. Demak, hulosa qilishimiz mumkinki, ushbu guruhdagi haddan tashqari zo‘riqish bo‘yicha ko‘rsatkichlarining o‘rtacha ko‘rsatkichi 8 ga teng bu ko‘rsatkich norma hisoblanadi va guruhdagi nizolashuvchanlik ko‘rsatkichlari normada ekanligini kuzatishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Natijalar tahliliga ko‘ra 95% ishonchlilik darajasi aniqlandi. Bunda normal taqsimlanishga moslik kuzatildi. Tadqiqotimizda ishtirok etgan sinaluvchilardan maksimal 3 nafar sanaluvchi 23 yoshni tashkil etdi. Viloyat kesimida esa 10 nafar sanaluvchi Farg‘ona viloyatidan ekanligi aniqlandi. Natijalar tahliliga o‘rtacha qiymati nizolashuvchanlik 5% ni, haddan tashqari bo‘yicha esa

6% ni ko‘rsatdi. Demak bu kursantlarda nizolashish darajasi quyi darajani tashkil etmoqda. Agar 10 va 12 oralig‘ida bo‘lganda o‘rtacha darajani, 12 dan yuqori bo‘lsa yuqori darajani ko‘rsatadi. Kursantlarda xavotirlanish darajasi quyi darajada chiqishiga sabab, kundalik jangovar va ma’naviy-ma’rifiy tayyorgarlik mashg‘ulotlari ekstremal vaziyatlarga yaqinlashtirilgan holda o‘tkazilayotganligi uchun harbiy xizmatchilarda nizo va ziddiyat darajasidan past ekanligi isbotlandi.

Аннотация. В статье представлен метод и анализ определения наличия боевого братства и духовной солидарности по обеспечению групповой сплоченности, межгрупповых отношений, социально-психологической обстановки в группе, организованности и социальной активности при своевременном и успешном выполнении различных сложных задач в учебно-служебной деятельности среди курсантов высших военных учреждений. Достоверность данных исследования подтверждается методиками и аналогами анкет мировой психологии, практическими и теоретическими результатами проведённых экспериментов.

Ключевые слова: групповая закрытость, межгрупповые отношения, психологическая среда, групповые конфликты, уровень организованности, социальная активность, экстремальные ситуации, психическая выносливость, межличностное общение, самосознание.

Annotation: This scientific article is about the method of determining mutual military brotherhood and spiritual solidarity in ensuring group cohesion, intergroup relations, social psychological environment in the group, organization and social activity in the timely and successful performance of various extreme tasks in the training and service activities of the cadet military teams of the Higher Military Educational Institution and its empirical analysis. Thoughts and opinions are scientifically stated. The reliability of the data collected in the research process is, first of all, the appropriate selection of the subjects who participated in the research, the scientific basis of the obtained practical results, the fact that the methodology and questionnaires that have been conducted many times from world psychology experiments are used, the obtained practical results are justified from a theoretical point of view, the practical results are based on the mathematical and statistical reliability of the quantitative indicators. It is explained by the fact that it was analyzed by using the methods.

ISSN 3030-3230

Key words: group closeness, intergroup relations, psychological environment, group conflicts, level of organization, social activity, extreme situations, mental endurance, interpersonal communication, self-awareness.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondonining 2022-yil 8-sentabrdagi “Harbiy xizmachilarni axloqiy-ruhiy tayyorgarligi va jangovar ruhini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi” PQ371-son Qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qurolli Kuchlari Oliy Bosh Qo‘mondoni Sh.M.Mirziyoyevning O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga // murojaatnomasi. 2020. – 17 s

3. Shermatov F.T., Bo‘lajak ofitserlarda kasbiy zo‘riqishlar namoyon bo‘lishining ijtimoiy-psixologik va o‘ziga xos jihatlari: nazariya va amaliyot // Monografiya. 2021. 59-73 bet.

4. Shermatov F.T., Beknazarov A.A. Jangovar stress va uning psixologik oqibatlari. // O’quv qo‘llanma. 2021. 48-51 bet.

5. Shermatov F.T., Socio-psychological problems concerning formation of stress resistance in future officers //European Journal of Reflection in Educational Sciyences. VoIume 7 Number 12, 2019 Progressive Academic Publishing, UK. – B. 163-167.

6. Shermatov F.T., The New Method and Mechanism for Determining Professional Stresses in the Service of Military Workers International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. ISSN 2364-5369 Volume 8 Issue 9 September 2021 P. 243-246.

O‘ZBEKISTONDA SUV MUNOSABATLARI SOHASIDA XAVFSIZLIKNI TA’MINLASHNING HUQUQIY MUAMMOLARI

Usmonov Muhammadi Bahritdinovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti professori, yuridik fanlar doktori

Annotatsiya. Maqolada milliy xavfsizlikka tahdid solayotgan eng xavf-xatarlardan biri hisoblangan suv tanqisligi bilan bog‘liq muammolar va ularni hal etishning huquqiy masalalari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: milliy xavfsizlik, suv, suv tanqisligi, iqlim o‘zgarishi, suv qonunchiligi, Suv kodeksi, suv resurslari, suv zaxiralari.

Kishilik jamiyati taraqqiyotining bugungi bosqichida milliy xavfsizlikka tahdid solayotgan eng xavf-xatarlardan biri iqlim o‘zgarishi va suv tanqisligi bilan bog‘liq ekologik xavfsizlik muammosi hisoblanadi. Suv muammosining dolzarbligi xususida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev BMT Bosh assambleyasining 78-sessiyasida haqli ta’kidlaganidek, “...keyingi 30 yilda planetamizda havo harorati 1,5 gradusga ko‘tarildi. Oqibatda muzliklar umumiy maydonining qariyb uchdan bir qismi yo‘qolib ketdi. Ushbu tendensiya saqlanib qolsa, yaqin 20 yilda mintaqamizdagi ikkita yirik daryo – Amudaryo va Sirdaryo oqimi 15 foizga qisqarishi mumkin. Jon boshiga suv bilan ta’minlanish darajasi 25 foizga, qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligi esa 40 foizga kamayishi kutilmoqda. Agar o‘z vaqtida ta’sirchan choralarni ko‘rmasak, ushbu muammolar oqibatlari mintaqamizdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka jiddiy putur yetkazadi” [1]. Bundan tashqari, Afg‘onistonda qurilayotgan Qo‘shtepa kanali hisobidan kelgusi 20-30 yil ichida Amudaryoning O‘zbekistonga oqib o‘tuvchi qismidagi suv hajmi keskin kamayib, suv iste’moli yiliga 30 km kubgacha pasayadi.

BMTning ma’lumotiga ko‘ra, so‘ngi 20 yil ichida sayyoramizda aholi jon boshiga chuchuk suv zaxiralari 20 foizdan ortiq qisqargan. Dunyo aholisining uchdan bir qismi, ya’ni 2,3 milliard kishi suv yetishmasligi kuzatilayotgan mamlakatlarda yashamoqda. Hozirda planetamizning uchdan bir qismida yashayotgan aholiga toza ichimlik suvi yetishmaydi. Masalan, 4 mln kishi yashaydigan Gonkong suvni quvur orqali Xitoydan oladi. Yoki Jazoir davlati ham chetdan olib kelingan suv hisobiga yashaydi. BMTning FAO tashkiloti bashoratiga ko‘ra, XXI asrning uchinchi o‘n yilligi o‘rtalariga kelib suv tanqisligi sharoitida yashaydiganlar soni 4 mlyard. kishidan oshadi. Bu holat mislsiz inqiroz va ijtimoiy halokatlarga sabab bo‘lishi tabiiydir.

Markaziy Osiyoda bu resurs tobora kamayib, mintaqada iqtisodiy muammolarni borgan sari chuqurlashtirmoqda. XX asr boshida 8 mln. kishini tashkil etgan Markaziy Osiyo aholisi bugungi kunda 75 mln. dan oshdi, 2030-yilga borib esa 80 mln. ga yetishi taxmin qilinmoqda. Kelgusi o‘n yillikda iqlim o‘zgarishi va qo‘shni davlatlarda suv iste’molining oshishi O‘zbekistonning Amudaryo va Sirdaryodan suv olishini kamayishiga olib keladi va buning oqibatida qurg‘oqchilik va cho‘llanish jarayoni yanada kuchayib, aholining turmush darajasiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi.

Suv taqchilligining oldini olishning yo‘llaridan biri, bu suvni tejovchi texnologiyalarni keng qo‘llash hisoblanadi. Mamlakatimizda chuchuk suvlarning 90 foizi qishloq xo‘jaligida ishlatilmoqda. Bu ilg‘or davlatlarga nisbatan 2,5 barobar ko‘pdir. Shu bois qishloq xo‘jaligida tomchilatib, turli innovatsion usullarda sug‘orishga o‘tish juda muhim ahamiyatga ega. Hozirda mamlakatimizda 4,3 mln. gektar sug‘oriladigan yerning 500 ming gektarda tomchilatib sug‘orish texnologiyalari joriy qilingan. 2026 yilga borib suv tejovchi texnologiyalar maydonini 2 mln. gektarga yetkazish rejalashtirilgan.

Suvdan foydalanishdagi isrofgarchilikning yana bir sababi kanallarning foydali ish koeffitsentining pastligi va ichki tarmoqlarda suvning ko‘p yo‘qotilishidir. Buning oqibatida qishloq xo‘jaligida har yili 4 mlrd. 800 mln. dollor kam daromad olinyapti. Shu sababdan, suvni tejashning yo‘llaridan biri kanallarni

ISSN 3030-3230

betonlashtirish hisoblanadi. Shu maqsadda davlat budjetidan mlrdlab so‘m pul mablag‘lari ajratilmoqda.

Suv isrofgarchiligidagi yana bir muhim muammo sel suvlaridan foydalanishdagi kamchiliklardir. Mamlakatimizda yiliga 1 mlrd. kub metr sel suvlari behuda oqib ketmoqda. Shu sababdan, mamlakatimizda sel suvlarini kichik havzalarda jamg‘arish masalasi bo‘yicha chora-tadbirlar belgilanmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston-2030” strategiyasida “Suv resurslarini tejash va atrof muhitni muhofaza qilish” masalasi mamlakat taraqqiyotining 5 ta ustuvor yo‘nalishi orasida alohida mustaqil, 3-ustuvor yo‘nalish sifatida ajratib ko‘rsatildi. Ushbu ustuvor yo‘nalishda suv resurslarini tejash bo‘yicha islohotlarning 4 ta mustaqil hamda ularga erishish bo‘yicha 18 ta maqsadli ko‘rsatkichlar [2] belgilab berildi.

“O‘zbekiston-2030” strategiyasiga ko‘ra, suv ishlatish samaradorligini 25 foizga oshirish, qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘orishda suv tejaydigan texnologiyalar bilan qamrab olingan yerlarning umumiy maydonini 2 mln gektargacha, shu jumladan tomchilab sug‘orish texnologiyasini 600 ming gektargacha yetkazish, tuproq qoplamali kanallarni beton qoplamaga hamda ichki sug‘orish tarmoqlarining yopiq quvurli sug‘orish tizimlariga o‘tkazish bo‘yicha yetti yillik dastur doirasida irrigatsiya tizimi va sug‘orish tarmoqlarining foydali ish koeffitsiyenti ko‘rsatkichini 0,73 gacha yetkazish, suvni qayta ishlash, yetkazish va taqsimlash tizimiga xususiy sektorni jalb etish, dalalarga suv yetkazadigan obyektlarni tadbirkorlar (fermer xo‘jaliklari va klasterlar) boshqaruviga berish, qo‘shni davlatlar bilan suv resurslarini integrallashgan holda boshqarish, transchegaraviy suv resurslari va davlatlararo suv xo‘jaligi obyektlaridan birgalikda foydalanish masalalarida faol ikki taraflama manfaatli hamkorlikni davom ettirish, barcha ichimlik suv iste’molchilariga hisoblagichlar o‘rnatishni ta’minlash, 18,7 ming km yoki 66 foizi tuproq o‘zanli bo‘lgan magistral va xo‘jaliklararo kanallarning beton qoplamali ulushini 13,1 ming kmga yoki 46 foizga yetkazish, kamida 100 ta yirik suv xo‘jaligi obyektlarida avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini joriy qilish [3] vazifalari belgilab berildi.

Mamlakatimizda suv resurslarini muhofaza qilishga alohida e’tibor qaratilib, davlatimiz rahbarining bir nechta farmon va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan Konsepsiyasini qabul qilish va hayotga tatbiq etish, bu boradagi ishlar yuzasidan keng ko‘lamli tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Asosiy urg‘u suv xo‘jaligini modernizatsiya qilish va rivojlantirish, yirik suv xo‘jaligi obyektlarini raqamli texnologiyalar asosida boshqarishni avtomatlashtirish, elektr energiya va boshqa resurslarni tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, suv omborlari va boshqa suv resurslarining xavfsizligi va ishonchli ishlashini ta’minlash, suv resurslaridan foydalanish va ulardan foydalanishni hisobga olishda “Smart Water” (“Aqlli suv”) va shunga o‘xshash raqamli texnologiyalarni joriy etish; sug‘oriladigan yerlar meliorativ holatini yaxshilash va barqarorligini ta’minlash, suv resurslarini boshqarishda davlat-xususiy sheriklik va autsorsingni joriy etish, fermer xo‘jaliklari, klasterlar va boshqa tashkilotlar foydalanishi uchun yakka tartibdagi suv xo‘jaligi obyektlarini ta’minlash, aholini kafolatli suv bilan ta’minlash, xo‘jalik yurituvchi subyektlarni suv bilan barqaror ta’minlash, suv sifatini yaxshilash va ekologik muvozanatni saqlash; transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish bo‘yicha davlatlar o‘rtasidagi aloqalarni yaxshilash, suv resurslarini muhofaza qilishda jamoatchilik ishtiroki, ularning huquqiy mexanizmini yanada takomillashtirish, suv resurslaridan foydalanishda ularga zararli ta’sirni oldini olish tizimini yanada rivojlantirishga [4] alohida e’tibor berilgan.

Hozirgi vaqtda suv resurslarini boshqarish, undan foydalanish va muhofaza qilish sohasidagi ijtimoiy munosabatlar 10 taga yaqin qonun hujjatlari, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi [5], “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi [6], “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi [7] qonunlari, shuningdek 20 tadan ortiq qonunosti hujjatlar bilan tartibga solinadi. Ushbu hujjatlar suv munosabatlarini huquqiy tartibga solishga asos solgan bo‘lsa-da, bu sohadagi munosabatlarni izchil va tizimli tartibga solishni ta’minlaydigan suv qonunchiligining yagona muvofiqlashtirilgan tizimini shakllantirishni yetarli darajada ta’minlay olmadi.

Mazkur qonun hujjatlarining mazmun-mohiyati mamlakatimizda olib borilayotgan izchil islohotlar, ro‘y bergan tub o‘zgarishlar, yangi rivojlanish strategiyasini shakllantirish va shunga mos ravishda suv munosabatlarining

ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini o‘zgartirish munosabati bilan qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuniga ko‘plab kiritilgan o‘zgartirishlar qonunlar va qonunosti hujjatlari normalarining takrorlanishini va huquqiy tartibga solishdagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etmadi.

Shuningdek, yuqorida qayd etilgan Qonunda juda ko‘plab havola normalari mavjud bo‘lib, ularning aksariyati to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilmaydi, asosiy tushunchalardan foydalanishda chalkashliklar va noaniqliklar mavjud, suv resurslarini boshqarish sohasidagi organlarning vakolatlari, shuningdek, tegishli vazirliklar va mahalliy davlat hokimiyati organlari o‘rtasidagi javobgarlik aniq belgilanmagan. Suv kodeksining qabul qilinishi suv sohasida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining bir-birini takrorlovchi vakolatlari bilan bog‘liq bir qator hal qilinmagan masalalarni bartaraf etishda, suvdan oqilona foydalanishda suv yetkazib beruvchilar va suvdan foydalanuvchilarning mas’uliyatini oshirishda, shuningdek, suvdan foydalanish uchun ruxsatnoma olish tartibini soddalashtirishda ijobiy rol o‘ynaydi.

Xalqaro suv huquqi normalarini milliy suv qonunchiligiga, shu jumladan suvdan adolatli va oqilona foydalanish, suv resurslarini boshqarishda ekotizimni hisobga olish, inson va ekotizimning hayotiy ehtiyojlari ustuvorligini ta’minlash kabi qoidalarni joriy etilishi O‘zbekistonning xalqaro maydondagi ijobiy imidjini yaxshilashga yordam beradi. Suv kodeksining qabul qilinishi aholi farovonligi va iqtisodiy taraqqiyotning asosi sifatida suv resurslaridan oqilona foydalanish, samarali boshqarish va muhofaza qilishni ta’minlaydigan huquqiy shart-sharoitlarni yaratadi.

Shuningdek, Suv kodeksining qabul qilinishi suv munosabatlari sohasida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining vakolatlarini aniq belgilash, davlat tomonidan tartibga solishning ma’muriy usullaridan foydalanishdan bozor iqtisodiyoti tamoyillariga yo‘naltirilgan usul va mexanizmlarga o‘tish, suv resurslaridan foydalanish, suvni muhofaza qilish, suv resurslarini aholi va iqtisodiyot tarmoqlari hamda atrof-muhit o‘rtasida taqsimlashni to‘liq qamrab olgan holda suv resurslarini integrallashgan boshqarishni joriy etish, milliy kadastr ma’lumotlar bazasi bilan bog‘langan suv resurslarini hisobga olish, rejalashtirish va boshqarishning yaxlit milliy tizimini yaratish, ma’lumotlarning ochiqligi va ulardan foydalana olishni ta’minlash, qishloq xo‘jaligi ehtiyojlarini qondiradigan hamda suvdan samarali va oqilona foydalanish tamoyillariga javob beradigan sug‘orish uchun suv olish limitlarining yangi tizimini joriy etish, suvni tejashni rag‘batlantirish, suv xo‘jaligiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya va innovatsion texnologiyalarini joriy etish, barcha yer usti, yer osti va qaytariladigan suvlarni integratsiyalashgan holda boshqarish tamoyillarini keng joriy etish, suv xo‘jaligida davlat-xususiy sheriklik va autsorsingni joriy etish ishlarini yanada jadallashtirishga xizmat qiladi.

Hozirgi globallashuv jarayonida tabiat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning o‘zaro mutanosib uyg‘un rivojlanishini tegishlicha huquqiy, iqtisodiy va tarbiyaviy mexanizmlar ta’sirisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu o‘z navbatida mamlakatimizda suv boyliklarini muhofaza qilish, suv munosabatlari sohasida ekologik xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha davlat organlari, xususan Milliy gvardiya organlarining funksiyasini takomillashtirish, har bir insondan suv resurslariga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish va undan oqilona foydalanish ko‘nikmasini shakllantirishni taqozo etadi.

O‘zbekistonda suv munosabatlari sohasida xavfsizlikni ta’minlashning ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy muammolari bugungi kunda umumiy huquq nazariyasi va ayrim huquq tarmoqlari doirasida qisman o‘rganilgan bo‘lsa-da, aynan suv huquqi nuqtai-nazaridan bugungi kunga qadar yetarli darajada o‘rganilmagan. Shuning uchun suv munosabatlari sohasida xavfsizlikni ta’minlashning nazariy muammolarini ilmiy tadqiq etish suv huquqi fani oldida turgan asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, suv munosabatlari sohasida xavfsizlikni ta’minlashning hozirgi holati bugungi kun talabi darajasida emasligi, xususan suv qonunchiligidagi bo‘shliqlar, ushbu soha qonun hujjatlarining tarqoqligi, normativ-huquqiy hujjatlar o‘rtasidagi nomuvofiqliklar va amaliyotda qo‘llanilishi darajasining o‘ta past darajada ekanligi ham ushbu muammoni dolzarbligidan dalolat beradi.

Suv munosabatlari sohasida xavfsizlikni ta’minlash usuli va vositasi sifatida suv huquqbuzarliklariga qarshi kurashni kuchaytirish,

ISSN 3030-3230

suv munosabatlari sohasida xavfsizlikni ta’minlash funksiyasi yuklatilgan davlat organlari, xususan Milliy gvardiya organlarining faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy normalarni takomillashtirish zaruriyati ushbu muammoning ilmiy-amaliy jihatdan kompleks o‘rganishni taqozo etadi.

Demak, suv munosabatlari sohasida xavfsizlikni ta’minlashning huquqiy muammolari, Milliy gvardiya organlarining ekologik funksiyasini takomillashtirish muammolarini o‘rganish ilmiy nazariy jihatdan ham, qonunchilikni takomillashtirish nuqtai nazaridan ham, amaliyotdagi kamchiliklarni hal etishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu muammoni tadqiq etish suv huquqi fani nazariyasini boyitishga, suv qonunchiligidagi bo‘shliqlarni to‘ldirishga, Milliy gvardiya organlarining ekologik funksiyasini takomillashtirish, amaliyotda suv munosabatlari sohasida huquq-tartibotni ta’minlashga xizmat qiladi.

Аннотация. В статье рассматриваются аспекты нехватки вод, что отрицательно влияет на обеспечение общественной безопасности, а также даны предложения по совершенствованию деятельности в этом вопросе.

Ключевые слова: национальная безопасность, вода, нехватка воды, изменение климата, водное законодательство, Водный кодекс, водные ресурсы, водные запасы.

Annotation: The article analyzes the problems associated with water shortages, which are considered one of the most dangerous threats to national security, and the legal issues of their solution.
Keywords: national security, water, water scarcity, climate change, water law, Water Code, water resources, water reserves.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг БМТ Бош ассамблеясининг 78-сессиясидаги нутқи;
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «2030 йилгача бўлган даврда Ўзбекистон Республикасининг Атроф муҳитни муҳофаза қилиш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида»ги 2019 йил 30 октябрдаги ПФ–5863-сон Фармони //Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 31.10.2019 й., 06/19/5863/3979-сон;
3. Ўша жойда;
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикаси сув хўжалигини ривожлантиришнинг 2020–2030 йилларга мўлжалланган концепциясини тасдиқлаш тўғрисида» 2020 йил 10 июлдаги ПФ–6024-сон Фармони //Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 11.07.2020 й., 06/20/6024/1063-сон;
5. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси //Қонунчилик маълумотлар миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон;
6. Ўзбекистон Республикасининг “Сув ва сувдан фойдаланиш тўғрисида”ги қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ахборотномаси, 1993, 5-сон, 221-модда.

BIZNES SOHASIDAGI SHARTNOMALARNI TIZIMLASHTIRISH HAQIDA BA'ZI ILMIY-NAZARIY MULOHAZALAR

Ruziyev Rustam Djabbarovich.
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti professori, yuridik fanlar doktori

Annotatsiya. Maqolada biznes sohasidagi maqsadiy yo'nalishi foyda olishga qaratilgan shartnomalarni tizimlashtirishning ilmiy-nazariy masalalari va ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar. Tizim va tizimlashtirish, fuqarolik huquqiy shartnoma, tadbirkorlik (xo'jalik) shartnomasi, shartnomaviy huquqiy tizim, shartnomaviy majburiyat, fuqaroviy va xo'jalik huquqiy shartnomalar tasnifi.

Barcha fan sohalari o'z taraqqiyotining ma'lum bir bosqichida to'plangan bilimlarni tizimlashtirishga zarurat sezadi. "Bilimlarni tizimlashtirish, qaysiki, ularni aniq tartib qoidalar bo'yicha qat'iy tashkillashtirish doim fanning muhim belgisi sifatida baholanadi" [1]. Bu jarayon maqsadli va aniq mezonlarga ko'ra amalga oshiriladi. Tizimlashtirilgan bilimlar har qanday fan sohasi va uning institutlarining mazmun-mohiyatini chuqurroq va kengroq ochib beradi, ularni atroflicha o'rganish, tahlil qilish hamda ular haqidagi ilmiy-nazariy tasavvurlar va amaliy tajribani boyitishga xizmat qiladi.

Tizim deganda, bir-biri bilan chambarchas bog'liq va maqsadiy yo'naltirilganlik kabi unsurlardan tashkil topgan yaxlit majmua tushuniladi. Biron-bir obyektni tizimga solish, tizimlashtirish uchun, birinchidan, unda ko'plab unsurlarning mavjudligi talab etilsa, ikkinchidan, ushbu unsurlarning umumiy va o'ziga xos jihatlari borligi muhim shart deb hisoblanadi.

Yuqorida bildirilgan fikr biznes sohasida doim uchraydigan, fuqarolik va tadbirkorlik huquqiga mansub turli, ammo yagona maqsadga yo'naltirilgan shartnomalarni tizimlashtirishga ham taalluqlidir. Tom ma'noda, boshqa tizimlar singari shartnomaviy huquqiy tizim ham shartnomani alohida va yaxlitlikda mazmunan bilish imkonini vujudga keltiradi. Bunday imkoniyatni ro'yobga chiqarish jarayoni, shak-shubhasiz, obyektiv mavjud bo'lgan iqtisodiy munosabatlar tizimi doirasida ijtimoiy rivojlanish omillarining turli huquqiy shakllari bilan chambarchas bog'liqlikda o'rganishni nazarda tutadi. Binobarin, ijtimoiy munosabatlar muhim belgilarining ilmiy ifodasi huquqiy tamoyil sifatida huquq normalarida aks ettirilishi sababli huquqiy tizim tuzilishining obyektiv tamoyillarini ular tomonidan tartibga solinadigan munosabatlarga taalluqli bo'lgan qonuniyatlardan izlash kerak [2]. Bunday yondoshuv, o'z navbatida, huquqiy shakllarning ijtimoiy munosabatlarga yuridik ta'siri samaradorligini oshirish maqsadida ularni o'rganish va rivojlantirishni taqozo etadi.

Ma'lumki, fuqarolik (xo'jalik) shartnomasi anchagina serqirra tushuncha bo'lib, uni uchta nuqtai-nazardan, ya'ni: "birinchidan, huquqiy munosabatni vujudga keltiruvchi asos, ya'ni yuridik fakt sifatida; ikkinchidan, mazkur asosdan kelib chiquvchi huquqiy munosabat ko'rinishida; uchinchidan, shartnomani tuzishning shakli sifatida"[3] qabul qilish mumkin. O'z vaqtida, taniqli sivilist olim O.S.Loffe ham shunday degandi: "shartnomaning (fuqarolik va xo'jalik shartnomasi nazarda tutilyapti) mohiyati bilan har taraflama tanishish uchun uni ham yuridik fakt, ham huquqiy munosabat, ham uni tuzishda qo'llaniladigan shakl sifatida o'rganish lozim" [4].

Shartnomani yuqorida ko'rsatilgan ma'nolarda tahlil qilishda tizimli yondoshuv yoxud tizimlashtirish alohida ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etadi. Xususan, shartnomani huquqiy munosabat sifatida o'rganish huquq va uning yordamida tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarning bir-biriga o'zaro ta'siri hamda obyektiv bog'liqlik qonuniyatlarini aniqlashda muhim o'rin tutadi.

Ijtimoiy munosabatlarni qonun ta'siri ostiga olishdan ko'zlangan asosiy maqsad ularning imkon qadar samarali tartibga solishga qaratilgan bo'ladi. Ta'kidlash joizki, qachonki huquq normalari mos ravishda, ya'ni ijtimoiy munosabatlarni lozim darajada ifoda etgandagina, samarali huquqiy tartibga solish haqida so'z yuritish mumkin. Bu degani,

ISSN 3030-3230

umumiy belgilarga ega bo‘lgan bir xil huquqiy normalar bilan, ayni paytda, boshqalaridan farq qiluvchi xususiyatlarni o‘zida jamlagan munosabatlar ushbu xoslikni hisobga olgan holda alohida normalar bilan tartibga solinishini anglatadi. Buning uchun tadbirkorlik yoxud biznes huquqi, jumladan uning tarkibiy qismi sifatida shartnoma huquqi tuzilmasini yaratish va tahlil qilish uchun aynan tizimli yondoshuv zarur bo‘ladi. Faqat tizimli yondoshuv asosidagina shartnoma munosabatlarining yagona yaxlitlikda birlashtiruvchi belgilarini aniqlash, shuningdek huquqiy munosabatlarning bir-biridan farqlovchi o‘ziga xos jihatlarini ko‘rsatib berish mumkin. Barcha shartnomalarni yagona tizim doirasida tadqiq qilish, shak-shubhasiz, ularning har birini mustaqil hamda alohida va, ayni paytda, shartnoma turlarini muayyan tarzda bog‘liq bo‘lgan institutlar sifatida ko‘rib chiqish, ularni turkumlash va guruhlarga ajratish imkonini beradi.

Biznes sohasidagi shartnomalar tizimini shakllantirish quyidagi vazifalarni hal etishga ko‘mak beradi.

1. Tizimlashtirish va kodifikatsiyalash har qaysi shartnoma munosabatlarining mazmun-mohiyatini ifodalovchi alohida va ularning yaxlitlikda birlashtiruvchi umumiy xususiyatlarini hisobga olgan holda shartnoma munosabatlarini samarali tartibga soladigan qonunlar va huquqiy normalarni yaratishda huquq ijodkorligining manbai hisoblanadi. Tizimlashtirishda shartnoma munosabatlarining xususiyatlari bir-biridan farqlanishi bilan birga bir-birini to‘ldiradi va taqozo etadi.

Shartnomalar tizimini shakllantirishning huquqiy ijodkorlikdagi o‘rni yana shundaki, u qonun hujjatlarini kodifikatsiyalashda muhim rol o‘ynaydi. “Huquqning ilmiy asoslantirilgan tizimi zamiridagi kodifikatsiya nafaqat qonunlarning aniqligi va lo‘ndaligini, shu bilan birga ularni qo‘llashda zarur bo‘lgan bir xillikni ham ta’minlaydi” [5]. Zero, qonun hujjatlari kodifikatsiyasi normativ huquqiy aktlarda huquq tizimining obyektiv mavjudligini aks ettiribgina qolmay, balki mustahkamlaydi ham. Obyektiv mavjud huquq tizimi haqida aniq tasavvurlar qonunchilikni takomillashtirishga, xususan qonun hujjatlarini kerakli yo‘nalishda kodifikatsiyalashga xizmat qiladi. Masalan, fuqarolik huquqidan o‘ziga xos jihatlariga ega bo‘lganligi bois, aniqroq aytganda, mazmun-mohiyatan iqtisodiy tusdagi munosabatlarni tartibga solishi va tadbirkorlik faoliyati subyektlarining ishtirokini e’tiborga olib, tadbirkorlik huquqi alohida tarmoq sifatida shakllanganligini yoxud oxirgi yillarda fuqarolik huquqi predmetining tarkibiy qismi hisoblangan bir guruh munosabatlarning huquqiy tabiatidan kelib chiqib, tijorat (savdo) huquqini mustaqil ajratish haqidagi bahs-munozaralar mavjudligini ko‘rsatish mumkin. Yuqorida zikr etilgan holat bo‘yicha xoh tarmoq, xoh subinstitut, xoh yo‘nalish bo‘lsin, barchasi, aslida, fuqarolik huquqi yoxud sivilistika tarkibida tarixan shakllanib rivojlangan va fuqarolik huquqiy normalar bilan tartibga solib kelingan. Demoqchimizki, mustaqil bo‘ladimi yoki bitta tarmoq ichida bo‘ladimi, har ikkala holatda ham taalluqli ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi normativ hujjatlarni kodifikatsiyalash, ularning obyektlarini tizimlashtirish muhim ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatga molik.

2. Ma’lumki, ilmiy-nazariy jihatdan asoslantirilgan huquqiy tizim asosida yaratilgan qonunchilikni amaliyotda qo‘llash darajasiga ko‘ra uning samaradorligi belgilanadi. Boshqacha aytganda, shartnoma tizimining qurilmasi huquqni qo‘llash vazifasini hal qilishni taqozo etadi. Huquqni qo‘llash qonunning “siyrati” va “surati”ga mos bo‘lishi lozim. Ya’ni, huquq normalari ular tartibga solishga mo‘ljallangan huquqiy munosabatlarga nisbatan tatbiq etilishi maqsadga muvofiq. Bundan anglashiladiki, huquqni qo‘llash jarayonida shartnomalar tizimi haqidagi tasavvurlarimiz qonunda mavjud bo‘lgan shunday tizimga to‘la-to‘kis monand bo‘lishi kerak. Shu nuqtai nazardan, qonun ijodkorligida qaysi huquqiy munosabat qaysi huquqiy normalar bilan tartibga solinishini aniqlash, ushbu huquqiy munosabatlarni ajratib olish uchun qulay mezonlarni ishlab chiqish huquqni qo‘llashning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Buning uchun qonun ijodkorligi jarayonida har qaysi shartnomani to‘g‘ri malakalash, ya’ni uning o‘ziga xos va umumiy bo‘lgan belgilarini tasniflash muhim ahamiyatga ega.

Shunday qilib, biznes sohasida uchraydigan shartnomalar tizimini yaxlit tarzda tadqiq etish quyidagi maqsadlarni amalga oshirish uchun xizmat qiladi:

☑ **birinchidan,** fuqarolik huquqida shartnomalar tizimi qurilmasi (tuzilmasi) ga asos sifatida olingan umumiy va alohida

shartnomaga xos bo'lgan xususiyatlarni aniqlash va belgilab olish;

☑ **ikkinchidan,** qonun ijodkorligi jarayonida aniqlab va belgilab olingan tizimga xos belgilarni shartnomaviy huquqiy munosabatlarning mazmun-mohiyatini qay darajada aks ettirishi va kelgusida shartnoma to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish uchun qanday imkoniyatlar mavjudligi masalasini tahlil qilish;

☑ **uchinchidan,** shartnoma majburiyatlarini to'g'ri baholash va amaliyotda bexato qo'llashga xizmat qiladigan, malakalash uchun zarur va muhim bo'lgan xususiyatlarini aniq va tushunarli ifodalash (kerak bo'lsa, sharhlash).

Lo'nda qilib aytganda, yaxlit ilmiy tadqiq va tahlil - fuqarolik shartnomalarning ilmiy tizimini ishlab chiqish va uni amaliyotga muvofiq ravishda tatbiq etish uchun zarur.

Odatda, biznes sohasidagi shartnomalar (fuqarolik shartnomasi, tadbirkorlik (xo'jalik) shartnomasi, biznes shartnomasi deb atalishidan qat'iy nazar) tizimi umumiyning bir bo'lagi, ya'ni tegishlicha fuqarolik huquqi, tadbirkorlik (biznes) huquqi tizimining bir qismi sifatida qaraladi. Bunday yondoshuv shartnomalarni alohida va umumiy turkumga xos belgilariga ko'ra guruhlarga ajratish bilan birga uni tegishli huquq tizimining boshqa institutlariga o'xshash va farq qiluvchi jihatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Turga xos (maxsus) belgilar nafaqat shartnomalarga tatbiq qilinadigan huquqiy normalarni vujudga keltirish, balki umumiy tizimning boshqa qirralarini ham tartibga solish uchun asos bo'ladi. O'z navbatida, maxsus belgilar umumiy tizimda faqat fuqarolik yoki tadbirkorlik (biznes) huquqiga oid shartnomalar xususiyatlarini ifodalovchi yuridik mexanizmni yaratishda asosiy o'rin tutadi. Ta'kidlash joizki, mulkiy va nomulkiy tusdagi munosabatlar o'zining maxsus belgilariga ko'ra tizimli yondoshuv asosida mulkiy va nomulkiy munosabatlarni tartibga solishi bilan tavsiflanadi.

Mulkiy munosabatlar, o'z navbatida, qonun hujjatlarida belgilangan qoidalar bilan tartibga solingan (statik) va shartnomalar asosida vujudga keladigan (dinamik) huquqiy munosabatlardan tashkil topadi. Shartnomalar bilan tartibga solinadigan mulkiy munosabatlarni, odatda, majburiyat huquqiy munosabatlari yoinki majburiyatlar deb ataladi.

Taniqli sivilist olim O.S.Loffe majburiyatlarning fuqarolik huquqi bilan tartibga solinadigan boshqa mulkiy munosabatlardan farqlovchi to'rtta belgisini ko'rsatib o'tadi. "Birinchidan, majburiyatlar ashyo yoki mehnatning natijasini vujudga keltiradi. Ikkinchidan, majburiyat huquqiy munosabati nisbiy tusga ega bo'lib, doim aniq subyektlar o'rtasida vujudga keladi. Uchinchidan, majburiyatlarda bir taraf harakati, ikkinchi tarafning harakatsizligini taqozo etadi va aksincha. To'rtinchidan, agar mulkiy huquqiy munosabat yuridik mazmunida, birinchi o'rinda, mulkdor tomonidan muayyan harakatlarni amalga oshirish imkoniyati belgilansa, majburiyatning yuridik mazmuni uchun esa topshiriq beruvchiga (kreditorga) qarzdordan muayyan xatti-harakatlarni bajarishni talab qilish imkonining berilishi muhim hisoblanadi"[6].

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 234-moddasiga binoan "majburiyat – fuqarolik huquqiy munosabat bo'lib, unga asosan bir shaxs (qarzdor) boshqa shaxs (kreditor) foydasiga muayyan harakatni amalga oshirishga, chunonchi: mol-mulkni topshirish, ishni bajarish, xizmatlar ko'rsatish, pul to'lash va hokazo yoki muayyan harakatdan o'zini saqlashga majbur bo'ladi, kreditor esa – qarzdordan o'zining majburiyatlarni bajarishni talab qilish huquqiga ega bo'ladi. Ushbu moddaning ikkinchi qismida majburiyatlar shartnomadan, ziyon yetkazish natijasida hamda qonunda ko'rsatilgan boshqa asoslardan kelib chiqishi mustahkamlangan.

Majburiyatlar turli xil bo'lishidan qat'iy nazar, barchasi iqtisodiy va yuridik umumiylikka ega. Bu, ularni huquqiy munosabatlar tarkibiy qismi bo'lgan majburiyatning umumiy tushunchasi doirasida jamlash va qonunda majburiyatlarning hamma turlarini tartibga soluvchi umumiy qoidalarini mustahkamlash imkonini beradi. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining ikkinchi qismi uchinchi kichik bo'limida ayrim turdagi majburiyatlarni tartibga solishga qaratilgan huquqiy normalar belgilangan.

Ta'kidlash lozimki, shartnomalardan kelib chiqadigan mulkiy huquqiy munosabatlar majburiyatlar hisoblanadi. Har qanday shartnoma o'zida majburiyatni ifodalasa-da, ammo har qanday majburiyat shartnoma bo'lavermaydi. Shuning uchun barcha shartnomalarga O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi

ISSN 3030-3230

353-moddasida yagona shaklga keltirilgan, ya'ni unifikatsiyalashtirilgan norma qo'llaniladi. Xususan, shartnomaviy huquqiy munosabat ko'pgina yuridik elementlarida deylikt (shartnomadan tashqari) munosabat bilan aynan bo'lganligi sababli ularga nisbatan yagona qoidalar tatbiq etiladi [7].

Majburiyatlarni yuridik fakt asosiga ko'ra tasniflanganda, inson hohish-irodasidan tashqari sodir bo'ladigan hodisalar va inson istagi asnosida amalga oshiriladigan harakatlar natijasida vujudga kelishi hisobga olinadi. Shartnoma majburiyatlari harakat yoki harakatsizlik oqibatida vujudga kelganligi bois majburiyatni yuzaga keltiruvchi turli xatti-harakat yoxud harakatsizliklarning qandayligidan qat'iy nazar shartnomalarga nisbatan harakat yoki harakatsizliklardan kelib chiqadigan majburiyatlar to'g'risidagi huquqiy qoidalar tatbiq qilinadi.

O'z navbatida, harakatlar huquq yo'l qo'ygan harakatlar (huquqiy harakatlar)ga va huquqqa zid bo'lgan (nohuquqiy harakatlar)ga bo'linadi. Shartnomalar huquqiy harakatlardan kelib chiqadi va ularni tartibga solishda huquqiy harakatlar to'g'risidagi unifikatsiyalashtirilgan normalar qo'llanilishi mumkin. Bunda tasniflash huquqiy harakatlar yuridik qilmish va yuridik aktlar (ma'muriy aktlar hamda bitimlar)ga ajratilishini inobatga olgan holda amalga oshiriladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, shartnomalar bitim turi bo'lganligi sababli ularga O'R FK 9-bobida nazarda tutilgan ikki va ko'p taraflama bitimlar to'g'risidagi qoidalar qo'llaniladi. Shartnoma majburiyatlariga, agar shartnomaga oid umumiy va uning ayrim turlari to'g'risidagi qoidalarda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, majburiyatlar to'g'risidagi umumiy qoidalar tatbiq etiladi.

Shunday qilib, fuqarolik shartnomalarni bitimlar, yuridik aktlar, harakatlar, majburiyatlar, mulkiy munosabatlar hamda fuqarolik huquqiy munosabatlar kesimida ketma-ketlikda izchil tizimlashtirish yaxlit tizimning har bir darajasida ularni aniq tartibga solish imkonini beradi. Chunonchi, turli mamlakatlar fuqarolik qonunchiligida u yoki bu shartnomalarni umumiy va xususiylik jihatlarini hisobga olgan holda yagona qoidalarni ishlab chiqishga katta e'tibor qaratiladi. Masalan, Germaniya Fuqarolik tuzuklari va Niderlandiya Fuqarolik kodeksida barcha bitimlar, shuningdek shartnomalar uchun mumkin qadar umumlashtirilgan yagona (aynanlikni ta'minlash maqsadida) qoidalar belgilangan.

O'z davrida, O.S.Loffe shartnoma yuridik fakt, bitim va majburiyat kesimida ko'rilib, shartnoma tizimi sifatida mustaqil shakllantirilishi kerakmi yoki majburiyat, bitim singari tizimosti tuzilmasi bo'lishi to'g'rimi degan savolga javob izlar ekan, shartnomalar, bir taraflama bitimlar, deliktlardan vujudga keladigan majburiyatlar yuridik faktlardan ajralib turuvchi jihatlarga egaligini ta'kidlagan. Bunga asoslanib, turli shartnomalardan, shuningdek shartnomadan tashqari kelib chiqadigan barcha majburiyatlarni bitta tasnifiy guruhga birlashtirgan. Xuddi shunday, O.S.Loffe iqtisodiy va huquqiy mezonlarga tayanib, mol-mulkni haq evaziga tasarruf etishga qaratilgan; mol-mulkni haq evaziga foydalanish uchun topshirishga qaratilgan; ishlarni bajarishga va xizmat ko'rsatishga qaratilgan; shuningdek, bir taraflama huquqiy harakatdan vujudga keladigan va muhofaza xususiyatiga ega majburiyatlarga tasniflagan [8].

> Fikrimizcha, yuridik faktlar qanday bo'lishidan qat'iy nazar ushbu tasnifiy yondoshuv majburiyatlarni aniq va to'g'ri tartibga soluvchi norma (qoida)larni shakllantirishda nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega hisoblanadi. Binobarin, yuqorida keltirilgan tasnif yoxud shartnomalarni guruhlarga taqsimlash asosida eng muhim mezon, ya'ni har bir majburiyatning pirovard maqsadi yotadi. Shuning uchun shartnomalarni tasniflashda ularning maqsadiy yo'naltirilganligi tasniflash mezonlari ichida asosiysi sifatida tan olinishi maqsadga muvofiq.

Аннотация. В статье освещены научно-теоретические вопросы и значение систематизации договоров, направленных на получение прибыли в сфере бизнеса.

Ключевые слова. Система и систематизация; гражданско-правовой договор;предпринимательский(хозяйственный)договор;договорно-правовая система; договорное обязательство; классификация гражданских и хозяйственно-правовых договоров.

Annotation: The article highlights scientific and theoretical issues and the importance of systemizing of contracts aimed at making a profit in business.

Key words: national security, water, water scarcity, climate change, water law, Water Code, water resources, water reserves.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Фалсафа: энциклопедик луғат / ЎзР ФА И.Мўминов номидаги Фалсафа ва ҳуқуқ институти. – Т.:”Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2010. -Б. 243.
2. Қаранг: Яковлев В.Ф. Гражданско-правовой метод регулирования общественных отношений. Свердловск, 1972. -С. 14, 57.
3. Брагинский М.И., Витрянский В.В. Договорное право: Общие положения. М.: Статут, 1997. -С. 10.
4. Иоффе О.С. Обязательственное право. М.: Госюриздат, 1975. –С. 26-27.
5. Брагинский М.И., Витрянский В.В. Договорное право: Общие положения. М.: Статут, 1997. -С. 17.
6. Иоффе О.С. Обязательственное право. –С. 5-6.
7. Қаранг: Брагинский М.И., Витрянский В.В. Договорное право: Общие положения. М.: Статут, 1997. -С.15-16.
8. Иоффе О.С. Обязательственное право. –С.24-25.

ISSN 3030-3230

GEGELNING huquq falsafasi

Muxitdinov F.M.
Jamoat xavfsizligi universtiteti
Jinoiy-huquqiy fanlar kafedrasi professori

Annotatsiya. Maqolada nemis klassik falsafasi namoyandasi Gegelning tizimlashgan huquqiy qarashlarining o‘ziga xos jihatlari, uning falsafiy-huquqiy, sotsiologik asoslari ko‘rib chiqiladi. Maqolada tushunish murakkab bo‘lgan Gegel falsafasining asosiy kategoriyalari apparatining mazmun va mohiyatini anglash va tushuntirishga urinilgan. Maqolada Gegelning huquq falsafasini anglashda o‘ziga xos mualliflik tushunish va tushuntirish sxemasi ishlatilganki, bu insonlar uchun o‘ta muhim va murakkab ijtimoiy-falsafiy, sotsiologik va psixologik kategoriya bo‘lgan bo‘lgan – huquqning mazmun-mohiyatini anglashda, insonlar hayotida tutgan o‘rni va jamiyat munosabatlaridagi mavqeini to‘laroq anglab yetishga oz bo‘lsa ham xizmat qilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: Obyektiv rux, mutlaq rux, dialektika, axloq, huquq, davlat huquqi, qonun, erkinlik, ixtiyor, ong, huquqning rivojlanish bosqichi.

Nemis klassik falsafasining yirik namoyandasi Gegel yaratgan ilmiy-falsafiy meros shubhasiz insoniyat tafakkurining rivojlanishiga, o‘zining ijtimoiy hayotining asos va mezonlarini anglashga xizmat qildi. U yaratgan huquq falsafasining ilmiy tahlili – inson ongi, shuuri va hayoti uchun juda qimmatli va qadrli bo‘lgan – huquqning mohiyatini ochish, uning tabiatini anglash, inson ongi va jamiyat tafakkurining o‘zaro munosabati hamda nisbati, shuningdek ularning ruhiy olamini bilishga bo‘lgan urinishlarini ro‘yobga chiqarishga ko‘mak berdi.

“Huquq falsafasi” Gegel ijodining muhim pallasida yozilgan asarlardan biri hisoblanadi. Ushbu asar Gegel ishlab chiqqan “ruh falsafasi”ning bir qismini tashkil qilib, unda faylasuf o‘zining falsafiy tizimini mantiqiy ravishda nihoyasiga yetkazishga uringan.

Gegelga ko‘ra, huquq falsafasi huquq haqidagi falsafadan iborat bo‘lib, u bevosita obyektiv ruhning falsafasiga tegishlidir[1]. Shu bois, Gegel yaratgan falsafiy tizimning asosi – obyektiv ruh[2] ning, ya’ni insonning obyektiv olamni anglash jarayoni rivojlanishi konsepsiyasiga qurilgan bo‘lib, huquq falsafasining yo‘nalishini belgilashda ham faylasuf aynan mana shu uslubga amal qildi. Unga ko‘ra, obyektiv ruh (ong va obyekt) o‘zida rivojlanish konsepsiyasini, ya’ni oddiy qilib aytganda, obyektiv ruhning oddiy holatidan, obyektiv hodisalarni bosqichma-bosqich anglab borish darajasining o‘sib borishi asnosida obyektiv ruhning rivojlanishi tushunchasini mujassam etib, uning rivojlanish xususiyati ham Gegelning o‘zi ishlab chiqqan dialektik, ya’ni tezis (ya’ni muayyan fikr) – antitezis (fikrni inkor etuvchi yoxud undan boshqa o‘zga fikr) = (va) sintez (yangi fikr, nuqtai nazar, tizimlashgan qarash) ta’limotiga mos keladi. Ya’ni huquq tushunchasi ham o‘zining abstrakt shaklidan[3], ya’ni huquq hali faqat ongning o‘zidagina mavjud tasavvurlar shaklidan, to huquqning aniq ifodasini topguniga qadar bo‘lgan rivojlanish jarayonini bosib o‘tishi lozim. “Huquqning aniq ifodasi” deganda Gegel bevosita huquqning insonlar munosabatida avval axloqiy (ya’ni jamiyatdagi axloqiy, etik odat va an’analar), keyinchalik esa ma’naviy shaklda shak-shubhasiz va barqaror o‘rin olishini nazarda tutadi .

Huquqning obyektiv ravishda “ma’naviy shaklni olishi” deganda Gegel:

1) oila;

2) fuqaroviy jamiyat;

3) davlat tushunchalarini nazarda tutadi.

Demak, Gegelga ko‘ra huquq mana shu bosqichlar orqali rivojlanadi hamda rivojlanishning shu jarayonida huquq abstrakt holatdan o‘zining axloqiy bosqichiga, ya’ni oila, keyin esa ma’naviy bosqichiga, ya’ni fuqaroviy jamiyat va davlat uyg‘unligiga erishishi lozim.

Mazkur konseptual g‘oya Gegel ilgari surgan huquq falsafasining o‘zagini tashkil

qiladi. Bunday rivojlanish, Gegelning falsafiy tizimi asosidan kelib chiqadigan bo‘lsak, shubhasiz ruhning rivojlanishi – bu obyektiv ruhni namoyon etib, ruh obyektiv ruhni, ya’ni o‘zini o‘zi rivojlanish jarayoni orqali anglash tushunchasini nazarda tutadi. Bu degani, jamiyat o‘zining amaliy hayotida mavjud bo‘lgan hamda ilmiy-nazariy tafakkurida shakllangan huquq tushunchasi orqali o‘zining axloqiy va ma’naviy jihatdan rivojlanganlik darajasini anglashi mumkin. Zero jamiyatda mavjud amaliy huquq aynan va bevosita abstrakt – insonning huquq haqidagi shaxsiy – “xususiy” talabiga oid tasavvurlari holidan, uning axloqiy, ya’ni oila hamda ma’naviy, ya’ni davlat o‘rnatgan xulq qoidalarining jamiyatdagi umumiy farovonlik uchun zarur omil sifatida mavjudligi haqidagi “ommaviy” tasavvurigacha bo‘lgan rivojlanish darajasining xususiyatlariga bog‘liqdir.

Gegelning ta’kidlaricha aynan ma’naviyat – huquq va axloqning bir-biriga bog‘lovchi va bir-birini taqozo etuvchi kategoriyalar sifatida mavjud bo‘lishini asoslovchi tushunchadir. Negaki, huquq ham, axloq ham abstrakt tarzda bir yoqlama tushunchalarni namoyon qilib, huquqning o‘zi qaysidir vaziyatda subyektivlikdan mahrum bo‘lsa, axloq esa faqat subyektivlikni namoyon qilishi mumkin. Shu bois, na huquq va na axloq o‘z holicha va bir-biridan holi tarzda mavjud bo‘lishi hamda ularning alohida tushunchasi haqqoniylikni namoyon qilishi mumkin. Qayd etilgan tushunchalar faqat yaxlit holdagina huquq tushunchasini ifoda qiladi. Gegelga muvofiq ma’naviyat subyektiv tushuncha, ya’ni aqliy yo‘nalishni aks ettirib, u o‘zida aqlan huquqning mavjudligini namoyon qiladi. Negaki, Gegelga ko‘ra ma’naviyat – erkinlik tushunchasini anglashning eng yuqori bosqichidir[4].

Shunday qilib, Gegelning huquq falsafasi avvalambor huquqning g‘oyasini ochish va uning rivojlanish jarayonini aniqlashni nazarda tutib, uning tasavvuricha: huquqning g‘oyasini erkinlik tushunchasi tashkil qiladi. Erkinlik – huquqning yadroviy xossasi ekanligi to‘g‘risidagi qarashlarni yana Kantning huquq metafizikasida, Fixtening tabiiy huquq falsafasida ko‘rishimiz mumkin. Biroq Gegel o‘zidan avvalgi faylasuflardan farqli o‘laroq, erkinlikni aniq “ideal huquqiy makon”da mavjud bo‘luvchi obyektiv shaklda talqin etadi. Shu bois, huquq va erkinlik tushunchalari obyektiv ruhning birlamchi asosi hamda mazmuni bo‘lib, u subyektiv ruhning (ya’ni mutlaq ruhning) rivojlanish jarayonida vujudga keladi.

Gegelning murakkab huquq falsafasini tushunish uchun huquqning amalga oshishi jarayonida vujudga keluvchi huquqning o‘z-o‘zini rivojlantirish hamda uning tizimini tashkil qiluvchi kategoriyalarning mazmunini bilib olish muhimdir. Gegel o‘zining “Mantiq ilmi” asarida o‘zi shakllantirgan falsafiy tizimning mutlaq uslubini ochib berishga harakat qilib, shunday deb yozgandi: ruh – tushunchaning dialektik rivojlanish jarayoni – ruhning barcha sohadagi, jumladan: jamiyat, davlat, huquq, siyosat, qonunchilik, inson hayoti, dunyo tarixi kabilar uchun yagona uslub tarzida qo‘llaniladi. Chunki dialektik uslub oldida biron bir obyekt, u hox davlat, hox huquq sohasi bo‘lsin, hech biri ushbu uslubga qarshilik ko‘rsatishga qodir emasdir[5].

Shunga muvofiq Gegelning huquq haqidagi tushunchasi o‘zining dialektik mazmunidan voz kechmagan holda, uni bevosita subyektiv tafakkurning mahsuliga aylantiradi. Ya’ni huquq, Gegelga ko‘ra, bu mavjud borliq bo‘lib, u aynan erkin ixtiyorining mavjud borlig‘idir. Erkinlikning o‘zi esa subyekt ixtiyorining substansiyasi va uni tavsiflovchi asosiy mezondir.

Gegel falsafasida erkinlik bevosita ixtiyorining asosiy tushunchasi tarzida – subyektiv mohiyatga, ya’ni subyektning tafakkur jarayoniga bog‘langan. Ammo Gegel tafakkur va ixtiyor tushunchalari qobiliyat tushunchasini tashkil qilmasligini, balki ular tafakkur qobiliyatining ikki, ya’ni nazariy (tafakkur) va amaliy (ixtiyor) vositalari haqidagi tushunchani anglatishini ta’kidlagan edi.

Shulardan kelib chiqib, Gegelning huquq tushunchasidagi quyidagi mazmunni anglash mumkin:

a) huquq – bu erkinlik (ya’ni bu huquqning g‘oyasi sifatida talqin etiladi);

b) huquq – bu erkinlikning muayyan pog‘onasi va shakli (maxsus huquq sifatida);

v) huquq – bu qonun (ya’ni pozitiv (amaliy) huquq tarzida)[6].

Bunda huquq va erkinlik tushunchalari yagona holda, obyektiv ruhning rivojlanish jarayonining muayyan pog‘onasida vujudga kelib, unga ko‘ra, rivojlanish jarayoni aynan

ISSN 3030-3230

erkinlik g‘oyasi bilan yo‘g‘rilgandir. Shu bois, Gegelning fikricha: “erkinlik” va “huquq” yagona mazmundagi tushunchalardir.

Gegel huquqqa bergan tarifining keyingisi – maxsus huquq tushunchasi esa, huquqning rivojlanish bosqichlari orqali amalga oshishini nazarda tutadi. Bunda huquq, aytib o‘tilganidek, o‘zining mavhum shaklidan, ya’ni abstrakt holidan, to aniq, o‘zining obyektivlashgan, ya’ni ma’naviy darajasiga qadar rivojlanish jarayonini bosib o‘tadi. Shu bois, huquq o‘zining ijtimoiy hayotdagi aniqlik darajasiga qadar rivojlanish yo‘lida bosib o‘tadigan har bir bosqich – erkinlik g‘oyasini, demakki erkin ixtiyorning borliq sifatida namoyon qilib, huquqning xususiyatini ifoda qilib boradi.

Shunga muvofiq, rivojlanish jarayonida keyin keladigan “maxsus huquq”, avvalgi, ancha mavhum bo‘lgan “maxsus huquq”ni dialektik asosda aniqlashtirib, o‘zidan keyingi keladigan shunday huquq uchun asos hamda haqiqat tarzida namoyon bo‘ladi. Ya’ni Gegelning ta’kidlashicha: dialektik asosda aniqlashib borish jarayonida ashyo va mohiyat tushunchalari o‘rtasidagi tafovut kamayib boradi hamda ancha aniq bo‘lgan “maxsus huquq” o‘zidan mavhumroq bo‘lgan huquqqa nisbatan ancha tushunarli, kuchli va birlamchi xarakterga ega bo‘lib boradi.

Gegelning huquq tushunchasiga bo‘lgan mana shunday yondoshuvi, uning tasavvuridagi huquqning xarakterini aniqroq va to‘laroq anglashga yordam beradi. Jumladan, faylasufning “alohida huquqning dialektik rivojlanish jarayoni va aniqlikka qarab yo‘naluvchi bosqichlar” haqidagi ta’limotining mazmunidan kelib chiqadigan bo‘lsak, maxsus huquqning eng aniq ifodasi – davlat huquqida namoyon bo‘ladi. Chunki, qayd etilgan huquq tushunchasining dialektik mazmunidan kelib chiqadigan bo‘lsak, Gegel falsafasida yuqori bosqich quyi bosqich uchun doimo birlamchi va haqqoniy tushuncha sifatida mavjuddir. Shunday ekan, unda davlat huquqi ham boshqa, xususan shaxs huquqi va unga bog‘liq huquqlar uchun birlamchi va haqqoniy tushunchani vujudga keltiradi.

Gegel e’tirof etgan huquq tushunchasining uchinchi – huquqning qonun bilan uyg‘un mazmuni ham aslida “maxsus huquq”ning bir shakli hisoblanadi. Negaki huquq tushunchasi o‘zining obyektiv borlig‘ida mavjud bo‘lib, tafakkur uni umume’tirof etilgan qonun sifatida tushunadi. Shu sababli huquqning o‘zi qonun ijodkorligi orqali qonunga aylanish holati huquqqa umumiylik va aniqlik shaklini beradi[7]. Ushbu fikrlardan “qonun – bu huquqning shakli” yoki “huquqning namoyon bo‘lishi” kabi ilmiy g‘oyani ilgari surishni anglatishi mumkin. Ammo bu masalaga chuqurroq yondoshadigan bo‘lsak, qonun asosan insonlar o‘rtasidagi tashqi munosabatlarni tartibga solish, ya’ni insonlar xulq-atvorlarining obyektiv shaklini o‘z ichiga olish tushunchalarini anglatishi mumkin. Uning ichki sohasi, ya’ni xulq-atvorni amalga oshirishga bo‘lgan inson ixtiyorining, ya’ni ichki psixologik-ruhiy holatlarning mazmuni esa, bu yerda e’tiborsiz qolayotgandek.

Albatta, Gegel qonun va huquq tushunchalarining o‘rtasidagi farqni juda yaxshi anglagan edi. Biroq faylasufning tushunchasidagi huquqning o‘zagini, ta’kidlanganidek, uning abstrakt holatidan, uning aniq holatiga qadar rivojlanishi hamda o‘zining aniq holatidagi so‘ngi manzili bo‘lgan – “davlat huquqi” to‘g‘risidagi aqida tashkil qiladi. Shu bois huquqning aniq, pozitiv huquq (qonun me’yorlari) shaklida amalga oshishi, Gegelga ko‘ra, huquqning jamiyatdagi mavjud borlig‘idir. Shu bois, faylasuf imkon qadar huquq hamda qonun o‘rtasidagi farqni keskinlashtirmaslikka harakat qiladi. Uning fikricha falsafa uchun huquq va qonun o‘rtasidagi ziddiyatning mavjud ekanligi haqidagi g‘oyalar e’tiborsiz holatdir. Negaki, zo‘ravonlik va mustabidlik ham pozitiv huquq (ya’ni qonun) asosida amalga oshirilishi mumkinligi haqidagi qarashlar, huquq uchun bu holatlarning tasodifiyligi hamda huquqning tabiatiga aloqasizligi tufayli ekanligidadir, deb yozgandi Gegel.

Shuningdek, huquqning mazmuni muayyan qonunlarda bo‘rttirilishi mumkinligini ta’kidlab, Gegel barcha qonunlarni ham huquq deb hisoblash mumkin emas degan edi. Shu bilan birga, Gegelning huquq falsafasida, huquq va qonun bir-biriga taqqoslanmay yoki bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilmay, ular “huquq” haqidagi bir tushunchaning ichki jihatdan farq qiluvchi tushunchalari ekanligi hamda huquqning bu tushunchalari bevosita huquqni aniqlashtirish jarayonining bosqichlarida mavjud bo‘lishi mumkinligi ko‘rsatib o‘tiladi. Uningcha: qonun o‘zining tushunchasiga binoan – huquqning aniq ifodalangan shaklidir. Mana shu “huquqiy qonun” g‘oyasini qat’iy himoya qilgan holda, Gegel huquqqa zid bo‘lgan hamda g‘ayrihuquqiy qonunlarni rad etadi. Shu sababdan Gegel huquq va qonun o‘rtasidagi nisbatni mavjud yoki mavjud emasligini aniqlashni maqsad qilmay, balki u shunday nisbatning o‘zi asossiz g‘oya ekanligini isbotlashga urinadi.

Gegelning huquq falsafasidagi mazkur g‘oya amalda huquqning umumiy maqsad va mohiyati haqidagi qarashlarning tugallanganlik ma’nosini beradi, yoki huquq to‘g‘risidagi ushbu tushunchaning ideal shaklini namoyon qiladi. Bu bilan Gegel, tabiiy huquq tarafdorlarining yondoshuvlarida hamda Kantning “ashyoning o‘zida”[8] haqidagi qarashlarida huquq va qonun o‘rtasidagi muammolarni deyarli inkor etadi. Bu esa Gegelning huquq falsafasining sust tomonini ko‘rsatib beradi. Zotan, insoniyat taraqqiyotining tarixi huquq va qonun o‘rtasidagi tafovutni bartaraf etishga doim ham qodir emasligini tasdiq etib kelgan.

Shunday ekan, mazkur muammoni falsafiy darajada o‘rganish, uning asos va mezonlarini aniqlash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri sanaladi.

Gegelning huquq falsafasidagi yana bir muhim jihat huquq haqidagi tushunchani tarixiy-tadrijiy uslubda tahlil etilganligi bilan bog‘liqdir. Shunga binoan, har bir jamiyatdagi mavjud qonunlar mana shu jamiyatda yashovchi millatning xarakteri, uning tarixiy rivojlanish darajasi hamda turmush shart-sharoitlarining tabiatiga bog‘liqdir. Ushbu qarash mamlakatimizning o‘ziga xos va o‘ziga mos yo‘lni, ya’ni o‘z milliy xususiyatlarini e’tiborga olgan holda, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy rivojlanishga haqli ekanligini tasdiq etuvchi ilmiy-falsafiy manbaning mavjudligini e’tirof etsa-da, lekin, shu bilan birga, o‘zimizga xos va o‘zimizga mos yo‘l, shubhasiz, insoniyat huquqiy-ma’naviy madaniyatida to‘plagan tajriba va tafakkurga asoslanishga ham undaydi. Ammo biz yana Gegelning “qonunlar har bir jamiyatning rivojlanish darajasini ko‘zgu kabi aks ettirishi” haqidagi fikriga murojaat qiladigan bo‘lsak, fikrimizcha, nafaqat qonunlar – millatning, jamiyatning rivojlanish darajasini, shuningdek qonunlarni amalga oshirilishi, ya’ni huquqiy ong va huquqiy madaniyat ham jamiyatning rivojlanganlik darajasini namoyon etishini ta’kidlash joiz. Chunki Gegelning huquqqa oid tushunchasining mazmuniga binoan ham, jamiyatda mavjud bo‘lgan huquq – bu shu jamiyat a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarda amaliy jihatdan mavjud bo‘lgan pozitiv huquqdir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, huquq, Gegelga muvofiq, har bir shaxsning o‘zining egoistik manfaatlaridan axloqiy hamda ma’naviy bosqichlar orqali yuksaklikka erishish vositasidir. Buning uchun inson o‘zining umumiy jamiyat manfaatlari uchun xizmat qilishi zarurligini anglashi, shunday tafakkur asosida hayot kechirishi lozim. Zotan inson faqat insonlar orasidagina o‘z manfaatlariga ega bo‘lishi va o‘z maqsadlariga erishishi mumkin.

Аннотация. В статье рассмотрены специфические аспекты системы правовых воззрений Гегеля, выдающегося представителя немецкой классической философии: философско-правовые, и социологические основы его учения по правоведению. Предпринята попытка объяснить содержание и сущность категориального аппарата философии права Гегеля. Использована авторская схема сложной социально-философской, социологической и психологической категории философии права Гегеля, дающая возможность лучше понять сущность права, статус и место в общественных отношениях, а также роль в жизни людей.

Ключевые слова: объективный дух, абсолютный дух, диалектика, нравственность, право, государственное право, закон, свобода, воля, сознание, этапы развития права.

Annotation. The article examines the unique aspects of the systematized legal views of the representative of German classical philosophy Hegel, the philosophical, legal, sociological foundations of his legal teaching. The article makes an attempt

ISSN 3030-3230

to understand and explain the content and essence of the categorical apparatus of Hegel's philosophy of law. The article uses the author's original scheme of understanding and explanation to understand the very important and complex socio-philosophical, sociological and psychological categories of Hegel's philosophy of law, in the hope that this article can provide researchers with the opportunity to better understand the essence of law, its role in people's lives and his status and position in social relations.

Key words: objective spirit, absolute spirit, dialectics, morality, law, state law, law, freedom, will, consciousness, stages of development law

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гегель. Собрание сочинений. Т.1. –М.: 1934.
2. Руҳ тушунчаси қайд этилганидек, Гегель фалсафасининг марказий масаласи бўлиб, Гегель эътироф этган руҳ – бу объектда мавжуд бўлган ҳодиса ва ҳолатларни англовчи мутлақ субъектдир. Субъект-руҳ тушунчаси остида эса Гегель – ғоя, табиат, фикр каби категорияларни инсон томонидан англаш жараёни назарда тутилади.
3. Гегелнинг таърифлашича, абстракт ҳуқуқ – ҳуқуқнинг то аниқликка қадар диалектик ривожланиш жараёнидаги биринчи муҳим босқичдир.Абстракт ҳуқуқ – бу абстракт эркин шахснинг ҳуқуқидир (қаранг: Философия права (Вступительное слово В. С. Нерсесянц). –М.: 1990. –С.18)
4. Гегель. Собрание сочинений. Т.7 . –С176.
5. Қаралсин: Философия права (Вступительное слово В. С. Нерсесянц). –С.9.
6. Философия права (Вступительное слово В. С. Нерсесянц). –С.16.
7. История политических и правовых учений /Отв.ред. В. С. Нерсесянц. –М.: 1999. –С. 418.
8. Кантнинг субъектив идеализмга асосланган фалсафасига кўра, ҳар бир ашёнинг асл моҳияти мана шу ашёнинг ўзида мужассам бўлиб, бу моҳиятни онг томонидан мутлақ англаш имконсиздир.

FUQAROLIK SUD ISHLARINI YURITISHNI JADALLASHTIRISH JARAYONIDA ISBOTLASH VA DALILLARDAN FOYDALANISH XUSUSIYATLARI

Davletov O‘tkirbek Matmurotovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti kafedra boshlig‘ining o‘rinbosari, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya. Maqolada fuqarolik sud ishlarini yuritishni jadallashtirish jarayonida isbotlash va dalillardan foydalanishda tomonlar tortishuv tamoyilining ahamiyati hamda dalillarni to‘plashda sudning faol (yoki passiv)ligining o‘ziga xos jihatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Fuqarolik protsessi, Anglo-sakson, Romano-German, dalil, isbotlash vositasi, dalillarni to‘plash, tortishuv tamoyili, sof va aralash huquqiy-faktik ma’lumotlar hamda xorijiy tajriba.

Zamonaviy dunyoda nafaqat Anglo-sakson va Romano-German protsessual oilalarini, balki boshqa protsessual tizimlarni ham ajratish kerak. So‘nggi yillarda qonunchilikdagi o‘zgarishlar bu nuqtai nazarni tasdiqlaydi. Ko‘rinib turibdiki, hozirgi vaqtda bu tizimlar XIX asrda bo‘lgan klassik shaklda mavjud emas. Nafaqat texnik xarakterdagi, balki prinsiplar va umumiy qoidalar darajasida ham o‘zgarishlar yuz berdi. Ikkala tizim ham ikki asr davomida bir-biridan turli xil protsessual institutlarni “qarzga” olgan. Natijada, ularni ajratib turadigan chiziq tobora ahamiyatsiz bo‘lib qoladi. Ikkala tizim o‘rtasidagi bunday o‘zaro ta’sirning yorqin namunasi sudning dalillarni to‘plash jarayonida ishtirok etishini tartibga soluvchi qoidalardir [1].

Fuqarolik protsessining bu ikkala modeli ham o‘ziga xos protsessual xususiyatlarga ega. Umumiy (Anglo-sakson) tizimida sud dalillarni talab qilishga majbur emasligi, sud dalillarni to‘plashga aralashmasdan jarayonni xolisona boshqarishi lozimligi belgilangan.

Ingliz protsesschi olimlarining aksariyati ushbu yangiliklarni qo‘llab-quvvatladilar[2] va amaliyot ularning samaradorligini tasdiqladi. Shunga o‘xshash o‘zgarishlar nafaqat Angliya va Uyels doktrinasi va qonunchiligida, balki boshqa umumiy huquq mamlakatlarida ham sodir bo‘ladi.

Kontinental (Romano-German) tizimida esa dalillarni to‘plash jarayonida sudning faolligi fuqarolik protsessining rivojlanish tendensiyalaridan biri sifatida baholanadi. Fransiya, Belgiya, Yevropaning boshqa ba’zi mamlakatlarida, shuningdek Turkiyada dalillarni to‘plashda sud hanuzgacha faol[3]. Shunga o‘xshash holatlar Belarus[4], Bolgariya[5], Gruziya[6], Qozog‘iston[7], Qirg‘iziston[8], Armaniston[9] fuqarolik protsessual qonunchiligida kuzatiladi. Biroq, SSSR tarkibida bo‘lgan ayrim mamlakatlarida (misol uchun Ozarbayjanda) sud dalil to‘plashda qatnashmaydi[10].

Bizning fikrimizcha, albatta, har bir tomon o‘zi nazarda tutgan holatlarni tortishuv tamoyilidan foydalangan holda isbotlashi kerak. Ishning obyektiv holatlarini aniqlashning asosiy tamoyillaridan biri ham bu – tomonlarning tortishuvidir. Qolaversa, tortishuv tamoyili va dalillarni to‘plash jarayoni sud faoliyatining uyg‘un kombinatsiyasi hisoblanadi. Biroq, sudning dalillarni to‘plashdan to‘liq bosh tortishi obyektiv haqiqatga erishishning iloji yo‘qligiga olib kelishi mumkin. Tomonlar (xatto advokatlar ham) har doim ham kerakli dalillarni taqdim eta olmaydilar. Sud yetarli bo‘lmagan dalillar asosida qaror qabul qilishga majbur bo‘ladi va chiqarilgan qaror haqiqiy vaziyatga zid bo‘lishi mumkin. Natijada, fuqarolik jarayonining asosiy maqsadiga erishilmasligi mumkin. Rossiya sud amaliyotiga ko‘ra, sudning passiv roli bilan “sof raqobat” g‘oyalarini amalga oshirish mumkin emas. Sud faqat tomonlarni diqqat bilan tinglab, ular taqdim etilgan dalillar asosida nizoni hal qilolmaydi. Ya’ni, sud betaraf bo‘lolmaydi. Bir so‘z bilan aytganda, taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar uchun sudga dalillar taqdim etish qiyinchilik tug‘dirsa, ularga sud dalillar to‘plashda ularning iltimosnomasiga ko‘ra ko‘maklashishi lozim.

Osiyo mamlakatlarida fuqarolik jarayoniga Anglo-sakson va kontinental tizimlar ta’sir

ISSN 3030-3230

ko‘rsatadi. Sud jarayonida sudning rolini oshirish tendensiyasi faqat ushbu davlatlarga xosdir. Yaponiya fuqarolik protsessida sudyaning rolini kuchaytirdi[11]. Xitoy fuqarolik protsessida sudlarga keng vakolatlar berdi[12]. Ushbu sohada xalqaro huquqning rivojlanishi ham xuddi shunday yo‘nalishiga ega. Yevropa Ittifoqi a’zolari o‘rtasidagi ijtimoiy-madaniy farqlar shunchalik muhimki, ular fuqarolik protsessi sohasida yagona hujjat qabul qilinishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, 1906 yilda Amerikaning yetakchi huquq nazariyotchilaridan biri, professor Rosko Paund amerikalik sudyalarning passivligini kamchilik deb hisoblagan. Aksariyat zamonaviy protsesschi olimlar ham sud faoliyatini kuchaytirishni taklif qilmoqdalar[13], deb yozadi – professor Hazard (Hazard) va Taruffo (Taraffo).

Nigeriyaning fuqarolik jarayoni tabiatan umumiy (Anglo-sakson) huquq tizimiga mos bo‘lib, shu bilan birga, ushbu mamlakat Oliy sudi fuqarolik protsessual qonunchiligida dalillar to‘plashda sudni yanada faolroq harakat qilishga chaqiradi.

Ma’lumki, dalillarning mohiyati uning mazmuni va protsessual shaklining birligi bilan belgilanadi. Dalillarni maqbullik asosida baholashda protsessual shakl muhim ahamiyatga ega. Albatta, dalillar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ikkita element (faktlar va isbotlash vositalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar) dan iborat bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 71-moddasida isbotlash vositalarining to‘liq ro‘yxatini belgilab qo‘yilgan. Unga ko‘ra, taraflarning va uchinchi shaxslarning hamda ular qonuniy vakillarining tushuntirishlari, guvohlarning ko‘rsatuvlari, yozma va ashyoviy dalillar, ekspertlarning xulosalari, mutaxassislarning maslahatlari (tushuntirishlari) bilan aniqlanadi. Ushbu qoidaga amal qilgan sudlar boshqa isbotlash vositalarida mavjud bo‘lgan faktlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni dalil sifatida qabul qilmaydi.

Ilm-fan va texnikaning rivojlanishi yangi, ilgari noma’lum isbotlash vositalarining paydo bo‘lishiga yordam beradi. Biroq, ular yangi isbotlash vositalari sifatida bugungi kun qonunchiligiga kiritilmas ekan sudlar tomonidan dalil sifatida hisobga olinmaydi. Bu esa ishda haqiqatni aniqlash jarayonida salbiy omil bo‘lishi mumkin.

Sudya dalillarni baholashda uning sof va aralash huquqiy-faktik ma’lumotlarini bir-biridan farqlashi kerak. Sof huquqiy-faktik ma’lumotlar – isbotlash vositalaridir. Aralash huquqiy-faktik ma’lumotlar – dalillardir. Sud o‘z tashabbusi bilan tomonlar qaysi huquqiy asosga murojaat qilishidan qati nazar, sof qonun (yuridik fakt) normalarini keltirishi lozim. Qolaversa, qonun sudyaga huquqiy vositalarni (protsessual qonunni) qo‘llashni buyuradi va albatta, sud ushbu masalalarni (dalillarni to‘plashni) protsessning dastlabki bosqichida hal qilishi kerak, tomonlarning fikri sud tomonidan hisobga olinadi, ammo hal qiluvchi emas.

Fransiyada nizoning o‘zgarmasligi prinsipi mavjud. Bu uning elementlarini (da’vo elementlarini) o‘zgartirishning iloji yo‘qligini anglatadi. Biroq, bu tamoyil ba’zi istisnolarga imkon beradi. Masalan, siz aksessuar (qo‘shimcha, yordamchi) talablarni bildirishingiz mumkin. Sud imkon qadar da’voni rad etmasligi, balki kuchga kirgan bir xil da’vo bo‘yicha qaror (pretsedent) mavjudligi munosabati bilan sud jarayonini tugatishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi vaqtda tomonlarning tashabbusi va sud faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda dalillarni talab qilish jarayonida sudning vakolatlarini quyidagicha belgilash lozim:

- ***qanday dalillarni aniqlash;***
- ***ish uchun muhim bo‘lgan dalillarni isbotlash;***
- ***ishda ishtirok etayotgan shaxslarni qo‘shimcha dalillarni taqdim etishga taklif qilish;***
- ***taqdim etilgan dalillarning ko‘rib chiqilayotgan ish bilan bog‘liqligini tekshirish;***
- ***ekspert xulosasi talab qilinadigan masalalarning mazmunini belgilash;***
- ***agar ishni ekspert xulosasisiz to‘g‘ri hal qilishning iloji bo‘lmasa, o‘z tashabbusi bilan ekspertiza tayinlash.***

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar va o'rganilgan xorijiy davlatlar tajribasi misolida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. **O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 71-moddasi talabida keltirilgan isbotlash vositalari ro'yxatiga isbotlash vositalari sifatida audio va video yozuvlarni ham kiritish;**
2. **ilm-fan va texnikaning rivojlanish tendensiyalarini hisobga olgan holda isbotlash vositalarining yangi, ochiq ro'yxatini tuzatish;**
3. **fuqarolik protsessal qonunchiligida dalillarni to'plash va baholash jarayonida sud faoliyatini kuchaytirishga oid qo'shimcha va o'zgartirishlarni nazarda tutish;**
4. **dalillarning ishonchliligini baholashda yagona yondashuv mavjud emas. Bizning fikrimizcha, isbotlashning nazariy qoidalari bilan amaliy (asosiy) qoidalari o'rtasidagi nomutanosiblikni o'rganish.**

Аннотация. В статье освещается значение аргументации сторон при использовании доказательств в процессе ускорения гражданского судопроизводства, а также специфические аспекты активной (или пассивной) работы суда при сборе доказательств.

Ключевые слова: Гражданский процесс, Англо-саксонский, Романо-Германский, доказательство, средство доказательства, сбор доказательств, чистая и смешанная юридическая фактическая информация, зарубежный опыт.

Annotation. The article highlights the importance of the argumentation of the parties when using evidence and evidence in the process of speeding up civil proceedings, as well as specific aspects of the active (or passive) work of the court in collecting evidence.

Key words: Civil procedure,English-Saxon, Romano-German, proof, means of proof, collection of evidence, pure and mixed legal factual information, as well as foreign experience.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Woolf H. Access to Justice. Final Report to the Lord Chancellor on the Civil Justice System in England and Wales. L., 1996. P.5.
2. Andrews N. Principles of Civil Procedure. Oxford, 1994. P. 50; Zuckerman A.A. Civil Procedure. Oxford, 2003. P. 34; Grainger!., Pearly M., Spencer M. The Civil Procedural Rules in Action. L., 2000. P. 173.
3. Cadiet L. (Commentary) Code de procedure civile. P., 1999. P. 13; Croze H., Morel C. Procedure civile. P., 1988. P. 21; Vincent}., GuinchardS. Procedure civile. P., 1987. P. 398; Heron J. Droit judiciare prive. P., 2002. P. 264.
4. Ст. 179 ГПК республики Беларусь 1998 г. (Гражданский процессуальный кодекс Республики Беларусь: текст Кодекса по состоянию на 14 апр. 2006 г. Минск, 2006).
5. 4 ГПК Болгарии 1952 г. (с изм. 1996 г.).
6. 4 ГПК Грузии 1997г.
7. 66 ГПК Казахстана 1999 г.
8. 15 ГПК Кыргызстана 1964 г. (с изм. 1998 г.).
9. 49 ГПК Армении 1998 г.
10. 14.2 ГПК Азербайджана.
11. Taniguchi Y. Op. cit. C. 775; Hattori T., Henderson D.F. Civil Procedure in Japan. N.Y., 2002. P. 1-38.
12. Hsu B.F-C. The common law system in Chinese context. N.Y., 1992. P. 41; Cohen J.A. Reforming China's Civil Procedure: Judging the Courts // American Journal of Comparative Law. 1997. N 45. P. 794.
13. Hazard C.C., Taruffo M. American Civil Procedure. An Introduction. New Haven; L., 1993. P. 103.

ISSN 3030-3230

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОЦЕССА ПРОИЗВОДСТВА ПО ДЕЛАМ ОБ АДМИНИСТРАТИВНЫХ ПРАВОНАРУШЕНИЯХ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

Таллибаев Умиджон Шергазиевич,
Доцент кафедры «Обеспечения общественной безопасности»
Университета общественной безопасности Республики Узбекистан, д.ф.ю.н (PhD)

Казимов Соҳиб Саидович,
Начальник отдела Управления организации
образовательного процесса

Аннотация. **В статье проанализированы актуальные проблемы процесса возбуждения дел об административных правонарушениях в Республике Узбекистан, рассмотрены недостатки действующего законодательства и практика его применения, предложены пути совершенствования с учетом международного опыта и национальных особенностей.**

Ключевые слова: административные правонарушения, возбуждение дел, правовое регулирование, Узбекистан, реформы.

В современном обществе административное право играет ключевую роль в регулировании общественных отношений и обеспечении законности и правопорядка. Процесс производства по делам об административных правонарушениях является важным инструментом реализации государственной политики в сфере профилактики и пресечения правонарушений. В Республике Узбекистан, в условиях динамичных социально-экономических изменений и проводимых реформ, вопросы совершенствования данного процесса приобретают особую актуальность.

Анализ действующего законодательства и практики его применения выявляет ряд проблем и упущений, которые снижают эффективность административного производства. В частности, наблюдаются пробелы в правовом регулировании полномочий органов, уполномоченных возбуждать и рассматривать дела об административных правонарушениях, недостаточная процессуальная регламентация, а также отсутствие современных информационных технологий в управлении данными.

Основным нормативным актом, регулирующим вопросы административной ответственности в Республике Узбекистан, является Кодекс Республики Узбекистан об административной ответственности (КоАО). В нем определены основания, порядок и субъекты возбуждения дел об административных правонарушениях.

В действующем Кодексе Республики Узбекистан об административной ответственности (КоАО РУз) наблюдается существенный пробел в части определения органов, уполномоченных на возбуждение дел об административных правонарушениях. Статьи КоАО РУз предоставляют право возбуждать дела только органам прокуратуры, в то время как у других органов данное право прямо не указано. Это создает неопределенность в практике и приводит к затруднениям в реализации административно-правовых мер.

Отсутствие четкого законодательного регулирования полномочий других органов по возбуждению дел об административных правонарушениях имеет следующие негативные последствия:

- **Снижение эффективности правоприменения: Органы, непосредственно выявляющие административные правонарушения в сфере своей компетенции, ограничены в возможности инициировать дела, что замедляет процесс привлечения нарушителей к ответственности.**
- **Правовая неопределенность: Граждане и юридические лица сталкиваются с непредсказуемостью административного процесса, что подрывает доверие к системе правосудия.**

В Германии же административные правонарушения регулируются Законом

об административных правонарушениях (Gesetz über Ordnungswidrigkeiten, OWiG). Особенностями германской системы является то, что местные органы власти имеют право возбуждать дела в пределах своей компетенции, в то время как прокуратура осуществляет надзор за законностью процесса, но не монополизирует право возбуждать дела.

Процесс возбуждения дела начинается с выявления признаков административного правонарушения. Уполномоченное лицо составляет протокол об административном правонарушении, который должен содержать информацию о событии правонарушения, данные о нарушителе, свидетелях и иных обстоятельствах. [2]

Действующее законодательство не всегда предоставляет четкие и однозначные нормы, регулирующие процесс возбуждения дел. Это приводит к разночтениям и затрудняет применение закона на практике.

Часто при составлении протоколов допускаются процессуальные ошибки: неверно указываются статьи КоАО, отсутствуют необходимые сведения, нарушаются сроки. Такие нарушения могут служить основанием для отмены постановлений по делам об административных правонарушениях.

В тоже время сроки осуществления производства по делам об административных правонарушениях в Республике Узбекистан регламентированы статьей 282 Кодекса об административной ответственности Республики Узбекистан. [1] В соответствии с данной статьей, протокол, а также иные документы и вещественные доказательства по делу должны быть направлены органу (должностному лицу), уполномоченному на рассмотрение дела, не позднее одних суток с момента совершения или обнаружения административного правонарушения. Однако, на практике, некоторые виды правонарушений требуют проведения специальных экспертиз, что может занять значительное количество времени.

В тоже время, согласно Закону Республики, Узбекистан «Об обращениях физических и юридических лиц», государственные органы обязаны предоставить ответ на обращение в течение 15 суток. [3] Такое несоответствие сроков создает правовую неопределенность и затрудняет чёткое определение сроков производства по делам об административных правонарушениях. Таким образом, процессуальные сроки в данном вопросе не всегда обладают чётко установленными временными рамками, что может приводить к правовой неопределённости в отдельных случаях.

Многие должностные лица не обладают достаточными знаниями в области административного права, что приводит к неправильному применению законодательства и нарушению прав граждан. Примером можно указать статьи 248 КоАО где указаны должностные лица подразделений патрульно-постовой службы органов внутренних дел, стоит отметить что патрульно-постовая служба органов внутренних дел является строевыми подразделениями ОВД и не все руководители данной службы обладают юридическим образованием.

Стоит отметить, что в Республике Беларусь имеется Процессуально-исполнительный кодекс Республики Беларусь об административных правонарушениях который определяет:

1. **порядок административного процесса по делам об административных правонарушениях;**
2. **права и обязанности участников административного процесса по делам об административных правонарушениях;**
3. **порядок применения профилактических мер воздействия по делам об административных правонарушениях;**
4. **порядок исполнения административных взысканий по делам об административных правонарушениях. [7]**

Исходя из выше указанного предлагается:

Разработка и принятие нового КоАО, учитывающего современные требования и международные стандарты. На сегодняшний день Кодекс Республики Узбекистан об административной ответственности содержит в себе общую, специальную, процессуальную и исполнительные нормы административной ответственности. Для комплексного решения имеющихся упущений предлагается принять «Процессуально-исполнительный кодекс об административной ответственности» где будут подробно раскрыты процессуальные и

ISSN 3030-3230

исполнительные нормы административной ответственности.

Внесение изменений в действующие нормативные акты для устранения пробелов и противоречий.

Организация регулярных обучающих семинаров и курсов повышения квалификации.

Введение обязательной сертификации для должностных лиц, занимающихся возбуждением и производством, дел об административных правонарушениях.

Обеспечение доступа граждан к информации о возбужденных в отношении них делах через интернет-порталы.

Совершенствование процесса возбуждения дел об административных правонарушениях является важным шагом на пути укрепления законности и правопорядка в Республике Узбекистан. Реализация предложенных мер позволит повысить эффективность административной юстиции, обеспечить защиту прав и законных интересов граждан, а также усилить доверие общества к государственным институтам.

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni qo‘zg‘atish jarayonining dolzarb muammolari tahlil qilinadi. Amaldagi qonunchilikning kamchiliklari va uni qo‘llash amaliyoti ko‘rib chiqiladi, xalqaro tajriba va milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda takomillashtirish yo‘llari taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: ma’muriy huquqbuzarliklar, ishlarni qo‘zg‘atish, huquqiy tartibga solish, O‘zbekiston, islohotlar.

Abstract. This article analyzes the current problems of the process of initiating cases of administrative offenses in the Republic of Uzbekistan. The shortcomings of the current legislation and the practice of its application are considered, ways of improvement are proposed taking into account international experience and national characteristics.

Key words: administrative offenses, initiation of cases, legal regulation, Uzbekistan, reforms.

Использованная литература:

1. Кодекс Республики Узбекистан об административной ответственности // https://lex.uz/docs/97661#4362576

2. Закон Республики Узбекистан от 08.01.2018 г. № ЗРУ-457 «Об административных процедурах» // https://lex.uz/docs/3492203

3. Закон Республики Узбекистан от 11.09.2017 г. № ЗРУ-445 «Об обращениях физических и юридических лиц» (в новой редакции) // https://lex.uz/docs/3336171

4. Абдусаламов Ш.А. Административное право Узбекистана: Учебник. – Ташкент, 2020.

5. Рахимов К.К. Совершенствование административной ответственности в Узбекистане // Юридический вестник. – 2021. – №3.

6. Юлдашев А.Х. Проблемы применения административного законодательства в практике судов // Право и жизнь. – 2022. – №5.

7. Процессуально-исполнительный кодекс Республики Беларусь об административных правонарушениях // https://pravo.by/document/?guid=3961&p0=HK2100092 – Национальный правовой Интернет-портал Республики Беларусь.

MA’MURIY JAVOBGARLIK TO‘G‘RISIDAGI QONUN NORMALARINI BOJXONA AMALIYOTIDA TAVSIFLASHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Ismoilov Hamdam Ismoilovich,
Bojxona instituti dotsenti

Yusupov Shaxboz Lutfullo o‘g‘li,
Bojxona qo‘mitasi Surishtiruv va ma’muriy amaliyot boshqarmasi surishtiruvchisi

Annotatsiya. Ma’lumki, iqtisodiy siyosat choralari tushunchasi keng qamrovli bo‘lib, MJTKning moddalarida keltirilgan ba’zi huquqbuzarliklar tarkibi bo‘yicha ham aynan shu cheklovlarga rioya etilmasligi natijasida kelib chiqadi. Bu esa amaliyotda kvalifikatsiya masalalarida ayrim muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning “Boshqaruvning belgilangan tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar uchun ma’muriy javobgarlik” (XVI bob) nomli bobining 227, 227^{1}-227^{27} moddalarida bojxona qoidabuzarliklari uchun ma’muriy javobgarlikni belgilovchi normalar ko‘rsatib o‘tilgan. Mazkur qoidabuzarliklar bojxona chegarasini kesib o‘tish, bojxona rasmiylashtiruvi hamda bojxona to‘lovlarini undirish bilan bog‘liq jarayonlarda kelib chiqadi.

Ushbu maqolada ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonun normalarini bojxona amaliyoti bo‘yicha takomillashtirish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Iqtisodiy siyosat choralari, ma’muriy huquqbuzarlik, ma’muriy javobgarlik, bojxona chegarasini kesib o‘tish, bojxona rasmiylashtiruvi, bojxona to‘lovlarini undirish.

Mamlakatimizda hozirgi kunda huquqiy tartibga solishning tizimliligi va barqarorligini, davlat boshqaruvi tizimi, ijtimoiy-iqtisodiy hamda sud-huquq sohalarini isloh qilish bo‘yicha qonun hujjatlari normalarining bir xil qo‘llanilishini ta’minlash, olib borilayotgan islohotlarning samarali amalga oshirilishi uchun iqtisodiyot, valyuta siyosatini va ma’muriy hamda jinoiy jazolarni liberallashtirish bo‘yicha islohotlar amalga oshirib kelinmoqda.

Ma’lumki, bojxona qonunbuzilishi bo‘yicha javobgarlik ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi va Jinoyat kodekslarining maxsus qismida nazarda tutilgan moddalar bo‘yicha belgilanadi, ya’ni ***“Tovarlar va transport vositalarini bojxona chegarasidan o‘tkazish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi va boshqa qonun hujjatlari bilan qat’iy belgilangan. Tovarlar va transport vositalarini belgilangan tartibni buzgan holda bojxona chegarasidan har qanday tarzda o‘tkazish qonunga xilof hisoblanadi va ma’muriy yoki jinoiy javobgarlikka sabab bo‘ladi.” [1]***

Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning “Boshqaruvning belgilangan tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar uchun ma’muriy javobgarlik” (XVI bob) nomli bobining 227, 227^{1}-227^{27} moddalarida bojxona qoidabuzarliklari uchun ma’muriy javobgarlikni belgilovchi normalar ko‘rsatib o‘tilgan.

Mazkur qoidabuzarliklar bojxona chegarasini kesib o‘tish, bojxona rasmiylashtiruvi hamda bojxona to‘lovlarini undirish bilan bog‘liq jarayonlarda kelib chiqadi.

Mazkur 28 ta modda ichida Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 227^{19} – moddasi keng ma’noli dispozitsiyaga ega norma hisoblanadi, chunki ushbu modda bilan MJTKning boshqa moddalaridagi bojxona chegarasi orqali tovarlar olib o‘tishda o‘rnatilgan cheklovlar bilan bog‘liq huquqbuzarliklarni tavsiflash xususiyati mavjud bo‘lib, quyida mazkur moddalar solishtirish orqali tahlil qilinadi.

MJTKning 227^{19} – moddasi O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib o‘tishda iqtisodiy siyosat choralari va boshqa cheklovlarni qo‘llanish tartibiga rioya qilmaslik deb nomlangan va uning dispozitsiyasi quyidagicha bayon qilingan:

ISSN 3030-3230

Iqtisodiy siyosat choralari va boshqa cheklovlar qo‘llaniladigan tovarlarni ana shu choralar va cheklovlarni qo‘llanishning belgilangan tartibini buzgan holda O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o‘tish, O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksida nazarda tutilgan hollardan tashqari, tovarlar musodara qilinib, fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o‘n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — yetti baravaridan o‘n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi. Ya’ni bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib o‘tishda qonunchilikda o‘rnatilgan xar qanday cheklovlarga amal qilmaslik ushbu modda bilan tavsiflanishni nazarda tutadi. Shuningdek, modda sanksiyasida ma’muriy jazo chorasi sifatida ikki turdagi jazo musodara hamda jarima qo‘llanilishi belgilangan.

Mazkur moddadagi iqtisodiy siyosat choralari tushunchasiga Bojxona kodeksining 15-moddasida quyidagicha ta’rif berilgan:

Iqtisodiy siyosat choralari – tovarlarni va (yoki) transport vositalarini bojxona hududiga olib kirishga va ushbu hududdan olib chiqishga doir cheklovlar bo‘lib, ular kvota belgilashni, litsenziyalashni, shuningdek mamlakat iqtisodiyotining jahon xo‘jaligi bilan o‘zaro hamkorligini tartibga solishning boshqa chora-tadbirlarini o‘z ichiga oladi.

Ushbu ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, iqtisodiy siyosat choralari tushunchasi keng qamrovli bo‘lib, MJTKning boshqa moddalarida keltirilgan ba’zi huquqbuzarliklar tarkibi bo‘yicha ham aynan shu cheklovlarga rioya etilmasligi natijasida kelib chiqadi. Bu esa amaliyotda harakatlarni tegishli modda bilan kvalifikatsiya qilishda ayrim muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Xususan, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksda bojxona qoidabuzilishlari sifatida tavsiflanuvchi quyidagi huquqbuzarliklar mavjud.

MJTKning 184^2 – moddasi “Diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatish”.

184^2 – modda dispozitsiyasida Diniy mazmundagi materiallarni tarqatish maqsadida tayyorlash, saqlash, O‘zbekiston Respublikasiga olib kirish yoki tarqatish deb bayon etilgan. (aynan cheklov bilan bog‘liq)

Masalan, O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegarasini kesib o‘tayotgan jismoniy shaxs tomonidan diniy mazmundagi materiallarni olib kirishda “tarqatish maqsadi” jumlasi amaliyotda aynan ushbu modda bilan tavsiflashda muammolarga sabab bo‘lishi mumkin.

Qonunchilikdagi tegishli normativ hujjatga muvofiq, “Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan o‘z ehtiyojlari uchun har bir nomlanishdagi materialdan uch nusxadan oshmagan miqdorda, agar ular taqiqlangan materiallar ro‘yxatiga kiritilmagan bo‘lsa, ekspertiza o‘tkazilgandan keyin ***(Ekspertizaning ijobiy xulosasi O‘zbekiston Respublikasi hududida materiallarning muayyan turini tarqatish huquqini beradi.)*** O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilishiga yo‘l qo‘yilishi hamda materiallarni qanday maqsadlarda tarqatishga yo‘l qo‘yilmasligi ko‘rsatib o‘tilgan:”[2]

Aksariyat hollarda materiallarni olib kiruvchi shaxsning tarqatish maqsadi yo‘qligi 184^2 - modda bilan tavsiflashni inkor etadi.

Ushbu holatda yuqoridagi tushunchadan kelib chiqib, mantiqiy jihatdan 227^{19} – moddasi bilan tavsiflash mumkin bo‘ladi. Chunki ushbu modda dispozitsiyasida “tarqatish maqsadi” emas, faqat o‘rnatilgan cheklovlarning qo‘llanish tartibiga rioya qilmaslik ko‘rsatilgan.

Shuningdek, ushbu moddalarning sanksiyalari bir biridan farq qilib, 1842 - modda sanksiyasida ko‘rsatilgan jarima miqdori 22719 -modda sanksiyasiga nisbatan ancha yuqori belgilangan.

- **(184^2 – modda sanksiyasi materiallarni va ularni tayyorlash hamda tarqatish uchun tegishli vositalarni musodara qilib, fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan yuz baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — ellik baravaridan yuz ellik baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.)**
- **(227^{19} –modda sanksiyasi tovarlar musodara qilinib, fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o‘n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — yetti baravaridan o‘n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi. Xuddi shunday huquqbuzarlik ma’muriy jazo chorasi qo‘llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo‘lsa, — tovarlar musodara qilinib, fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravaridan o‘n besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — o‘n besh baravaridan o‘ttiz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.)**

Yuqoridagi sanksiyalar o‘rtasidagi katta miqdordagi farq davlat organlari tomonidan ma’muriy tartib-taomillar jarayonida ma’muriy jazo chorasini belgilash yuzasidan qaror qabul qilishda korrupsion holatlarni yuzaga kelishiga hamda ushbu turdagi huquqbuzarliklarni ko‘p marotaba takrorlanishiga sabab bo‘lishi mumkin, chunki norma talabi bo‘yicha 184^2 - moddadagi huquqbuzarlikni ikkinchi marotaba sodir qilgan shaxs to‘g‘ridan – to‘g‘ri jinoiy javobgarlikka tortiladi. 227^{19} – modda bo‘yicha esa aynan shunday huquqbuzarlik bir yil davomida takroran sodir etilgan taqdirda, ushbu moddaning tegishli qismi bilan javobgarlikka tortiladi.

Xorijiy davlatlarning bojxona qonunchiligi tahlil qilinib, bojxona ishi sohasidagi ma’muriy huquqbuzarliklar turlari ko‘rib chiqilganda MDX davlatlarining (Rossiya Federatsiyasi, Ukraina, Ozarbayjon, Armaniston, Belarus, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston) Bojxona kodeksi va Ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi kodekslarida tovarlar va transport vositalarini ushbu mamlakatlar hududiga olib kirish va ularning hududidan olib chiqishdagi taqiqlar va cheklovlar qo‘llash tartibiga rioya qilmaslik deb nomlangan normalar mavjud bo‘lib, moddalarning nomida ham, dispozitsiyasida ham iqtisodiy siyosat choralari tushunchasi aks ettirilmagan. Quyida yuqoridagi xorijiy davlatlarning O‘zbekiston Respublikasi MJTKning 227^{19} – moddasiga o‘xshash moddalari keltirilgan.

➤ Rossiya Federatsiyasi Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi kodeksi 16-bob “Bojxona sohasidagi ma’muriy huquqbuzarliklar” 16.3-moddasi:

Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi yoki Rossiya Federatsiyasining bojxona hududiga tovarlarni olib kirish va (yoki) tovarlarni Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqining bojxona hududidan yoki Rossiya Federatsiyasi hududidan olib chiqish bo‘yicha taqiq va (yoki) cheklovlarga rioya qilmaslik.[3]

Qirg‘iziston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 35–bobi “Bojxona sohasidagi ma’muriy huquqbuzarliklar”

504-17-moddasi:

Tovarlar va transport vositalarini Bojxona ittifoqining bojxona chegarasi orqali olib o‘tishda iqtisodiy tartibga solish choralari va boshqa cheklovlarni qo‘llash tartibiga rioya qilmaslik. [4]

Tojikiston Respublikasi Ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi kodeksi 32-bobi “Bojxona sohasidagi ma’muriy huquqbuzarliklar”

579-moddasi:

Tojikiston Respublikasi iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha choralarga va boshqa cheklovlarga rioya qilmagan holda tovarlar yoki transport vositalarini olib o‘tish

Turkmaniston Respublikasi Ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi kodeksi 392 – modda:

Turkmaniston bojxona chegarasi orqali tovarlar olib o‘tishda taqiqlash va cheklashlarga rioya qilmaslik

Qozog‘iston Respublikasi Ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi kodeksi 29-bob “Bojxona sohasidagi ma’muriy huquqbuzarliklar”

545 – moddasi:

Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqining bojxona chegarasi orqali tovarlar va transport vositalarini olib o‘tishda taqiq va cheklovlarni qo‘llash tartibiga rioya qilmaslik.[5]

Ozarbayjon Respublikasi Ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi kodeksi 37-bobi “Bojxona qoidalariga tajovuz qiluvchi ma’muriy huquqbuzarliklar” 502-moddasi:

Ozarbayjon Respublikasi bojxona chegarasi orqali tovarlar va transport vositalarini olib o‘tishda savdo siyosati va boshqa cheklovlar choralarini qo‘llash tartibiga rioya qilmaslik.[6]

Ukraina va Gruziya davlatlarida bojxona sohasidagi ma’muriy huquqbuzarliklar turlari hamda javobgarliklar Bojxona kodeksida belgilangan bo‘lib, cheklovlar choralarini qo‘llash tartibiga rioya qilmaslik bo‘yicha javobgarlikni nazarda tutuvchi modda kiritilmagan.[7]

Yuqoridagi tahlillar hamda ayrim xorijiy davlatlarlarning tajribalaridan xulosa qilib, amaliyotda davlat organlari tomonidan ma’muriy ishni yuritish va ko‘rib chiqishda o‘rganib chiqilgan moddalarni (184^2, 227^{19}-moddalari) to‘g‘ri qo‘llanishi hamda bir xilda tavsiflanishi uchun 184^2 – moddaning dispozitsiyasidagi “O‘zbekiston Respublikasiga olib kirish” degan so‘zlarni chiqarib tashlash hamda 227^{19} – moddasini quyidagicha yangi tahrirda bayon etish taklif etiladi.

227^{19} – moddasi nomi: O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib o‘tishda o‘rnatilgan cheklovlar va (yoki) taqiqlarga rioya qilmaslik.

Dispozitsiyasi: O‘rnatilgan cheklovlar va (yoki) taqiqlar qo‘llaniladigan tovarlarni belgilangan tartibni buzgan holda O‘zbekiston

ISSN 3030-3230

Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o‘tish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-dekabrdagi PF-5286-sonli farmoni 2-ilovasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasiga import qilinishi (olib kelinishi) taqiqlangan buyumlar ro‘yxati ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, ya’ni quyidagi mazmundagi materiallarni O‘zbekiston Respublikasi chegarasi orqali olib o‘tish taqiqlanadi.

Davlat va jamiyat tuzumini qo‘porishga, hududiy yaxlitlik, siyosiy mustaqillik va davlat suverenitetini buzishga yo‘naltirilgan, urush, terrorizm, zo‘ravonlik, milliy ustunlik va diniy nafratni, irqchilik va uning turlari (antisemitizm, fashizm)ni targ‘ib qiluvchi bosma asarlar, qo‘lyozmalar, klishelar, rasmlar, fotosuratlar, fotoplyonkalar, negativlar, kino-, video- va audiomahsulotlar, gramzapislar, ovozli materiallar, shuningdek, pornografiya mazmunidagi materiallar.

Mazkur ro‘yxatdagi taqiqlangan mahsulot (tovarlar) va materiallarni olib kirishda huquqbuzarlik jismoniy shaxs tomonidan bevosita bojxona chegarasini kesib o‘tishda sodir etilishi tufayli aynan

227^{19} – modda bilan tavsiflashni nazarda tutadi.

184^{2} - modda bo‘yicha javobgarlikni belgilash esa taqiqlangan mahsulot va materiallarni O‘zbekiston Respublikasining faqatgina ichki hududidagi qonunga xilof muomalasi aniqlanganda tavsiflanadi.

Bundan tashqari, bojxona chegarasini kesib o‘tishda taqiqlangan tovarlarni olib o‘tishda sodir etiladigan huqubuzarliklar (MJTKning 189 va 189^{1} -moddalar) mavjud bo‘lib, ular bo‘yicha Rossiya Federatsiyasi, Ukraina, Gruziya, Latviya, Litva, Estoniya va bir qator rivojlangan davlatlarning Ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi qonunchiligi o‘rganilganda, O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 189 va 189^{1} – moddalariga o‘xshash normalar mavjud emasligi kuzatildi.

189 – modda. Pornografik mahsulotni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish ya’ni Pornografik mahsulotni tarqatish, reklama qilish, namoyish etish maqsadida tayyorlash yoki O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, pornografik mahsulotni reklama qilish, namoyish etish, tarqatish, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki Internet jahon axborot tarmog‘ida reklama qilish, namoyish etish, tarqatish.

189^{1}-modda. Tazyiqni, zo‘ravonlikni yoki shafqatsizlikni targ‘ib qiluvchi mahsulotni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish, ya’ni tazyiqni, zo‘ravonlikni yoki shafqatsizlikni targ‘ib qiluvchi mahsulotni tarqatish, reklama qilish, namoyish etish maqsadida tayyorlash yoki O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, uni reklama qilish, namoyish etish, tarqatish, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki Internet jahon axborot tarmog‘ida reklama qilish, namoyish etish, tarqatish.

Mazkur moddalardagi harakatlar uchun javobgarlik yuqorida sanab o‘tilgan davlatlarning faqat Jinoyat qonunchiligi bilan tartibga solinishi belgilab qo‘yilgan.

Yuqoridagi takliflarga qo‘shimcha ravishda, 189 va 189^{1} – moddalarni O‘zbekiston Respublikasi MJTKdan chiqarib tashlash taklif etiladi.(mazkur huquqbuzarliklarni faqat Jinoyat kodeksida belgilash)

Bayon etilgan takliflarni amalda tadbiq etish natijasida bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib o‘tishda o‘rnatilgan cheklovlar va taqiqlarga rioya qilmaslik amaliyotda aynan birgina MJTKning

227^{19} – moddasi bo‘yicha kvalifikatsiya qilishni nazarda tutadi.

Аннотация. Известно, что концепция мер экономической политики является всеобъемлющей, что вытекает из того факта, что именно эти ограничения не соблюдаются даже с точки зрения содержания определенных нарушений, представленных в статьях КОАО. Это вызывает некоторые проблемы при квалификации вопросов на практике.

В статьях 227, 227^{1}-227^{27} главы Кодекса об административной ответственности «Административная ответственность за правонарушения, посягающие на установленный порядок управления» (глава XVI) указаны нормы, устанавливающие административную ответственность за нарушения таможенных правил. Эти

нарушения возникают в процессах, связанных с пересечением таможенной границы, таможенным оформлением и взиманием таможенных пошлин.

В данной статье рассматриваются вопросы влияния норм закона об административной ответственности на таможенную практику.

Ключевые слова: меры экономической политики, административные правонарушения, административная ответственность, пересечение таможенной границы, таможенное оформление, взимание таможенных платежей.

Annotation. It is known that the concept of economic policy measures is comprehensive, resulting from the fact that it is precisely these restrictions that are not observed even in terms of the content of certain violations presented in the articles of the Mjtk. This creates some problems in practice in qualifying issues.

Articles 227, 227^{1}-227^{27} of the chapter of the code of administrative responsibility titled “administrative responsibility for offenses encroaching on the established order of Administration” (Chapter XVI) indicate the norms establishing administrative responsibility for customs violations. These violations arise in the processes associated with crossing the customs border, customs clearance and the collection of customs duties.

This article covers the issues of improving the norms of the law on administrative responsibility on customs practice.

Key words: economic policy measures, administrative offenses, administrative responsibility, crossing the customs border, customs clearance, collection of customs duties.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 20.02 2023-yildagi 2- sonli Qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 20-yanvardagi “Diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish sohasidagi faoliyatni amalga oshirish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 10-sonli Qarori.
3. http://www.consultant.ru (rulaws.ru).
4. http://minjust.gov.kg .
5. https://online.zakon.kz.
6. http://continent-online.com .
7. http://matsne.gov.ge

ISSN 3030-3230

FUQAROLIK SUD ISHLARINI YURITISHNING PROTSESSUAL KAFOLATLARI TUSHUNCHASI, MOHIYATI VA TIZIMI

Mansurova Xulkar Nabiyevna,
O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada fuqarolik sud ishlarini yuritish vazifalarini amalga oshirishning protsessual kafolatlari, uning tushunchasi, huquqiy tabiati va ahamiyati tahlil qilinib, unda milliy va xorijiy qonunchilik tajribasi tahlili asosida fuqarolik sud ishlarini yuritishda ushbu institutni yanada takomillashtirishga qaratilgan takliflar asoslantirilgan.

Kalit so‘zlar: fuqarolik protsessual kodeksi, fuqarolik sud ishlarini yuritish, vazifalar, protsessual kafolatlar, xorijiy tajriba, takomillashtirish.

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasidagi muhim va avvalgi konstitutsiyalardan farq qiladigan jihatlaridan biri uning 55-moddasi uchinchi qismida har kimga buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash uchun uning ishi qonunda belgilangan muddatlarda vakolatli, mustaqil hamda xolis sud tomonidan ko‘rib chiqilishi huquqi kafolatlanishining belgilab qo‘yilishi bo‘ldi [1].

Konstitutsiyamizda nazarda tutilgan ushbu qoida Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 8-bandida ko‘rsatilgan “har bir inson, mabodo uning konstitutsiya yoki qonun berib qo‘ygan asosiy huquqlari buzilgudek bo‘lsa, nufuzli milliy sudlar tomonidan o‘z huquqlarining samarali tarzda tiklanishi huquqiga egadir”, deb ko‘rsatilgan normalariga muvofiq keladi [2].

Bir so‘z bilan aytganda, huquq va erkinliklari buzilgan har bir shaxsning ishi, masalan, fuqarolik ishi qonunda belgilangan muddatlar fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlarda ko‘rib chiqilishi kafolatlanadi.

Shu o‘rinda, ushbu kafolatni amalga oshirish mexanizmi mamlakatimiz Fuqarolik protsessual kodeksi (keyingi o‘rinlarda FPK deb yuritiladi)da o‘z ifodasini topgan. Unga ko‘ra, fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarini, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, O‘zbekiston Respublikasining huquqlari va manfaatlarini, shuningdek korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining huquqlari hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida fuqarolik ishlarini to‘g‘ri, o‘z vaqtida ko‘rib chiqish va hal etish fuqarolik sud ishlarini yuritish vazifalari sifatida e’tirof etiladi (FPKning 2-moddasi). Shuningdek, FPKda fuqarolik ishlarini to‘g‘ri va o‘z vaqtida ko‘rish hamda hal etish uchun yuir qator protsessual kafolatlar nazarda tutilgan.

Shu o‘rinda, yuridik lug‘atlarda protsessual kafolatlar (fransuzcha garantie - xavfsizlik) deganda sud ishlarini yuritish vazifalariga erishish va jinoyat va fuqarolik ishlari bo‘yicha shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning qonun bilan belgilangan huquqiy vositalar tizimi ekanligi haqida ta’rif beriladi [3].

Darhaqiqat, protsessual kafolatlar FPKning 2-moddasida nazarda tutilgan fuqarolik sud ishlarini yuritishning vazifalarini amalga oshirishning bir qator huquqiy vositalarini nazarda tutadi. O‘z navbatida ushbu huquqiy vositalar orqali fuqarolik protsessining ishtirokchilari o‘zlariga yuklangan vazifalarni bajarish, protsessual qonunchilik bilan o‘zlariga berilgan huquqlardan foydalanish va protsessual majburiyatlarni bajarish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Buning natijasida sudning qonuniy, asosli va adolatli qaror qabul qilishi uchun zaruriy shart-sharoit yaratiladi.

Shu o‘rinda yuridik adabiyotlarda to‘g‘ri ta’kidlanganidek, fuqarolik protsessida fuqarolar va tashkilotlarning huquqlarini amalga oshirish va himoya qilishning protsessual kafolatlari konsepsiyasi “huquqiy kafolatlar” kabi bir muncha kengroq bo‘lgan tushunchalarning tarkibida bo‘lib, uni umumiy nazariy va sohaviy fanlarining ilmiy qoidalari prizmasi orqali ko‘rib chiqish taqozo etiladi.

Muqaddam fuqarolik protsessual huquqi fanining namoyandalari o‘z tadqiqot ishlarida asosan sud qarorini ijro etish kafolatlarini

o‘rganib kelishgan. Ayrim o‘rinlarda fuqarolik protsessual kafolatlar sud ishlarini yuritishning prinsiplariga rioya qilish, ayrim toifadagi fuqarolik ishlarini sudda ko‘rish jarayonidagi protsessual xususiyatlarga rioya qilish nuqtai nazaridan o‘rganilganligini ham ta’kidlash joiz [4]. Biroq fuqarolik sud ishlarini yuritish vazifalarining kafolatlari fuqarolik protsessining bosqichlari nuqtai nazaridan ko‘rib chiqilmagan va amaldagi qonunchilik normalariga mos ravishda fuqarolik ishini qo‘zg‘atish, uni tayyorlash va sudda ko‘rish bosqichida ushbu kafolatlarni amalga oshirish masalalari kompleks o‘rganilmagan.

Yuridik adabiyotlarda ta’kidlanishicha, umumiy huquqiy ma’noda kafolatlar – bu shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini amalga oshirishda teng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy, huquqiy, tashkiliy vositalar va usullar majmuidir [5]. Yuqoridagi ta’rif kafolatlar ma’lum vositalar va usullar tizimi ekanligini ta’kidlashga imkon beradi.

Yuridik adabiyotlarda ta’kidlanishicha, protsessual huquq nazariyasida “shaxs huquqlarini ta’minlashning protsessual vositalari” atamasi bilan “protsessual kafolatlar”ning ma’nosi va maqsadi bir xil va ular sinonim ekanligi to‘g‘risida fikrlar ilgari suriladi [6].

N.N.Tkachevaning fikricha, o‘rnatish usuliga qarab, kafolatlarni huquqiy kafolatlar va boshqa (umumiy) kafolatlar turlariga ajratish mumkin [7].

Bizning fikrimizcha, sudda shaxs huquqlari va erkinliklarini hamda qonuniy manfaatlarini ta’minlash protsessual huquqiy munosabat ishtirokchilarining subyektiv huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini ta’minlovchi bir qator kafolatlarni o‘z ichiga olishi va ular ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-mafkuraviy va huquqiy kafolatlardan iborat bo‘lishi lozim. Shu o‘rinda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy (ma’naviy) kafolatlar odatda sud ishlarini yuritishda umumiy kafolatlar sifatida tasniflansa, protsessual-huquqiy kafolatlar bo‘lsa - maxsus kafolatlar sifatida e’tirof etiladi.

Bizning nazarimizda ijtimoiy-iqtisodiy kafolatlar muayyan iqtisodiy asoslarni yaratish natijasida shaxsni moddiy jihatdan himoya qilish, sud ishini yuritish jarayonida uning huquqlari va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishni nazarda tutadi. Siyosiy kafolatlar esa davlat siyosatini amalga oshirishda demokratiyani, ijtimoiy adolatni, fuqarolar o‘rtasida tinchlik va milliy totuvlikni ta’minlashga, qonunga va sudga nisbatan hurmat munosabatini shakllantirishga hamda sud ishlarini o‘z vaqtida va to‘g‘ri ko‘rib chiqilishi va hal etilishiga e’tibor qaratilishiga muayyan yo‘nalishlar berishda juda muhim o‘rin tutadi. Biroq maxsus kafolat sifatida e’tirof etiladigan protsessual-huquqiy kafolatlar bo‘lsa sud ishlarini yuritish vazifalari va maqsadlariga erishishga qaratilgan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan vositalar va ular asosida belgilanadigan usullar majmui bo‘lib, sud ishlarining ko‘rilishida fuqarolar va tashkilotlarning huquqlarini to‘liq himoya qilishni ta’minlaydigan huquqiy mexanizm sifatida qaraladi.

Shu o‘rinda, fuqarolik sud ishlarini yuritishning kafolatlarini amalga oshirishning huquqiy mexanizmiga ta’rif beradigan bo‘lsak, fuqarolik protsessual huquqi normalari bilan tartibga solinadigan fuqarolik protsessining barcha bosqichlarida fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining faoliyatini kafolatlashga qaratilgan va uni samarali amalga oshirilishini nazarda tutuvchi tartib-taomillar tushuniladi.

Huquqshunos olim D.V.Tarabrin ham o‘z ilmiy tadqiqot ishlarida fuqarolik protsessining kafolatlarini amalga oshirish mexanizmiga ta’rif berar ekan, uning avvalo fuqarolik protsessual huquqi normalari bilan tartibga solinishi, fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlarning barcha ishtirokchilari faoliyatida fuqarolik protsessining kafolatlarini amalga oshirish tartibini belgilashini ko‘rsatadi [8]. Biroq ushbu olim o‘z ta’rifida fuqarolik protsessining barcha bosqichlarida fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining faoliyatini kafolatlash hamda ushbu kafolatlarni samarali amalga oshirilishini nazarda tutmaydi.

Yuridik adabiyotlarda ilgari surilgan fikr-mulohazalarni tahlil qilgan holda [9] fuqarolik protsessual kafolatlarni amalga oshirish mexanizmi quyidagi elementlardan iborat bo‘lishi to‘g‘risida xulosa qilish mumkin: birinchidan, fuqarolik protsessual huquqiy munosabat ishtirokchilarining protsessual huquqlari va majburiyatlari to‘g‘risida xabardor qilinganligi; ikkinchidan, protsess

ISSN 3030-3230

ishtirokchilariga tegishli bo‘lgan huquq va majburiyatlarning hajmi, mazmuni va ulardan foydalanish doirasini belgilab beruvchi normalar; uchinchidan, protsess ishtirokchilarining huquq va erkinliklarga rioya qilishi, ularni himoya qilish jarayonida qo‘llanilishi lozim bo‘lgan huquqiy vositalar; to‘rtinchidan, protsess ishtirokchilari tomonidan ularning protsessual huquq va majburiyatlarini amalga oshirishga bevosita bog‘liq bo‘lgan organlar (mansabdor shaxslar) ning belgilab qo‘yilganligi; beshinchidan, qonun hujjatlariga muvofiq protsess ishtirokchilariga o‘z huquqlarini amalga oshirish imkonining berilishi; oltinchidan, protsess ishtirokchilarining huquq va erkinliklarni buzilishiga qarshi huquqiy vositalarning mavjudligi va muayyan shaxsning buzilgan huquqlarini tiklash.

Boshqa hollarda protsessual kafolatlarning mazmunida har qanday protsessual-huquqiy vositalar tan olinadi. Masalan, N.A.Chechinaning fikricha, aynan protsessual qonun hujjatlaridagi mavjud qoidalarning tizimi, uning turkumlanishi, protsessual shakl demokratizm va odil sudlovga yo‘l qo‘yilishidagi barqarorlikning kafolatlanishini ta’minlaydi [10]. Huquqshunos olim prof. M.M.Mamasiddiqov o‘z asarlarida fuqarolik protsessual kafolatlar sifatida sudda fuqarolik ishini qo‘zg‘atish bosqichida sud tomonidan ishni qo‘zg‘atish to‘g‘risidagi ajrim chiqarish muddatining belgilanishini, fuqarolik protsessida malakali yuridik yordam olishga bo‘lgan huquqni ro‘yobga chiqarishni, fuqarolik ishlarini sudda ko‘rish muddatlariga amal qilinishini, ishni sudda ko‘rishga tayyorlash bosqichida taraflarni kelishtirish choralarini ko‘rish kabi protsessual vositalarning muhimligini ta’kidlaydi [11].

Fuqarolik sudishlarini yuritishning kafolatlari - bu fuqarolik protsessual huquqi normalarida mustahkamlangan, fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining subyektiv huquqlari va qonuniy manfaatlarini fuqarolik protsessining barcha bosqichlarida himoya qilinishini ta’minlovchi huquqiy vositalar va usullar tizimidir.

Fuqarolik sud ishlarini yuritishning kafolatlarini turkumlash va uning tizim haqida gapirganda yuridik adabiyotlarda yuridik kafolatlarni turkumga ajratgan huquqshunos olimlarning fikr-mulohazalariga to‘xtalmasdan iloj yo‘q. Binobarin, yuridik adabiyotlarda protsessual kafolatlarni ro‘yobga chiqarishga xizmat qiluvchi protsessual-huquqiy vositalarning turkumlanishi borasida turli fikr-mulohazalar ilgari surib kelingan. Masalan, ayrim guruh olimlarning (L.D.Kokorev) fikricha, protsessual-huquqiy vositalar tizimi quyidagilarni o‘z ichiga oladi: jarayon ishtirokchilarining huquqlari va majburiyatlari mustahkamlangan protsessual qoidalar, fuqarolik-protsessual tamoyillar, fuqarolik-protsessual shakl, sud protsessi ishtirokchilarining faoliyati, sud tomonidan qabul qilingan qarorlarning asosliligini tekshirish tizimi; protsessual harakatlarning qonuniyligini tekshirish tizimi, yuridik (protsessual) javobgarlik, protsessual majburlash, protsessual choralar (sanksiyalar) [12]. M.I.Baytin huquqiy kafolatlarni amalga oshirish mexanizmini asosiy belgilari sifatida huquqiy barqarorlik, subyektlar doirasi, ushbu kafolatlarni buzganlik uchun javobgarlikni ko‘rsatadi [13]. N.N.Tkacheva esa huquqiy kafolatlar uning qonunchilikda mustahkamlab qo‘yilishi bilan tavsiflanishini, bu esa uning boshqa nohuquqiy bo‘lgan kafolatlardan ajratish imkonini beradigan asosiy farqi ekanligini ko‘rsatadi [14].

Bizning fikrimizcha, huquqiy kafolatlar borasida M.I.Baytin va N.N.Tkachevalarning nuqtai nazarlari batafsil emas va huquqiy kafolatlarning tizimini to‘liq ochib bermagan. Nazarimizda, huquqiy kafolatlarni birgina belgisi, ya’ni uning qonunchilikda mustahkamlab qo‘yilishining o‘zi uning to‘liq tavsifini ochib bera olmaydi. Buning uchun huquqiy kafolatlarning tavsiflovchi turkumlarga ajratib o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Bu borada o‘rganilgan olimlarning, masalan, O.V.Belyanskayaning fikricha, huquqiy kafolatlar bir necha guruhga bo‘linadi. Birinchi guruhga qonunchilikda huquq va erkinliklarning doirasi aniq belgilab qo‘yilganligi; yuridik faktlar, ularni amalga oshirishning protsessual shakli, ularni amalga oshirish ko‘maklashadigan huquqiy choralar kiradi. Huquqiy kafolatning ikkinchi guruhiga konstitutsiyaviy nazorat va tekshiruv, shaxs huquqlari va erkinliklarning buzilishida aybdor bo‘lganlarni jazolash va ulardan himoyalanish choralari; nazorat va tekshiruvni amalga oshiruvchi protsessual shakllar; shaxs huquqlari va erkinliklarini himoya qiluvchi va huquqbuzarliklarni oldini oluvchi vositalar va boshqa huquqiy vositalarning mavjudligini kiritadi [15].

O.V.Belyanskayaning fikrini tahlil qilar ekanmiz, unda fuqarolik sud ishlarini yuritish vazifalarini amalga oshiruvchi protsessual kafolatlar fuqarolik protsessining bosqichlari nuqtai nazaridan ko‘rib chiqilmagan va amaldagi qonunchilik normalariga mos ravishda fuqarolik ishini qo‘zg‘atish, uni tayyorlash va sudda ko‘rish

bosqichida ushbu kafolatlarni amalga oshirish masalalari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari e’tiborga olinmaganligini ko‘rish mumkin.

Shu o‘rinda fuqarolik protsessual kafolatlarni turkumlashtirishda O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi 55-moddasida belgilangan kafolatlardan kelib chiqish lozim bo‘ladi. Unga ko‘ra, har kim o‘z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilish, o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish, buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash uchun uning ishi qonunda belgilangan muddatlarda vakolatli, mustaqil hamda xolis sud tomonidan ko‘rib chiqilishi huquqining kafolatlanishi bilan bog‘lash maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Sud himoyasiga bo‘lgan konstitutsiyaviy huquqni, huquqiy kafolatlarga oid doktrinal tasniflar hamda fuqarolik protsessual qonun hujjatlarida mustahkamlab qo‘yilgan normalar mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, fuqarolik sud ishlarini yuritish vazifalarini amalga oshiruvchi protsessual kafolatlarni quyidagicha tasniflashni taklif qilamiz:

1. qonuniylik va huquq-tartibotni mustahkamlash, qonunga va sudga nisbatan hurmat munosabatini shakllantirish;
2. taraflar va uchinchi shaxslarning sud orqali himoyalanishga bo‘lgan subyektiv huquqlarini amalga oshirilishi;
3. fuqarolik ishlarini to‘g‘ri, o‘z vaqtida ko‘rib chiqish va hal etish;
4. fuqarolik sud ishlarini yuritishda ochiqlik va oshkoralikni ta’minlash.

Shu o‘rinda yuridik adabiyotlarda olimlar yuqoridagi protsessual kafolatlar qatoriga nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilishni ham kiritadi [16]. Biroq bizning fikrimizcha, nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilish alohida protsessual kafolat sifatida emas, balki fuqarolik ishlarini to‘g‘ri, o‘z vaqtida ko‘rib chiqish va hal etish kabi protsessual kafolatlarning tarkibiy qismi sifatida e’tirof etilishi kerak.

Fuqarolik sud ishlarini yuritish vazifalarini amalga oshiruvchi protsessual kafolatlar ichida taraflar va uchinchi shaxslarning sud orqali himoyalanishga bo‘lgan subyektiv huquqlarini amalga oshirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, Xususan, Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining 8-moddasida har bir inson, mobodo unda Konstitutsiya, qonun berib qo‘ygan asosiy huquqlarni buzgudek bo‘lsa, nufuzli milliy sudlar tomonidan o‘z huquqlarini samarali tarzda tiklanish huquqiga ega ekanligi mustahkamlab qo‘yilgan [17]. Ta’kidlash joizki, mamlakatimizda fuqarolarning sud orqali himoyalanish kafolatlari jiddiy tarzda kuchaytirilishi, ushbu kafolatdan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirishni ta’minlash bo‘yicha katta ko‘lamdagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi natijasida yurisdiksiya sudlariga taalluqli bo‘lgan fuqarolik ishlarining sud amaliyotida ko‘pchilikni tashkil etishiga olib keldi. Statistik ma’lumotlarga qaraganda, 2021-yilda respublikamizning fuqarolik ishlari bo‘yicha barcha sudlarda ko‘rilgan ishlarning umumiy soni 351 275 tani tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2022-yilda 562 286 tani tashkil etgan. Tumanlararo, tuman (shahar) sudi tomonidan chiqarilgan sud buyruqlarining soni ham jiddiy ravishda oshib, 2021 yilda 166 812 tani tashkil qilgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2022-yilda 301 597 tani tashkil etgan [18]. Bu ko‘rsatkich, mos ravishda 2023-yilda ham oshib borganligini ko‘rish mumkin.

Har qanday manfaatdor shaxs buzilgan yoki nizolashilayotgan huquqi yoxud qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatini himoya qilish maqsadida sudga murojaat qilish bo‘yicha subyektiv huquqlarni amalga oshirishi bir qator shartlarga asoslangan bo‘lib, bunga ko‘ra FPK va boshqa qonun hujjatlari bilan manfaatdor shaxslarning sudlarga qonunda belgilangan tartibda va muddatlarda da’vo qo‘zg‘atish majburiyatini ham yuklaydi.

Sudya shaxsning sudga murojaat etish huquqi borligiga ishonch hosil qilganidan so‘ng, sudga murojaat etish qoidalari buzilmaganligini tekshirishi lozim. Bunday qoidalar quyidagilardan iboratdir:

- sudga bu ishning tegishliligini aniqlash;
- vakilning mazkur ishda qatnashishga vakolatli ekanligi aniqlash;
- arizaning shakli va mazmuniga oid protsessual qonun talablariga rioya qilinganligini tekshirish;
- davlat bojining to‘langanligi aniqlash.

Biroq ta’kidlash joizki, shaxs uning huquq va qonuniy manfaati boshqa shaxslar tomonidan buzilganligini isbot qila olish-olmasligidan qat’i

ISSN 3030-3230

nazar sudga murojaat etish huquqiga ega bo‘ladi.

Shuningdek, sudya da’vo qilish muddati o‘tkazib yuborilgan degan asos bilan da’vo arizani qabul qilmaslikka ham haqli emas. Sud da’vo muddati uzrli sabablarga ko‘ra o‘tkazib yuborilgan deb topsa, bu muddatni tiklaydi. Agar sud ishdagi hujjatlarni har tomonlama tekshirib, sudga murojaat qilish muddati uzrsiz sabablarga ko‘ra o‘tkazib yuborilganligini aniqlasa, da’voni rad etadi.

FKning 153-moddasi ikkinchi qismi hamda FPKning 10-moddasi mazmuniga ko‘ra, fuqarolik sud ishlarini yuritish taraflarning tortishuvi va teng huquqliligi asosida amalga oshirilishi tufayli da’vogarning sudga murojaat etish muddatini o‘tkazib yuborganligi masalasi sud tomonidan faqat nizodagi tarafning bergan arizasiga muvofiq qo‘llaniladi.

FPKning 3-moddasiga ko‘ra, sudga murojaat qilish huquqidan voz kechish haqiqiy emas. Darhaqiqat, sudga murojaat qilish huquqidan noilojlik (ilojsizlik) orqasidan voz kechish qabul qilinmaydi. Erkin huquqlilik tamoyiliga ko‘ra, manfaatdor shaxs o‘z huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni so‘rab sudga murojaat qilishni o‘zi hal etadi. Agar manfaatdor shaxs u yoki bu sabablarga ko‘ra yoki biron-bir ta’sirsiz sudga murojaat qilmasa, ushbu holat sudga murojaat qilish huquqidan voz kechish, deb baholanmasligi kerak [19]. Yuridik adabiyotlarda ham erkin huquq tamoyiliga fuqarolik protsessual huquqi subyektlarining protsessni vujudga keltirishi, harakatlanishi va tugashi bilan bog‘liq bo‘lgan protsessual huquqlar va ular tomonidan amalga oshirilishi uchun sud, prokuratura, davlat boshqaruv organlari tomonidan yordam ko‘rsatilish bilan bog‘liq nizoli moddiy huquqlaridan foydalanish erkinligi ekanligi haqida fikrlar ilgari suriladi [20].

Darhaqiqat, sudga murojaat qilish huquqidan voz kechish tanlov natijasi ekanligi, bunda bir qator ijobiy (ehtimol salbiy) xatti-harakatlar orasidan eng maqbul va ijtimoiy (individual) foydalisi tanlanishi mumkin, shu nuqtai nazardan qaraganda, sudga murojaat qilish huquqidan voz kechish ayrim hollarda turli xil va doimiy rivojlanayotgan ijtimoiy aloqalarning ijobiy, maqsadli faoliyat yuritishi va rivojlanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Biroq shaxsning sudga murojaat qilish huquqidan voz kechishi qonunga zid bo‘lsa yoki kimningdir huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini buzadigan bo‘lsa, sud ushbu voz kechishni qabul qilmasligi kerak. Boshqacha aytganda, ushbu holatda sudga murojaat qilish huquqidan voz kechish haqiqiy emas deb topilishi lozim. Binobarin, ushbu cheklov ayniqsa o‘z huquqlarini mustaqil ravishda amalga oshirishga qodir bo‘lmagan shaxslarning huquqlarini himoya qilish uchun juda muhim hisoblanadi. Masalan, vasiylik va homiylik bo‘yicha davlat organi muomalaga layoqatsiz shaxsning buzilgan yoki nizoli huquqlarini sudda himoya qilishni rad eta olmaydi.

Bu borada o‘rganilgan ayrim xorijiy davlatlar FPKda, masalan, Qozog‘iston Respublikasi FPKning 8-moddasi to‘rtinchi qismida aynan sudga murojaat qilish huquqidan voz kechish agar qonunga zid bo‘lsa yoki boshqa shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzsa, haqiqiy emas deb topilishi nazarda tutilgan [21]. Shuningdek, Belarus Respublikasi FPKning 6-moddasida sudga murojaat qilish huquqidan voz kechish haqiqiy emasligi, shu bilan birga, manfaatdor tomonlarning o‘zaro roziligi bilan buzilgan yoki nizoli huquqni himoya qilish to‘g‘risidagi ularning nizosi qonunda belgilangan hollarda ular tomonidan hakamlik sudiga yoki mediator (mediatorlar) ishtirokida hal etish uchun berilishi mumkinligi mustahkamlab qo‘yilgan [22].

Shunday ekan, mamlakatimiz FPKning 3-moddasi uchinchi qismida sudga murojaat qilish huquqidan voz kechish qonunga zid bo‘lsa yoki boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini buzsa, haqiqiy emasligi, shu bilan birga, manfaatdor tomonlarning o‘zaro roziligi bilan buzilgan yoki nizoli huquqni himoya qilish to‘g‘risidagi ularning nizosi qonunda belgilangan hollarda ular tomonidan hakamlik sudiga yoki mediator (mediatorlar) ishtirokida hal etish uchun berilishi mumkinligini nazarda tutuvchi norma kiritish taklif qilinadi.

Аннотация: в статье анализируются процессуальные гарантии реализации задач гражданского судопроизводства, понятие, правовая природа и значение, на основе опыта отечественного и зарубежного законодательства, предложений, направленных на дальнейшее совершенствование этого института при ведении гражданского судопроизводства.

Abstract: the article analyzes procedural guarantees for the implementation of the task of civil proceedings, its concept, legal nature and significance, based on an analysis of the experience of domestic and foreign legislation, proposals aimed at further improving this institution in the conduct of civil proceedings.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // 2023 yil 30 aprel kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son.
2. Inson huquqlari: Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risida xalqaro pakt. Fuqarolik huquqlari va siyosiy huquqlar to‘g‘risida xalqaro pakt va fakultativ protokol. -Toshkent.: Adolat. 1992. -12 b.
3. https://elib.bsu.by/bitstream.
4. Қаранг: Мамасиддиқов, Хабибуллаев Д.Ю., З.Н.Эсанова, Тожибоев М.М. ишларини келтириш мумкин.
5. Белянская О.В. Гарантия прав личности: понятие и классификация // Гуманитарные науки. VI державинские чтения, 2001. – 42 с.
6. Шадрин В.С. Обеспечение прав личности при расследовании преступлений. - Волгоград, 1997. – 39 с.
7. Ткачева Н.Н. Классификация гарантий защиты прав и интересов в исковом производстве // Вестник Саратовской государственной юридической академии. 2021. № 6 (143). – 168.
8. Тарабрин Д.В. Механизм реализации гарантий гражданского судопроизводства: автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. -Саратов. Сарат.гос.акад.права]. 2007. - 24 с.
9. Хазов Е.Н., Хазова В.Е. Юридические гарантии прав и свобод человека и гражданина и механизм их реализации // Вестник Московского университета МВД России. № 5. 2017. – 121 с.
10. Чечина Н.А. Тенденция развития гражданского процессуального законодательства // Ж. Правоведение. 1995. № 6. - С. 48 – 54.
11. Қаранг: Мамасиддиқов М.М. Фуқаролик суд ишлари: мажбуриятлар ва кафолатлар // Ж. Адвокат, № 4, 2011. –Б. 7-9.; Мамасиддиқов М.М. Фуқаролик процессуал қонун ҳужжатларининг ҳолати ва самарадорлигини ошириш истиқболлари. Монография. Масъул муҳаррир ю.ф.д., проф. О.Оқюлов. –Тошкент, ЮМОМ, 2012. -174 бет.
12. Алексеев Н.С., Даев В.Г., Кокорев Л.Д. Очерк развития науки уголовного процесса. -Воронеж, Из-во Воронежского университета. 1980.
13. Байтин М.И. Сущность права (Современное нормативное правопонимание на грани двух веков). 2-е изд., доп. -М.: Издательский дом «Право и государство» 2005. - 346 с.
14. Ткачева Н.Н. Классификация гарантий защиты прав и интересов в исковом производстве // Вестник Саратовской государственной юридической академии. 2021. № 6 (143). – 168.
15. Белянская О.В. Гарантия прав личности: понятие и классификация // Гуманитарнье науки. VI державинские чтения, 2001. – 42 с.
16. Ткачева Н.Н. Классификация гарантий защиты прав и интересов в исковом производстве // Вестник Саратовской государственной юридической академии. 2021. № 6 (143). – 170.
17. Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси. Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг Резолюция 217 А (III) билан 1948 йил 10 декабрда қабул ва эълон қилинган// https://constitution.uz/uz/pages/humanrights.
18. Фуқаролик ишлари бўйича судларнинг 2022 йил давомидаги иш фаолияти тўғрисида статистик маълумотлар тўплами // Ўзбекистон Республикаси Олий суди. Тошкент, 2022 йил. – 2 бет.
19. Комментарий к Гражданскому процессуальному кодексу Республики Узбекистан (постатейный) / Верховный суд Республики Узбекистан. -Т.: «Адолат», 2016 г. – 11 с.
20. Хабибуллаев Д.Ю. Фуқаролик процессуал ҳуқуқининг тамойиллари ва уларни суд амалиётида татбиқ этиш муаммолари. Юрид. фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган автореферат. –Тошкент, ТДЮИ. 2007. -7 б.
21. Гражданский процессуальный кодекс Республики Казахстан // Кодекс Республики Казахстан от 31 октября 2015 года № 377-V ЗРК // https://adilet.zan.kz/rus/docs/K1500000377
22. Гражданский процессуальный кодекс Республики Беларусь от 11 января 1999 г. № 238-З // https://pravo.by/document/?guid=3871&p0=hk9900238

ISSN 3030-3230

MILLIY GVARDIYA HARBIY XIZMATCHILARI VA XODIMLARINING HUQUQIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Kuvondikov Zafar Komiljonovich,
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi
Toshkent mintaqaviy o‘quv markazi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada harbiy xizmatchilar va Milliy gvardiya xodimlari o‘rtasida huquqiy madaniyatni oshirish masalalari ko‘rib chiqiladi. Harbiy muassasalarda tartib-intizomni saqlash, qonunlarga rioya qilishni ta’minlash, odob-axloq me’yorlarini ta’minlashda huquqiy madaniyat muhimligi ta’kidlanadi. Tadqiqotda mustahkam huquqiy madaniyatni shakllantirish uchun qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan huquqiy ta’lim, uzluksiz malaka oshirish, huquqiy normalarni kundalik faoliyatga integratsiya qilish kabi turli usullar va amaliyotlar o‘rganiladi. Maqolada, shuningdek, huquqiy madaniyatni tarbiyalashda duch keladigan muammolar, jumladan, o‘zgarishlarga qarshilik, ierarxik tuzilmalar ta’siri va harbiy harakatlar murakkabligi ko‘rib chiqiladi. Maqolada ushbu masalalarni hal etish orqali harbiy va Milliy gvardiya shaxsiy tarkibi o‘rtasida huquqiy madaniyatni yuksaltirish, pirovardida ushbu kuchlarning ta’sirchanligi va yaxlitligiga hissa qo‘shish bo‘yicha keng qamrovli asoslar yaratish ko‘zda tutilgan.

Kalit so‘zlar: huquqiy madaniyat, harbiy xizmatchilar, milliy gvardiya, huquqiy ta’lim, intizom, axloqiy me’yorlar, huquqiy normalar, harbiy muassasalar, yuridik trening, tashkiliy xulq-atvor.

Harbiy xizmatchilarda, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasida huquqiy madaniyatni shakllantirish ularning kasbiy malakasini oshirish va xizmat burchini ado etishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. “Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar samaradorligi, tinchlik va taraqqiyotning asosiy kafolati Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlash bilan ham bevosita bog‘liq” [1]. Huquqiy bilimlarni kasbiy tayyorgarlikka integratsiyalash: harbiy ofitserlar uchun yuqori darajadagi huquqiy madaniyat muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu oliy o‘quv yurtlarida olingan kasbiy tayyorgarlik sifatiga sezilarli darajada bog‘liqdir. Harbiy ta’lim va tarbiya harbiy xizmatchilarning huquqiy ongini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu harbiy ta’lim va tarbiya omillari ko‘pincha harbiy qo‘mondonlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa orqali amalga oshiriladi va umuminsoniy qadriyatlar va axloqiy me’yorlarni singdirishga qaratiladi. Huquqiy ta’lim harbiy xizmatchilarning qonunlar va qoidalarni tushunishlarini mustahkamlash orqali ularning intizomiga bevosita ta’sir qiladi, shu bilan qonuniy va intizomli muhitni ta’minlaydi. Bu tushuncha harbiy kodekslar va qonunchilik asoslariga yaxshiroq amal qilishga yordam beradi. O‘zbekiston Milliy gvardiyasida harbiy xizmatchilarning huquqiy madaniyatini shakllantirishning pedagogik mexanizmlari har tomonlama kasbiy tayyorgarlik, yetakchalik orqali dunyoqarashni tarbiyalash, huquqiy ta’limga mustahkam poydevor qo‘yishni nazarda tutadiki, bularning barchasi intizomli va huquqiy ongli ofitserlar korpusini shakllantirishga xizmat qiladi.

Harbiy xizmatchilar huquqiy ahamiyatga ega bo‘lgan qarorlar qabul qilishlari kerak bo‘lgan real hayotiy vaziyatlarni taqlid qiluvchi ssenariy asosidagi o‘quv mashqlarini amalga oshirish va ayni shu nazorat ostida, aks ettiruvchi muhitda huquqiy bilim va axloqiy qarorlar qabul qilishni mustahkamlashga yordam beradi. Harbiy xizmatdagi huquqiy madaniyat va axloqiy xulq-atvorning amaliy jihatlariga e’tibor qaratib, tajribali ofitserlar yoshlarga ustozlik qiladigan murabbiylik dasturlarini tashkil etishi hamda harbiy xizmatchilarning huquqiy bilimlarni tushunishi va qo‘llashini testlar, baholashlar va fikr-mulohazalar orqali doimiy baholashi o‘quv jarayonining samarali bo‘lishini va bilimlardagi kamchiliklarni tezda bartaraf etishni ta’minlaydi.

Ofitserlarni huquqiy va axloqiy xulq-atvor namunasi bo‘lishga undash va o‘rgatish, bu ularning qo‘l ostidagilar uchun standart o‘rnatishi hamda butun tashkilotda halollik va qonunga hurmat madaniyatini tarbiyalashi mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 4-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-3898-son qarorida ko‘zda tutilgan. O‘zbekiston Respublikasi” nomli hujjatda “Harbiy xizmatchilar ongiga Vatanni himoya qilish muqaddas burch, milliy armiyamiz bilan faxrlanish, davlat xavfsizligini himoya qilish uchun mas’uliyat tuyg‘ularini singdirish...” [2] qoidasi mustahkamlangan .

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasida harbiy xizmatchilarning huquqiy madaniyatini shakllantirishning pedagogik mexanizmlari huquqiy me’yorlar va axloqiy me’yorlarni chuqur tushunishga undaydigan ta’lim va tarbiyaga tizimli yondashishni nazarda tutadi. Huquq, axloq va inson huquqlari bo‘yicha maxsus harbiy kontekstga moslashtirilgan kurslarni o‘z ichiga olgan maxsus o‘quv dasturlarini ishlab chiqish. Ushbu dasturlar harbiy xizmatchilarning huquqiy majburiyatlari va huquqlarini chuqur tushunishga qaratilgan. O‘zbekiston Milliy gvardiyasi mazkur pedagogik mexanizmlarni hayotga tatbiq etish orqali o‘z harbiy xizmatchilari o‘rtasida huquqiy madaniyatni yuksaltirishi, bu orqali intizomli, mas’uliyatli va odob-axloq qoidalariga rioya qiluvchi kuchlarni shakllantirishi mumkin. “Huquqiy madaniyat umumiy madaniyat kabi rivojlanish qonuniyatlariga ega. Shuningdek, uni genetik, funksional, mantiqiy va psixologik tuzilmalarga ajratish mumkin. Birinchi tuzilma alohida elementlar va huquqiy madaniyatning aloqasi orqali ochib beriladi, bunda siyosiy va iqtisodiy, ma’naviy va ijtimoiy, axloqiy va tashkiliy, yuridik va jamiyat hayotining boshqa sohalari aks ettiriladi. Ikkinchi tuzilma huquqiy madaniyatning turli elementlari o‘rtasidagi funksional aloqalar va faoliyat usullarini ko‘rsatadi. Uchinchi tuzilma huquqiy madaniyatning elementlari va tizimlari, mazmuni va shaklining o‘zaro aloqasini aks ettirish imkonini beradi. To‘rtinchi tuzilma ichki xususiyatni batafsil yoritish, fikrlash faoliyatining tahliliy, intuitiv, nazariy va amaliy elementlari munosabatini tadqiq qilish imkonini beradi” [3].

Milliy gvardiya harbiy xizmatchilar va xodimlari o‘rtasida huquqiy madaniyatni shakllantirish masalalarini o‘rganish sotsiologiya, huquq, psixologiya va harbiy fanlarning nazariy va uslubiy jihatlarini o‘zida mujassam etgan ko‘p tarmoqli yondashuvni nazarda tutadi. Harbiy kontekstga xos bo‘lgan huquqiy madaniyatning har tomonlama va nozik ta’rifini tushunish. Bu harbiy xizmatchilarda huquqiy madaniyat qanday namoyon bo‘lishini, jumladan, qonun va huquqiy jarayonlarga oid bilim, xulq-atvor, munosabat va qadriyatlarni o‘rganishni o‘z ichiga oladi. “Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhitini ta’minlash uchun muhim poydevor bo‘ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi” [4].

Huquqiy madaniyatga ta’sir qiluvchi harbiy xizmatning o‘ziga xos ekologik va operatsion sharoitlarini tan olish. Bunga harbiy iyerarxiyaning tuzilishi, harbiy majburiyatlarning tabiati va harbiy xizmatchilar duch keladigan o‘ziga xos huquqiy va axloqiy muammolar kiradi. Huquqiy, axloqiy va harbiy hayotning turli jihatlarini o‘z ichiga oladigan integral asoslarni ishlab chiqish. Bunday asoslar huquqiy madaniyatni shakllantirishda alohida idoralar va tuzilmaviy kuchlarning o‘zaro ta’sirini ham hisobga olishi kerak. Rasmiy huquqiy ta’lim va harbiy tayyorgarlikning o‘rni va harbiy xizmatchilarning huquqiy ongini va xulq-atvorini shakllantirishga qanday hissa qo‘shayotganini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. “Huquqiy madaniyat qaror topishini tahlillar asosida quyidagi tarkibiy komponentlarga ajratish mumkin: huquq, huquqni anglash, huquqiy faoliyat va jamiyatning huquqiy madaniyat darajasi. Shuningdek, zamonaviy huquqiy madaniyat - eng avvalo, avlodlar tajribasi yordamida olingan huquqiy qadriyatlar, huquqiy bilimlarning jamiyat madaniy rivoji bilan integratsiyalashuvidir”[5].

Harbiy xizmatchilarning huquqiy madaniyatiga ta’sir qiluvchi ichki omillarni (masalan, shaxsiy qadriyatlar, tajriba va motivatsiya) va tashqi omillarni (xuquqiy tizimlar, jamiyat normalari va xalqaro qonunlar) o‘rganish ham dolzarb masalalardan hisoblanadi. Harbiy sharoitda huquqiy madaniyatning murakkabliklarini samarali qamrab oladigan tegishli tadqiqot loyihalarini tanlash. Harbiy

ISSN 3030-3230

xizmatchilarda vaqt o‘tishi bilan huquqiy madaniyat qanday rivojlanishini kuzatishda tadqiqotlar foydali bo‘lishi mumkin. Keng qamrovli ma’lumotlarni to‘plash uchun sifat va miqdoriy usullarni qo‘llash. Suhbatlar va fokus-guruhlar kabi sifatli yondashuvlar harbiy xizmatchilarning shaxsiy tajribalari va tasavvurlari haqida chuqur tushuncha berishi mumkin. So‘rovlar kabi miqdoriy usullar kengroq naqsh va korrelyatsiyalarni baholashda yordam beradi.

Harbiy sharoitlarda huquqiy madaniyatni tushunish va tahlil qilishni kuchaytirishi mumkin bo‘lgan tadqiqot istiqbollari va metodologiyalarini boyitish uchun fanlar bo‘yicha hamkorlikni rag‘batlantirish ham muhim hisoblanadi. Ushbu nazariy va uslubiy masalalarni hal qilish orqali tadqiqotlar Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari va xizmatchilari o‘rtasida huquqiy madaniyat qanday shakllanayotgani va barqarorligini yanada batafsil va nozik tushunishga yordam beradi. Bu harbiy kontekstlarda qonuniy rioya va axloqiy me’yorlarni kuchaytiruvchi yanada samarali huquqiy ta’lim, o‘quv dasturlari va siyosatlarga olib kelishi mumkin.

Harbiy xizmatchilarning huquqiy madaniyati uni fuqarolik sektoridagi huquqiy madaniyatdan ajratib turadigan bir qancha o‘ziga xos xususiyatlarni o‘z ichiga oladi. Mana bir nechta asosiy jihatlar:

Intizom va tartib-intizomga katta e’tibor: harbiy kontekstdagi huquqiy madaniyat intizom, rioya qilish va qat’iy odob-axloq qoidalariga rioya qilishga katta e’tibor beradi. Bu kuchlar ichida tartib va qo‘mondonlikni saqlash uchun juda muhimdir. Intizom va odob-axloq qoidalariga qat’iy amal qilish haqiqatan ham harbiylarning huquqiy madaniyatida muhim o‘rin tutadi.

Harbiy sharoitda topshiriqlarni bajarishda samaradorlik va ishonchlilikni ta’minlash uchun yuqori intizom va qat’iy tartib kerak. Bu jihatlar, shuningdek, muvaffaqiyatli operatsiyalar va qo‘shin xavfsizligi uchun muhim bo‘lgan aniq iyerarxiya va qo‘mondonlikni saqlashga yordam beradi. Harbiy tuzilmalarda huquqiy madaniyat nafaqat qonunlar va qoidalarni bilish va tushunish, balki ularga rioya qilish bo‘yicha barqaror ko‘nikmalarni shakllantirishni ham o‘z ichiga oladi. Shuningdek, shaxsiy javobgarlik va ekstremal sharoitlarda ham qonunlarga muvofiq harakat qilish qobiliyatini rivojlantirish muhim qismdir.

Iyerarxik tabiat: Harbiy buyruqlar va qoidalar yuqoridan pastga oqadigan aniq belgilangan iyerarxiya ostida ishlaydi. Huquqiy madaniyat ushbu iyerarxiyani aks ettirib, yuqori mansabdor shaxslar va qoidalarga so‘zsiz rioya qilish muhimligini ta’kidlaydi. Harbiy tuzilmaning iyerarxik tabiati, albatta, qurolli kuchlarning ishlashi uchun muhimdir. Harbiy muhitdagi huquqiy madaniyat nafaqat bu iyerarxiyani aks ettiradi, balki qo‘llab-quvvatlaydi, boshliqlarning buyruqlariga so‘zsiz bo‘ysunish zarurligini ta’kidlaydi. Bu buyruqlarning tez va aniq bajarilishini ta’minlaydi, bu esa harbiy intizom va samaradorlik uchun juda muhimdir.

Boshliqlarga bo‘ysunish va qoidalarga rioya qilish faqat mexanik ijro emas; u operatsiyalar xavfsizligi va muvaffaqiyatini ta’minlashda har bir rolning ahamiyatini tushunishga asoslanadi. Harbiy sharoitda huquqiy madaniyat harbiy xizmatchilarni qonunlar va qoidalarga hurmat ruhida tarbiyalash va tarbiyalashni, shuningdek, turli, jumladan, tanqidiy vaziyatlarda munosib javob berish qobiliyatini rivojlantirishni ham o‘z ichiga oladi.

Harbiy Kodekslar bilan integratsiya: Harbiy huquqiy madaniyat Qo‘shma Shtatlardagi Yagona Harbiy Adliya Kodeksi (UCMJ) kabi harbiy kodekslar bilan chuqur bog‘langan. Bu kodekslar harbiy hayotning barcha jabhalarini, jangdagi xulq-atvordan tortib kazarmadagi xatti-harakatlarigacha tartibga solib, harbiy xizmatchilar huquqiy ongining asosiy qismini tashkil etadi.

Shubhasiz, harbiy huquqiy madaniyatning maxsus harbiy kodekslar bilan integratsiyalashuvi, masalan, Qo‘shma Shtatlardagi Yagona Harbiy Adliya Kodeksi (UCMJ) harbiy intizom va boshqaruvning asosiy jihati hisoblanadi. Ushbu kodekslar qurolli kuchlar ichidagi huquqiy me’yorlar va tartiblarning asosi bo‘lib, xatti-harakatlar va faoliyatning keng doirasini qamrab oladi. Masalan, UCMJ harbiy hayotning barcha jabhalarini tartibga soluvchi keng qamrovli qoidalar to‘plamidir. Bunga jangovar harakatlar paytidagi xatti-harakatlar, kazarmadagi kundalik hayot, harbiy xizmatchilarning o‘zaro munosabati va hatto xizmatdan tashqari xatti-harakatlar kiradi. Bunday kodekslarning maqsadi harbiy xizmatning o‘ziga xos ehtiyojlari va muammolariga mos keladigan tartib, intizom va axloqiy me’yorlarni saqlashdir.

Ushbu harbiy kodekslar harbiy sudlar va harbiy tribunallarni o‘z ichiga olgan ixtisoslashtirilgan harbiy adliya tizimi orqali amalga oshiriladi. Ushbu tizim kodeksning buzilishiga harbiy hayotning noyob hokimiyat tuzilmasi va operativ imperativlarini aks ettiradigan tarzda ko‘rib chiqilishini ta’minlaydi.

Bundan tashqari, ushbu kodekslarga rioya qilish harbiy xizmatchilarda huquqiy va ma'naviy javobgarlik tuyg'usini shakllantirishga yordam beradi, samarali jamoaviy ish va yuqori stress va yuqori xavf muhitida etakchalik uchun zarur bo'lgan qadriyatlarni mustahkamlaydi. Shunday qilib, harbiy xizmatdagi huquqiy madaniyat nafaqat intizom va tartibni qo'llab-quvvatlaydi, balki harbiy harakatlarda talab qilinadigan qonun ustuvorligi va axloqiy me'yorlarga chuqur hurmatni tarbiyalaydi.

Himoya va xavfsizlik funksiyalari: Harbiy sohadagi huquqiy madaniyat nafaqat ichki xatti-harakatlarni tartibga soladi, balki milliy xavfsizlik va manfaatlarni himoya qilishga ham urg'u beradi. Bunga jangovar harakatlar qoidalari va qurolli mojaro qonunchiligiga rioya qilish kiradi. Darhaqiqat, harbiylar ichidagi huquqiy madaniyat ichki tartib va tartib-intizomdan tashqarida; milliy xavfsizlikni ta'minlash va jahon miqyosida mamlakat manfaatlarini himoya qilishda ham hal qiluvchi rol o'ynaydi. Harbiy huquqiy madaniyatning bu jihati xalqaro qonunlar va normalarga, xususan, harbiy harakatlar va qurolli to'qnashuvlar qonunlariga qat'iy rioya qilishni o'z ichiga oladi.

1. **Qurolli mojaro qonunlari: Harbiy huquqiy madaniyat jangovar va jangovar ishtirokchilarni farqlash, kuch ishlatishda mutanosiblik va keraksiz azob-uqubatlarga yo'l qo'ymaslik kabi tamoyillarni o'z ichiga olgan LOACga rioya qilishni ta'kidlaydi. Ushbu qonunlar gumanitar sabablarga ko'ra qurolli to'qnashuvlar oqibatlarini cheklash uchun ishlab chiqilgan.**

4. Как отмечают исследователи [36], коррупция как социальное явление и проводимая государственная антикоррупционная политика становятся предметом изучения в образовательной деятельности, а также объектом нравственной и правовой оценки. У курсантов происходит осмысление личного опыта и информационного фона, соответствующее преломление приобретает изучение истории, литературы, устройства общества и государства, развития правовой системы и т.д. Это, несомненно, способствует формированию устойчивого антикоррупционного мировоззрения.

5. Вовлечение курсантов в научную деятельность — участие курсантов в научных конкурсах и научных мероприятиях создают условия для творческой самореализации личности.

6. Патриотическое воспитание курсантов, которое нацелено на развитие нравственных и патриотических чувств, приобщение к отечественной истории и культуре.

7. Вовлечение курсантов в волонтерскую работу. Именно в этом направлении реализуется принцип инициативности курсантов в выборе способов самореализации; формируется позиция и отношение курсантов к тем или иным событиям и ситуациям, что имеет особую важность как для социума, так и для самой личности курсанта [37].

- **умения и навыки применять правовые знания на практике;**
- **правильное отношение к фактам правонарушений и негативным явлениям в обществе и воинской среде.**

Вместе с тем, на формирование правовой культуры влияет не только качество преподавания правовых дисциплин, но и своевременность их изучения. Так, в Академии НГ РК изучение дисциплины «Основы права» изучается в четвертом семестре (всего 2 кредита), «Основы антикоррупционного законодательства» в восьмом семестре (1 кредит), «Правовые основы применения НГ» 4 часа на первом курсе.

Таким образом, формирование правовой культуры у курсантов Академии Национальной гвардии Республики Казахстан выступает как часть процесса усвоения личностью необходимых правовых знаний, умений, навыков и личностных качеств в системе правового воспитания.

Привитие правовой культуры курсантам Национальной гвардии необходимо осуществлять комплексно, на основе целостного, личностно-ориентированного, интегративного и деятельностного подходов.

Основной парадигмой правовой культуры будущего офицера Национальной гвардии Республики Казахстан, должен стать переход от концепции приобретения правовых знаний к концепции правового сознания, развивающего личность курсанта, что даст возможность успешно применять на практике полученные в военном ВУЗе правовые знания.

Аннотация. Қоғам мен мемлекеттің қауіпсіздігін қамтамасыз ету, жеке адамның және азаматтың құқықтарын қылмыстық немесе өзге де заңсыз шабуылдардан қорғау жөніндегі міндеттерді ойдағыдай жүзеге асыру ҚР ҰҰ-ның жеке құрамының Қазақстан Республикасының заңдарын білуіне және терең құрметтеуге байланысты. ҚР, әскери жарғылары мен басқа да құқықтық актілері, сондай-ақ командирлер мен бастықтардың бұйрықтарын сөзсіз және саналы түрде орындау, заңдылық пен тәртіпті сақтау.

Курсанттардың құқықтық мәдениеті – бұл олардың жоғары оқу орнында кәсіптік даярлау процесінде игеретін құқық және адамгершілік принциптеріне негізделген білім, білік және дағды жүйесі. Курсанттардың құқықтық мәдениеті заңдылық пен тәртіпті қамтамасыз етуге көмектеседі, сонымен қатар халықтың құқық қорғау органдарына деген сенімін арттырады.

Бұл мақалада Ұлттық ұлан курсанттарының құқықтық мәдениетінің қазіргі жай-күйіне талдау жасалып, қазіргі заманғы шындықтарды ескере отырып, курсанттардың мәдениетін арттырудың негізгі бағыттары мен ұсынылған жолдарын зерделеу ғылыми қызығушылық тудырады.

Түйінді сөздер: курсанттардың құқықтық мәдениеті, Ұлттық ұлан академиясы, құқықтық мәдениеттің құрамдас бөліктері, құқық, жеке тұлғаның құқықтық санасы, тәрбие жұмысының нысандары мен әдістері, идеологиясы, дүниетанымы.

Annotation. The successful implementation of the NG RK assigned tasks to ensure the security of society and the state, the protection of individual and citizen rights from criminal or other unlawful attacks[1] depends on the knowledge and deep respect by the personnel of the laws of the RK, military regulations and other legal acts, as well as unquestioning and conscious execution of orders from commanders and superiors, compliance with law and order.

The legal culture of cadets is a system of knowledge, skills and abilities based on the principles of law and morality, which they master in the process of professional training at a university. The legal culture of cadets helps ensure law and order, and also increases public confidence in law enforcement agencies.

This article reveals an analysis of the current state of the legal culture of National Guard cadets, and is of scientific interest in studying the main directions and proposed ways to improve the culture of cadets taking into account modern realities.

Key words: legal culture of cadets, National Guard Academy, components of legal culture, law, legal consciousness of the individual, forms and methods of educational work, ideology, worldview.

ISSN 3030-3230

Список литературы:

1. Конституция Республики Казахстан. Принята 30 августа 1995 года на республиканском референдуме (с изменениями и дополнениями от 19.09.2022 года). Ст.1,2,3,36 htt://online.zakon.kz
2. Послание Президента Республики Казахстан Касым-Жомарта Токаева народу Казахстана «Новый Казахстан: путь обновления и модернизации», от 16 марта 2022 года // Официальный сайт Президента РК.URL: https://akorda.kz.ru/1623953
3. С.Ударцев. Путь демократических реформ и усиление правозащитных институтов// газета «Казахстанская правда» от 26 апреля 2022 года, стр.4
4. Официальный сайт Президента Республики Казахстан. Акорда. г.Астана.https://www.akorda.kz/ru-5104524
5. Касым-Жомарт Токаев. Выступление на XXXII сессии Ассамблеи народа Казахстана,27 апреля 2023 года. https://www.akorda.kz/ru-273234
6. Е.В. Моисеева. Формирование правовой культуры студентов в процессе профессионального образования. «Вестник «Өрлеу»-kst98. Инновационные процессы образования 2(4)/2014, С. 97.
7. Правовая культура: содержание и формы существования. Авторы: А.В.Петров, О.М. Симканич. Вестник Нижегородского университета им.Н.И.Лобачесвского, 2009г. №2 стр.186-193.
8. Г.Р. Абсаттаров. Приоритеты правовой культуры Республики Казахстан: политологические аспекты. https://cuberleninka.ru/frticle/nprioritety-pravovoy-kultupy-respubliki-kazahstan-politologicheskie-aspekty
9. Г.Р. Абсаттаров. Состояние и развитие правового сознания народа Казахстана. Автореферат
10. А.С. Ибраева, А.М.Оразалиева, С.С. Дюсебалиева. Роль правовой культуры в развитии местного самоуправления: опыт Республики Казахстан и Польши//Вестник КазНУ. Серия юридическая.2015. №2 Ст.5.
11. М.Х.Рустамбаев. Справедливость – в неуклонной реализации буквы закона. Ташкент. 28.05.2004. ЦентрАзия. https://centrasia.org/newsA.php.st=1085759520
12. Н.Азизов, Д.Ибрагимов, О.Нематиллаев: Повышение правовой культуры и правосознания в Узбекистане. Жизнь и общество. 14.12.2023г./ https://infozakon.kz/life/24226-povishenie-pravovoy-kultupy-i-pravosoznaniya-naseleniya-v-uzbekistane.html
13. Указ Президента Республики Узбекистан «Об улучшении правового воспитания и повышении правовой культуры населения». №УП-1791 от 25 июня 1997 года. https://lex.uz/docs/226756
14. Постановление Олий Мажлиса Республики Узбекистан, от 29.08.1997г. №466-1 «О Национальной программе повышения правовой культуры в обществе». https://lex.uz/docs/249007.
15. Указ Президента Республики Узбекистан «О коренном совершенствовании системы повышения правосознания и правовой культуры в обществе», №УП-5618 от 09 января 2019 года. https://lex.uz/ru/docs/4149770.
16. Газета Вечерний Алматы. №37 от 09.04.2022г. https://vecher.kz/amp/osobennosti-stepnikh-zakonov-v-zheti-zhargi/
17. Зиманов С.З. Мир права казахов «Жаргы» - уникальная система права. Журнал «Закон.kz. https://journal.zakon.kz/203736/mir-prava-kazakhov-zhargy-unikalnaja.html/
18. Правовая система Узбекистана: история и современность. Сборник статей/под ред.С.В.Землюкова, А.А.Васильева, В.В.Сорокина; С.27. Барнаул. Из-во Алтайского университета, 2023г. 241с.
19. О.В.Чернышов. Правовая культура казахстанцев. ОФ «Центр развития местного самоуправления» г.Усть-каменогорск. https://www.osce.org/files/f/dokument/0/4/94411.pdf
20. Конституция Республики Казахстан. Статья 36.
21. URL: https://online.zakon.kz/m/amp/dokument/1005029
22. Закон Республики Казахстан «О воинской службе и статусе военнослужащих»

Статьи 1 п.16; URL: https://online.zakon.kz/m/amp/dokument/31130640

23. Указ Президента РК «О военной присяге» от 25 августа 1992 года №870. URL: https://online.zakon.kz/m/amp/dokument/1001405

24. Закон Республики Казахстан «О воинской службе и статусе военнослужащих» Статьи 2,4,5,6,7,8 URL: https://online.zakon.kz/m/amp/dokument/31130640

25. Закон РК «О Национальной гвардии Республики Казахстан» №274-УЗРК от 10.01.2015 г. (с изм.и доп. от 01.07.2023г.). Статьи 2 п.1,2; 3 п.1; URL: https://online.zakon.kz/m/amp/dokument/31649585

26. Закон РК «О Национальной гвардии Республики Казахстан» №274-УЗРК от 10.01.2015 г. (с изм.и доп. от 01.07.2023г.). Статья 18 п.1; https://online.zakon.kz/m/amp/dokument/31649585

27. Закон РК «О Национальной гвардии Республики Казахстан» №274-УЗРК от 10.01.2015 г. (с изм.и доп. от 01.07.2023г.). Статьи 1; URL: https://online.zakon.kz/m/amp/dokument/31649585

28. См.: Справка анализ состояния законности и правопорядка в Академии Национальной гвардии Республики Казахстан за 2018-2023гг.

29. Статьи,1-5Дисциплинарного устава ВС, других войск и воинских формирований Республики Казахстан. Утвержден Указом Президента Республики Казахстан №364 от 05 июля 2007 года. https//adilet.zan.kz/rus/docs/u070000364.

30. Закон Республики Казахстан «О Национальной гвардии Республики Казахстан» №274-УЗРК от 10.01.2015 г. (с изм.и доп. от 01.07.2023г.). Статьи 1,2,3,18,27 см. URL: https://akorda.kz.ru/152636

31. Приложения №1,23 к приказу МВД РК №270 от 06.06.2023г. Руководство по организации воспитательной, социально-правовой, психологической и идеологической работы с личным составом Национальной гвардии (часть 1,2,3).

32. Иванов А.А. Формирование правовой культуры у курсантов военных вузов в ходе изучения гуманитарных дисциплин. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. Москва-2008.

33. Там же.

34. Государственный общеобразовательный стандарт высшего образования в Республике Казахстан. Утвержден приказом Министра науки и высшего образования РК №2 от 20 июля 2022 года.

35. См. Республиканская межведомственная Программа в Вооруженных силах, других войсках и воинских формированиях «В Армии нет места преступности» на 2021-2023гг.

36. Формирование антикоррупционного мировоззрения у школьников и студентов : науч.-исслед. работа ФГБОУ ВПО «Московский государственный юридический университет имени О. Е. Кутафина (МГЮА)» [Электронный ресурс]. URL: http://msal.ru (дата обращения: 20.12.2019).

37. Семенов В. Е. Актуальные проблемы теории правосознания и правовой культуры молодежи // Вестн. Ставропольского гос. ун-та. 2005. № 4. С. 158–166.

ISSN 3030-3230

JAMOAT XAVFSIZLIGI VA TARTIBINI SAQLASHDA JAMOATCHILIK TUZILMALARI FAOLIYATI

Vaxidov Fazliddin Raufovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada jamoat xavfsizligi tartibini saqlashda jamoatchilik tashkilotlarining faoliyati, ularning huquqiy asoslari va ahamiyati to‘g‘risida ma’lumot berilib, ushbu tuzilmalarning ichki xavfsizlikni ta’minlashga qo‘shgan hissasi yoritilgan. Maqolada ayniqsa Sovet davridagi ko‘ngilli xalq drujinalari va mustaqillik yillaridagi shunday tuzilmalar faoliyati qiyosiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: jamoat xavfsizligi, jamoat tartibi, ichki xavfsizlik, jamoatchilik tuzilmasi, ko‘ngillilar.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar doirasida aholining tinch va osoyishta hayotini ta’minlash hamda jamiyatimizda qonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirish, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta’minlash, aholining huquqiy ongi va siyosiy-huquqiy madaniyatini, ijtimoiy faolligi, fuqarolik mas’uliyatini oshirish asosida huquqiy jamiyatni barpo etish va mustahkamlash masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada muntazam ravishda chora-tadbirlar amalga oshirilib, mazkur tizimning huquqiy asoslari tobora mustahkamlanmoqda. Xususan, 2021-yil 29-noyabrda O‘zbekiston Respublikasni Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni asosida “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasi” qabul qilinib, bugungi kunda faol ravishda ijro etilmoqda [1].

Jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlash masalalari uzoq tarixdan buyon dolzarb ahamiyat kasb etgan. Bu borada jamoatchilik tuzilmalarining o‘ziga xos o‘rni va roli mavjud bo‘lib, uzoq yillar davomida jamoat tartibining o‘rnatilishi davlat nazoratiga bog‘liq deb hisoblab kelingan. Lekin tarix shundan guvohlik bermoqdaki, faqat davlat nazorati bilan jamoat tartibini to‘laqonli o‘rnatish mumkin emas.

Shu boisdan ham jamoat nazoratini tashkil qilish uchun 1959-yilda “Xalq ko‘ngilli otryadlari tashkil etish to‘g‘risida”gi Nizom qabul qilingan [2]. Ammo mazkur nizom asosida tashkil topgan Xalq ko‘ngilli otryadlari jamiyat nazoratini tashkil qila olmadilar. Chunki Xalq ko‘ngilli otryadlari xalq manfaatlarini emas, ko‘proq davlat yoki aniqrog‘i partiya manfaatlarini himoya qilardi. Bu haqda Xalq ko‘ngillilarni tarbiyalash bo‘yicha ishlarning asosiy mazmuni, “SSSR Konstitutsiyasini, Kommunistik partiya va Sovet hukumati qarorlarini tushuntirish, sotsialistik mulkni himoya qilish va uni talon-taroj qiluvchilarga qarshi kurash; jamoat tartibini, fuqarolarning shaxsiy va mulkiy daxlsizligini ta’minlash”deb ko‘rsatib o‘tilgan [3, 193].

Nizom qabul qilinishi o‘ziga xos tarixiy jarayon bilan bog‘liq bo‘lib, bu borada Nizomda quyidagi sabablar ko‘rsatilgan. “... sovet xalqi kommunistik partiya rahnamoligida xalq xo‘jaligi va madaniy qurilishlarda katta yutuqlarga erishib, yildan-yilga mehnatkashlarning moddiy turmush darajasi ko‘tarilib borganligi, partiya, hukumat va jamoatchilik tashkilotlarining kommunistik tarbiya sohasidagi ulkan ishlari tufayli mamlakatda jinoyatchilik keskin qisqarib, sotsialistik qonunchilik yanada mustahkamlangan.

Shu bilan birga, hali ham jamoat axloq normalarga amal qilmaydigan, jamoat joylarida mast holda yuradigan, bezoriligi bilan mehnatkashlarni tinchini buzadigan shaxslar uchrab turganligi, shuningdek xalq ommasining siyosiy ongi va faolligi oshganligi tufayli har qanday noqonuniy harakatlarga qarshi avvalo jamoat tartibini saqlash ishini mehnatkashlar ommasiga keng tatbiq etish talab qilinadi. Shu maqsadda jamoat tartibini muhofaza qilish xalq ko‘ngilli otryadlari (drujinniklar) tashkil etildi [4]. Albatta bunda hukumatning erishgan yutuqlari biroz bo‘rttirib ko‘rsatilgan. Chunki urushdan keyingi yillarda xalq xo‘jaligini tiklash juda qiyinchilik bilan amalga oshirilgan. Aholini qandaydir tarixiy, olamshumul voqealarga daxldorlik hissini uyg‘otish uchun keng miqyosda targ‘ibot ishlari olib borildi. Jumladan, ushbu xalq ko‘ngilli otryadlari ham jamoatchilik asosida tashkil etilgan bo‘lib, uning a’zolari ishdan tashqari holatda hech qanday haq

olmasdan faoliyat yuritgan. Targ‘ibot va tashviqot ishlari shu darajada kuchli olib borilganki, har bir hududda ko‘ngillilar otryadlarini tuzish kim o‘zarga aylanib ketganligi ko‘zga tashlanadi.

Jamoat tartibini muhofaza qilish xalq ko‘ngilli otryadlari hududiy taomil asosida korxonalar, tashkilotlar, o‘quv yurtlari, uy boshqaruvi, kolxoz va sovxozlarning ilg‘or ishchilari, xizmatchilari, talaba-o‘quvchilari va nafaqaxo‘rlari orasidan ko‘ngilli asosida tuzilgan. Xalq ko‘ngilli otryadlari korxona, tashkilot, o‘quv yurtlari, uy boshqaruvi, kolxoz va sovxozlarning partiya va sovet tashkilotlari a’zolari, komsomol, kasaba uyushmalari va boshqa jamoat tashkilotlari umumiy majlisida ta’sis etilgan.

Xalq ko‘ngilli otryadlari a’zolari soni mahalliy sharoitdan kelib chiqib belgilangan bo‘lib, ba’zi hollarda alohida guruhlarga ham bo‘linganligi ko‘zga tashlanadi. Ko‘ngilli otryadlari komandiri va uning o‘rinbosari umumiy yig‘ilishda ochiq ovoz berish yo‘li bilan saylangan.

Nizomda Ko‘ngilli xalq drujinalarining vazifa va vakolatlari ham ko‘rsatilgan bo‘lib, ularning asosiy vazifalari sifatida:

- ko‘cha, stadion, parklar va jamoat joylari hamda dam olish maskanlarida, turli musobaqalar va tadbirlar o‘tkazilayotgan joylarda tartib-intizomni ta’minlash;
- belgilangan joylarda navbatchilik tashkil etish;
- navbatchilik davomida aniqlangan noxush holatlar haqida ichki ishlar idoralari xodimlari va ommaviy axborot vositalariga yordam berish;
- tartib-intizom buzilish holati yoki qonunbuzarliklar aniqlanganda huquqbuzarlikni huquqiy jihatdan tegishli bo‘lgan ko‘ngilli xalq drujinalari shtabi, militsiya tayanch punktlari yoki qishloq ijroiya komitetlariga olib borish va boshqa vazifalar belgilangan [5].

Ko‘ngilli xalq drujinalarining faoliyatini takomillashtirish jarayonida har bir shahar va rayon ichki ishlari boshqarmalarida bevosita ko‘ngilli xalq drujinalari shtabi bilan doimiy ravishda ish olib boradigan va ularning muammolari bilan shug‘ullanadigan xodimlar ajratilgan [6].

Bunda ichki ishlar, prokuratura organlari, adliya va sud tizimi xalq ko‘ngilli otryadlariga jamoat tartibini saqlashda har qanday amaliy yordam ko‘rsatishi belgilab qo‘yilgan. Joylardagi Sovet tashkilotlari ijro organlariga xalq ko‘ngilli otryadlari mashg‘ulotlar va yig‘inlar o‘tkazishi uchun binolar tashkillashtirish yuklatilgan. Ushbu binolar shtab vazifasini ham o‘tagan.

Mazkur jamoatchilik tuzilmasiga ittifoq fuqarosi bo‘lgan 18 yoshdan kichik bo‘lmagan, o‘zining shaxsiy arizasiga ko‘ra, ish joyi yoki turar joyidagi kasaba uyushmasi, komsomol yoki boshqa jamoat tashkiloti tomonidan qabul qilingan. Bundan tashqari ish joyidagi jamoa a’zolari tavsiyasiga ko‘ra ham xalq ko‘ngilli otryadlariga qabul qilingan”. Ya’ni bunda erkaklar hamda ayollar 18 yoshdan yuqori bo‘lgan yoshlar hamda pensionerlar ham a’zo bo‘lishi mumkin edi. Xalq ko‘ngilli otryadlariga qabul qilingan shaxslarga rayon (shahar) Xalq deputatlar Kengashi tomonidan Xalq ko‘ngilli komandirlari orqali guvohnoma, tanituvchi belgi va xalq ko‘ngillilari a’zolarining majburiyatlari va huquqlari yozilgan hujjat taqdim etilgan.

A’zolarning ham xizmat majburiyatlar bo‘lib, bular asosan, fuqarolarning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish, jamoat tartibini buzish holatlariga chek qo‘yish bo‘yicha zarur choralarni ko‘rish, topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarishda va otryad komandirining talablarini aniq bajarishda intizomli, jasur va fidoyi bo‘lish, jamoat tartibni buzishga qarshi kurashda qoidabuzarga birinchi navbatda ishontirish va ogohlantirish orqali ta’sir ko‘rsatish hamda vazifalarni bajarayotganda o‘zi bilan guvohnoma, ko‘ngillilik nishoni va hushtakni olib yurishdan iborat bo‘lgan.

Shu bilan birga a’zolarning o‘z huquqlari ham belgilab qo‘yilgan bo‘lib, bular jamoat tartibini buzgan fuqarolardan huquqbuzarlikni to‘xtatishni, zarur hollarda esa shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishni talab qilish, huquqbuzarlik xususiyatiga qarab, guvohlar va huquqbuzar ishtirokida dalolatnoma tuzish, keyinchalik dalolatnomani otryad komandiriga topshirish, zarur hollarda jamoat tartibini buzgan fuqarolarni otryadning tuman shtabiga, ichki ishlar bo‘limiga yoki eng yaqin qishloq, shahar fuqarolar yig‘iniga yetkazish, o‘z xizmat vazifalarini bajarishda korxona, muassasa, tashkilotlarning telefonidan foydalanishdan iborat edi.

Ma’lumotlarda keltirishicha, O‘zbekistonda Ko‘ngilli xalq drujinalarining faoliyati ancha sezilarli darajada bo‘lgan. Masalan, Toshkent to‘qimachilik kombinati ishchilaridan – A.Atadjanov (fuqarolik burchini ado etish jarayonida vafot etgan), A.Sheymurzin, L.Dudushev, A.Ambarkin, “Oktabr inqilobi” zavodidan – R.Shipakin, E.Zeron, V.Gorbatenko, Marg‘ilon shahar drujinasi boshlig‘i – G.Batirov, Toshkent temir yo‘l transporti injenerlik institutidan – M.Ismoilov, Surxondaryo viloyati

ISSN 3030-3230

drujinachilaridan A.Ibragimov, A.Murodov va boshqalar jamiyatda tartib-intizomni o‘rnatish, yosh bolalarning qarovsizligini oldini olish, pasport tizimini nazorat qilish, savdo-sotiq sohasidagi qonunbuzarliklarni bartaraf etish va bezorilikka qarshi kurashishda militsiya xodimlari bilan birgalikda faol ishtirok etishgan [7, 118].

Jumladan, ularning amaliy faoliyati haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, 1965-yilning 11 oyi ichida Ko‘ngilli xalq drujinalari tomonidan jamoat tartibini buzgan – 12 kishi, mayda bezorilik uchun – 48 kishi, pasport rejimini (tizimini) buzgan – 30 kishi, mast holatda tartibuzar uchun – 28 nafar kishi ushlangan va javobgarlikka tortilgan.

1974-yil 20-mayda KPSS Markaziy Komiteti va SSSR Ministrlar Kengashi tomonidan “Ko‘ngilli xalq drujinalarining jamoat tartibini saqlash borasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmon qabul qilindi.

Farmonda jamiyatda tartib-osoyishtalikni ta’minlash jarayonida, xususan, jamoat joylari, ko‘cha va xiyobonlar hamda insonlarning umumiy yashash va foydalanish joylarida qonunbuzarlik va jinoyatlarni bartaraf etishda Ko‘ngilli xalq drujinalarining o‘rni va rolini oshirish yuzasidan tavsiya va ko‘rsatmalar berildi. Unda ichki ishlar organlariga hududiy jihatdan biriktirilgan ko‘ngilli xalq drujinalari otryadlari bilan aloqalarni kuchaytirish, hududda olib borilayotgan tezkor tadbirlarni tashkillashtirishda ularning yordamidan foydalanish, drujina a’zolariga qonunbuzarliklarga qarshi kurashishning usul va vositalari haqida o‘quv kurslarini tashkil etish, bunday tadbirlarni tizimli, doimiy va kompleks ravishda olib borish uchun militsiya xodimlarini biriktirish kabi vazifalar yuklatildi [7, 29-30].

Sovet davrida tuzilgan va faoliyati yo‘lga qo‘yilgan ko‘ngilli xalq drujinalari jamiyatda tartib-osoyishtalikni barqarorlashtirishda ham hissasini qo‘shgan bo‘lib, bunday tizim o‘sha davrda o‘ziga xos ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan. Chunki ko‘ngilli xalq otryadlariga turli davlat tashkilotlari vakillari, pedagoglar va ishlab ishlab chiqarish korxonalari xodimlari jalb etilgan bo‘lib, ular jamiyatning faol qismi sifatida tartib-intizomni mustahkamlashda ishtirok etgan.

Sovet davrida bu jarayonlarga, ularning faoliyatiga yuqori baho berilib, bu jarayonlarning tarixi va tahlili keyingi yillarda chet davlatlarda e’lon qilingan adabiyotlarda ham yoritilgan [8].

Mustaqillik yillarida ham ichki xavfsizlikni saqlash maqsadida jamoatchilik tuzilmalari tashkil etilib, xususan, “Mahalla posboni” jamoatchilik tuzilmasi tashkil etildi.

Dastlab 1999-yilda 19-aprelda “Mahalla posboni” jamoatchilik tuzilmasi nizomi tasdiqlangan bo‘lsa, keyinchalik 2014-yil 4-martda “Mahalla posboni” jamoatchilik tuzilmasi nizomi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qaytadan qabul qilindi. Nizomda tuzilmalarni tashkil etishdan asosiy maqsad fuqarolarning faolligini oshirish yo‘li bilan huquqiy demokratik davlat qurish jarayonini jadallashtirish, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining davlat boshqaruv tizimining ayrim vakolatlarini bajarishiga keng yo‘l ochish, osoyishtalikni ta’minlash, huquq-tartibotni mustahkamlashda davlat idoralari bilan fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining hamkorlikda ish olib borishini ta’minlash, aholining o‘zaro hamjihatligini oshirishdan iboratdir deb belgilab qo‘yildi [9].

Ushbu tuzilma ko‘proq o‘zini-o‘zi boshqaruv organiga tegishli bo‘lib, har bir mahallada, aholi istiqomat qiluvchi joylarda, qishloq va ovullarda yuzaga kelgan vaziyatdan kelib chiqqan holda aholi orasidan o‘zi istiqomat qilayotgan hududda osoyishtalikni ta’minlash va siyosiy-ijtimoiy vaziyatni barqarorlashtirishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yordam berish istagini bildirgan, ma’naviy pok, sog‘lom fikrli ko‘ngillilar aniqlanib, ular jamoatchilik asosida faoliyat ko‘rsatuvchi tuzilmaga birlashtiriladi. Agar sovet davridagi xalq ko‘ngillilari a’zolariga maosh berilmagan bo‘lsa, “Mahalla posboni“ tuzilmasi rahbariga mahalliy budjet hisobidan tegishli fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organi raisining maoshiga teng miqdorda oylik ish haqi belgilangan.

“Mahalla posboni“ jamoat tuzilmasiga Fuqarolar yig‘ini kengashining qaroriga binoan ongli ravishda vatan va xalq manfaatlari yo‘lida sadoqat bilan beg‘araz xizmat qilishga tayyor, jismoniy va ma’naviy sog‘lom, pok, iymon-e’tiqodli, yuksak insoniy va axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan, jinoyatchilikning oldini olish va jamoat tartibini saqlashda xuquq-tartibot organlariga ko‘ngilli ravishda yordam berish istagini bildirgan tegishli mahallada istiqomat qiluvchi 18 yoshga to‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari qabul qilinadi. Tuzilmaga qabul qilish uchun tanlangan nomzodning shaxsi va turmush tarzi mahalla fuqarolar yig‘ini kengashi a’zolari tomonidan militsiya hududiy inspektori ishtirokida o‘rganib chiqilib, lozim topilgan taqdirda fuqarolar yig’ini kengashining tegishli qaroriga asosan fuqaro mahalla posboni deb e’lon qilinib, jamoat tuzilmasiga qabul qilinadi (“posbonlar“ deb ataladi). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ”Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish

chora-tadbirlarito‘g‘risida’’2017-yil18-apreldagi PQ-2896-son qaroriga muvofiq hamda fuqarolar yig‘inining ‘‘Mahalla posboni’’ jamoatchilik tuzilmasi faoliyatini tubdan takomillashtirish, ularning ichki ishlar organlari bilan o‘zaro hamkorligini yanada kuchaytirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi 2018-yil 3-iyulda Fuqarolar yig‘inining ‘‘Mahalla posboni’’ jamoatchilik tuzilmasi to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

Bu qaror bo‘yicha ushbu jamoatchilik tuzilmasini moliyaviy manbalari aniq ko‘rsatilib, ularga bir qancha imtiyozlar berildi. Fuqarolar yig‘inining ‘‘Mahalla posboni’’ jamoatchilik tuzilmasi rahbarining guvohnomasi, ko‘krak nishoni va xizmat sumkasi hamda fuqarolar yig‘inining ‘‘Mahalla posboni’’ jamoatchilik tuzilmasi a’zolarining xizmat kiyimlarini tayyorlash va yetkazib berish bilan bog‘liq xarajatlar O‘zbekiston ‘‘Mahalla’’ xayriya jamoat fondi hamda O‘zbekiston yoshlar ittifoqini rivojlantirish jamg‘armasi hisobidan moliyalashtiriladi.Fuqarolaryig‘inining«Mahalla posboni» jamoatchilik tuzilmasi rahbarlariga fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari raislari lavozim maoshlariga teng miqdorda lavozim maoshlari belgilanishining amaldagi tartibi saqlab qolindi. Yuklangan vazifalarni bajarishda faollik ko‘rsatgan, o‘zlari faoliyat yuritayotgan hududda huquqbuzarliklarning oldini olishda namuna ko‘rsatgan va sodir etilgan jinoyatlar soni nisbatan kam bo‘lgan fuqarolar yig‘inining ‘‘Mahalla posboni’’ jamoatchilik tuzilmasi rahbarlariga yoki ularning ota-onalariga belgilangan tartibda ichki turistik yo‘nalishlarga yoki salomatligini tiklash maqsadida sog‘lomlashtirish muassasalariga O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan yo‘llanmalar berish amaliyoti joriy etiladigan bo‘ldi [10]. Xususan, qarorga ko‘ra jamoatchilik tuzilmasiga rahbar lavozimiga nomzodlar qoida tariqasida, oliy ma’lumotli, tegishli hududda doimiy yashayotgan, tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo‘lgan O‘zbekiston fuqarolari orasidan tanlanadi.

Ichki ishlar organlari xodimlariga qo‘yilgan talablarga to‘g‘ri keladigan “Mahalla posboni” jamoatchilik tuzilmasi rahbari va uning a’zolari fuqarolar yig‘ini raisi va profilaktika inspektori tavsiyanomasiga ko‘ra, ichki ishlar organlari kadrlar zaxirasiga kiritiladi. Shuningdek, ichki ishlar organlari kadrlar zaxirasiga kiritilgan Jamoatchilik tuzilmasi rahbari va uning a’zolari sifatida kamida bir yil mobaynida namunali faoliyat olib borgan shaxslar Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi Kasbiy tayyorgarlik fakultetiga o‘qishga hamda ichki ishlar organlari xizmatiga ustunlik asosida qabul qilinadigan bo‘ldi. Bu albatta yoshlarni bu tuzilmaga qiziqishini oshiradi. Ammo keyinchalik Mahalla posboni faoliyati sustlashib, mahallada ularning bor yoki yo‘qligi bilinmay qoldi. Aslida “Mahalla posboni”ning vazifasi jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda huquqni muhofaza qilish organlariga ko‘maklashish bo‘lsa-da, lekin ularning zimmasiga nizomda ko‘rsatilmagan ba’zi vazifalar ham yuklana boshladi. Jumladan, “Kommunal to‘lovlarni to‘lash uchun xonadonlarga xabar berish, shanba kunlari shanbalik o‘tkazish va harbiy xizmatga bormayotganlarni izidan tushish yoki harbiy xizmat uchun pul to‘lashni nazorat qilish posbonlarning zimmasiga yuklandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 24-dekabrdagi PQ-4075-son qarori bilan “Mahalla posboni” jamoatchilik tuzilmasi rahbari lavozimi tugatilib, uning o‘rniga profilaktika (katta) inspektorlarining jamoat tartibini saqlash bo‘yicha yordamchilari lavozimi joriy etildi [11].

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 26-martdagi 251-sonli qarori bilan “Profilaktika (katta) inspektorining jamoat tartibini saqlash bo‘yicha yordamchilari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida nizom tasdiqlandi. Unga ko‘ra profilaktika inspektorlari yordamchilarining asosiy vazifalari hamda funksiyalari belgilandi. Voyaga yetmaganlar va yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirishga katta e’tibor berildi. Nizomda profilaktika inspektori yordamchilarining huquq va majburiyatlari ham aks ettirilgan bo‘lib, ular fuqarolardan sodir etilayotgan har qanday huquqbuzarliklarni to‘xtatishni talab qilishi mumkin bo‘ldi. Profilaktika inspektorlari yordamchilari tuman ichki ishlar organlari boshliqlari tavsiyasiga asosan Qoraqalpog‘iston Respublikasi IIV, viloyatlar va Toshkent shahar IIV boshliqlari tomonidan lavozimiga tayinlanadi [12].

Profilaktika inspektorlari yordamchilari 18 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan, harbiy xizmatni o‘taganlar orasidan tanlab olinadi. Ular “Mahalla posboni” a’zolari, “Fidokor yoshlar” guruhlari va “Jamoatchilik nazorati maskanlari” faoliyatiga rahbarlik qiladi. Samarali faoliyat yuritgan profilaktika inspektori yordamchilari ichki ishlar organlari kadrlar zaxirasiga kiritiladi. Shuningdek, nizomda inspektor yordamchilari faoliyatini baholash mezonlari, monitoring qilish tartibi belgilandi.

Prezidentning 2020-18-fevraldagi farmoniga ko‘ra, Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga yuklatilgan 46 turdagi

ISSN 3030-3230

hamda profilaktika inspektorlariga yuklatilgan 13 turdagi vazifa va funksiyalar qisqartirildi. Unga ko‘ra “Mahalla posboni” jamoatchilik tuzilmasi butunlay tugatildi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, bunday turdagi jamoatchilik tuzilmalarini ko‘paytirishdan ko‘ra, fuqarolarimizni huquqiy ongini oshirib, jamiyatga nisbatan befarqlik kayfiyatini yo‘qotib, daxldorlik hissini shakllantirishimiz kerak deb o‘ylayman. Fuqarolar jamiyatdagi qonun buzilishlariga nisbatan murosasiz bo‘lmog‘i kerak. Zero, davlatimiz rahbari aytganidek, “Kuchli fuqarolik jamiyati barpo etishda jamoatchilik nazoratini tizimli yo‘lga qo‘yish eng maqbul yo‘ldir. Bu – jahon tajribasida sinovdan o‘tgan yo‘l”. Mamlakatimizda qaror topgan tinchlik, osoyishtalik va barqarorlik natijasida aholi farovonligi ta’minlanayotganligi, bu borada o‘zining faol ishtiroki bilan munosib hissa qo‘shish har bir fuqaroning vatanparvarlik va fuqarolik burchi bo‘lishi lozim.

Аннотация: В данной статье дается информация о деятельности общественных организаций, их правовых основах и значении для поддержания порядка общественной безопасности, освещается вклад этих структур в обеспечение внутренней безопасности. В статье отдельно проведен сравнительный анализ деятельности добровольных народных дружин советского периода и подобных структур в годы независимости.

Ключевые слова: общественная безопасность, общественный порядок, внутренняя безопасность, общественная структура, волонтеры.

Annotation: This article provides information on the activities of public organizations, their legal foundations and importance for maintaining public safety, highlights the contribution of these structures to ensuring internal security. The article especially comparatively analyzes the activities of voluntary national squads of the Soviet period and similar structures during the years of independence.

Key words: public safety, public order, internal security, public structure, volunteers.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasni Prezidentining Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 2021-yil 29-noyabr. PF-27. https://lex.uz/docs/-5749291.
2. O‘zR MA. 837-fond, 38-ro‘yxat, 9285-ish, 188-varaq.
3. «Об утверждении Положения о добровольных народных дружинах по охране общественного порядка Узб.ССР.» УзССР Министрлар Совети қарори, №743,30.09.1959 й. Тошкент ш. 193-bet.
4. O‘zR MA. 837-fond, 38-ro‘yxat, 9285-ish, 189-varaq.
5. O‘zR MA, 837-fond, 38-ro‘yxat, 9285-ish, 190-192-varaqlar.
6. O‘zR IIV arxivi, 93-fond, 1-ro‘yxat, 8-ish, 35-varaqning orqasi.
7. Yermetov A. O‘zbekistonda ichki ishlar organlari faoliyati (1925-1991-yillar). T. “Adabiyot uchqunlari”. 2018.
8. Malia M. The Soviet Tragedy: A history of Socialism in Russia. – Toronto: The free press, 1995.
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. Fuqarolar yig‘inining “mahalla posboni” jamoatchilik tuzilmasi faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida. 2014-yil 4-mart, 47-son. https://lex.uz/acts/-2349284
10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. Fuqarolar yig‘inining “mahalla posboni” jamoatchilik tuzilmasi faoliyatini tubdan takomillashtirish haqida. 2018-yil 3-iyul, 497-son. https://lex.uz/docs/-3804148?otherlang=1
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. “Jamoat xavfsizligini ta’minlash samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”. 2018-yil 24-dekabr, PQ-4075-son. https://lex.uz/docs/-4124831
12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. Ichki ishlar organlari profilaktika (katta) inspektorlarining jamoat tartibini saqlash bo‘yicha yordamchilari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida. 2019-yil 26-mart, 251-son. https://lex.uz/uz/docs/-4254705?ONDATE=27.03.2019&ONDATE2=05.04.2022&action=compare

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH SOHASIDA KOMPITENTLI KADRLARNI TAYYORLASHNING ISTIQBOLLI JIHATLARI

(uchuvchisiz uchadigan apparatlardan foydalanish tajribasi va rivojlanish tahlili asosida)

Qodirov T.T.,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Ilmiy-amaliy tadqiqotlar markazi yetakchi ilmiy xodimi

Annotatsiya. **Mazkur maqolada hozirgi kundagi texnologik taraqqiyot asrida harbiy va jamoat xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda zamonaviy texnologiyalardan, xususan uchuvchisiz uchadigan apparatlar va dronlardan foydalanish ustuvor ahamiyat kasb etayotganligi nuqtai nazaridan harbiy xizmatchi va xodimlarning bu sohada bilim va ko‘nikmalarini oshirishga motivatsiya berish maqsadi yotadi.**

Kalit so‘zlar: Uchuvchisiz uchish apparati (UUA), dron, tahdid, qarshi kurash, xavfsizlik, apparat, kompetensiya, tinchlik, ta’minlash, qurol, texnologiya.

Dunyo miqyosidagi hozirgi o‘ta murakkab vaziyatda mamlakatimiz xavfsizligi va manfaatlarini ishonchli ta’minlash yanada dolzarb vazifamizga aylanmoqda.

Ayniqsa, Rossiya – Ukraina, Yaqin Sharq mintaqasi va Afg‘onistonda uzoq vaqtdan buyon saqlanib qolayotgan nizolarning global yechimi hanuzgacha topilgani yo‘q.

Hozirgi shiddatli geosiyosiy qarama-qarshiliklar sharoitida iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, axborot xavfsizligi va boshqa sohalarda keskin muammolar paydo bo‘lmoqda. Murakkab xalqaro vaziyat, xavfsizlikka nisbatan xavf-xatar va tahdidlarning kuchayishi Markaziy Osiyoda ham kuzatilmoqda.

Shu bois O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qurolli Kuchlar Oliy Bosh qo‘mondoni Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 2024-yil Xavfsizlik Kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida “Eng katta boyligimiz bo‘lgan tinch hayotni asrash, xalqimiz farovonligini ta’minlash, kelajak rejalarimizni belgilashda ana shu holatlarning barchasini inobatga olishimiz zarur. Biz har qanday vaziyatda ham O‘zbekistonning davlat suvereniteti, uning sarhadlari daxlsizligi va hududiy yaxlitligini ta’minlashimiz shart. Bu – bizning tarix va kelajak avlodlar oldidagi muqaddas burchimiz va majburiyatimizdir”[1]., – deb aytib o‘tgan so‘zlar bejizga emas.

Zamonaviy dunyoda barqarorlik va xavfsizlikka yangi xavf va tahdidlar kundan kunga ortib borayotganligi hech kimga sir emas. Texnologik taraqqiyot asrida harbiy va huquqni muhofaza qilish sohalarida xavfsizlikni ta’minlash bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda zamonaviy texnologiyalardan, qurol aslahalardan foydalanish zarurati paydo bo‘lmoqda.

So‘nggi 4-5 yil ichida dunyodagi vaziyat tobora murakkablashib bormoqda. Qurollanish jarayonining tezlashuvi, sovuq urush, zamonaviy dunyoning tahdid va xavflari, jumladan, terrorizm va ekstremizm, kiberjinoyatlar va boshqa transmilliy uyushgan jinoyatlar kun sayin kuchaymoqda.

Bunday notinch zamonda biz doim sergak va mustaqilligimiz hamda erkinligimizni himoya qilishga tayyor turishimiz lozim

Shu munosabat bilan uchuvchisiz uchadigan apparatlaridan (keyingi o‘rinlarda - UUA) foydalanish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoda ro‘y berayotgan gibrid xarakterdagi qurolli to‘qnashuvlar tahlili bizdan Qurolli Kuchlarimizning jangovar harakatlar jarayonida ilgari amalda qo‘llanilmagan qurollardan foydalanadigan kuchlarga qarshi kurasha olish qobiliyatini oshirishni taqozo etmoqda.

Bunday sharoitda, avvalo, davlatimiz rahbarining “mudofaa sanoatini tizimli rivojlantirish, uchuvchisiz uchish apparatlari, zirhli avtomashinalar kompleksini takomillashtirish ishlari ham faoliyatimizning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.”[2]

ISSN 3030-3230

deb, aytgan so‘zlarini eslash kifoya.

Bu dunyoda uchuvchisiz uchadigan apparatlar kirib bormagan soha qolmaganligini, undan inson manfaatlari uchun xizmat qiladigan barcha sohalarda unumli foydalanib kelinayotganligini, ayniqsa mazkur apparatlardan dunyoda sodir bo‘layotgan jangovar harakatlar jarayonida faol qo‘llanilib, jang taqdirini o‘zlashtirish, o‘zgartirishga asosiy vosita sifatida foydalanib kelinayotganligini yorqin dalil qilib keltirish mumkin.

Jangovar harakatlar dinamikasi oshib borayotgan va yangi usullar paydo bo‘layotgan hozirgi sharoitda muvaffaqiyat, ko‘p jihatdan, zamonaviy qurollar, innovatsion texnikalar, ayniqsa uchuvchisiz uchish apparatlaridan oqilona foydalanishga bog‘liq. Shu bois, Qurolli Kuchlar uchun UUA haqida ma’lumotlarga ega bo‘lish bilan bir qatorda uni qo‘llay olish va undan himoyalanish masalalari asosiy o‘rinda turadi.

Misol uchun Rossiya va Ukraina, Ozarbayjon va Armaniston, Falastin va Isroil o‘rtasidagi harbiy mojarolar tajribasi shuni ko‘rsatdiki, harbiy harakatlarda UUAlardan foydalanish voqealar rivojiga sezilarli ta’sir o‘tkazdi. Xususan, o‘q otish nuqtalarini ko‘rsatish, nishonlarni aniqlash va unga zarba berish, havodan razvedka o‘tkazish bo‘linmalari harakatlarini muvofiqlashtirish, UUAlardan **“kamikadze”** zarbalari sifatida foydalanish kabi yo‘naltirishda UUAlarining qo‘llash o‘z samarasini berdi.

Xavfsizlikni ta’minlovchi yoki boshqa davlatga tahdid soluvchi kuch sifatida qo‘llanildi.

Insonlarga qarshi qo‘llanilganligini hisobga olmasdan turib jangovar maydonlarda qimmatbaho harbiy texnikalarni (samolyotlar, tanklar, artilleriya qurollari, zenit raketa qurollari va boshqa) yo‘q qilishda dronlardan foydalanish ming barobardan ortiq samarali ekanligini ko‘rsatdi.

Harbiylarning yashirin pozitsiyalari, transheyalari, blindaj hatto bombapanalarga yashiringan joylarigacha topib borib ularni yo‘q qiluvchi UUAlardan foydalanilganligi hozirgi zamon urushlarida bu texnikalarning o‘rni va rolini yanada oshirdi.

Shu qatorda, bu apparatlar, axborot va aloqalarni retranslyatsiya qilish, yerda va havodagi nishonlarga zarba berish operatsiyalarini o‘tkazish, jangovar vaziyatlarda izlash va qutqarish operatsiyalarida qo‘llash, HHK va HHM kuchlari o‘quv-jangovar mashg‘ulotlarida havo nishoni sifatida foydalanish, jamoat xavfsizligini ta’minlash, patrullik qilish, jinoyatchilarni kuzatib borish, qidiruv qutqaruv ishlarida, yo‘ltransport hodisalarni tahlil qilishda, favqulodda vaziyatni aniqlashda, ommaviy tadbirlar o‘tkazish joylari va obyektlarni kuzatishda, bojxona xizmati harakatlarida madad berish va sohil himoyachilari, chegaralarda patrullik qilish, favqulodda vaziyatlarda fuqaro mudofaasi harakatlarida, yuklarni tashish, terrorizm tahdidini aniqlash va uni bartaraf qilishda va boshqa sohalarda samarali qo‘llanilmoqda undan tashqari, ko‘plab rivojlangan davlatlarda UUAlardan jamoat tartibini saqlash, jumladan, ommaviy tadbirlar, yig‘inlar, mitinglar, yurishlar, o‘tkazishda, shuningdek, bog‘lar, maydonlar va bozorlarda samarali foydalanilmoqda.

Shu boisdan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tuzilmalari hamda huquqni muhofaza qilish organlarida ham UUAlaridan unumli foydalanish va faoliyati jarayonida qo‘llash bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. [3]

Biroq, mazkur zamonaviy texnikalar qatoriga kiruvchi UUA qo‘llay olish, uni vazifa va funksiyalarini bilish, uni taktik va strategik vazifalaridan boxabar bo‘lish har bir insonning vazifasi hisoblanadi. Ayniqsa xavfsizlikni ta’minlashga mas’ul bo‘lgan harbiy xizmatchi va xodimlarning bu sohani o‘zlashtirishi kerakligini ko‘rsatadi.

Shu bois, bo‘lajak ofitserlar kelgusida o‘z xizmat faoliyatining samarali boshqarish, qo‘l ostidagi shaxsiy tarkibning ishini yengillashtirish, ularni xavfsizligini ta’minlash, ularning imkoni yetmagan vazifalarni UUA orqali bajarish va g‘alabani qo‘lga kiritish uchun asosiy vositalardan foydalanish kompetensiyasiga ya’ni ” (ingl: “competence” – “qobiliyat”) “faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish”[4] qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim.

Shu bilan birga, jahonda kuchayib borayotgan turli xavf-xatar va ziddiyatlar, el-yurt tinchligi va osoyishtaligiga tahdidlar, pandemiya, tabiiy va texnogen ofatlar mas’ul davlat tuzilmalariga o‘z faoliyatini ‘‘Barcha sa’y-harakatlar inson qadri uchun’’ degan ustuvor g‘oya asosida yanada takomillashtirish vazifasini yuklamoqda.

Shunday ekan ushbu vazifalarni bajarish uchun yuqori malaka va kompetensiyaga ega bo‘lgan ofitserlarga bo‘lgan ehtiyoj mavjudligi ko‘rinadi.

Ayniqsa, hozirgi kunda dunyo, mintaqa va mamlakatimizda har kuni sodir bo‘layotgan jamoat

xavfsizligini ta’minlash sohasiga qaratilgan tahdidlarning keskin oshib borayotganligi, yon atrofimizdagi davlatlarda bo‘layotgan jangovar harakatlar, maxsus operatsiyalar, ommaviy tartibsizliklar, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarga qarshi kurashish, tabiiy va texnogen ofatlarni bartaraf etish kabi faoliyatlarda samarali xizmat ko‘rsatadigan yuqori kompetetli ofitserlarni tayyorlash har doim zarur bo‘lib kelgan, bundan keyin ham zarur bo‘lib qoladi.

Bugun globallashayotgan dunyoda geosiyosiy davlatlararo aloqalarga, o‘z navbatida, xalqaro munosabatlarga sezilarli ta’sir o‘tkazayotgani, har bir davlat xalqaro munosabatlarda o‘z manfaatlari ustuvorligiga erishish maqsadida barcha imkoniyatlarini ishga solishga, kuch-qudratidan foydalanishga harakat qilayotgani kuzatilmoqda. Geosiyosiy manfaatlar to‘qnashuvi va mafkuraviy kurash kuchaygan hozirgi davrda har qanday inson ongida kelgusida millatlar, xalqlar, davlatlar, umuman, insoniyat jamiyatining taqdiri qanday bo‘ladi, degan savol g‘oyat dolzarb bo‘lib turibdi.

Tarixning dalolat berishicha, yirik davlatlar, ular tomonidan barpo etilgan imperiyalar, strategik maqsadlar yo‘lida birlashgan davlatlar ittifoqlari, turli kuchlar xalqaro munosabatlar va dunyo siyosatining asosiy tamoyillarini belgilab bergan va belgilab bermoqda. Ayni shu davlatlar hozirda ham bevosita yoki bilvosita o‘z so‘zini boshqa davlatlarga o‘tkazmoqda, jahonning geosiyosiy xaritasi qanday ko‘rinish kasb etishida ularning o‘rni katta bo‘lmoqda. Mavjud boyliklarni, xomashyo resurslarini taqsimlash, jahon miqyosida tovarlar va xizmatlar narxini belgilashda asosiy vazifani hal etmoqda. Boshqacha aytganda, gegemonlikni da’vo qilayotgan bu davlatlar shu tariqa yashash va yurish-turish qoidalarini belgilab bermoqda.

Amaliy tajribalar shuni ko‘rsatdiki, dunyo hamjamiyatida Uchuvchisiz uchadigan apparatlar jangovar harakatlar va operatsiyalarda misol uchun Rossiya Ukraina, Falastin Isroil, Armaniston Ozarbayjon urushlari, tabiiy (jahonning global isishi, havoning ifloslanishi va issiqxona effekti, suv sathining ifloslanishi, yashovchi biologik turlarning qirilib ketishi) texnogen (favqulodda holat, Yong‘inlar va portlashlar, Kimyoviy, Gidrodinamik, Radiatsion avariyalar, To‘satdan bino qulashi, Kommunal tizimlardagi avariyalar oqibatidagi ko‘p qurbonlar, odamlar sog‘lig‘iga zarar yetkazilishi, atrof-muhitga jiddiy zarar yetkazilishi) kabi holatlarda keng qo‘llanilmoqda.

Misol uchun Rossiya “Shimoliy oqim” gaz quvuridagi portlash, Peruda vulqon otilishi oqibati neft oqishi, Nigerya qirg‘og‘ida neft tashish sudyasini halokati, Sardoba suv omborining yemirilishi, Koronavirus pandemiyasi oqibatlarini bartaraf etishda va dunyo siyosatining eng og‘riqli nuqtasi bo‘lgan ommaviy tartibsizliklar, jamoat tartibini buzishga intilishlar xususan, Qozog‘iston, Qoraqalpog‘iston, Fransiya, Dublinda va 2024-yilda Angliya va Isroilda bo‘lib o‘tgan ommaviy noroziliklar va jamoat tartibini buzish jarayonlarida uchuvchisiz uchish apparatlar inson imkoniyatidan ortiq bo‘lgan vazifalarni bajarib kelayotganligi butun dunyo hamjamiyatining mazkur texnologiyalarga bo‘lgan qiziqishni orttirishi barobarida, ularni imkoniyatlardan keng foydalanish bo‘yicha muhim qarorlar qabul qilmoqdalar.

Tarixiy voqealar ketma-ketligini xronologik tahlillari shundan dalolat beradiki, XX – asrda davlatlar asosiy e’tiborni qiruvchi va bombardimonchi samolyotlar ishlab chiqarishga qaratgan bo‘lsa, XXI – asrda bu dronlarga qaratilmoqda. Jahonda yuz berayotgan harbiy nizolar, mavjud tahdidlar qurolli kuchlarni rivojlantirishga zaruriyat yaratmoqda. Shu nuqtayi nazardan mintaqamizdagi qo‘shni davlatlardan tortib dunyoning narigi chetidagi davlatlar ham o‘z armiyasini dronlar bilan butlamoqda, bu esa o‘z navbatida biz uchun xavfsizlik dilemasini yaratib unga qarshi choralar ko‘rib borishni taqozo etadi.

UUA va dronlar dunyodagi eng rivojlanayotgan innovatsiyalardan biri bo‘lib, so‘nggi o‘n yillikning asosiy texnologiyalari ro‘yxatida ikkinchi o‘rinni egallaydi. Birinchi o‘rinni internet texnologiyalarining rivojlanishi va 5G ning paydo bo‘lishi egalladi.[5]

Darhaqiqat, hozirgi kunda dunyoda jamoat xavfsizligini ta’minlash borasida UUA foydalanish jadal rivojlanib bormoqda. Hozirgi vaqtda UUAlarga bo‘lgan talab ortib bormoqda va ularning yangilari hamda inson imkoniyatidan bir qator ustunlikka ega bo‘lgan apparatlarga takliflar kuchayib, jamoat tartibini saqlash, ommaviy tadbirlarni nazorat qilish, obyektlarni qo‘riqlash, huquqbuzar va jinoyatchilarni taqib qilish va qo‘lga olish, tabiiy va texnogen hodisa oqibatlarni bartaraf etish kabi muhim vazifalarni bajarib kelmoqda.

Darhaqiqat, uchuvchisiz uchadigan apparatlar kompleksini takomillashtirish deganda mazkur apparatlarni ishlab chiqarish, qo‘shinlarni jihozlash bilan bir qatorda ular haqida ma’lumotga, bilimga, uning xususiyatlari va taktik-texnik xarakteristikasini bilish va

ISSN 3030-3230

o‘rganish, unga qarshi kurash mazkur apparatlar bilan ishlaydigan barcha mutaxassislarning birlamchi amaliyoti bo‘lishi lozim[6].

Zero, so‘nggi o‘n yil ichida jamoat xavfsizligini ta’minlash uchun UUA va dronlardan foydalanish qiziqarli tushunchadan sinovdan o‘tgan haqiqatga aylandi. Bu haqiqat iboraning o‘zida namoyon bo‘ladi – o‘n yil oldin “jamoat xavfsizligi uchun uchuvchisiz samolyot” atamasi bizning umumiy lug‘atimizga hali kirmagan edi.

Endi jamoat xavfsizligini ta’minlaydigan dronlar odatiy holga aylandi. Har qanday yirik shaharda siz uchuvchisiz bo‘limlar, o‘t o‘chirish bo‘limlari, qidiruv va qutqaruv guruhlari va tabiiy ofatlarni boshqarish xodimlarining ishini qo‘llab-quvvatlaydigan dronlarni topasiz.[7]

UUAlar vaqt, resurs va inson hayotini saqlaydigan bebaho kuchga ega texnologiya bo‘lib, jamoat xavfsizligini ta’minlashda inqilob yasadi. Jamoat xavfsizligi idoralari, jumladan politsiya, o‘t o‘chiruvchilar va qidiruv-qutqaruv guruhlari aqlli, xavfsiz va samarali operatsiyalarda UUAlarga tayanmoqdalar[8].

Misol uchun AQShning Ford avtomobil zavodi UUA bilan jihozlandi. Ford-River-Ruj shtatida 12 ta uchuvchisiz apparatlardan turli missiyalarni amalga oshirish uchun foydalanmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, XXI asr axborot texnologiyalar asri ekanligini tasdiqlab beruvchi omil sifatida barcha sohalarda faol qo‘llanib kelayotgan mo’jizaviy texnika hisoblangan uchuvchisiz uchadigan apparatlar, ko‘plab rivojlangan davlatlarda samarali foydalanib kelinmoqda. Jumladan mazkur texnikalar mamlakatimizda ham keng qo‘llanilayotganligi kuzatilmoqda.

Ayniqsa, hozirgi zamonda robotlashtirilgan zamonaviy texnikalar insonlarni og‘irini yengil qilish, inson uchun imkonsiz bo‘lgan vazifalarni yuqori saviyada ijrosini ta’minlab kelayotganligi hech kimga sir emas. Biroq ularni boshqaruvchi, yasovchi, qo‘llovchi insonligicha qolmoqda.

Shunday ekan UUAlar haqida bilimlarga ega bo‘lish, undan foydalanish hamda himoyalanish bo‘yicha yetarli bilimga ega bo‘lish barchaning vazifasi hisoblanadi, ayniqsa jamoat xavfsizligini ta’minlash uchun mas’ul bo‘lgan bo‘lajak ofitserlar uchun UUAlarni o‘rganish, foydalanish sirlarini bilish, dushman UUAlaridan himoyalanish kabi hayoti uchun muhim bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish zarurati yanada ortib borayotganligini kuzatish mumkin.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Milliy gvardiya bo‘linmalari hamda Jamoat xavfsizligi universiteti harbiy xizmatchilariga uchuvchisiz uchish apparatlar qo‘llash va ularga qarshi kurashishni o‘rgatish tizimini takomillashtirish maqsadida zarur dronlar va dronlarga qarshi kurashish vositalari bilan ta’minlash bo‘yicha dasturlarga vazifalar kiritish zarur. Shu nuqtai nazardan UUAlardan mamlakatimizda xavfsizlikni ta’minlashda foydalanish yuqori samaradorlikka erishishning asosiy omili bo‘lib xizmat qiladi. Buning uchun barcha yoshlar ayniqsa vatan himoyasi bilan bog‘liq kasb egalari, ayniqsa jamoat xavfsizligini ta’minlashga mas’ul bo‘lgan bo‘lajak ofitserlar UUAlarni yaxshi bilishi, nafaqat undan foydalanish balki ulardan himoyalanish chora tadbirlarini mukammal o‘zlashtirishlari kerak bu ularning kompitentliligining qay darajada ekanligi bilan baholanadi.

Аннотация. В настоящей статье поставлена цель мотивирования военнослужащих и служащих к повышению знаний и навыков в нынешний век технологического прогресса в области приоритетного использования современных технологий, в частности беспилотных летательных аппаратов и дронов при решении вопросов, связанных с обеспечением военной и общественной безопасности.

Ключевые слова: беспилотный летательный аппарат (БПЛА), дрон, угроза, противодействие, безопасность, оборудование, компетентность, мир, обеспечение, оружие, технологии.

Annotation. This article aims to motivate military personnel and employees to improve their knowledge and skills in the current age of technological progress in the field of priority use of modern technologies, in particular unmanned aerial vehicles and drones in solving issues related to military and public security.

Key words: Unmanned aerial vehicle (UAV), drone, threat, counteraction, safety, equipment, competence, peace, provision, weapons, technologies.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig‘ilishidagi nutqi//12.01.2024 yil.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 31 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga bayram tabrigi// https://president.uz/uz/lists/view/5821.

3. O‘zbekistonda ichki ishlar organlari faoliyatida dronlardan foydalanish joriy etiladi. /https://daryo.uz/k/2024/04/23/ O‘zbekistonda ichki ishlar organlari faoliyatida dronlardan foydalanish joriy etiladi. /https://daryo.uz/k/2024/04/23/ozbekistonda-ichki-ishlar-organlari-faoliyatida-dronlardan-foydalanish-joriy-etiladi

4. Saidnazarova T.M.“Kompetentlik” bo‘yicha ilmiy tushuncha./umumtexnika fanlari kafedrasi o‘qituvchisi va pedagogika fakulteti mehnat ta’limi// https://doi.org/10.5281/zenodo.7063674.

5. Г.Ф. Аюбов. Что говорит зарубежный опыт? 2023 год.

6.Общественная безопасност// https://www.drone.com.kz /industries/ obshchestvennaya_bezopasnost/

7.Law Enforcement and Public Safety Drones// https://viper-drones.com/industries/law-enforcement-drones/

5. O‘zbekiston Respublikasining “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonuni. https://lex.uz/docs/29526

6.Антонов О.Е. Беспилотники.http://bp-la.ru/radiopomexi-bespilotnikov 2012 g

7. Bobokulov I. Международно-правовые аспекты региоланой безопасности: вопросы теории и практики.– T.: UMED, 2010.

8. Law Enforcement and Public Safety Drones// https://viper-drones.com/industries/law-enforcement-drones

ISSN 3030-3230

G‘ILDIRAKLI JANGOVAR MASHINALARNING TUZILISHIGA OID MULTIMEDIA VA TEXNIK VOSITALARNI QO‘LLASHNING AHAMIYATI

G‘uchchiyev Alibek Abdullayevich,
O‘zbekiston respublikasi
Jamoat xavfsizligi universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. **Ushbu maqolada g‘ildirakli jangovar mashinalarning tuzilishiga oid multimedia va texnik vositalarni qo‘llashning ahamiyati, harbiy sohada axborot bilan ishlash, yetarlicha yuqori darajadagi harbiy texnik tayyorgarlikni takomillashtirish, bu o‘z navbatida, zamonaviylikni o‘zlashtirishdan iborat ekanligi, multimedia va texnik vositalarni birgalikda qo‘llash nafaqat g‘ildirakli jangovar mashinalar tuzilishi bo‘yicha balki, har qanday texnikaviy soha bo‘yicha texnik tayyorgarlikni takomillashtirishda muhim ahamiyatga egaligi yoritilgan.**

Kalit so‘zlar: multimedia va texnik vositalar, g‘ildirakli mashinalar, matn, grafik, audio, video materiallar, harbiy texnik tayyorgarlik, ijodiy fikrlash.

Respublikamizda ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalari vositasida bo‘lajak ofitserlarning amaliy tayyorgarligini jadallashtirish, oliy harbiy ta’lim muassasalarida axborot-loyihaviy muhitni qaror toptirish, jangovar va harbiy texnika fanlarini o‘qitishning metodik ta’minotini takomillashtirishga katta ahamiyat qaratilmoqda. “Innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun barcha yo‘nalishlarida keng imkoniyatlar yaratish, tadqiqotlarni va innovatsion tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish” global innovatsion indeksda O‘zbekiston Respublikasining o‘rnini yaxshilashning ustuvor maqsadi sifatida belgilab olingan. Bu esa, harbiy xizmatchilarning murakkab vaziyatlarda tezkor oqilona qarorlar qabul qilish kompetensiyasini rivojlantirish modelini ishlab chiqish, uni amalga oshirishning metodik shart-sharoitlari va didaktik algoritmini takomillashtirishni taqozo etadi.

Harbiy sohada yuqori darajali yetuk mutaxassislarni tayyorlash har doim eng muhim vazifalardan biri bo‘lib kelgan. “Oliy ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash mazmunini tubdan qayta ko‘rish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratilishini ta’minlash”[1] maqsadida belgilangan ustuvor yo‘nalishlardan biri o‘quv jarayoniga multimedia, kompyuter texnologiyalaridan foydalanish tizimini maqsadli va unumli tashkil etishga alohida e’tibor berilgan. Ya’ni harbiy sohada axborot bilan ishlash, yetarlicha yuqori darajadagi harbiy texnik tayyorgarlikni takomillashtirish, bu o‘z navbatida, zamonaviylikni o‘zlashtirishdan iboratdir.

Multimedia va texnik vositalarni birgalikda qo‘llash nafaqat g‘ildirakli mashinalar tuzilishi bo‘yicha balki, har qanday texnikaviy soha bo‘yicha texnik tayyorgarlikni takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu usulda harbiy xizmatchilar mustaqil ishlash, tasavvur qilish, o‘z-o‘zini bilish, o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘z-o‘zini anglash kabi qobiliyatlarini rivojlantirishga, ma’lum ko‘nikmalar takomillashtirilishiga yondashuvlar o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Yuqorida keltirilgan mustaqil ishlash, tasavvur qilish, o‘z-o‘zini bilish, o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini tarbiyalash, o‘z-o‘zini anglash kabi qobiliyatlar nafaqat harbiy ta’lim oluvchi, balki harbiy ta’lim beruvchi uchun ham dolzarbdir.

Albatta harbiy xizmatchi texnik tayyorgarlik bo‘yicha ko‘nikmalarni harbiy ta’lim beruvchi yordamida egallaydi. Har bir harbiy xizmatchi Vatani oldidagi sadoqatiga sodiq qolar ekan, u yetuk mutaxassis kadr bo‘lib yetishishi uchun harbiy ko‘nikmalarni puxta egallashi, mukammal harbiy texnik tayyorgarlikka ega bo‘lishi kerak. Buning uchun u o‘zi oldiga mustaqil maqsadlar qo‘ya olishi, ularga erishish yo‘llarini o‘zlashtirish, muammolarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan bilimlarni yangilash, amalga

oshiriladigan ilarni samarali rejalashtirish va shunga mos harakat qilish, olingan natijalarni bir-biriga bog‘lab ko‘zlangan maqsadga erishish.

Shunday ekan g‘ildirakli jangovar mashinalar bo‘yicha texnik ko‘nikmalarni rivojlantirish bo‘yicha samarali natijalarga erishish uchun multimedia va texnik vositalarni birgalikda qo‘llash orqali yuqori sifat ko‘rsatkichlar egallanadi.

Zamonaviy texnologiyalar rivojlanib borayotgan hozirgi davrda mustaqil ravishda izlanib bilim olish, olingan bilimlarini amaliyotda qo‘llash, tanqidiy va ijodiy fikrlash, yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish, axborotlar bilan ishlash hamda ularni tahlil qilish, asosiy vaziyatlarni ajratib ko‘rsatish, jamoaviy ishlash, o‘z harakatlarini boshqalar bilan muvofiqlashtirish fazilatlarini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Ko‘pgina sohalarda, jumladan harbiy sohada multimedia va texnik vositalarni birgalikda qo‘llash orqali yuqorida intellektual qobiliyatlarni maqsadli rivojlantirish, kognitiv izlanish va kasbiy kompetensiyani shakllantirish, harbiy texnik tayyorgarlikni takomillashtirishda juda samarali natijalarga erishish mumkin. Aynan harbiy xizmatchilarning, hoh ular shartnoma asosidagi harbiy xizmatchi bo‘lsin, hoh kursant (oliy harbiy ta’lim tinglovchisi bo‘lsin), hoh muddatli harbiy xizmatchi bo‘lsin ularning harbiy texnik tayyorgarligini rivojlantirish ushbu tadqiqot ishining dolzarbligini belgilaydi.

Hammamizga ma’lum so‘nggi o‘n yil ichida shaxsiy kompyuterlar va axborot texnologiyalari sababli jamiyat hayotida tub o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Inson faoliyatining turli sohalarida shu jumladan harbiy sohada ham axborotlashtirish jarayonlarini tobora chuqurroq joriy etish ortga qaytib bo‘lmaydigan darajada natijalarni belgilaydi. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari bilan ishlashning zamonaviy usullarini amalda bilmaslik axborot resurslaridan foydalanishning samarali natijalariga erishishga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Zamonaviy axborot texnologiyalari asosan – foydalanuvchi ish jarayonida tayyorlaydigan har xil turdagi ma’lumotlar: matn, grafik, audio, video materiallar. Multimedia texnologiyalari interaktiv, shuningdek tomoshabin tinglovchi axborotning passiv iste’molchisi bo‘lib qolmaydi, balki faol, uni yaratish va almashish jarayoniga kiradi.

Axborot texnologiyalarini yaxshi biladigan shaxs yangicha fikrlash uslubiga ega, yuzaga keladigan muammolarni baholash va har xil murakkab vaziyatlar bo‘yicha faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish bo‘yicha tubdan yondoshadi.

Multimedia vositalari jamiyatimizda mutaxassislarni tayyorlashda quyidagi vazifalarni bajarmoqda:

- o‘zgaruvchan hayotiy vaziyatlarga moslashuvchan moslashish, zarur bilimlarni mustaqil egallash va amaliyotda qo‘llash;
- mustaqil ravishda tanqidiy fikrlash, yuzaga kelayotgan muammolarni ko‘ra bilish, muammolarni bartaraf etish va ularni ratsionalizatsiya qilish yo‘llarini izlash, zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda yechimlarni ko‘rish;
- bilimlarni qayerdan va qanday o‘zlashtirishni aniq tushunadi;
- ijodiy fikrlash qobiliyati yaxshi va yangi g‘oyalarni ishlab chiqadi;
- ma’lumotlar bilan malakali ishlaydi, ularni tahlil qiladi, zarurlarini umumlashtiradi, taqqoslaydi, masalalar yechimi uchun farazlar qiladi, asosli xulosalar chiqaradi;
- o‘z ko‘nikmalarini rivojlantirish ustida mustaqil ishlaydi.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy axborot texnologiyalarisiz, zamonaviy hayotni tasavvur qilishning iloji yo‘q. O‘rgatish amaliyotida qo‘llaniladigan barcha texnologiyalar (kompyuter, audio, video qurilmalar) axborot texnologiyalari deb ataladi.

G‘ildirakli jangovar mashinalarning tuzilishiga oid texnik ko‘nikmalarni rivojlantirishda axborot texnologiyalarining bir bo‘lagi bo‘lgan multimedia vositalari va texnik vositalardan bilan birgalikda foydalanish texnik ko‘nikmalarni natijali sifat darajasiga erishishda muhim ahamiyatga egadir.

Harbiy sohada g‘ildirakli jangovar mashinalar tuzilishi, ularga texnik xizmat ko‘rsatish va ta’minlash, ularni boshqarishga oid yetarlicha ko‘nikmalarga ega bo‘lgan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, yuqori darajali mutaxassislarning shakllantirish, eng muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. “Oliy ta’lim tizimini tubdan

ISSN 3030-3230

takomillashtirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash mazmunini tubdan qayta ko‘rish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash uchun zarur sharoitlar yaratilishini ta’minlash” maqsadida belgilangan ustuvor yo‘nalishlardan biri o‘quv jarayoniga kompyuter texnologiyalaridan foydalanish tizimini maqsadli va unumli tashkil etishga alohida e’tibor berilgan. Ya’ni harbiy xizmatchilarda axborot bilan ishlash, yetarlicha yuqori darajadagi madaniyatni shakllantirish, bu o‘z navbatida, zamonaviylikni o‘zlashtirishdan iboratdir. Amaliy asoslarga ko‘ra, harbiy xizmatchilar aniq “yuqori ixtisoslashgan” vazifalarni bajaradigan “mutaxassis” hisoblanadi. Bugungi kunda, ayniqsa, harbiy sohada harbiy texnikalarni ishlatish, ularga ekspluatatsiya qilish, jangovar bo‘linmalarning avtoparklarida harbiy texnikalarning saqlanishi, ularning doimiy jangovar shay holatda bo‘lishida barcha toifadagi harbiy xizmatchilarning o‘ta mas’uliyatli bo‘lishi talab qilinishidan tashqari, u ham tadqiqotchi, ham harbiy jamoaning tashkilotchisi va eng asosiysi yaxshi komandir bo‘lishi lozim. Zamonaviy iqtisodiyot, ishlab chiqarish jadal rivojlanayotgan sharoitda, harbiy xizmatchilarni turli mutaxassisliklar bo‘yicha tayyorlashga qo‘yiladigan talablarni belgilaydigan hujjat – bu oliy ta’lim davlat ta’lim standarti hamda malaka talablari hisoblanadi. Harbiy xizmatchilar ofitserlar tarkibida xizmat qiladimi, serjantlar tarkibidami, oliy harbiy bilim yurti kursanti bo‘ladimi yoki muddatli harbiy xizmatchimi ular uchun harbiy texnikalar bo‘yicha yetarlicha bilim va ko‘nikmalar bo‘lishi juda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotimizda biz harbiy xizmatchilarning g‘ildirakli jangovar mashinalarning tuzilishiga oid ko‘nikmalarini multimediali va texnik vositalarni birgalikda qo‘llash orqali rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari, metodikasi hamda mohiyati, shuningdek, loyihalash kompetensiyalarining o‘rni va ushbu jarayondagi ayrim muammolarga to‘xtalib o‘tamiz. Keyingi o‘n yil mobaynida multimedia vositalaridan foydalanish bilan bog‘liq inson faoliyatining turli sohalarida zarur bo‘lgan axborot texnologiyalarini ishlab chiqishda tez sur’atlar bilan o‘sish yuz berdi. Hozirgi kunda harbiy texnikalar tuzilishi, ularni taktik texnik tavsiflari bo‘yicha yetarlicha bilimga ega bo‘lgan, harbiy texnikalarni ekspluatatsiya qilish, ularga texnik xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash bo‘yicha yetarlicha ko‘nikmalarga ega bo‘lgan kasbiy mahoratli harbiy xizmatchilarga bo‘lgan talab juda katta. Tadqiqotimiz doirasida harbiy xizmatchilarning g‘ildirakli jangovar mashinalar tuzilishiga oid ko‘nikmalarini rivojlantirishda multimedia va texnik vositalarning birgalikda qo‘llanilishining o‘rni va ahamiyatini aniqlash muammosiga to‘xtalamiz. Texnikaviy tayyorgarlikni talqin qilishga zamonaviy yondashuvlar turlicha bo‘lib, bu tushuncha ko‘pincha, mutaxassis tayyorlash sifatining o‘ziga xos xususiyatini ifodalab, malaka talablari va kasbiy mahorat darajasini aniqlash ma’nosida qo‘llaniladi. Shunga asoslanib, mutaxassisning kasbiy madaniyat mahorati, keng kasbiy dunyoqarash, katta hajmdagi maxsus bilimlar, qiziqishlar, malakalar va muammoli vaziyatlarni ijodiy tushunish bilan tavsiflanadi va quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

- **maxsus mahorat** - “o‘z kasbiy faoliyati funksiyalarini yuqori darajada bajara olishi, keyingi kasbiy rivojlanishini loyihalashtira olish qobiliyati”;

- **ijtimoiy mahorat** – “birgalikda (guruhli, kooperativ) kasbiy faoliyat yurita olishi, hamkorlik, shuningdek, “kasb faoliyatida qabul qilingan kasbiy muloqot usullari, kasbiy faoliyat natijalari uchun ijtimoiy javobgarlik va mas’uliyatlilik”;

- **shaxs mahorati** – “shaxsning kasbiy to‘siqliklarga qarshilik ko‘rsata olish qobiliyati, shaxsning o‘z-o‘zini namoyon qilishi va o‘z-o‘zini rivojlantirish metodlarini egallaganligi”;

- **individual mahorat** – “o‘z-o‘zini anglash va kasb doirasida individuallikni rivojlantirish metodlarini bilish, kasbiy o‘sishga tayyorlik, o‘z individualligini saqlab qolishi, kasbiy layoqatsizlikka qarshi kurasha olishi, ish vaqti va o‘z kuchini to‘g‘ri taqsimlay olishi, mehnat faoliyatini oqilona tashkil etish qobiliyati”.

Yuqorida keltirilgan kompetensiyalar insonning kasbiy faoliyatidagi yetukligi, uning kasbiy muloqotchaligi, individualligi va shaxsning kasbiy shakllanganligini ko‘rsatadi.

Аннотация. В данной статье подчеркивается важность использования мультимедийных и технических средств, связанных с устройством боевых колесных машин, работой с информацией в военной области, повышением военно – технической подготовки на достаточно высоком уровне, что в свою очередь заключается в совместном использовании мультимедийных и технических средств предназначеных для боевых колесных машин, подчеркивается важность совершенствования технической подготовки в любой технической области.

Ключевые слова: мультимедийные и технические средства, колесная техника, текст, графика, аудио, видеоматериалы, военно – техническая подготовка, творческое мышление.

Abstract. This article highlights the importance of applying multimedia and technical means related to the structure of wheeled combat vehicles, working with information in the military field, improving military technical training of a sufficiently high level, which, in turn, consists in mastering modernity, the joint use of multimedia and technical means is important not only in the structure of wheeled combat vehicles, but also in improving technical.

Key words: Multimedia and technical tools, wheled vehicles, text, graphics, audio, video materials, military technical training, creative thinking.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora – tadbirlari” tog‘risidagi (2017 yil 20 – aprel) PQ-2909-son Qarori // httrs://www.lex.uz/docs/3171590.
2. Alimov A.A. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash: Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (RhD) monografiyasi avtoreferati. – T.: 2018. – 48 b.
3. Панкина М.В. Основы методологии дизайн-проектирования // учеб. пособие. Екатеринбург Издателство Уралского университета – 2020.– 64 –71 с.
4. Muslimov N.A., Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. Bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchining loyihalash faoliyati // Met.qo‘ll. – T.: TDPU Rizografi, 2014.– 6 – 5 b.
5. Nishonov A.X., Mo‘minov S.M. O‘quv jarayonlarini amaradorligini oshirishda axborot – ta’lim portalining o‘rni// TATU xabarlari. – Toshkent, 2010. – №1. – 104 b.

ISSN 3030-3230

JANGOVOR AKUSTIK VOSITALAR VA ULARNING RIVOJLANISH TARIXI

Bokiyev Ma'ruf Gafurovich,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Harbiy sohada ko'plab tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, biroq hozirga qadar jangovor akustik vositalar va ularning tarixiy turlarining mazmun-mohiyati to'la tadqiq etilmagan. Mazkur maqolada ushbu yo'nalishda amalga oshirilgan ilmiy izlanishlarning natijalari bayon etiladi.

Kalit so'zlar: jangovor chorlov, jangovor akustik vosita, harbiy cholg'u asboblari, sur, surnay, karnay, burg'u, nafir, yuqori desibelli akustik qurilmalar, LRAD, ovozli to'p, hushtak chalinuvchi o'qlar.

Ta'kidlash kerakki, akustik jangovor chorlov vositalar uzoq ming yillik taraqqiyoti mahsuli hisoblanadi. Biroq, bugungi kungacha mazkur soha yetarli darajada chuqur tadqiq etilmagan. Buni hozirga qadar jangovor akustik vositalar tushunchasiga ilmiy ta'rif shakllanmaganligidan ham bilish mumkin. Mazkur bo'shliqni to'ldirish hamda maqolaning keyingi mazmunini to'laqonli anglashga xizmat qilishi uchun maqolada avvalida jangovor akustik vositalar tushunchasiga mualliflik ta'rifini berishni lozim topdik.

Bizningcha, jangovor akustik vositalar – bu, insonga tovush orqali psixologik va fiziologik ta'sir ko'rsatishga qaratilgan qadimiy va zamonaviy harbiy cholg'u asboblari hamda harbiy va psixologik operatsiyalarga mo'ljallangan yuqori desibelli (LRAD, "ovozli to'p" kabi) akustik qurilmalar hisoblanadi.

⦿ Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Tovushdan jangovor maqsadlarda foydalanish usuli qadimiy jangovor usullardan biri hisoblanadi. Tarixan, insonga tabiat tomonidan berilgan ovoz, keyinchalik tovushga ishlov beruvchi (kuchaytiruvchi, o'zgartiruvchi) tabiiy (qamish, bambuk, yog'och quvurlar) hamda inson qo'li bilan yasalgan dastlabki, sodda (nog'ora, metall quvurga ega puflab chalinadigan) cholg'u asboblari jangovor harakatlarda o'zaro aloqani ta'minlash, qo'shinni jangovor ruhini ko'tarish, dushmanda qo'rquv uyg'otish maqsadida qo'llanilib kelingan.

Akustik vositalar imkoniyatiga ko'ra ommaviy ta'sirga ega vositalar hisoblanadi. Jangovor harakatlar ommaviy faoliyat turi bo'lganligi uchun ham tarixan ommani boshqarish, ularga psixologik va fiziologik ta'sir ko'rsatishda akustik vositalarning imkoniyatidan unumli foydalanib kelingan.

Hatto diniy manbalarda ham akustik vositaning ommaga ko'rsatadigan kuchli ta'siriga oid ma'lumotlar mavjudligini ko'rish mumkin. Jumladan, Islom dinida qiyomat kuni insonlarni o'lib, yiqilishga olib keluvchi akustik vosita – sur haqida shunday deyilgan: "(Sur chalinishi ortidan hosil bo'luvchi) o'lib yiqilish shu kunidir. Bu kuni menga ko'p salovat aytinglar. Chunki, salovatlaringiz menga ro'para qilinadi"[11].

Mazkur hadisda tilga olingan sur qanday vosita? Bu savolga hadisda shunday javob berilgan: Bir a'robiy Nabiy sollallohu alayhi va sallam huzurlariga kelib: "Yo Rasulullоh, sur nima?», deb so'radi. Rasulullоh sollallohu alayhi va sallam: «U nafxa uriladigan (puflanadigan) bir shoxdir, bu shoxning egasi Isrofildir", deb javob berdilar[11].

Mazkur hadislar mazmuniga ko'ra, sur bu puflab chalinadigan, insonlarga ommaviy ta'sir (o'lib yiqilish)ni ko'rsatgan kuchli akustik vosita hisoblanadi. Islom dinining muqaddas manbalariga ko'ra ushbu vosita Alloh taolo topshirig'i bilan to'rt (Jabroil, Mikoil, Azroil, Isrofil) bosh farishtalardan biri bo'lgan Isrofil tomonidan ishlatiladi.

Yuqori ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, akustik vositalarning ommaga ta'sir ko'rsatishdagi roli diniy manbalarda ham e'tirof etilgan. Shu bois ham dastlab islom o'lkalarida jangovor akustik vositalar ichida ko'proq puflab chalinadigan: **"sur", "surnay", "karnay" (forscha, "qarn" – "shox"** bu o'rinda mazmun yuqoridagi xadisga monand puflab chalinadigan (hayvon) shox(i) yoki xajmining kattaligi va ovozining kuchliligi uchun puflab chalinadigan asboblarning eng kattasi, cholg'u asboblar shohi), "burg'u", "nafir" kabi vositalar yaxshi rivojlanganini ko'rish mumkin.

⦿ Tadqiqot metodologiyasi

Tarixan, jangovor akustik vositalar turli shakl va ko'rinishda qadimgi musulmon davlatlarining harbiy va ijtimoiy-siyosiy hayotida faol qo'llanilib kelingan. Jumladan, bugungi "karnay" atamasi ruscha "rog", "truba", qadimgi

turkiy “burg‘u” hamda fors-tojik istilohidagi “karnay” va “nafir” o‘zlashmalaridan iborat[9, 145]. Jangovor vaziyatlarda karnay, nafir va burg‘u aksariyat hollarda kavurga (nog‘ora) va dovul (tabl) jo‘rligida chalingan: “Temurbeg hamul dam burg‘u chaldirib, kavurg‘a urib, otlanib, Sayxun yoqasiga yetdi”[2, 139].

Ta’kidlash kerakki, musulmon sarkardalar ichida jahongiri sanalgan, Sohibqiron Amir Temur ham o‘z armiyasining harbiy orkestriga juda kuchli e’tibor qaratgan. Amir Temur armiyasining harbiy orkestri – damli va zarbli cholg‘ularning xilma-xil turlaridan tashkil topgan. Ularning ko‘pchiligi Turk hoqonligi, Somoniylar, Qoraxoniylar va Xorazmshohlar davrlarida ham mashhur bo‘lgan. Bunda azaldan Markaziy Osiyoda yaxshi tanish bo‘lgan nog‘ora turlari ko‘s, tabira, al-tabra, bir tomonli nog‘ora, chindoul, doulpaz, katta nog‘ora kabilardan foydalanilgan. O‘rta asr miniaturalaridagi tasvirlarga qaraganda, qo‘sh nog‘oralar sipohiy sozandalar (sipohiy - harbiy birlashma; qo‘shin, xon saroyida uzoq xizmat qilgan harbiy lavozimdagi shaxs, amaldor. Mazkur o‘rinda harbiy sozanda haqida so‘z bormoqda) tomonidan otning ustida, egarning ikki tarafiga joylanib chalingan. Katta ko‘s nog‘ora esa aksariyat miniaturalarda tuyaning o‘rkachiga o‘rnatilgan holda tasvirlangan. Dovul cholg‘usi o‘sha paytda duhul nomi bilan mashhur bo‘lgan.

Jangovor akustik vositalarning harbiy va ijtimoy-siyosiy hayotdagi ahamiyatini to‘g‘ri tushungan Amir Temur o‘z Tuzuklarda: “Amr qildimki, o‘n ikki katta amirlarning har biriga bitta bayroq va bir nog‘ora berilsin. Amir ul umaroga bayroq va nog‘ora, tuman tug‘i va chortug‘ taqdim etsinlar. Mingboshiga esa bir tug‘ va karnay bersinlar. Yuzboshi va o‘nboshiga bittadan katta nog‘ora bersinlar. Aymoqlarning amirlariga bo‘lsa bittadan burg‘u taqdim etsinlar. To‘rt beglarbegining har biriga bittadan bayroq, nog‘ora, chortug‘ va burg‘u bersinlar”[3, 100], deya amr etgan. Mazkur buyrug‘i orqali Sohibqiron akustik vositalarni nafaqat urush holatida va ayni vaqtda tinch vaziyatlarda ham elni, qo‘shinni ogoh qilishdagi rolini to‘g‘ri anglagan. Shuning uchun ham ularni ham harbiy ham fuqarolik lavozimga tayinlanayotgan mansabdor shaxslarga birdek taqdim etgan.

Darhaqiqat, Amir Temur jang taktikasida musiqiy qurollar jarayonning ajralmas qismi sanalgan. “Masalan, jang boshlangandan so‘ng u o‘zining harbiy orkestriga “Ortga chekinish usuli”ni chalishni buyurgan. G‘anim taraf esa bundan xabar topib, g‘alaba qozonganiga ishongan. Ammo Amir Temur kechasi “shabixun” usulini qo‘llashdan oldin g‘anim askarining ruhini sindirish uchun kutilmaganda, to‘rtta yirik orkestrining to‘rtinchi bo‘linmasi musiqachilariga “Hal qiluvchi jangga o‘tish usuli”ni chalishni amr etgan. Momaqaldiroq tovushi singari jangovor gulduros musiqa sadolari ostida “Urho-ur” deya na’ra tortgan askarlarning kutilmagan hamlasidan shoshib qolgan g‘anim parokanda bo‘lib, jangovor jipsligini yo‘qotgan va sarosimaga tushib, qarshilik ko‘rsatishga ojizlik qilgan. Sohibqiron Amir Temur qolgan orkestrlari bu paytda “halqa ushrubi” usulida “Chappai rosta” kuyini ijro etgan, ya’ni g‘anim tamom sindirilgani haqida xabar bergan”[10, 226].

Ta’kidlash kerakki, jangovor akustik vositalar avvalo qo‘shinga jangovor ruh berish hamda dushmanda qo‘rquv uyg‘otish vazifasini bajargan. Jang vaqtida “odatga binoan borgoh oldida harbiy cholg‘uchilar askarlarni mardlikka, matonatga rag‘batlantiruvchi, ularni jangovor ruhini ko‘taruvchi kuylarni tinimisiz chalib turishgan”[8,45]. Qolaversa, mazkur vositadan mohirlik bilan foydalangan sarkardalar ham bo‘lganki, ular akustik vositalardan axborot uzatishda ham foydalanganlar. Jumladan, o‘rganishlar natijasida va musiqa sohasi bilimdonlarining aniq xulosalariga tayanib aytish mumkinki, amerikalik ixtirochi Semyuel Finli Briz Morze 1837-1938 yillari nuqta va tirelardan iborat morze kodi yuzaga kelishidan qariyb besh yuz yil avval Sohibqiron Amir Temur uzun va qisqa ritmlarga asoslangan usullar vositasida jangovor vaziyatlarda muhim buyruq va ma’lumotlarni uzatishning badiiy usulini ixtiro etgan [10, 225].

O‘sha davrda jang boshlanishi yoki qo‘shinni orqaga qaytarish xabarini anglatuvchi musiqa asboblari (karnay, surnay, dovul, nog‘ora) [4, 188] va boshqa yordamchi harbiy aslahalardan foydalanish vazifasi bevosita askarlar zimmasida bo‘lgan.

Xalqimiz tarixida jangovor chorlov vositalari ichida “kuvrug” cholg‘u asbobi keng qo‘llanilgan. Jumladan, Ko‘k turklar va Qoraxoniylar davrida bu harbiy-cholg‘u asbobi bugungi kundagi “nog‘ora” vazifasida qo‘llanilgan.

“Kuvrug” keyinchalik Temuriylar va O‘rta Osiyo xonliklari davrida ham “kavurga”, “kaburka”, “ko‘raka” nomlari bilan atalgan holda amaliyotda qo‘llanilib kelingan. Bu davrda nog‘oraning katta turi “dovul” yoki arabcha “tabl” cholg‘u asbobi ham mavjud bo‘lgan. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, akustik qurilmalardan axborot berish vositasi sifatida ham foydalanilib, jangovor vaziyatlarda “dovul” yoki “tabl” orqali qo‘shinning biror harakati, ya’ni lashkargohdan ko‘chishi yoki belgilangan manzilga to‘xtashi

ISSN 3030-3230

yoxud dushman qorasi ko‘ringani haqida xabar berilgan[9, 144]. Aynan mazkur cholg‘u asbobi va uning ijrochisi haqida o‘sha davr asosiy manbalaridan biri bo‘lgan “Boburnoma” asarida shunday ma’lumotlar uchraydi: “Kechaning uch paxri bo‘lg‘ay edi, boyakbar tablboz uni va suron chiqdi” [1, 162].

Amir Temur va Temuriylardan keyin ham harbiy, ijtimoiy-siyosiy hayotda jangovor akustik vositalarning ahamiyati pastlamagan. Jumladan, Buxoro xonligi qo‘shinida ham doimiy harbiy musiqachilar bo‘lgan. Qo‘shin musiqachilarining cholg‘u asboblari xarajati xon xazinasidan ajratilgan mablag‘lar hisobidan qoplangan. Manbalarda alohida harbiy jasorat ko‘rsatgan sarkarda yoki harbiy qismga xon tomonidan nog‘ora, dovul singari musiqa asboblari berilganligi qayd etiladi.

Yuqoridagi ma’lumotlardan anglash mumkinki, musulmon xalqlarining harbiy, ijtimoiy-siyosiy hayotida jangovor akustik vositalar faol qo‘llanilgan. Ushbu vositalar amaliyotda qo‘shinni jangga chorlovchi, unga jangovor ruh beruvchi, dushmanga vahima soluvchi hamda axborot uzatuvchi vazifalarni bajargan.

Tahlil va natijalar

Albatta, jangovor akustik vositalar ixtirosi hamda uning qo‘llanilishi faqat sharq xalqlarigagina xos emas. Binobarin, mazkur vositalar jangovor salohiyati yuqori bo‘lgan barcha xalqlar tarixida u yoki bu shaklda mavjud bo‘lgan. Jumladan, Qadimgi Rim armiyasidagi jangovor harakatlar tom ma’noda jangovor chorlov vositalari bilan uyg‘un tarzda amalga oshirilgan. O‘z vaqtida harbiy musiqachilar marsh, kunduzi va tungi soatlarning boshlanishi, qo‘riqchilarning o‘zgarishi, hujum va boshqalarni e’lon qiladigan ko‘plab ovozli signallarni ishlab chiqishgan. Ushbu signallar yordamida saflardagi barcha harakatlar, shu jumladan jang paytida ham amalga oshirilgan.

Qadimgi Rim armiyasida jangovor akustik vositalar jangovor verbal vositalar bilan birgalikda – sinxron tarzda qo‘llanilganligini ko‘rish mumkin. Ya’ni, jang tarkibidagi shakllanish tugagandan so‘ng, butun armiya jangovor karnayning birinchi signalidan so‘ng jangovar hayqiriqni amalga oshirgan va uning kuchi jangchilarning jangga tayyorligidan dalolat bergan. Ikkinchi signal bilan qo‘shin oldinga siljiy boshlagan. Uchinchi signalni eshitgan jangchilar qattiq hayqiriq bilan barcha cholg‘u asboblari sadosi ostida qilichlarini qalqonlariga urib hujumga o‘tishgan[5]. Mazkur holat Qadimgi Rim armiyasida jangovor chorlov vositalari o‘z o‘rnida va mohirona qo‘llanilganini ko‘rsatadi. Ayni vaqtda, bu holat bizga Rim imperiyasining harbiy va siyosiy kuch-qudratiga qanday omillar sabab bo‘lganligini yana bir karra anglash imkonini beradi.

Jangovor akustik vositalari yaxshi rivojlangan va ulardan amaliyotda unumli foydalangan xalqlar qatoriga xitoy xalqini ham kiritish mumkin. Xitoy xalqlarida ham damli ham zarbli cholg‘u asboblari birdek rivojlangan. Mazkur cholg‘u vositalari ko‘proq harbiy faoliyatdan ham ko‘ra toat-ibodat va maishiy hayotda ko‘proq qo‘llanilgan. Xitoy xalqi albatta tovushning jangdagi ahamiyatini boshqa xalqlarga nisbatan yaxshiroq tushunishgan. Shuning uchun ham ular jangovor vaziyatlarda faqat harbiy cholg‘u vositalari bilan cheklanib qolmay, akustikaning boshqa imkoniyatlarini ham ishga solishgan. Jumladan, qadimda xitoy xalqi tomonidan Hushtak chaladigan o‘q (kamon o‘qi)ni kashf etilishi yuqoridagi fikrimizni tasdiqlaydi.

“Hushtak chalinuvchi o‘qlar” tushunchasi ham hushtak mexanizmi ham o‘tkir uchi bo‘lgan kamon o‘qini nazarda tutadi. Bunday o‘qlar haqidagi ma’lumotlar Xitoydagi qadimgi yozma manbalardan biri bo‘lgan Sima Shianning “Tarixiy yilnomalari”dagi Hunlar yilnomasida uchraydi: “Miyedun (taxminlarga ko‘ra hun qabilalari yo‘lboshchisi) hushtak o‘qlarini yasadi va ulardan foydalanishga buyurdi. Uning buyrug‘iga ko‘ra: “Hushtak o‘q otilganda, uni otgan kishiga kimda kim bo‘ysunmasa, qatl qilinadi...” [12]. Mazkur ma’lumot Hun qabilalari o‘z vaqtida hushtak chaluvchi o‘qdan jangni boshqarish uchun akustik vosita sifatida foydalanganligini ko‘rsatadi.

Hushtak chaladigan o‘q jangovor akustik vositalar takomilida yangi bosqichni boshlab bergan deyish mumkin. Darhaqiqat, mana shunday akustik vosita ixtiro qilingunga qadar, akustik vositalar jang maydonidan tashqarida, to‘laqonli inson ruhiyatiga ta’sir etish maqsadida qo‘llanilgan. Hushtak chaladigan o‘q kabi qurollarni ixtiro qilinishi esa, sof - inson ruhiyatiga ta’sir etish (ruhlantirish, vahimaga solish, qo‘rqitish)ga mo‘ljallangan akustik vositalarni, inson jismiga ta’sir etadigan (yaralaydigan, o‘ldiradigan) sovuq qurollar bilan uyg‘unlashishiga olib kelgan.

Yuqoridagi tahlillar asosida xulosa qiladigan bo‘lsak, jangovor akustik vositalar uzoq rivojlanish yo‘lini bosib o‘tdi. Ayniqsa, yaqin tariximizda sobiq Sovet Ittifoqi, AQSh, Angliya, Fransiya, Xitoy kabi dunyoning ko‘plab yirik davlatlari akustik qurollar yaratish, mavjudlarini yanada takomillashtirish ustida faol izlanishlar

olib borishdi. Aralash natijalarga qaramay, bunday harakatlar hozirda ko‘plab jangovor akustik texnologiyalarning rivojlanishiga olib keldi. Bunga misol sifatida, hozirda ko‘plab davlatlar harbiy tizimida Uzoq masofali akustik qurilma (Long-Range Acoustic Device - LRAD) ning mavjudligi, 2009 yilda Pitsburg politsiyasi tomonidan G20 namoyishchilariga qarshi ovozli to‘pni qo‘llanilgani, Afg‘oniston va Iroqda bo‘lgan janglarda AQSH harbiylari tomonidan harbiy avtomobillarga mustahkamlangan katta dinamiklar yordamida raqiblariga nisbatan psixologik operatsiya hamda asirlarni so‘roq qilish jarayonida “yaxshilangan so‘roq” usuli sifatida AC/DC, Eminem va Metallika qo‘shiqlarini “portlatishgan”nini keltirish mumkin.

Jangovor akustik vositalar mana shunday murakkab taraqqiyot yo‘lini bo‘sib o‘tdi. Ular dastlab, hamrohlarni ogohlantirish yoki dushman (begona qabila jangchilari yoki tabiatdagi yirtqich hayvonlar)ni qo‘rqitishga mo‘ljallangan var-varona tabiiy tovushga asoslangan bo‘lsa, keyinchalik askarlarga axloqiy-ruhiy jihatdan dalda berishga mo‘ljallangan, mexanik tarzda harakatga keltiriluvchi harbiy cholg‘u vositalariga aylandi. Biroq bugungi kunga kelib, jangovor akustik vositalar san’at chegarasidan chiqib, to‘la qonli o‘lim quroliga aylana boshladi.

Yuqoridagi tahlil tafsilotlari hozirda:

- jangovor akustik vositalarning imkoniyatlarini to‘laqonli o‘rganish;
- mudofaa maqsadida ushbu qurollardan himoyalanish strategiyasini kuchaytirish;
- taraqqiyotdan ortda qolmaslik uchun ilmiy-amaliy tadqiqot ishlarida jangovor akustik vositalarning zamonaviy turlari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borish lozimligini ko‘rsatadi.

Аннотация. В данной статье описаны результаты научных исследований порассмотрению содержания и сущности боевых акустических средств и их исторических типов, которые до сих пор полностью не изучены.

Ключевые слова: вызов на битву, боевое акустическое устройство, военные инструменты, сур, сурнай, карнай, бургу, нафир, акустические устройства высоких децибелов, LRAD, звуковая пушка, свистящие пули.

Abstract. Although a lot of research has been carried out in the military field, the content and essence of combat acoustic means and their historical types have not yet been fully studied. This article describes the results of scientific research conducted in this direction.

Key words: challenge to battle, combat acoustic device, military instruments, sur, surnay, karnay, burgu, nafir, high decibel acoustic devices, LRAD, sound gun, whistling bullets.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Т.: 1960.
2. Таварихи гузида. Нусрат-наме. Исследование, критический текст, аннотация, оглавление и таблица сводных оглавлений к.ф.н. А.Акрамова. – Т.: 1967.
3. Темур тузуклари. – Т.: “Шарқ”, 2005. – 100-б.
4. Ҳофиз Таниш ал-Бухорий. Абдулланома (Шарифномайи шоҳий) / Форс тилидан С.Мирзаев таржимаси. 1-китоб. – Т.: Шарқ, 1999.
5. Жмодиков А.Л. Тактика римской пехоты IV–II вв. до н. э. // Para Bellum! 1998. № 4.
6. Woodhouse S.C. English-Greek Dictionary (Abingdon, UK: Routledge, 1910).
7. Hunt F.V. Origins in Acoustics (Yale University Press, 1978).
8. Дадабоев Ҳ.А. Амир Темурнинг ҳарбий санъат ривожига қўшган ҳиссаси. – Т.: 2021.
9. Dadaboev H., Yodgorov H. O‘zbek harbiy terminologiyasi. – T.: “Shahhof” nashriyoti, 2021.
10. Самаров Р., Ахроров С., Холмўминов Ж., Садриддинов С. Соҳибқирон Амир Темур ҳарбий санъати. – Т.: “Маънавият”, 2022.
11. Сур чалиниши. https://islomnuri.com/sur-chalinishi/ (мурожаат қилинган сана: 2022-йил. 14-март).
12. Hushtak chalinadigan o’qlar va o’q hushtaklari. Liao Wanzhen, Trans. Stiven Selbi, 1999. https://www.atarn.org/chinese/whistle/whistle.htm (мурожаат қилинган сана: 2023-йил. 23-сентябрь).

ISSN 3030-3230

К ВОПРОСУ О СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ МЕТОДИКИ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КУРСАНТОВ

Атаева Рануша Рашидовна,
старший преподаватель кафедры изучения языков
Университета общественной безопасности Республики Узбекистан,
доктор философии по филологическим наукам (PhD)

Аннотация. В данной статье рассматриваются современные подходы и методы обучения русскому языку курсантов в высших военных учебных заведениях. Особое внимание уделяется необходимости совершенствования методик преподавания с учетом специфики военной профессии, повышению коммуникативной компетенции курсантов и формированию у них навыков, необходимых для выполнения профессиональных обязанностей. В работе предлагаются конкретные рекомендации по улучшению учебного процесса на основе анализа современных педагогических технологий и практического опыта.

Ключевые слова: методика обучения языкам, современные технологии обучения, интерактивный, педагогическое сотрудничество, эффективность обучения, учебный предмет, русский язык как неродной, модель занятия.

Современные условия службы и требования к подготовке военнослужащих диктуют необходимость постоянного совершенствования образовательного процесса в высших военных учебных заведениях. Русский язык как учебная дисциплина занимает особое место в системе военного образования, поскольку владение им на высоком уровне является важным компонентом профессиональной компетенции офицеров. В связи с этим актуальной задачей является совершенствование методики обучения русскому языку курсантов, что позволит не только повысить уровень их языковой подготовки, но и сформировать навыки, необходимые для эффективного выполнения служебных обязанностей. Одной из ключевых тенденций в преподавании русского языка в военных учебных заведениях является переход от традиционных методов к интерактивным и практико-ориентированным подходам. Важной задачей преподавателя становится создание учебной среды, максимально приближенной к реальной служебной деятельности курсантов. рассмотрим некоторые тенденции тенденции в современной методике преподавания языков и иварианты их применения.

Коммуникативный подход – акцент на развитие навыков общения в профессиональной среде, использование ролевых игр, дискуссий и ситуационных задач, имитирующих реальные служебные ситуации. Приведем наглядный пример использования коммуникативного подхода в обучении русскому языку курсантов с акцентом на развитие навыков общения в профессиональной среде: **ролевая игра «Ситуация в штабе».**

Цель – развить навыки общения и взаимодействия курсантов в профессиональной среде через ролевую игру, имитирующую служебную ситуацию в штабе военной части.

Ситуация: В штабе военной части проходит планерка, на которой обсуждаются результаты текущей операции и планируются действия на следующую неделю. Курсантам необходимо подготовить и представить свои отчеты о выполнении задач, а также предложить свои рекомендации по улучшению оперативной деятельности.

Организация занятия:

Подготовка. Преподаватель подготавливает сценарий планерки, включая ключевые вопросы и задачи, которые будут обсуждаться. Курсантам распределяются роли: командир части, начальник штаба, офицеры различных отделов (логистика, разведка, техническое обеспечение и т.д.).

Ролевая игра: Курсантам предоставляется время для подготовки своих отчетов и рекомендаций. Каждый участник должен подготовить доклад по своей области ответственности. В ходе планерки участники представляют свои отчеты, отвечают на

вопросы коллег и предлагают свои решения по обсуждаемым вопросам.

Координация. Преподаватель следит за процессом, задает вопросы для углубления обсуждения и направляет курсантов в случае необходимости. Обращает внимание на использование профессиональной лексики, правильное построение аргументации и умение вести переговоры.

Обратная связь. После завершения игры преподаватель проводит обсуждение, в котором анализируются действия участников, акцентирует внимание на успешных аспектах и ошибках. Курсанты получают рекомендации по улучшению своих коммуникативных навыков и умению работать в команде.

Примеры вопросов и задач для обсуждения:

Отчет о выполнении задач:

1. «Каковы результаты выполнения операций за последний месяц? Какие проблемы возникли и как они были решены?».

2. «Каковы прогнозы на следующую неделю и какие ресурсы необходимы для их выполнения?».

Рекомендации по улучшению:

1. «Какие меры можно предпринять для улучшения координации между различными отделами?».

2. «Как можно оптимизировать процесс логистики и повысить эффективность использования ресурсов?».

Обсуждение предложений:

1. «Как оценить предложенные решения? Какие есть альтернативные варианты и их преимущества/недостатки?».

2. «Какие действия необходимо предпринять для реализации предложений, и кто будет ответственным за их выполнение?».

Результат: Данный подход позволяет курсантам не только практиковать язык в профессиональной среде, но и развивать важные навыки, такие как способность аргументированно представлять информацию, эффективно работать в команде, находить компромиссы и принимать решения на основе анализа ситуации. Использование таких ролевых игр и ситуационных задач помогает создать реальную имитацию служебных процессов, что способствует более глубокому пониманию и освоению профессионального общения.

Интеграция предметов, в частности включение в процесс обучения материалов и тем, связанных с профессиональной деятельностью курсантов, что позволяет совмещать изучение русского языка с профильными дисциплинами.

Сравним: Интеграция русского языка и военной истории:

Лексическая тема занятия: «Анализ стратегических решений в исторических битвах».

Цель – развить навыки анализа текстов на русском языке, расширить словарный запас курсантов, связанный с военной тематикой, и углубить знания по военной истории.

Организация занятия:

Подготовка. Преподаватель подбирает текст, связанный с описанием какой-либо исторической военной битвы. Текст содержит описание стратегических решений, принятых командованием, анализ тактических маневров и результаты битвы.

Изучение текста. Курсантам предлагается прочитать текст, в котором подробно описываются ход битвы, использованные стратегии и их последствия. В процессе чтения курсантам необходимо выделить ключевые военные термины, тактические приемы и описания стратегий, которые они могут использовать в своей будущей профессиональной деятельности.

Обсуждение и анализ. После чтения текста проводится обсуждени. Преподаватель задает примерно такие вопросы:

1. «Какие стратегические решения были приняты командованием в ходе битвы?».

2. «Какие тактические приемы оказались наиболее эффективными?».

3. «Как можно применить опыт этой битвы в современных условиях?».

В ходе обсуждения курсанты используют лексические единицы и грамматические конструкции, освоенные на занятиях русского языка.

Практическое задание. Курсантам предлагается подготовить короткий письменный анализ битвы, используя термины и фразы, изученные на занятии. В анализе они должны описать, какие решения командования повлияли на исход битвы и как можно было бы изменить стратегию, чтобы достичь лучшего результата.

Интеграция с профильными дисциплинами. Преподаватель по специальной дисциплине также может участвовать на занятии, комментируя

ISSN 3030-3230

историческую значимость битвы и дополняя информацию о военной тактике. Это позволит курсантам не только закрепить языковые навыки, но и углубить понимание материала по профильным дисциплинам, а также провести межпредметную связь.

➤ ***Результат.*** Такой подход способствует одновременному изучению русского языка и военного дела, позволяя курсантам развивать языковую компетенцию в контексте профессиональной деятельности. Они учатся использовать русский язык для анализа исторических событий, что улучшает их способность применять язык в профессиональных ситуациях и углубляет знания по военному делу. Этот метод также повышает мотивацию курсантов, так как они видят непосредственное применение языковых навыков в своей будущей профессии.

➤ ***Следующая тенденция*** – использование цифровых технологий, т.е. применение мультимедийных средств, электронных учебников, онлайн-платформ и специализированных программ для интерактивного обучения и тестирования. Использование мультимедийных ресурсов для развития навыков речи. **Лексическая тема занятия: «Пресс-конференции».**

➤ ***Цель*** – развить навыки устной речи и публичного выступления курсантов на русском языке с использованием современных цифровых технологий.

Организация занятия:

➤ ***Подготовка.*** Курсантам заранее предоставляется список тем, касающихся актуальных событий или задач, связанных с военной службой (например, проведение военных учений, оценка результатов операции и т.д.).

➤ ***Мультимедийные материалы.*** Для подготовки к занятию преподаватель предоставляет видеоролики с примерами пресс-конференций известных военных или государственных деятелей. Курсантам предлагается посмотреть эти видеоролики и обратить внимание на стиль общения, используемые термины и стратегию ответов на вопросы. «В Республике в последние годы особое внимание уделяется подготовке высококвалифицированных военных кадров, одной из главной цели которой является обучение иностранному языку путем внедрения современных информационно-коммуникационных технологий и инновационных проектов» .

➤ ***Подготовка выступления.*** Курсантам выделяется время для подготовки собственного выступления. Преподаватель может предоставить доступ к словарям и специализированным терминологическим базам данных, чтобы курсанты могли уточнить значение незнакомых слов и терминов. Далее каждый курсант по очереди выступает с подготовленным текстом, представляя свою тему, а затем отвечает на вопросы «журналистов» (остальных курсантов и преподавателя). Преподаватель ведет запись конференции, чтобы позже использовать её для анализа и обратной связи. «Эти виды взаимодействия позволяют курсантам общаться на русском языке, используя обмен языковыми знаниями, умениями и навыками; формировать коммуникативные навыки при работе в паре, группе, коллективе; вырабатывать высокий уровень адаптации к внешним условиям, новым речевым ситуациям и т.д.» .

Annotatsiya. Ushbu maqolada erkak va ayol harbiy xizmatchilarning “Ruhiy yo‘lakda” harakatlanishida namoyon bo‘luvchi maskulinlik va femininlik xususiyatlari psixologik tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: harbiy xizmatchi, gender, maskulin, feminin, androgin, streotip, ekstremal vaziyat, ijtimoiy.

Harbiy sohada faoliyat ko‘rsatayotgan harbiy xizmatchilar faoliyatidagi o‘zgarishlar ularning ruhiy holatlarida aks etmasdan qolmaydi. Harbiy sohaga kirib kelgan texnik yangiliklar o‘z navbatida harbiy xizmatchilarning faoliyatlarini qayta baholashga undaydi. Mazkur holat aksar vaziyatlarda harbiy xizmatchilarda turli ruhiy jarayonlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi.

Ma’lumki, ekstremal vaziyatlar to‘satdan kelishi, talafotlar, yo‘qotishlar, jabrlanganlar va jarohatlanganlar sonining ko‘p bo‘lishi bilan xarakterlanadi.

Buning uchun ayniqsa jismoniy va psixologik tayyorgarlik ekstrim soha vakillari uchun muhim jihat bo‘lib, kasb egalaridan alohida tayyorgarlikni talab etadi. Bunda shaxsiy tarkibning irodaviylik sifatlarini shakllanganlik darajasi gender omillariga ya’ni, psixologik jins xususiyatlariga ko‘ra hissiy-emotsional holatni namoyon bo‘lishi mavzu yuzasidan asosli xulosalar olishda alohida tadqiq etilishni talab etadi.

Demak, ekstremal vaziyatlarda irodaviy-emotsional xususiyatlarni tarkibiy qismi sifatida ishtirok etadigan psixologik tayyorlik, jismoniy tayyorlik, tegishli bo‘linmalarning individualligidan kelib chiqib agressivlikni boshqarish sifatlari alohida tafovutlar kesimida psixologik tahlil etilishiga ehtiyoj borligini ko‘rsatadi. Shu o‘rinda aytish joizki, psixologik tayyorlik, ayniqsa harbiy sohada ektremal vaziyatlarga shaylik jismoniy faollik muammosi bilan birgalikda ko‘plab tadqiqotlarda o‘z aksini topgan. Hozirda ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan psixologik tayyorlik; kasbiy ahloqiy-ruhiy tayyorlik; kasbiy tayyorlik; shuningdek ‘‘tayyorlik’’ muammosi sifatida o‘rganishlar olib borilmoqda. Insonning biror bit faoliyatga tayyorligi birinchi navbatda psixologik ustanovkalariga ya’ni, faoliyatining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holatda bog‘liq bo‘ladi. Jumladan, psixologik nuqtai nazardan D.N.Uznadze ustanovkani faoliyat natijalariga bog‘liqligini eksperimental jihatdan isbotlagan. Uning konsepsiyasiga ko‘ra, ustanovka shaxsning ma’lum bir yo‘nalishda, ayni damdagi muhim ehtiyojlari fonida faoliyatga nisbatan faollikka tayyorligi deb tushuntiriladi. Shuningdek, ustanovka shaxs tomonidan anglanmaydi balki, bevosita psixik bilish jarayonlari asosida rivojlanadi [1].

Psixologik tayyorlik ustanovkadan farqli ravishda faoliyatda maqsadga intiluvchanlik bilan bog‘liq bo‘lib, ustanovkani ma’lum ma’noda namoyon bo‘lishini, qat’iyatni, samaradorligini, boshqarilishini ta’minlaydi. Psixologik tayyorlik shaxsiy tarkibga o‘zlashtirilgan bilimlarni to‘g‘ri qo‘llashni, shaxsiy sifatlarini shakllantirishni, o‘zini-o‘zi boshqarishga yordam beradi. Biroq, faoliyatga nisbatan ustanovka va psixologik tayyorlikning bir-biridan farqli jihati olingan tajribalar asosida shakllangan psixologik holatlar hisoblanadi. Ya’ni, psixologik bilimlar asosida yuzaga keladi. Psixologik bilimlar esa aniq vazifalar, talablar va shart-sharoitlarga bog‘liq bo‘ladi. Psixologik tayyorlik ustanovkani faqat “ishga tushirishi” mumkin, lekin to‘liq tarkibiga birlashmaydi. Psixologi tayyorlik aslida murakkab dinamik tuzilmaga ega bo‘lib, inson psixikasining intellektual, emotsional, irodaviy va motivatsion tomonlarini aks ettiradi. Bu borada M.I.Dyachenko va L.A.Kandibovichlar tadqiqotlarida psixologik tayyorlikni dinamik tuzilmasi sifatida jamiyat talablarini, berilgan topshiriqlarni, ehtiyojlarni anglashni ajratib ko‘rsatadi. Shuningdek, maqsadni anglash, topshiriqlarni bajarish orqali ehtiyojlarni qondirish (rag‘batlantirish, mukofot, maqtov); faoliyatdagi sharoitlarni baholash; turli sharoitlarda vazifalarni bajarish orqali olingan tajriba asosida ko‘nikma shakllantirish; olingan tajriba va baholash malakasi asosida vazifalarni

bajarishning maqbul usullarini tanlash; shaxs o‘zining intellektual, emotsional-irodaviy, motivatsiya jarayonlari, imkoniyatlar o‘rtasidagi bog‘liqlik, ma’lum bir natijaga erishishning urinish darajalari; fiziologik va aqliy salohiyatiga ko‘ra yuklamani muvofiqligini komponentlarini ajratib ko‘rsatadi.

Demak, Qurolli Kuchlar tizimida ekstremal vaziyatlarda emotsional-irodaviy xususiyatlarni psixologik jihatlari shaxsiy tarkibni psixologik tayyorligining komponentlariga hamda buyruqlar asosida beriladigan ustanovkalarga bog‘liq bo‘lib, bu harbiy xizmatchilar faoliyatining samaradorligini baholashda, maxsus topshiriqlarni bajarishda to‘plangan tajribalar asosida harakatlarni moslashtirishda muhim rol o‘ynar ekan.

Aslida gender tizimlari turli jamiyatlarda farq qiladi, ammo har bir jamiyatda bu tizimlar asimmetrik bo‘lib, erkaklar va barcha erkak (xarakter xususiyatlari, xulq-atvori, kasbi va boshqalar) birlamchi, mazmunli va dominant deb hisoblanadi, ayollar va barcha ayol ikkinchi darajali, ijtimoiy jihatdan ahamiyatsiz deb ta’riflanadi.

Gender va jins tushunchalarini farqlash ijtimoiy jarayonlarni tushunishning yangi nazariy darajasiga chiqishni anglatadi. 1980-yillarning oxirlarida feministik tadqiqotchilar asta-sekin patriarxiyani tanqid qilishdan va ayollarning o‘ziga xos tajribalarini o‘rganishdan gender tizimini tahlil qilishga o‘tadi. Ayollar tadqiqotlari asta-sekin gender tadqiqotlariga aylanib boradi, bu yerda insoniyat jamiyati, madaniyati va munosabatlarining barcha jihatlari jinsga asoslangan yondashuvlar birinchi o‘ringa chiqadi.

Erkaklar va ayollar o‘rtasidagi psixologik farqlarning mohiyati va kelib chiqishini yetarli darajada tushunish uchun biz ushbu holatni hisobga olishimiz kerak. Inson xatti-harakatlarida biologik va ijtimoiy xususiyatlar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lganligi sababli, biz hech qachon yuz foiz ishonch bilan erkak va ayol xulq-atvoridagi farqlar o‘ziga xos biologik kelib chiqishi borligini tasdiqlay olmaymiz. Erkak va ayol xulq-atvorining biologik va ijtimoiy-psixologik jihatlarini aniqlashtirish uchun amerikalik psixolog R.Stoller 1960-yillarning oxirida inson jinsiy hayotini konseptual ravishda ikki jihatga ajratishni taklif qildi: biologik, undan keyin u gender atamasini birlashtirishni taklif qildi.

Biologik jins, shuningdek gender, aslida ijtimoiy konstruksiya-idrokning kognitiv sxemalaridan kelib chiqadigan barqaror talqin amaliyotining mahsulidir. Psixologik va ijtimoiy nuqtayi nazardan, biologik jins har doim shaxs uchun shartli tushuntirishlar (talqinlar) tizimi shaklida mavjud. S.Kessler va V.Makkenna gender atamasi bilan nafaqat ijtimoiy-madaniy tasavvurlarni va biologik jinsni idrok yetishning individual kognitiv sxemalarini, balki ayol yoki erkak bo‘lishning an’anaviy ravishda biologik deb hisoblangan jihatlarini ham belgilashni taklif qilishdi [2]. Ular gender atamasi uchun faqat reproduktiv faoliyatni qoldirishni taklif qilishdi. Aynan S.Kessler va V.Makkenn reproduktiv faoliyat bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan jinsning har qanday ko‘rinishini gender atamasi bilan belgilash amaliyotini joriy yetishgan.

Yeng batafsil shaklda gender sxemasining ijtimoiy-psixologik nazariyasi S.Bem tomonidan ishlab chiqilgan. Gender vakillik tizimi sifatida (S.Bem ta’rifiga ko‘ra gender linzalari) madaniy nutqning ajralmas qismi (grammatik jinslar va ulardan foydalanish qoidalari ko‘rinishidagi gender farqlari mavjud bo‘lgan tildan foydalanishning haqiqiy amaliyoti) va odamlarning ijtimoiy amaliyoti, o‘zaro ta’siri va faoliyatidir. U bir nechta namoyon bo‘lish shakllariga ega, ular faqat gender asosda jamiyat tomonidan belgilangan gender rollarning yig‘indisiga kamaytirilmaydi. Gender o‘ziga xos aloqa tili, erkaklar va ayollar o‘rtasidagi mehnat taqsimoti, hokimiyat munosabatlarining taqsimlanishi, qadriyatlar tizimi va boshqalar bo‘ladi.

Ijtimoiy hayotning kundalik amaliyotlari erkaklar va ayollar tomonidan ijtimoiy o‘zaro ta’sir va shaxsiy xususiyatlarning kombinatsiyasidan o‘zboshimchalik bilan foydalanish imkoniyatlarini cheklaydi, ammo dominant gender modellariga mutlaqo rioya qilishni aniq belgilamaydi. S.Bemning gender sxemasi konsepsiyasi genderning biologik jinsga nisbatan ijtimoiy ustki tuzilma sifatida dastlabki tushunchasiga to‘g‘ri keladi. Psixologiyada gender deb nomlangan ko‘plab tadqiqotlar faqat turli xil ijtimoiy guruhlarda va ijtimoiy o‘zaro ta’sir sharoitida taqdim yetilgan gender sxemalarining xilma-xilligini ta’kidlashga qaratilgan bo‘lib, ularni shakllantirish mexanizmlarini qavs ichida qoldiradi.

Ko‘plab adabiyotlarda, S.Bem so‘rovnomasi muallif tomonidan androginiya konsepsiyasi doirasidagi gipotezalarni empirik tadqiq yetish maqsadida ishlab chiqilgan deb tushuntiriladi [3]. Tadqiqotimizda S.Bem so‘rovnoma-anketasi doirasida olingan natijalar o‘rtacha qiymati

ISSN 3030-3230

maskulinlikda yuqori natijalarni qayd etilganligi, femininlik nisbatan kam namoyon bo‘lganligi, lekin ahamiyatli natijalarni olinganligi harbiy sohada “erkak” va “ayol” psixologik jins xususiyatlari normal namoyon bo‘lishi ya’ni faoliyatda o‘ta psixologik o‘zgaruvchanlikka moyil emasligi bilan izohlanadi. Androginlik (IS)ning namoyon bo‘lishi kuzatishlarimizda juda kam ko‘rsatkichlarni namoyon etdi. Biroq ekstremal vaziyatlarda emotsional-irodaviy xususiyatlarni namoyon etishda ahamiyatli darajadagi natijalarni ko‘rsatmadi. Ya’ni, sinaluvchilarimizda erkaklarda “erkaklik”, ayollarda “ayollik” xususiyatlari saqlanib qolishi, ayniqsa “erkaklarda” ekstremal topshiriqlarni bajarishda asosiy maqsad adolatli, bexato bajarish motivi ustunlik qilishi hisobiga psixologik jins xususiyatlarining namoyon bo‘lish darajasi deyarli o‘zgarmas qolishi bo‘lishi bilan izohlashimiz mumkin ekan. Ayollardagi hissiy beriluvchanlik, vazifalarni bajarishda qo‘yilgan ayrim xatoliklar topshiriqlar bajarilganidan keyin ham “o‘z-o‘zi bilan” muhokama etishi “ayollik”ning normal psixofiziologik reaksiyasi bo‘lishi bilan izohlanishi mumkin ekan.

Shuningdek, ayollardagi psixofiziologik o‘zgaruvchanlik, gormonal fonning erkaklarga nisbatan tez o‘zgaruvchanligi, stressli vaziyatlarga beriluvchanlik MG bo‘linmalari sinaluvchilarning natijalarida yuqori ko‘rsatkichlar bo‘lishiga ta’sir qilgan bo‘lishi mumkin.

Har qanday olingan ko‘rsatkich sinaluvchi ustanovkasi bilan birga mentalitetda qabul qilingan ayrim ijtimoiy normalarga ham bog‘liq. Ma’lumki, qadriyatlarning yo‘nalganligi ijtimoiy-psixologik muammo sifatida o‘rganilishi to‘g‘ridan to‘g‘ri psixologik aspektlarga bogdliq bo‘ladi. Sababi, ekstremal vaziyatlar muhitda, jamiyatda, faoliyatda va boshqa qator munosabatlarda yuzaga keladi, biroq uning ishtirokchisi o‘zida psixologik travma, psixolofik faollik, psixologik immunitet, psixologik himoya va psixologik mexanizm shakllantirishi orqali vaziyatga moslashishi yoki bartaraf etishi mumkin. Aynan shu nuqtai nazardan ham jinsning psixologik xususiyati o‘zgaruvchan va vaziyatga bog‘liq holda kurashuvchanlikni taqozo etadi. Tadqiqotlada madaniyatning ta’siri hayotimizning ko‘p jabhalariga, shu jumladan gender munosabatlar bilan bog‘liq xatti-harakatlarga ham tegishli ekanligini ko‘rsatadi.

So‘nggi 20-30 yil ichida biz erkaklar va ayollar uchun muayyan xatti-harakatlarning maqbulligi nuqtayi nazaridan sezilarli o‘zgarishlarga guvoh bo‘ldik. Erkak va ayol gender rollari soni son-sanoqsiz. Turli madaniyatlarda gender farqlarining turli shakllari qabul qilingan. Biz hammamiz erkak kuchli, mustaqil va hissiy jihatdan cheklangan bo‘lishi kerak, ayol yesa qaram, zaif, g‘amxo‘r va hissiy bo‘lishi kerak, degan tushunchalarga asoslangan gender farqlashning an’anaviy shakli bilan tanishmiz. Jamiyatda fiziologik tafovutlarni stereotip ya’ni, jamiyatdagi o‘zgarmas, qotib qolgan tushunchalar asosida psixologik hulqni shakllanishiga ma’lum ma’noda ta’sir ko‘rsatdi. Stereotip aslida ijtimoiy-psiologik tushuncha bo‘lib, fanda ilk bor Uolter Lippman (Walter Lippmann) tomonidan “ijtimoiy stereotip” tushunchasi sifatida qo‘llanilgan va bu haqda 1922-yilda nashr yetilgan “Общественное мнение” (Jamoatchilik fikri) nomli kitobida so‘z yuritiladi.

U.Lippman ijtimoiy stereotip orqali jamoatchilik a’zolarini tabaqalashtirishni tushuntirishga harakat qiladi. Uning fikricha, ijtimoiy stereotip” bu inson ongidagi olamning tartibga solingan, tizimlashtirilgan, determinantining tasviri hisoblanadi. U.Lippman yondashuvlarida stereotipning to‘rtta jihatini ajratib ko‘rsatadi:

- **stereotiplar real haqiqatlardan ko‘ra oddiy va soddaroq;**
- **shaxs stereotiplarni o‘z tajribalaridan kelib chiqib shakllantirmaydi, balki orttiradi;**
- **barcha stereotiplar u yoki bu darajada aldamchi;**
- **stereotiplar o‘ta yashovchan bo‘lib, yo‘qolib ketishi qiyin bo‘ladi. Shaxs stereotiplar haqiqatga zid bo‘lgan taqdirda ham undan voz kechishi qiyin bo‘ladi.**

Shuningdek, 1920–1930-yillarda I.P.Pavlov psixologiya maktabi tarafdorlari “stereotipiya dinamikasi” fenomenini o‘rganish bilan faol shug‘ullanib, masalaga oliy nerv faoliyati fiziologiyasi nuqtayi nazaridan yondashadi. U.Lippman yesa, stereotiplarning ijtimoiyligiga, ya’ni jamiyat va jamoaga ta’siriga asosiy e’tibor qaratadi [4]. Jamiyatdagi mavjud stereotiplar, keyinchalik turli harakatlarni yuzaga keltirib, insoniyat psixologiyasida “kuchli chaqnashlar”ni yuzaga keltirdi. Xususan, radikal feminizm (1967-yilda paydo bo‘lgan) ayollarga nisbatan kamsitish butun insoniyat madaniyatini qamrab oladi va uni faqat ijtimoiy o‘zgarishlar orqali yo‘q qilish mumkin, degan g‘oyani ilgari suradi. Majburiy norma maqomiga ega

bo‘lgan erkaklar va ayollar o‘rtasidagi biologik farqlarni va madaniy jihatdan yaratilgan gender stereotiplarini farqlash zarurligi ta’kidlanadi. Amerikalik psixologlar Kaye Do va Tim Emsvayler tadqiqotlarida talabalar va talaba qizlar qiyin vazifani bajarishda hamkasbi (erkak yoki ayol) erishgan juda muvaffaqiyatli natijalar bilan tanishdilar. Shundan so‘ng, subyektlarda o‘z nuqtayi nazaridan muvaffaqiyatga nima sabab bo‘lganligi to‘g‘risida fikr bildirish so‘raldi. Ma’lum bo‘lishicha, talabalar erkakning yutuqlarini deyarli faqat uning qobiliyatlari bilan bog‘lashgan, ikkala guruhning fikriga ko‘ra, ayolning yutuqlariga ko‘proq omad ta’sir qilgan.

S.Bem so‘rovnoma hamda sinaluvchilar guruhlari o‘rtasidagi tafovutlar o‘rganilganda 1-guruhda maskulinlik ahamiyatli tafovutlar aniqlanmadi (H=1,925; p>0,382). Biroq guruhlar o‘rtasidagi natijalar bo‘yicha tahlil qilinganda psixologik jihatdan ta’sir omillari ishtirokida bevosta farqli jihatlarni ko‘rish imkoniyati namoyon bo‘ldi. Jumladan, 1-guruhda (151,90) hamda 3-guruhda (168,27)gi ko‘rsatkichlar o‘rtasidahi psixologik tahlil birinchi guruhda hududlarda topshiriqlarni bajarish vaqti bevosita guruhda maskulinlikning shakllangan past ko‘rsatkichlari guruh a’zolarining tajribasi, vazifalarni tushunganlik darajasiga hamda topshiriqlarni bajarish vaqtidagi “qo‘rquv” hamda “o‘zaro ishonch” ta’sir qilgan bo‘lishi mumkin. Psixologik xususiyatlarni namoyon bo‘lish darajasiga tashqi ta’sirlarga nisbatan reaksiyalarning ahamiyati katta. Sababi, topshiriqlarning murakkablik darajasi hamda bajarish uchun berilgan vaqtni mutanosibligi. Ya’ni jismoniy faollikka psixologik yuklamaning muvofiqligi ahamiyat kasb etadi. Yuqorida olib borilgan tadqiqotlardan aniqlaganlarimizga ko‘ra, bizning natijalarimizda ham ustanovkalarning ta’siri sezilganligining guvohi bo‘ldik.

Harbiy xizmatchilar va xodimlarda emotsional-irodaviy xususiyatlarini namoyon bo‘lishini uzunligi 30 metr eni 10 metrli “Ruhiy yo‘lak” (labirintli yo‘lak)da kuzatish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Harbiy xizmatchilarning “Ruhiy yo‘lak” da harakatlanish dinamikasi 1-jadvalda keltirilgan.

Bexato bajarilgan vazifa uchun oldindan berilgan to‘g‘ri ustanovka hamda psixologik tayyorgarlikning hamkorlikda olib borilishi bilan bog‘liqligini ko‘rish imkoniyati yaratilganligining guvohi bo‘ldik. Natijalarimizga ko‘ra, feminin xususiyatlarining namoyon bo‘lishining 1-guruhda (170,29) hamda 3-guruhda (152,43) ko‘rsatkichlar aniqlanganligi birinchidan, 3-guruhda erkaklar 1-guruhda ayollar ko‘proq sinaluvchi sifatida ishtirok etganligini ko‘rishimiz mumkin. Sababi, ko‘rsatkichlarning nafaqat pastligi balki, psixologik jins xususiyatlariga ko‘ra ham ahamiyatlidir (H=2,195; p>0,334). Chunki, guruhdagi jips harakatni amalga oshirishdan ko‘ra, ekstremal vaziyatlarda talafotlarni keskin qisqartirish, o‘zini hamda atrofdagilarning xavfsizligini ta’minlash, diqqatni jamlash, harakarlarni nazorat qilish, ko‘rish hamda vaziyatni tezkor bahola olishdagi operativ sezgining rivojlanganlig kabi psixologik omillar ham hisobga olinishi zarur.

Erkakning o‘ziga xos xususiyatlari: kuchli, sportga moyil; tashqi ko‘rinishi haqida kamroq tashvishlanadi va qarilikdan deyarli qo‘rqmaydi; oilaning boquvchisi rolini o‘ynaydi; jinsiy hayot tajribasiga ega; hissiy bo‘lmagan, tik, mantiqiy, oqilona, rivojlangan intellektga ega, kuch va yetakchilikka intiladi, mustaqil, yerkin, faol, muvaffaqiyat, shuhratparastlikka intiluvchan.

Ayolning o‘ziga xos xususiyatlari: zaif, sportga moyil yemas; tashqi ko‘rinishi haqida qayg‘uradi va qarilikdan qo‘rqadi; oilaga mehr ko‘rsatadi; fazilatli; hissiy, muloyim; beparvo, nomuvofiq, nozik sezgi bor; moslashuvchan, foydali; qaram, ko‘p jihatdan himoyaga muhtoj; passiv; uyatchan.

Yerkaklik (maskulinlik) va ayollik (femininlik)ni o‘rganish uzoq o‘tmish va qisqa tarixga ega. XX asrda erkaklar va ayollarning psixologik xususiyatlari birinchi marta “jins psixologiyasi” kontekstida ko‘rib chiqildi. Shu bilan birga, jins ko‘pincha jinsiy farqlar bilan aniqlangan. Keyinchalik “jins psixologiyasi” o‘rnini biologik, tug‘ma oldindan belgilashga asoslangan “jinsiy farqlar psixologiyasi” egalladi (1930-1960). Biologik

1-jadval

Harbiy xizmatchilarning “Ruhiy yo‘lak” da harakatlanish dinamikasi

Guruhdagilar soni*	1-marta o‘tishi	2-marta o‘tishi	3-marta o‘tishi
1-guruh	20 minut	17 minut	15 minut
2-guruh	22 minut	18 minut	15 minut
3-guruh	20 minut	16 minut	14 minut

«Izoh:(15 nafar) Harbiy xizmatchilarning jami soni».*

ISSN 3030-3230

2-jadval.

Sandra Bem metodikasi shkalalari hamda guruhlar o‘rtasidagi tafovutlar Krusskal Uollis mezoni bo‘yicha, (n=320)

Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha ranglar			H	p
	1-gurux (n=109)	2-gurux (n=109)	3-gurux (n=102)		
maskulin	151,90	161,83	168,27	1,925	0,382
feminin	170,29	158,27	152,43	2,195	0,334

determinizm zaiflashgani, erkaklik va ayollikning psixologik ko‘rsatkichlari kengayganligi sababli, “jinsiy farqlar” (1970) atamasi tez-tez ishlatila boshlandi va nihoyat, XX oxirida “gender farqlar” atamasi paydo bo‘lib, mazkur qarash o‘zida biologik asosni rad yetishi bilan asosiy rakurs psixologik farqlarga yo‘naltirildi. Maskulinlik yuqori ijtimoiy faollikni, raqobat va g‘alaba qozonish istagini, ijtimoiy iyerarxiyada doimo yuqoriga ko‘tarilish, jamiyatdagi o‘z ahamiyatini tasdiqlash uchun doimiy izlanishni anglatadi.

Xulosa qilib aytganda, olib borilgan tajribalar natijasiga ko‘ra, “Ruhiy yo‘lak” da kontrakt asosida xizmat olib borayotgan harbiy xizmatchilarning mashqlarni olib borishi takroran jamoa bilan o‘tishlarida tajribalari oshgan unda harakatlanish va berilgan vazifani bajarishlarini vaqti qisqarib bordi va qorong‘ulikda jamoaviy harakatlanishda bir-birlariga ishonch ortib boradi va sheriklariga har qanday vaziyatda (ekstremal va murakkab vaziyatlarda) ishonishlari mumkinligi his etdilar.

Shuningdek, ayol harbiy xizmatchilarda “Ruhiy yo‘lak” da harakatlanish davomida femininlikning kuchliligi sababli shaxsiy xavotirlanish kuchli namoyon bo‘ladi, bu esa jamoaga g‘amxo‘rlik, boshqalar uchun mas’uliyatni kuchaytiradi. Erkak harbiy xizmatchilarda esa “Ruhiy yo‘lak” da harakatlanishda maskulinlikning kuchli namoyon bo‘lishi natijasida reaktiv xavotirlanish kuchliligi va xizmat vazifasini bajarishda mas’uliyatni his qilish kabi xususiyatlarni namoyon etadi.

Аннотация. В данной статье психологически анализируются особенности маскулинности и фемининности, проявляющиеся в действиях военнослужащих мужского и женского пола в «Психологической полосе».

Ключевые слова. военнослужащий, гендер, маскулинность, фемининность, андрогинный, стереотип, экстремальная ситуация, социальный.

Abstract. This article psychologically analyzes the characteristics of masculinity and femininity, manifested in the actions of male and female military personnel in the “Psychological Band”.

Key words. military man, gender, masculinity, femininity, androgynous, stereotype, extreme situation, social.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Узнадзе Д.Н. Психология установки. – СПб.: Питер. 2001. – 416 с.
2. Берн Ш.М. Гендерная психология. – Москва.: “Impact Publishing”, 2001. – 143 с.
3. Бем С.Л. Линзы гендера: Трансформация взглядов на проблему неравенство полов / Пер. с англ./ – Москва.: Российская политическая энциклопедия, 2004. – 336 с.
4. Липман У. Общественное мнение. – Москва.: АСТ. 2023. – 392 с.

HARBIY-KASBIY PROFESSIONALLIKNI RIVOJLANTIRISHDA IMIJNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK JIHATLARI

Ravshanov Lochinbek Urinovich,
O‘zbekiston Respublikasi
Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy okrug huzuridagi
“Ilmiy tadqiqot” ilmiy-amaliy va uslubiy markaz boshlig‘i,
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Annotatsiya: Mazkur maqola harbiy xizmatchilarda ijobiy imijni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik jihatlariga bag‘ishlangan bo‘lib, u mudofaa tizimidagi harbiylarning kasbiy, ilmiy, psixologik tayyorgarligi kabilarni tadqiq etishni nazarda tutadi. Maqola mazmunida harbiy xizmatchi imijining axloqiy, ma’naviy, emotsional, ijtimoiy-psixologik komponentlari ham konseptual asosda tahlil etilgan. Shuningdek, imijning komandir faoliyatidagi roli, harbiy rol, harbiy unvon, psixologik imij va shaxs tushunchalari ham ushbu tadqiqot mazmunidan chetda qolmagan.

Kalit so‘zlar: harbiy xizmatchi, harbiy qism, harbiy intizom, harbiy imij, imijeologiya, ijtimoiy-psixologik imij, harbiy rol, harbiy unvon, harbiy professional, harbiy psixolog, harbiy faoliyat, kasbiy fidoyilik.

Dunyoda sodir bo‘layotgan qurolli mojaro va qarama-qarshiliklar, yangi tahdid va xatarlar davlatlar oldiga kechiktirib bo‘lmaydigan dolzarb vazifalarni qo‘ymoqda. Ana shunday g‘oyat mas’uliyatli vaziyatda mamlakatimizda tinchlik va osoyishtalikni, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini kafolatlash hamda himoya qilishda milliy armiyamizning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Bu vaziyatni har tomonlama chuqur tahlil qilgan holda, davlatimiz mudofaa salohiyatini yanada mustahkamlash va Qurolli Kuchlarimiz salohiyatini oshirish Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilandi[1].

Barchamizga ayonki, davlatimiz xavfsizligiga qaratilgan har qanday ko‘rinishdagi qurolli tahdid va xavf xatarlarni bartaraf etishda birinchi navbatda milliy armiyamiz harakatga keladi va tinchligimizga qalqon bo‘ladi. Shu munosabatda davlat mudofaa qobiliyatini oshirish, jumladan harbiy xizmatchilarning kasbiy tayyorgarligiga oid zamonaviy va ilmiy jihatdan asoslangan yondashuvlar muhim hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti – Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Sh.M.Mirziyoyev “Biz yuqori malakali harbiy kadrlar tayyorlash, ta’lim-tarbiya jarayonlariga ilg‘or xorijiy tajribalarni, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishga, bundan buyon ham birinchi darajali ahamiyat qaratamiz”[2,2] – deb, ta’kidlab o‘tgan. Mazkur vazifa doirasida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida faoliyat olib borayotgan harbiy xizmatchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda psixologik tayyorgarlik alohida ahamiyat kasb etadi.

Olib borilayotgan tadqiqotlar avvalo, nazariy va amaliy faoliyat jarayonlarida imijni shakllantirish muammosining paydo bo‘lishi va taraqqiyoti bosqichlarini belgilashimiz muhim bo‘ladi. Bunda falsafa, psixologiya, pedagogika va mavzuga oid qator tadqiqot ishlaridagi mavjud manbalarni atroflicha tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, biz tadqiqotimizda imij fenomeni va uning ta’rifi, imijning psixologik komponentlari, uni shakllanish rivojida ijtimoiy-psixologik, sotsiologik, madaniy-tarixiy va ilmiy-nazariy asoslarini xronologik tizimda tahlil etishga e’tibor qaratish zarur.

Insoniyat tarixi shuni isbotlaydiki, imijni shakllantirish asrlar davomida o‘z samarasini berib kelayotgan turli xil usul, uslub va omillarni o‘z ichiga qamrab oladi. Notiqlik mahoratidan tashqari ramzlar, imijning har xil atributlari (kiyim, hidlar, bezak, imo-ishora, mimika va boshqalar). Tarixiy manbalarga asoslanib shuni aytishimiz mumkinki, jamoatchilikka ta’sir etish asoslari janglarga tayyorgarlik ko‘rish, siyosiy saylovlar jarayonida, mahsulotni savdoga olib chiqish, mablag‘ yig‘ish, odamlar va hodisalarni ommalashtirishda keng qo‘llanilgan.

Bizning fikrimizcha, G.Andreyevaning talqini imij mohiyatini ijtimoiy-psixologik

ISSN 3030-3230

hodisa sifatida obyektiv aks ettiradi, ya'ni "Imij – bu idrok etish hodisasining maxsus obrazidir. Shuning uchun ham obyekt yoki hodisaning xayoliy tasviri hissiy murojaatlar asosida yaratiladi"[3,42].

D.Yagerning ta'rifi ijtimoiy-psixologik xususiyatlardan tashqari shaxsiy tashqi ma'lumotlarini ham o'z ichiga oladi. U imij – tashqi qiyofaning o'ziga xos majmui, nutq, xulq-atvordan hosil qilinadi, deb yozadi. Imij – "taassurotlarni boshqarish" san'atidir[4,37]. Demak, imij nafaqat ko'riladigan obraz, balki shakl va mazmun jihatidan ichki va tashqi yaxlitlikning bir ko'rinishi sifatida ham tushuniladi.

Ta'kidlash joizki, harbiy xizmatchilar ishtirok etishi mumkin bo'lgan jangovar harakatlar harbiy-siyosiy, harbiy-texnikaviy, mafkuraviy va ijtimoiy-psixologik, qurol-yarog'lari, jamoa yetakchiligi, jangovar harakatlarda olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarning ijtimoiy-psixologik qonuniyatlari, ichki tuzilishi va maqsadlari, harbiy xizmatchilarning jangovar va psixologik tayyorgarligi kabi murakkab ishlar bilan tavsiflanadi.

Akademik V.Afanasevning ta'kidlashicha "Yaxshi muhandislarni, yaxshi o'qituvchilarni, yaxshi tibbiyot xodimlarini, yaxshi davlat xizmatchilarini tayyorlashimiz mumkin lekin, davlat rahbarlarini, bir so'z bilan aytganda har qanday soha rahbarlarini alohida tayyorlashni iloji yo'q. Biroq, ularning olgan ta'lim va tarbiya malakalari, soha bo'yicha o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalari, kasbiy kompetensiyalari, kasbiy mahorat va maxsus qobiliyatlari boshqaruv faoliyati samaradorligini ta'minlovchi imijning ijtimoiy-psixologik determenantalari hisoblanadi[5,77]. Mazkur ta'rifdan shuni anglash mumkinki, professional harbiy xizmatchilar oldindan tayyorlanmaydi balki, shaxs psixikasining o'ziga xos xususiyatlari, o'z sohasi bo'yicha olgan mukammal bilimlari shuningdek, yillar davomida harbiy xizmat sohasida faoliyat yuritish natijasida orttirilgan ijtimoiy-psixologik omillar hisoblanar ekan.

Harbiy xizmatchilarning harbiy harakatlarida ham qator ijtimoiy-psixologik sabablar mavjud ya'ni ehtiyojlar, his-tuyg'ular, istak, xohish, intilishlar, qiziqishlar, ideallar, e'tiqodlar va hokazo. Yuqorida ta'kidlangandek, har qanday harbiy xizmatchi faoliyati o'z maqsadiga ega hisoblanadi[6,132]. Demak, jangovar faoliyatdagi yutuqlar harbiy xizmatchilar imijining ijobiy yoki salbiy ijtimoiy-psixologik xususiyatlar bilan shakllanganligi bilan bog'liq hisoblanadi.

Harbiy xizmat nafaqat ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan, balki maxsus sharoitlarga bog'liq bo'lgan shaxs faoliyatining turi hisoblanadi. Davlat mustaqilligining ishonchli himoyasi doimo har bir harbiy rahbar-komandirning eng oliy sharafli burchidir. Armiya – har doim jamiyatning bir qismi sifatida qaraladi, o'z mazmunida u jamiyatda yuzaga kelgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlarni shuningdek, xalqaro vaziyatning barcha qonunlarini aks ettiradi.

Tadqiqotchi L.Berestova o'zining shaxs professionalligining xarakteristikasini aniqlashga oid dissertatsiya ishida, shaxsga xos emotsional intellektning boshqaruvdagi roli haqida, o'ziga xos ta'rifni keltirib o'tgan. Uning fikricha, emotsional intellekt yuqori rivojlangan shaxs uchun, o'z his-tuyg'ularidan va boshqalarning his-tuyg'ularidan o'z vaqtida xabardor bo'lishga, noxush hislarning sabablarini tushuna olishga, o'z hissiy holatini har qanday murakkab sharoitlarda boshqara olishga, begona shaxslar va qo'l ostidagi yangi xizmatchilarga nisbatan hamdard bo'la olishga, ularning imkoniyatlari va qay darajadagi malakalari mavjudligini ko'ra olishga, ularni tarbiyalash hamda kasbiy salohiyatlarini rivojlantirishga g'amxo'r bo'la olish kabi xususiyatlarini ta'minlovchi qobiliyatlar turi sifatida xizmat qiladi[7,24]. Demak, harbiy xizmatchilar xizmat faoliyatini to'g'ri tashkillashtirish uchun kasbiy professionalizmga oid emotsional intellektning shakllanganligi zarur ekan.

Harbiy xizmatchilarni tayyorlashda imijning ijtimoiy-psixologik sifatlari ahamiyatli hisoblanib, ularni kasbiy boshqaruvchanlik tushunchasi bilan tushuntirishi shart hisoblanadi. Tadqiqotchi Ye.Trifonovning ta'kidlashicha, harbiy boshqaruv masalalarini o'rganilishiga metodologik sabablar sifatida quyidagilar ajratiladi[8,55]:

- **zamonaviy jamiyatdagi jadal o'zgarishlar, undagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning yuqori sur'ati kasbiy mas'uliyatga oid qator talablarni keltirib chiqaradi, bu esa, harbiy-kasbiy bilimlarni o'zlashtirish jarayonining ahamiyatini yanada oshiradi;**

- **harbiy xizmat talablari va jamiyatning yuqori malakali harbiy xizmatchilarga bo'lgan ehtiyojining ortishi hamda harbiy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish vazifalari;**

- **mustahkam faoliyat turi, ya'ni harbiy xizmatchilarning xizmat vazifalarini bajarishga tayyorligi, harbiy xizmatning turli majburiyatlarini muvaffaqiyatli hal qila olish imkoniyati masalasi;**

- **ekstremal sharoitlarda topshiriqlarni kutmaydigan va lavozim majburiyatlari zimmasiga yuklatilgan kundan boshlab, muvaffaqiyatli bajaradigan, ijodiy va oqilona tashabbus ko'rsatadigan professional harbiy xizmatchilarni tayyorlash masalasi va boshqalar. Demak, zamonaviy harbiy psixologiya va ijtimoiy psixologiya, boshqaruv psixologiyasi fanlarida "Kasbiy professionalizm" tushunchasiga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.**

Harbiy xizmatchilar imijini ijtimoiy-psixologik jihatdan o'rganishda, qolaversa ular tomonidan harbiy xizmatni samarali tashkillashtirishda harbiy xizmatchilarning shaxsiy sifatlari muhim hisoblanadi. Shu bois, harbiy xizmatchilar imijini ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini empirik jihatdan tadqiq etishda, ularning shaxsiy sifatlar uslubi darajasini o'rganish yuzasidan olingan tadqiqot natijalari Kraskal-Uollis mezoniga ko'ra, birinchi shkala ijtimoiy-axloqiy yetuklik ofitserlarda 147,21, serjantlarda 140,13 va muddatli harbiy xizmatchi oddiy askarlarda 105,12 natija bilan o'rtacha farqni namoyon qilgan. ($h=12,42$, $p\leq0,05$). Ma'naviy yetuklik shkalasi ofitserlarda 137,60, serjantlarda 125,25 va muddatli harbiy xizmatchi oddiy askarlarda 115,36 natijalarni namoyon qilgan. Emotsional yetuklik shkalasi ofitserlarda 141,65, serjantlarda 135,32 va muddatli harbiy xizmatchi oddiy askarlarda 120,41 kabi darajalar bilan o'zaro yuqori farqlarni qayd etgan. Keyingi shkala, ijtimoiy intellekt shkalasi bo'yicha ofitserlarda 122,54, serjantlarda 119,41 va muddatli harbiy xizmatchi oddiy askarlarda 117,36 kabi natijalarni aks ettirgan va farqlar yuqori darajada kuzatilgan. Jamoada yetakchilik shkalasiga bo'yicha, ofitserlarda 148,12, serjantlarda 124,84 va muddatli harbiy xizmatchi oddiy askarlarda 107,64 kabi darajalar bilan o'rta farqlarni aks ettirgan. Boshqacha qilib aytganda, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda bilimlar (fanlar doirasida), ko'nikmalar (kasbiy yetuklik) va ijod (harbiy san'at)ning uyg'unlashuvi sodir bo'lgan.

Tadqiqotdagi miqdoriy natijalar va ularning tahliliga ko'ra harbiy xizmatchilarning boshqaruv faoliyatidagi shaxsiy sifatlar uslubi turli harbiy toifalar bo'yicha o'rganilgan bo'lsada, miqdoriy ko'rsatkichlar harbiy xizmatchilar faoliyatining kognitiv jabhasi bevosita ularning ijtimoiy intellekt ko'rsatkichlarini tavsiflamoqda. Ijtimoiy-axloqiy yetuklik darajasi esa, harbiy xizmatchilarning konativ jabhalarini aks ettirgani singari, emotsional intellektiga tayanib emotsional-baholovchi jabhasini ifodalaydi. Barcha jabhalar esa, harbiy xizmatchilarning imijini ifodalovchi jamoadagi liderlik yoki boshqaruvdagi yetakchiligini belgilaydi. Miqdoriy natijalarga asoslanib, harbiy xizmatchilarning xizmat faoliyatida ijtimoiy-axloqiy yetuklikning kognitiv va konativ faoliyatdagi o'ziga xosligi shundan iboratki, o'ziga va atrofdagilarga nisbatan munosabatida bilim va qobiliyatlardan samarali foydalanishini ko'rsatmoqda.

Harbiy xizmatchilarning emotsional yetukligi esa harbiy xizmat faoliyatining emotsional-baholovchisiga xos xususiyatlarni tavsiflamoqda, ya'ni o'zining va bo'ysunuvidagi harbiy xizmatchilarning kechinmalarini anglay oladigan va xatti-harakatlariga nisbatan sezgirlik hamda xulq-atvorini baholay olishini ko'rsatmoqda.

Xulosa qilganimizda, harbiy xizmat nafaqat ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan, balki maxsus sharoitlarga bog'liq bo'lgan inson faoliyatining turi sanaladi. Ona Vatanning qurolli himoyasi doimo har bir fuqaroning eng oliy sharafli burchidir. Armiya esa, har doim jamiyatning bir qismi sifatida qaraladi, o'z mazmunida u jamiyatda yuzaga kelgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlarni shuningdek, xalqaro vaziyatning barcha qonunlarini aks ettiradi.

Shunday ekan, harbiy xizmatchilarda kasbiy professionallikni rivojlantirishda ijobiy imij xususiyatlarini takomillashtirish talab etiladi. Natijada, harbiy xizmatchilarda muloqot ishtirokchisining fikr-niyatlarini tushunish, noverbal xulq-atvorni tushunish, shaxslararo o'zaro ta'sir, ijtimoiy-axloqiy yetuklik, ma'naviy yetuklik, ijtimoiy intellekt va muammoli vaziyatlarda o'zini tutish kabi psixologik xususiyatlarning rivojlanganligi, kasbiy faoliyat jarayonida jamoalar bilan pozitiv munosabatlarni o'rnata olishga xizmat qiladi. Demak, mazkur tadqiqotni ijtimoiy-psixologik jihatdan o'rganishga asos va zarurat mavjud, qolaversa, mazkur tadqiqotimiz harbiy xizmat sohasida faoliyat olib borayotgan harbiy xizmatchilar xizmatida yuzaga kelayotgan ayrim muammolarga ilmiy yechim bo'lishi ehtimoldan holi emas.

ISSN 3030-3230

Аннотация. Данная статья посвящена социально-психологическим характеристикам имиджа военнослужащего, рассмотрена система военнослужащих обороны, которая включает в себя профессиональную, научную, психологическую подготовку. Смысл статьи раскрывает концептуальные основы поведенческого, духовного, эмоционального и социально-психологического компонентов имиджа военнослужащих. В связи с этим, такие понятия как роль имиджа в деятельности военнослужащего, военная роль, военное звание, психологический имидж и понятие личности также не остались в стороне.

Ключевые слова: военнослужащий, военная часть, воинский устав, военный имидж, имиджеология, социально-психологический имидж,военная роль,военное звание,военный профессионал,военный психолог, военная деятельность, профессиональный патриотизм.

Annotation. The provided article devoted the social-psychological characteristics of image of military, it includes the system of defense, professional, scientific, psychological preparation. The meaning of given article illustrates the conceptual foundations of behavioral, spiritual, emotional, and social-psychological components of image of military servants. That is why, the role of image in activity of military servants, military role, military rank, psychological image, as well as the notion of person also did not stay out of research.

Key words: military servant, military part, military regulations, military image, social-psychological image, military role, military rank, military professional, military psychologist, military activity, professional patriotism.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 28 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrigi // Vatanparvar.2020.3-son.2-b.
3. Андреева Г.М., Социальная психология. Учебник для высших учебных заведении - М.Аспект Пресс, 2001. С.42.
4. Ягер Д., Психология народов и масс. СПб.,1995. С.37.
5. Афанасьев В.Г., Общество: системность, познание и управление. В.Г. Афанасьев. М.: Вт. изд. (II), ЭСКИМОС, 2009. – С. 77.
6. Прохвошев В.А., Забродин Ю.М. Военная служба по контракту – М: Нива России 1997. – С. 132.
7. Берестова Л.И., Социально-психологическая компетентность как профессиональная характеристика руководителя: автореф. дисс. канд. психол. наук: М., 1994. – С. 24.
8. Трифонов Е.В., Психофизиология военно-профессиональной деятельности: словарь. С.-Пб., 2006. – С. 55.

AXLOQIY-RUHIY TAYYORGARLIKNING QO‘SHINLAR JANGOVAR XIZMAT FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI O‘RNI VA UNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Azizov S.X.,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti,
Qayta tayyorlash va malaka oshirish fakulteti boshlig‘i,
harbiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Nurjanov A.Yu.,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti,
Qayta tayyorlash va malaka oshirish fakulteti boshlig‘i o‘rinbosari

Annotatsiya: Ushbu maqola, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bo‘linmalari shaxsiy tarkibining axloqiy ruhiy tayyorgarligini takomillashtirish uchun yo‘naltirilgan tadbirlar mazmuniga va ularning o‘ziga xos xususiyatlariga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: axloqiy ruhiy tayyorgarlik; jangovar xizmat faoliyati; jangovar shaylik; jangovar vazifalarni bajarish; asosiy talablar; bo‘linmalar tayyorgarligi; bilim va ko‘nikmalar; psixologik ishlar.

Bugungi kunda mamlakatimizda jadal sur’atlar bilan o‘tkazilayotgan keng miqyosli islohotlardan ko‘zlangan asosiy maqsad, O‘zbekiston Respublikasini yuksak taraqqiy etgan davlatlar sirasiga kirishini ta’minlashdan iborat. Ushbu ezgu yo‘ldagi vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishi esa, mamlakatimizda barqaror xavfsizlikni ta’minlanishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Hozirgi vaqtda, turli xil ko‘rinishlarga ega bo‘lgan terrorchilik xurujlari, dunyodagi ko‘plab mamlakatlarning tinchligi va osoyishtaligiga raxna soluvchi ulkan xavfga aylangan. Xususan, dunyo mamlakatlaridagi terrorizm faolligini tadqiq etuvchi terrorizmning global indeksiga ko‘ra [1], sodir etilgan terrorchilik aktlari, ularning oqibatida halok bo‘lgan va talafot ko‘rganlar soni hamda yetkazilgan moddiy zararlar hajmi, shuningdek, terrorizm faolligi oqibatida kelib chiquvchi boshqa faktorlar bo‘yicha o‘rganilgan 164 ta mamlakat orasida, mintaqamizdagi Pokiston (4-o‘rin), Suriya (5-o‘rin), Afg‘oniston (6-o‘rin) kabi davlatlar terrorizm faolligining yuqori darajasini belgilovchi o‘nlikda ko‘rsatilgan. Shuningdek, xalqaro ekspertlar tomonidan, ta’kidlanishicha, so‘nggi yillarda ayrim mamlakatlarda terrorizm faolligi qisqargan bo‘lsa-da, siyosiy, ijtimoiy va diniy maqsadlarga, qo‘rqitish, zo‘ravonlik yo‘llari bilan tahdid solish yoki real kuch qo‘llash orqali amalga oshirib kelinayotgan terrorchilik holatlari alohida ta’kidlab o‘tilgan. Mazkur faktlar hamda bugungi ommaviy-siyosiy vaziyatlarning beqarorligi, hozirgi vaqtda terrorizmga qarshi kurashning nihoyatda dolzarbligini hamda O‘zbekiston Respublikasida xavfsizlikni ta’minlashga yo‘naltirilgan qo‘shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish zaruriyatini belgilab bermoqda.

Mamlakatimizning bosh qomusi bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, yurtimizni himoya qilish, barcha fuqarolarning konstitutsiyaviy burchi sifatida ko‘rsatib o‘tilgan [2]. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining mamlakatimiz suvereniteti va hududiy yaxlitligi, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish borasidagi vazifalari qonuniy asosda belgilangan. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasining terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risidagi Qonunida, terrorizmga qarshi kurashda ishtirok etayotgan davlat organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish hamda terrorchilik faoliyatining oldini olish, uni aniqlash, unga chek qo‘yish va uning oqibatlarini minimallashtirish borasida hamkorlikda harakat qilishlarini ta’minlash, O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati tomonidan amalga oshirilishi ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, mazkur qonun hujjatlarida terrorizmga qarshi kurashni amalga oshiruvchi davlat organlarining ushbu sohadagi faoliyatlari keng yoritilgan bo‘lib, jumladan bunda, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasiga, terrorizmga qarshi kurashishda, huquq tartibotni, shuningdek jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlashda hamda terrorchilik harakatlarining oqibatlarini bartaraf etishda ishtirok etish vakolatlari ham aniq belgilangan

ISSN 3030-3230

[3]. O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risidagi Qonunda esa, Milliy gvardiyaning huquqiy maqomi va asosiy vazifalari, huquq va majburiyatlari, uning faoliyatini tashkil etish va undagi asosiy prinsiplar, davlat organlari va boshqa tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda fuqarolar bilan hamkorlik, Milliy gvardiyada harbiy xizmatchilar (xodimlar) tomonidan harbiy xizmatni (xizmatni) o‘tash tartibi va shartlari, harbiy xizmatchilar (xodimlar) tomonidan jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalarni, o‘qotar qurolni qo‘llash, tashkilotlarning va fuqarolarning transport vositalaridan foydalanish tartiblari, harbiy xizmatchilarni (xodimlarni) huquqiy va ijtimoiy himoya qilish, ularning javobgarliklari, shuningdek, moliyaviy, moddiy-texnika ta’minoti va xizmat faoliyatiga oid asosiy qoidalar to‘liq yoritib berilgan [4]. Shuni alohida e’tirof etish joizki, yuqorida bayon etilgan taalluqli vakolatlar doirasidagi muhim ahamiyatga ega bo‘lgan vazifalarni bajarish uchun mo‘ljallangan bo‘linmalarning oldindan yetarlicha tayyorlanmasliklari, ular tomonidan murakkab vaziyatlardagi jangovar vazifalarning sifatsiz bajarilishiga olib keladi hamda yakunda o‘ta ayanchli oqibatlar kelib chiqishining asosiy sabablaridan biriga aylanadi. Shuning uchun ham, bugungi kunda, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida jamoat tartibi va xavfsizligini ta’minlash, fuqarolarni turli noqonuniy xatti-harakatlardan, jinoiy tajovuzlardan himoya qilish kabi muhim vazifalarni bajaruvchi bo‘linmalarni har tomonlama tayyorlash ishlari aniq rejalar asosida amalga oshirib kelinmoqda hamda tegishli vazirlik va idoralar, davlat, jamoat tashkilotlarining hududiy boshqaruv organlari va bo‘linmalari bilan belgilangan tadbirlar o‘zaro hamkorlikda bajarilmoqda.

Harbiy jamoalarning jangovar salohiyati va qobiliyati, ulardagi shaxsiy tarkibning belgilangan topshiriqlar ijrosiga har tomonlama tayyorgarligi bilan bevosita bog‘liq hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan komandirlar, shtablar, tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organlari faoliyatida jamoalardagi axloqiy-ruhiy tayyorgarlik masalalari muhim o‘rin egallaydi. Mazkur yo‘nalishda amalga oshiriladigan ishlar, Qurolli kuchlarni isloh qilish bo‘yicha yangi shart-sharoitlarni yuzaga kelishi, ularga yuklatilgan vazifalar ko‘lamining oshishi; shaxsiy tarkibning ma’naviy-ruhiy holati; harbiy soha va harbiy fanlarning iqtisodiy va harbiy-texnikaviy bazasini modernizatsiya qilinishi; qurolli kurash olib borishning yangi, shu jumladan axborot va psixologik xarakterga ega bo‘lgan kuch, vosita va uslublariga doir omillari bilan belgilanadi. Ushbu o‘rinda, ofitserlar tarkibining asosiy faoliyat yo‘nalishlarida shaxsiy tarkibni axloqiy – ruhiy va mafkuraviy jihatdan sifatli tayyorlash, shaxsiy tarkib ongiga ehtimoliy jangovar harakatlarning maqsadlarini aniq va ravshan yetkazilishini ta’minlash hamda ular tomonidan bo‘ysunuvchilarga nisbatan ko‘rsatiladigan g‘amxo‘rlik masalalari o‘ta dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Axloqiy ruhiy tayyorgarlik, tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organlari, boshqaruv organlari va tegishli mansabdor shaxslar tomonidan, shaxsiy tarkibning har qanday vaziyatlarda qo‘yilgan vazifalarni so‘zsiz bajarishini ta’minlaydigan, uning yuqori axloqiy-ruhiy holati va boshqa sifatlarini shakllantirish, saqlab turish va tiklash bo‘yicha maqsadlari, vazifalari, joyi, vaqti, ketma-ketligi hamda kuch va vositalarni qo‘llash bo‘yicha muvofiqlashtirilgan harakatlar orqali amalga oshiriladi [5]. Bunda, qo‘shinlar faoliyatini axloqiy-ruhiy jihatdan ta’minlash jarayonini, shaxsiy tarkibning umumiy tayyorgarlik darajasiga hamda qo‘yilgan maqsad va vazifalarning ko‘lamiga mos ravishda qo‘llanilishi, ushbu vazifalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga faol ta’sir qiladi.

Axloqiy-ruhiy tayyorgarlikning maqsadlari, harbiy xizmatchilar ongi va ruhiyatini jangovar vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishga tayyorlash; shaxsiy tarkibning jangovar va psixologik qobiliyatlarini o‘rganish, shakllantirish va saqlab turish; psixogen talafotlarni maksimal darajada pasaytirish, shu jumladan, ruhiy jarohat va ta’sir olgan harbiy xizmatchilarni tezlik bilan reabilitatsiya qilish va safga qaytarishdan iborat. Ushbu yo‘nalishdagi asosiy vazifalar esa, harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy holati va harbiy jamoalarda kechadigan hodisa hamda jarayonlarga ta’sir etuvchi kuch-vositalar majmuini doimiy jangovar shay holatda saqlab turish va ularni samarali boshqarish; shaxsiy tarkibda yuksak vatanparvarlik, milliy mustaqillik g‘oyalariga sadoqat, tarixiy qahramonlarning, avvalo mamlakat mustaqilligi va ozodligi uchun ulkan hissa qo‘shgan buyuk vatandoshlarning jasoratlaridan o‘rnak olish sifatlarini shakllantirish va yuksaltirish; shaxsiy tarkibga, xavfsizlik sohasidagi tegishli qaror va topshiriqlarni yetkazish; bo‘linmaning axloqiy-ruhiy holatini belgilab beruvchi shart-sharoit va omillarni muntazam va atroflicha o‘rganib, tahlil qilish va shu asosda tegishli faoliyatni tashkillashtirish; jamoalarning joylashuv hududlarida qulay axloqiy-ruhiy va axborot

vaziyatlarini yaratish; harbiy xizmatchilarning ruhiyati va ruhiy qobiliyatini jangovar ish rejimiga tez moslashishi va ishonchli faoliyat yuritishini ta'minlash; bo'linmalarda yuqori darajadagi huquq-tartibot, uyushqoqlik, harbiy intizom, sog'lom axloqiy - ruhiy muhitni yaratish va saqlab turish; harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash; qo'shinlarda madaniy-hordiq xizmatlarini yo'lga qo'yish; tegishli davlat organlari va jamoatchilik tashkilotlari bilan hamda ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro hamkorlikni tashkillashtirish kabi masalalarni o'z ichiga oladi.

Bo'linmalardagi axloqiy-ruhiy tayyorgarlik jarayonlarining samaradorligini oshirishda, maqsad sari intiluvchanlik, uzluksizlik, faollik, tezkorlik, tegishli kuch va vositalarni samarali qo'llash tamoyillari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bunda asosiy tadbirlarni, tarbiyaviy, mafkuraviy va psixologik ishlar; ijtimoiy - huquqiy hamda madaniy - hordiq ishlari; boshqaruv organlari va qo'shinlardagi tashkiliy-boshqaruv ishlariga oid yo'nalishlarda olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuningdek, shaxsiy tarkibni axloqiy-ruhiy jihatdan tayyorlash davomida, taalluqli tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organlari bilan, shu jumladan, tegishli davlat organlari va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik; shaxsiy tarkibni salbiy axborot-psixologik ta'sirdan himoyalash; harbiy xizmatchi va xodimlarning oilalari bilan ishlash; tarbiyaviy ishlar tizimini yetuk kadrlar bilan butlash va axborot-texnik ta'minotini sifatli amalga oshirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratish talab etiladi.

Qo'shinlarni axloqiy-ruhiy jihatdan samarali tayyorlashda shaxsiy tarkib bilan o'tkaziladigan psixologik ishlar muhim o'rin tutadi. Psixologik ishlar, hududiy boshqaruv organlari, shtablar va xizmatlar, tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organlari, psixologlar va harbiy-tibbiyot xodimlari tomonidan, shaxsiy tarkibda tegishli vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan ruhiy qobiliyatni shakllantirish va saqlab turish, salbiy hulq-atvorli shaxslarni aniqlash va ularning sabablarini bartaraf qilish maqsadida o'tkaziladi. Ushbu soha bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar davomida, harbiy jamoalardagi tegishli jarayonlarni o'rganish va baholash, ularning rivojlanishini bashorat qilish; harbiy xizmatchilarning kasbiy tayyorgarligi va psixologik mosligini hisobga olgan holda bo'linmalarga taqsimlash va ularni ekstremal vaziyatlarda harakatlanish uchun ruhiy tayyorlash; murakkab sharoitlarning ruhiy jarohat keltiruvchi omillarini yengib o'tish bo'yicha shaxsiy tarkibga psixologik yordam ko'rsatishni tashkillashtirish; shaxsiy tarkibdagi harbiy-kasbiy faoliyat jarayonida paydo bo'ladigan kuchli ruhiy-emotsional zo'riqishlarni oldini olish; bo'linmalardagi jangovar tayyorgarlik jarayonlarida shaxsiy tarkibning axloqiy-ruhiy holatini tahlil etish va ushbu yo'nalishlar bo'yicha tegishli chora-tadbirlar majmuini belgilash kabi asosiy vazifalarni bajarish talab etiladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bugungi kunda, bo'linmalardagi kasbiy-psixologik tanlov, shaxsiy tarkibning axloqiy-ruhiy holatini o'rganish va baholash, jamoalardagi ijtimoiy-psixologik jarayonlar va hodisalarni o'rganib, baholash, psixologik tayyorgarlik, qo'llab-quvvatlash va yordam ko'rsatish kabi psixologik ishlarning muvaffaqiyatli qo'llanilishi natijasida, Milliy gvardiya bo'linmalarining har tomonlama tayyorgarligi belgilangan tartib-qoidalar asosida samarali amalga oshirilmoqda va ko'plab jamoalarning jangovar xizmat faoliyatida yuqori natijalarga erishib kelinmoqda. Ammo, ayrim bo'linmalar tomonidan kundalik va jangovar xizmat faoliyatining talablar darajasida tashkil etilmasligi oqibatida kerakli natijalarga erisha olmaslik holatlarini ham kuzatish mumkin, bunga esa, ushbu jamoalardagi ta'lim va tarbiyaning hamda harbiy xizmatchilarni xizmat vazifalariga har tomonlama tayyorlash jarayonining va nazorat ishlarining tizimli tashkil etilmaganligi, ayrim ofitserlarning zaruriy bilim, amaliy ko'nikma va mahoratga yetarlicha ega emasliklari hamda mas'ul shaxslar tomonidan ruhiy-psixologik tayyorgarlik masalalariga yetarlicha e'tibor berilmasligi sabab bo'lmoqda. Bunday vaziyatlarning yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslik va bo'linmalarning belgilangan vazifalarni sifatli bajarishlarini ta'minlash uchun, ularning kundalik va jangovar faoliyatlarini harbiy qonunchilik, nizomlar, rahbariy va boshqa me'yoriy hujjatlar talablari asosida tizimli ravishda tashkil etish bilan birga, ushbu yo'nalishda xizmat majburiyatlarini bajaruvchi ofitserlarning yuksak jangovar-ruhiy va axloqiy jihatlarini hamda harbiy-kasbiy va pedagogik mahoratlarini tegishli o'quv dasturlari asosida takomillashtirishga ham alohida e'tibor berish, bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan hisoblanadi [6]. Shuningdek, barcha komandir va boshliqlar o'z yo'nalishlari bo'yicha yetarli darajada bilim va ko'nikmalar bilan birga, boshqaruv faoliyati uchun zarur bo'lgan komandirlik sifatlariga ham ega bo'lishlari va jamoaning axloqiy ruhiy tayyorgarligini yuksak

ISSN 3030-3230

darajada amalga oshira bilishlari lozim. Chunki, har qanday kuchli jangovar tayyorgarlik tizimi ham, komandirlarning qobiliyatsizliklari va jamoadagi salbiy muhit tufayli yakuniy natijalar samaradorligini to‘laligicha ta’minlab bera olmaydi. Ushbu o‘rinda, bo‘linmalar xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar muhim ahamiyatga ega masalalardan hisoblanadi. Shu bilan birga, mazkur yo‘nalishdagi faoliyatning yakkaboshchilik prinsiplariga zid bo‘lmasligiga ham alohida e’tibor qaratish talab etiladi. Chunki, jamoadagi sog‘lom jangovar-ruhiy muhit, shu jumladan komandir (boshliq) va bo‘ysunuvchilarning murakkab vaziyatlardagi boshqaruvchanlik, bajaruvchanlik hamda o‘zaro ishonch sifatlari, harbiy jamoalardagi boshqaruv tizimining asosiy tayanch nuqtasi - yakkaboshchilik tamoyillari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Harbiy jamoalardagi xizmat yuklamalari va vaqtlarining noto‘g‘ri taqsimlanishi, kadrlar bilan ishlash tizimining sifatsiz amalga oshirilishi, xizmatga yarasha qo‘llaniluvchi munosabatlarning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmasligi, shu jumladan shaxsiy tarkibni rag‘batlantirish, intizomiy ta’zirlash va ijtimoiy jihatdan qo‘llashdagi xatoliklar yoki nohaqliklar kabi holatlarning uchrab turishini, axloqiy - ruhiy ta’minot jarayoniga salbiy ta’sir etuvchi o‘ta tashvishli belgilar sifatida qabul qilish lozim. Chunki, bunday holatlar, harbiy jamoalardagi umumiy vaziyatning izdan chiqishiga olib keladi va yakunda ularning jangovar shayligiga salbiy ta’sir o‘tkazadi. Shuning uchun, harbiy qism va muassasalarning axloqiy - ruhiy tayyorgarlik jarayonida har tomonlama xavfsizlikni ta’minlash masalalariga, shu jumladan kuch-vositalarni asrash va ularning xavfsizligini ta’minlash; jangovar shaylik hamda tayyorgarlik tadbirlarining tizimli, to‘g‘ri, aniq va to‘laqonli bajarilishiga erishish; shaxsiy tarkibni ijtimoiy jihatdan adolatli ta’minlash va jamoalarda sog‘lom jangovar-ruhiy muhitni yuzaga keltirish; ishga, xizmatga kirayotganlarni chuqur o‘rganish; mutaxassislar va bo‘linmalar tayyorgarligini yetarli darajada amalga oshirish; shaxsiy tarkibni tegishli mutaxassisliklar bo‘yicha adolatli tayinlash va kadrlar qo‘nimsizligiga barham berish; komandir, boshliq va bo‘ysunuvchilarning har qanday vaziyatdagi mustahkam irodaviy hamda axloqiy-ruhiy barqarorliklarini ta’minlash; jamoa a’zolarining yuksak darajadagi ijrochilik va o‘zaro ishonch sifatlariga raxna soluvchi barcha muammolarni tizimli hal etish; harbiy xizmatchi va xodimlarning xizmat vazifalarini bajarish chog‘ida hamda xizmatdan tashqari vaqtdagi xavfsizliklarini ta’minlash, shuningdek, ularning oila a’zolarini murakkab vaziyat va favqulodda holatlarda himoyalash choralarini ko‘rish; bo‘linmalarning, shu jumladan shaxsiy tarkibning tarqoqligiga yo‘l qo‘ymaslik, ularni turli xil salbiy illatlardan saqlash, shuningdek, ular tomonidan turli ko‘rinishdagi huquqbuzarlik va jinoyatlar sodir etilish ehtimollarini batamom yo‘q qilish masalalariga qaratilishi lozim. Bunda, jamoaning har bir a’zosi maishiy, jiddiy ahamiyatga ega bo‘lmagan nuqson hamda kamchiliklarni muhim yo‘nalishlardan ajrata bilishi shart. Chunki, shaxsiy tarkibning o‘rnatilgan tartib – intizom, qonun – qoidalarga qat’iy rioya etish, jamoa sha’ni uchun kurashish va uning jangovar qobiliyati samaradorligini oshirish masalalariga nisbatan prinsipial yondashuvini ta’minlash, barcha komandir (boshliq)lar uchun eng ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Ushbu masalalarni tizimli tarzda o‘rganilishi, tahlil etilishi va ijobiy hal etilishi, jamoalarning kundalik va jangovar xizmat faoliyati samaradorligini oshirilishiga xizmat qiladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, barcha komandir (boshliq)lar va tegishli mas’ul shaxslar tomonidan harbiy jamoalarda axloqiy ruhiy tayyorgarlikni to‘g‘ri va sifatli amalga oshirilishi, shaxsiy tarkibni turli vaziyatlardagi murakkab vazifalarni bajarishga har tomonlama tayyorlashda o‘ta muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Mazkur sohaga oid masalalarning yechimlarini o‘z vaqtida, to‘g‘ri topa bilish va amalda qo‘llash bilan birga, ofitserlarning komandirlik sifatlarini tizimli takomillashtirish hamda ular tomonidan axloqiy ruhiy ta’minot sohasiga oid egallangan bilim va ko‘nikmalarni amaliyotda samarali qo‘llanilishi esa, mustahkam harbiy jamoani shakllantirish, uni mohirona boshqarish va shaxsiy tarkib tomonidan har qanday sharoitlardagi jangovar vazifalarni sifatli bajarilishini ta’minlash maqsadida amalga oshiriladigan samarali chora - tadbirlar majmuasiga kiruvchi muhim shartlardan hisoblanadi.

Аннотация. Данная статья посвящена содержанию и особенностям мероприятий, направленных на совершенствование морально-психологической подготовки личного состава подразделений Национальной гвардии Республики Узбекистан.

Ключевые слова: морально-психологическая подготовка; служебно-боевая деятельность; боевая готовность; выполнение боевых задач; основные требования; подготовка подразделений; знания и навыки; психологическая работа.

Annotation. This article is devoted to the content of activities aimed at improving the moral mental training of the personnel of the units of the National Guard of the Republic of Uzbekistan and their specifics.

Key words: moral mental training; combat service activities; Combat Intelligence; performance of combat tasks; basic requirements; training of units; knowledge and skills; psychological work.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Global Terrorism index” 2024 – World https://reliefweb.int 06.03.2024.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. https://lex.uz/docs/20596.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonuni. https://lex.uz/docs/29526.
4. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi Qonuni. https://lex.uz/uz/docs/5128310.
5. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Umumxarbiy nizomlari.
6. O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi otryad (vzvod) va guruh komandirlarining malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv dasturi. O‘R JXU, 2024.

ISSN 3030-3230

HARBIY XIZMATGA CHAQIRILUVCHILARNING HARBIY XIZMATGA MOSLASHISHIDAGI QIYINCHILIKLAR BO‘YICHA NAZARIY YONDASHUVLAR

Ikmatullayev G‘ayrat Zokirovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash kafedrasi
boshlig‘ining o‘rinbosari , p.f.f.d.(PhD), dotsent

Annotatsiya. Harbiy xizmatga chaqiriluvchilarni harbiy xizmatga moslashishiga ta’sir ko‘rsatuvchi psixologik, fiziologik, psixofiziologik jarayonlarning o‘rni, ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, harbiy xizmatga moslashtirish jarayonidagi to‘siqlar, qiyinchiliklarning xorij psixolog olimlari tomonidan ilgari surilgan klassifikatsiyalarning mazmuni keltirib o‘tilgan. Ayniqsa, harbiy xizmatga moslashishining psixologik shartlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: moslashish, harbiy xizmat, harbiy xizmatchi, stress, psixologik, fiziologik, psixofiziologik, nevroz, depressiya, xulq-atvor, xavotirlanish, ijtimoiy-psixologik moslashuv, oilaviy vaziyat, jismoniy tarbiya, yetakchilik uslubi, obyektiv, subyektiv omillar.

Harbiy xizmat shart-sharoitlariga moslashish muammosiga alohida qiziqish davlat manfaatlari va mamlakat xavfsizligini himoya qilish bo‘yicha faoliyatning o‘ziga xosligi va yuksak ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqadi. Bu muammo turli fan sohalari tadqiqotchilari – shifokorlar, psixologlar, sotsiologlarning alohida e’tiborini qaratish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda.

Harbiy xizmat muhitining bunday sharoitlari sifatida O.Yu.Kolesnichenko quyidagilarni ta’kidladi:

- **og‘ir jismoniy faoliyat;**
- **faoliyatni qat’iy boshqarish;**
- **yuqori psixo-emotsional stress;**
- **yashash sharoitlarining o‘zgarishi;**
- **majburiy bo‘ysunish, buyruqlarni bajarish;**
- **kunning istalgan vaqtida buyurtmalarni bajarish va h.k [5].**

A.A.Malsev, Yu.A.Borodin harbiy xizmat shartlariga moslashishda quyidagi qiyinchiliklar guruhlarini aniqladi:

1. Harbiy hayot tarzi me’yorlarini tezda qabul qilish zarurati bilan bog‘liq qiyinchiliklar.

2. Faoliyatning barcha turlari jadalligini keskin oshishi bilan bog‘liq qiyinchiliklar.

3. Odatiy ijtimoiy muhitni tark etish bilan bog‘liq qiyinchiliklar.

4. Xulq-atvor va faoliyatda o‘zini o‘zi boshqarishdagi qiyinchiliklar.

5. Mustaqil faoliyatni tashkil etish va kundalik tartibning aniq ritmiga bo‘ysunishdagi qiyinchiliklar [10].

K.R.Bragina xizmat jarayonidagi stressning o‘xshash omillarini ta’kidlab, quyidagilarni qo‘shadi:

-hayot tarzining keskin o‘zgarishi;

-rejimni qat’iy boshqarish;

-yuqori hissiy va jismoniy stress, hissiy va ma’lumotlardan mahrum bo‘lish [1].

Harbiy xizmat muqarrar ravishda sezilarli ruhiy va jismoniy stress bilan birga keladi.

Hayot ritmining o‘zgarishi, uy va oiladan ajralish, qonuniy tartib, boshqariladigan xulq-atvorlar rejimi, bo‘ysunish zarurati, nafaqaga chiqa olmaslik, mas’uliyatni oshirish, uydagi noqulayliklar, g‘ayrioddiy iqlim-geografik sharoitlar-ularning barchasi harbiy xizmatchilarning ruhiy va jismoniy salomatligi holatiga yuqori talablarni qo‘yadi. Harbiy xizmatning yuqorida qayd etilgan stressni keltirib chiqaradigan omillarining o‘ziga xos ta’siri xizmatga chaqiriluvchilar orasida nevrotik kasalliklarning kuchayish tendensiyasini keltirib chiqaradi. Ko‘pincha, harbiy xizmatchilarda nevrotik kasalliklar tarkibida moslashish jarayoni doirasida rivojlanadigan tashvish va depressiv reaksiyalar mavjud. K.R.Bragina tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, muddatli harbiy xizmatchilarning katta qismi xizmatning birinchi yilida tashvish va depressiv o‘zgarishlarning sezilarli darajada ortganligini ko‘rishimiz mumkin [1]. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, muddatli harbiy xizmatchilarning 60%

ning bo‘linma sharoitlariga psixik moslashuvi buzilganligi ko‘rsatib o‘tiladi [12].

Harbiy xizmatga yosh qabul qilinganlar orasida har yili 19% ida ruhiy kasalliklar aniqlanadi, bu esa xizmatning dastlabki uch oyida erta ishdan bo‘shatish uchun asosiy sababdir. Neyropsixiatrik kasalliklarning aksariyati adaptiv xarakterga ega, ya’ni, hayot va faoliyatining yangi sharoitlariga moslashishdagi qiyinchiliklardan kelib chiqadi.

Muddatli harbiy xizmatni o‘tashning dastlabki davrida ayrim chaqiriluvchilar o‘quv dasturini o‘zlashtirishda ortda qolishadi, boshqalar esa muloqotga kirishishda qiyinchiliklarga duch kelishadi hamda axloqiy sohadagi uyg‘unlikning buzilishi, keyinchalik ijtimoiy moslashuvga olib keladi [12]. So‘rovlarga ko‘ra, eng ko‘p uchraydigan shikoyatlar psixosomatik xususiyatga ega, jumladan, charchoqning kuchayishi va yomon kayfiyat. Shuningdek, organizmning fiziologik zaxiralari darajasining pasayishi, samaradorlik, immunitet va asab tizimida kuchli zo‘riqish ro‘y beradi. Sog‘lom yosh insonning tanasi stressli vaziyatlarga nisbatan sezgir bo‘ladi. Haddan tashqari psixo-emotsional stressga tananing umumiy qarshiligining pasayishi harbiy xizmatchilarda chuqur nevrozlar va depressiyaning paydo bo‘lishiga yordam beradi [5].

Shu o‘rinda xizmatga chaqiriluvchilarni harbiy xizmat shartlariga moslashtirish bosqichlari va davomiyligini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq. Harbiy xizmatning dastlabki bosqichi yigit harbiy komissarlikda ro‘yxatga olingan paytdan boshlanadi. Bu bosqichning mazmuni asosan axborot va tarbiyaviy xususiyatga ega. Yashash joyi va kelgusi faoliyat shartlari haqida ma’lum ma’lumotlarni to‘plashga qaratilgan. Shaxsning adaptiv xulq-atvorini shakllantirishda zarur axborot maydonini shakllantirish katta rol o‘ynaydi. Bundan tashqari, xizmatga chaqiriluvchi ma’lum bir qismga kelishidan oldin, unda ruhiy zo‘riqish holatini shakllantiradigan hissiy kechinmalar kuchayadi. Stress holati harbiy xizmatga chaqirilishning o‘zi, odatdagi yashash muhitining o‘zgarishi va vaziyat tufayli yuzaga keladi. Ushbu holatning sabablaridan biri - bu shaxsning kamolot cho‘qqisiga ega emasligidan dalolat beradi. Ba’zi tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, xizmatga yosh chaqiriluvchilarning xulq-atvorlari o‘smirlik davridagi deviant xulq-atvor reaksiyalari bilan bog‘liq. Voyaga yetmagan shaxsdagi stress oiladan hissiy yordamdan mahrum bo‘lish, odatiy ijtimoiy muhitning o‘zgarishi va noma’lum narsaga duch kelish qo‘rquvi bilan bog‘liq [3]. Keyingi bosqich muddatli harbiy xizmatchining ma’lum bir harbiy qismdagi dastlabki daqiqalaridan boshlanadi. Bu yerda u to‘g‘ridan-to‘g‘ri hayot sharoitlarini o‘zgartirish omilining ta’sirini boshdan kechira boshlaydi. Xizmatning ushbu bosqichida yosh askar harbiy muhitga, yangi talablarga moslashishi, harbiy mutaxassislikni egallashi kerak. Bu birlamchi moslashish bosqichi bo‘lib, uning vaqt oralig‘i, qoida tariqasida, 4-6 oyni tashkil qiladi.

Ma’lumki, harbiy xizmatda yangi dunyoqarash shakllanmoqda, yangi bilim va ko‘nikmalar o‘zlashtirilmoqda, harbiy mutaxassislikni puxta egallash, aniq harbiy jamoaga jalb etish, keksalar va tengdoshlar bilan munosabatlar o‘rnatilmoqda. Harbiy xizmatga moslashishning ushbu bosqichining uchta asosiy bosqichi mavjud:

1. Xizmatning dastlabki uch oyi davom etadigan beqarorlikning dastlabki bosqichi.

2. Psixofiziologik moslashuv bosqichi.

3. Stabilizatsiya bosqichi, shu jumladan psixologik sohada.

Harbiy xizmatga kirishning o‘tkir ruhiy reaksiyalari (yoki birlamchi dezadaptatsiya) – bu moslashish jarayonining bosqichi bo‘lib, unda chaqiriluvchi o‘zgargan hayot sharoitlarining psixogen omillari ta’sirini boshdan kechira boshlaydi. Muddatli harbiy xizmatchilarning aksariyati darhol subyektiv noqulaylik, hissiy tushkunlik yoki zo‘riqishni boshdan kechira boshlaydi va xavotirning kuchayishi, biroz letargiya yoki aksincha, qo‘zg‘aluvchanlik belgilarini namoyon qiladi. Subyektiv ravishda boshdan kechirilgan kasallik tana va psixikada sodir bo‘lgan o‘zgarishlarni aks ettiradi [6]. Bir qator omillarning ta’siri ko‘pincha ishlash darajasini sezilarli darajada pasaytiradi. Emotsional-ixtiyoriy yoki neyropsixik beqarorlik bilan bog‘liq xarakterning aksentuatsiyasi mavjud bo‘lganda, bir nechta stress omillari ta’siri ostida psixofiziologik holatlarda o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyati rivojlanmaganligini boshqarish mexanizmlarining buzilishiga, xulq-atvor va faoliyatning noto‘g‘ri tashkillashtirilishiga olib kelishi mumkin. Bir qator tadqiqotlarga ko‘ra, aynan shu davrda harbiy xizmatga yosh chaqiruvchilar orasida turli xil etiologiyali kasalliklar soni ko‘paygan [8]. Jismoniy zo‘riqishlarning ortib ketayotganligi inson tanasiga va uning moslashish qobiliyatiga nisbatan talablarni qo‘yadi. Funksional zaxiralar va adaptiv qobiliyatlar kamayadi, bu esa psixosomatik kasalliklarning paydo bo‘lishiga

ISSN 3030-3230

olib keladi. Ta’kidlanishicha, yurak-qon tomir tizimining qayta tuzilishi, qon bosimi va yurak urish tezligining o‘zgarishi kabilarni kiritishimiz mumkin. Ushbu omilning asosi asab va endokrin boshqarishning o‘zgarishiga, energiya zaxiralarining pasayishiga va noqulay metabolik o‘zgarishlarga olib keladigan funksional kuchlanish holatidir. Bu umuman tananing qarshiligini pasaytiradi [4]. Ba’zi mualliflarning fikricha, xizmatga chaqiriluvchining asosiy moslashuv bosqichi xizmatning dastlabki uch oyini oladi. Aynan shu davrda kasallik ko‘payadi, ko‘plab yoshlar shamollaydi, oyoqlari charchaydi, psixologik stressni boshdan kechiradi, vazn yo‘qotadi, lekin uch oydan keyin ularning aksariyati normal holatga qaytadi. Biroq, bu uch oy davomida harbiy xizmatga moslashish tugallanmagan. Uchinchi oydan oltinchi oygacha bo‘lgan davrda nevropsixiatrik kasalliklarning ko‘payishi kuzatiladi [11]. Harbiy xizmat shartlarining psixogen ta’sirini aniqlash natijasida shuni ta’kidlash mumkinki, dezadaptatsiya, birinchi navbatda, neyropsixik beqarorlikda namoyon bo‘ladi. Neyropsixik beqarorlik insonning bajarilgan faoliyatga mos keladigan neyro-emotsional stress darajasini va stress omillari ta’sirida psixik funksiyalarning barqarorligini saqlab qololmasligida namoyon bo‘ladi. Ammo shuni yodda tutish kerakki, harbiy xizmatchilar asosan deyarli sog‘lom yoshlardir. Muddatli harbiy xizmatchilar o‘rtasidagi nevropsixiatrik kasalliklarning aksariyati adaptiv xarakterga ega, ya’ni ular hayot va faoliyatning yangi sharoitlariga kirishish qiyinligi bilan bog‘liq. Shu o‘rinda umumiy moslashuvning alohida bosqichlari mavjud bo‘lib, ular boshqarish mexanizmlarining mos keladigan kuchlanish darajasi va fiziologik zaxiralarining sarflanishi bilan moslashish jarayonlarining ma’lum bir ketma-ketligini tashkil qiladi:

a) normal fiziologik reaksiyalar fazasi;

b)fiziologik stress bosqichi (to‘liq bo‘lmagan, qisman moslashish);

v) moslashish stressining bosqichi (beqaror moslashuv);

g) moslashish mexanizmlarining haddan tashqari zo‘riqish bosqichi (dezadaptatsiya);

d) moslashishning muvaffaqiyatsizligi [7].

Ko‘pgina tadqiqotlar asosida to‘plangan ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, qo‘shinning og‘ir sharoitlari bilan ijtimoiy izolatsiya psixologik stress omili bo‘lib xizmat qiladi. Bu yerda ko‘plab stress omillari stress mexanizmini va unga hamroh bo‘lgan nevrozlar, depressiya va boshqa psixosomatik kasalliklarni qo‘zg‘atadi. Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy-tibbiy komissiyasidan ma’lum qilishlaricha, muddatli harbiy xizmatni o‘tash shart-sharoitlariga moslashish uch oygacha davom etadi. A.V.Orlov, T.K.Ryzhkina, L.V.Kapranovaning xizmatga chaqiriluvchilarning ijtimoiy-psixologik moslashuvi omillarini o‘rganish bo‘yicha ishlarida moslashtirilgan va moslashtirilmagan chaqiriluvchilar guruhlarini aniqlash yoshlar xizmatining uchinchi oyi boshida amalga oshirildi. Tadqiqotga ko‘ra, harbiy xizmatga chaqirilganlarning moslashishi uchun odatda ikki oy kifoya qiladi [2].

O‘z navbatida, tashvishli-depressiv, asteno-nevrotik va boshqa bir qator moslashuv kasalliklarining namoyon bo‘lish davrlari va chastotalarini o‘rganish, ba’zi chaqiriluvchilarning nisbatan muvaffaqiyatli moslashishi va noto‘g‘ri moslashganlar guruhini aniqlash uchun zarur va yetarli bo‘lgan uzoqroq vaqtni ko‘rsatadi. Bu xizmatning birinchi to‘rt oyi. Shunday qilib, muddatli xizmat sharoitlariga moslashish muammosi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar ma’lumotlarini tahlil qilib, biz chaqiriluvchilarning moslashuvi muvaffaqiyatini baholash va moslashtirilgan hamda moslashtirilmagan guruhlarni ajratish mumkin bo‘lgan zarur va etarli muddat harbiy qismda xizmatning dastlabki to‘rt oyi ekanligini aniqladik. Tabiiy savol tug‘iladi: ba’zi chaqiriluvchilarning harbiy xizmat shartlariga muvaffaqiyatli moslashishi qanday omillar bilan belgilanadi va boshqalarning moslashuviga nima sabab bo‘ladi?

A.G.Maklakov harbiy xizmatchilarni moslashtirish samaradorligini belgilovchi omillar qatoriga asab tizimining genetik jihatdan aniqlangan xususiyatlari, asab-ruhiy barqarorlik darajasi, xizmatga chaqiriluvchining o‘zini o‘zi qadrlash xususiyatlari, uning boshqalar uchun ahamiyatlilik hissi, nizolashuvchanlik darajasi, insonlar bilan muloqotga kirishish tajribasi, jamiyatning axloqiy me’yorlariga e’tibor, harbiy jamoaning guruh normalarini qabul qilish darajasi kiradi [9].

Boshqa tadqiqotchilar harbiy xizmat shartlariga moslashish jarayoniga ta’sir qiluvchi omillar qatoriga quyidagilarni kiritadi:

- **- xizmatga chaqiriluvchilarning ta’lim darajasi, yoshi, kasbi, xizmatga chaqirilgunga qadar ijtimoiy holati;**
- **oila tarkibi, oilaviy vaziyatning**

xususiyatlari;

- **harbiy xizmatning jozibadorlik darajasi, motivatsiya;**
- **islohot tufayli xizmat muddatini bir yilgacha qisqartirish;**
- **jismoniy tarbiya;**
- **etnik xususiyatlar;**
- **bir qator shaxsiy xususiyatlar, ular orasida stressli vaziyatlarda o‘zini tutish uslublari, psixologik himoya mexanizmlari va o‘zini o‘zi baholash ko‘pincha tilga olinadi.**

Albatta, muddatli harbiy xizmatni o‘tayotgan shaxsning muayyan bo‘linmada xizmat qilishi uchun zarur shart-sharoitlar mavjud bo‘lishi lozim.

Bu moddiy-texnik jihozlar, xizmatga chaqiriluvchi shaxsiga nisbatan qo‘yiladigan talablar va ma’lum bir qismdagi xizmatning o‘ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi; hamkasblar bilan munosabatlarning tabiati, serjantlar tarkibining yetakchilik uslubi va bo‘ysunuvchilarning ehtiyojlariga e’tiborliligi, vzvoddagi ijtimoiy-psixologik iqlim, bu o‘z navbatida xizmatga chaqiriluvchilarning shaxsiy xususiyatlari va serjantlar tarkibining yetakchilik uslubi va boshqalar bilan belgilanadi.

Bunday omillar ro‘yxatini keltirib o‘tishimiz lozim. Bizning maqsadimiz sanab o‘tish emas, balki ulardan eng muhimi va ahamiyatlilarini ta’kidlashdir.

Muddatli harbiy xizmatchilarni harbiy xizmat shartlariga moslashtirishning barcha omillarini ikki guruhga bo‘lish mumkin: obyektiv – harbiy xizmatni o‘tash shartlari va xizmatga chaqiriluvchilarning subyektiv – shaxsiy xususiyatlari. Harbiy xizmatni o‘tash shartlari obyektivdir, chunki muayyan harbiy qismlarda xizmat qilayotgan barcha xizmatga chaqiriluvchilar ular oldida tengdir va ularga ta’sir qilish uchun maxsus imkoniyatlarga ega emas. Moslashuvning subyektiv omillariga, birinchi navbatda, shaxsiy xususiyatlar kiradi. Muddatli harbiy xizmatga chaqiriluvchilarning harbiy xizmat shartlariga muvaffaqiyatli moslashishini belgilaydigan eng barqaror xususiyatlar – bu shaxsning o‘zini-o‘zi baholash, tajovuzkorligi, psixologik himoya mexanizmlari va xulq-atvorlarni yengishdan iborat.

Yuqoridagilarga asoslangan holda tadqiqot muammosi bo‘yicha ilmiy ma’lumotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ma’lumotlarning ko‘pligiga qaramay, harbiy xizmatchilarni muddatli xizmatning turli bosqichlarida moslashtirish masalasi, moslashish bosqichlarining uzluksizligi, ularning psixofiziologik va psixologik xususiyatlari hali to‘liq o‘rganilmagan. Moslashuvga olib keladigan va unga to‘sqinlik qiladigan psixologik xususiyatlar to‘plamini aniqlash zarurati bugungi kun harbiy xizmatining muhim va dolzarb masalasidir.

Аннотация. В статье рассмотрены роль и значение психологических, физиологических, психофизиологических процессов, влияющих на адаптацию призывников к военной службе. Также приведены препятствия в процессе адаптации к военной службе, содержание выдвинутых зарубежными учеными-психологами классификаций трудностей. В частности, раскрываются психологические условия его адаптации к военной службе.

Ключевые слова: адаптация, военная служба, срочная служба, стресс, психологический, физиологический, психофизиологический невроз, депрессия, поведение, тревожность, социально-психологическая адаптация, семейная ситуация, физическое воспитание, стиль руководства, объективные и субъективные факторы.

Annotation. The role, importance of psychological, physiological, psychophysiological processes affecting the adaptation of conscripts to military service is indicated. Also cited are obstacles in the process of adaptation to military service, the content of classifications advanced by foreign psychological scientists of difficulties. In particular, the psychological conditions of his adaptation to military service are revealed.

Key words: adaptation, military service, military service, stress, psychological, physiological, psychophysiological, neurosis, depression, behavior, anxiety, socio-psychological adaptation, family situation, physical education, leadership style, objective, subjective factors.

ISSN 3030-3230

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Брагина К.Р. Распространённость и психопатологическая структура тревожных и депрессивных реакций у военнослужащих срочной службы // Украинский медицинский альманах , - 2002, - Т. 5, - № 6, - S. 17-18.

2. Голубева Н.А. Информационная социализация: психологические условия и факторы: Автореферат дис. ... канд. психол. наук. - М, 2012. - 21 s.

3. Козина Н.В., Скорнякова А.Д. Адаптационные характеристики военнослужащих срочной службы, симулирующих соматические симптомы URL: http://www.mprj.ru/archiv_global/2015_5_34/nomer02.php

4. Козяков Р.В., Коро Н.Р., Орлова Е.А. [и др.] Психофизиология профессиональной деятельности – М.: КНОРУС, 2018. - 414 s.

5. Колесниченко О.Ю. Готовит как космонавтов URL: http://nvo.ng.ru/concepts/2006-01-13/4_podgotovka.html

6. Короленко С.П. Психофизиология человека в экстремальных условиях - М.: Изд-во «Институт психологии РАН», 2009. - 400 s.

7. Костин Д.В. Экспресс-диагностика расстройств адаптации у военнослужащих (клинические и психофизиологические аспекты): Дис. ... канд. мед. наук. - СПб, 2015. - 177 s.

8. Маклаков А.Г. Личностный адаптационный потенциал: его мобилизация и прогнозирование в экстремальных условиях // А.Г. Маклаков Психологический журнал. - 2001. - Т.22, №1. - S. 16-24

9. Маклаков А.Г. Основы психологического обеспечения профессионального здоровья военнослужащих: Дис. ... докт. психол. наук. - СПб., 1996. - 392 с. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/psihologicheskaya-adaptatsiya-v-issledovaniyah-voennyh-psihologov

10. Малсев А.А., Бородин Ю.А. Физическая подготовка солдат в начальный период обучения URL: http://sportlib.info/Books/XXPI/2002N3/p86- 91.htm 91

11. Мосягин И.Г. Психофизиологические закономерности адаптации военно-морских специалистов: Автореф. дис. … док. мед. наук. - Архангельск, 2007. - 37 s.

12. Мухаметжанов А.М., Смагулов Н.К., Жаутикова С.Б. и др. Особенности адаптации военнослужащих в процессе прохождения воинской службы // Современные проблемы науки и образования. - 2012. - № 3. URL: https://www.science-education.ru/ru/article/view?id=6448 (data obrashcheniya: 08.10.2019)

13. Мухаметжанов А.М., Смагулов Н.К., Жаутикова С.Б., Умер Ф.У, Жиенбаева К.М. Актуальные вопросы адаптации военнослужащих срочной службы к военно-профессиональной деятельности // Фундаментальные исследования – 2013. - № 7 (chast 2). - S. 436-439.

MILLIY GVARDIYANING FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI BILAN HAMKORLIGI MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Haydarov Alisher Usmon o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
“Ijtimoiy – gumanitar fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. **Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi Xavfsizlik Kengashining kengaytirilgan yig‘ilishlarida mamlakat kuch tuzilmalari qatori Milliy gvardiya oldida ham jamiyatda xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash borasida faol ishtirokini ta’minlash maqsadida fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikdagi ishlarni olib borilishi tahlil etilgan.**

Kalit so‘zlar: Harakatlar strategiyasi, Taraqqiyot strategiyasi, Milliy gvardiya, fuqarolik jamiyati institutlari, mahalla, davlat va jamoat tashkilotlari, jamiyat xavfsizligi, jamoat xavfsizligi, jamoat tartibi, milliy xavfsizlik, mexanizm, takomillashtirish.

Mamlakatimizda 2017-2021 yillar davomida “O‘zbekistonni rivojlantirishning besh ustuvor yo‘nalishlariga asoslangan harakatlar strategiyasi”[1] asosida islohotlarning barcha yo‘nalishlarida keng ko‘lamli amaliy ishlar amalga oshirildi. Ushbu yillar davomida barcha sohalardagi qonunchilik asoslari takomillashtirildi. “Harakatlar strategiyasi” asosda turli sohalarga doir to‘rt yuzga yaqin qonun va uch mingdan ortiq qonun osti hujjatlari qabul qilindi. 2022-yil 28-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmoni bilan **“2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”**[2] qabul qilinib, islohotlarning yettita yo‘nalishiga qaratilgan 100 ta maqsad belgilandi. Mamlakatimizda 2023-yil Yangilangan Konstitutsiya xalqimiz muhokamasidan o‘tib tasdiqlandi. 2023-yil 9-iyul kuni Prezidentlik saylovlari barcha saylov qonunchiligi talablari asosida o‘tib, xalqimizning yana bir karra demokratik, huquqiy islohotlarga xayrixohligini tasdiqladi.

2023-yil 11-sentabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining №158-son Farmoni[3] bilan xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog‘lom, bilimli va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo‘g‘iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta’minlash maqsadida Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi tasdiqlandi.

O‘zbekiston mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq mamlakatimizda nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini tashkil etish hamda ular faoliyatini qo‘llab-quvvatlash borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Bugun bunday tashkilotlar demokratik qadriyatlar, inson huquq, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligi hamda huquqiy madaniyatini yuksaltirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, davlat organlarida nodavlat notijorat tashkilotlari bilan hamkorlikni tashkil etish bilan shug‘ullanadigan yangi lavozim joriy etilishi, hududlarda ham nodavlat tashkilotlari uylari, ularning qo‘llab-quvvatlash fondlarini tashkil etish kabi yangiliklar joriy etilmoqda.

Xususan, mamlakatda nodavlat notijorat sektorini rivojlantirishga munosib hissa qo‘shgan jamoat tuzilmalari vakillariga hamda tashabbuskor fuqarolarga fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirishga katta ta’sir ko‘rsatgan ishlari va yutuqlari uchun taqdim etiladigan “Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qo‘shgan hissasi uchun” ko‘krak nishoni ta’sis etilishi belgilandi[4].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo‘yicha maslahat kengashi tuzilishi demokratik yangilanishlar sohasida katta tarixiy voqelik bo‘ldi. Mazkur yangilik davlatimiz rahbari

ISSN 3030-3230

mamlakatni yanada jadal va har tomonlama rivojlantirish maqsadida fuqarolik jamiyati institutlari bilan samarali muloqotga hamda keng jamoatchilikni tashvishlantirayotgan dolzarb masalalarni muhokama qilishga alohida e'tibor berayotganligini yaqqol ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasining davlat boshqaruv tizimi innovatsion yangilanish bosqichiga kirdi. Bugungi kunda fuqarolik jamiyati institutlarining fuqarolarning siyosiy madaniyati va huquqiy ongini oshirishda, ularning ma'naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarini qondirishda nodavlat notijorat tashkilotlarining faol ishtirok etishiga to'sqinlik qilayotgan qator tizimli muammo va kamchiliklar mavjudligidan dalolat bermoqda[5]. Xususan:

birinchidan, **davlatning fuqarolik jamiyati bilan samarali va konstruktiv muloqot mexanizmlari yo'lga qo'yilmagan, nodavlat notijorat tashkilotlarining ehtiyojlari tizimli tahlil qilinmayapti, davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning muhim masalalari bo'yicha o'zaro fikr almashish uchun samarali maydonlar yaratilmagan;**

ikkinchidan, **ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini, normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va amalga oshirishga nodavlat notijorat tashkilotlarini jalb qilish darajasining pastligi barcha ijtimoiy guruhlarning turli nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan ifodalanadigan manfaatlarini chuqur o'rganish hamda inobatga olishga imkon bermayapti;**

uchinchidan, **yetarli qonunchilik bazasi yaratilganligiga qaramay, ijtimoiy sheriklik davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari o'rtasida fuqarolarning keng ko'lamli ijtimoiy muammolarini hal qilishga, ularning, ayniqsa yoshlarning tashabbuslari va zamonaviy g'oyalarini haqiqatda ilgari surishga qaratilgan hamkorlikning samarali mexanizmiga aylana olmadi;**

to'rtinchidan, **mamlakatni sotsial-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy jihatdan yanada rivojlantirish bo'yicha innovatsion g'oyalarni taklif qiluvchi faol, o'zining tashabbuslariga tayanib faoliyat ko'rsatadigan nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish choralari lozim darajada amalga oshirilmayapti;**

beshinchidan, **nodavlat notijorat tashkilotlarini ro'yxatdan o'tkazish jarayonlarini, ularning faoliyati tartibini belgilovchi qonunchilik normalarida ortiqcha byurokratik talablar va g'ovlar nazarda tutilgan bo'lib, bu normalar eskirgan va zamon talablariga javob bermaydi;**

oltinchidan, **nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan qo'llanilayotgan idoralararo hamkorlik usullari samarasizdir, davlat organlari o'rtasida ma'lumotlar va axborot almashishning yagona mexanizmlari mavjud emas;**

yettinchidan, **nodavlat notijorat tashkilotlarining moddiy-texnika ta'minoti hanuzgacha qoniqarsiz holatda qolmoqda, fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlashga davlat tomonidan ajratilayotgan mablag'lar o'rta muddatli va uzoq muddatli keng ko'lamli hamda umumrespublika miqyosidagi loyihalar va dasturlarni amalga oshirishga imkon bermayapti.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-maydagi "Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni[6] aynan bu yuqoridagi vazifalarni bajarish mexanizmlarini yaratishga xizmat qilmoqda. Davlatimiz rahbarining jamiyat va davlat hayotida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini oshirishga qaratilgan ushbu dasturiy hujjatida nodavlat notijorat tashkilotlarining faol harakatlanishiga to'sqinlik qilayotgan tizimli muammo va kamchiliklar mavjudligiga e'tibor qaratildi. Xususan:

birinchidan, **hozirgi vaziyatda davlat organlarining fuqarolik jamiyati institutlari bilan samarali va konstruktiv hamkorligining mexanizmlari yo'lga qo'yilmagan, nodavlat notijorat tashkilotlarning ehtiyojlari e'tibordan chetda qolmoqda;**

ikkinchidan, **ijtimoiy muammolarni hal qilishga normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirishga nodavlat notijorat tashkilotlarini jalb etish darajasi past;**

uchinchidan, **yetarli qonunchilik bazasi mavjudligiga qaramasdan ijtimoiy sheriklik davlat organlari va nodavlat va notijorat tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning samarali mexanizmiga aylana olmadi;**

to'rtinchidan, **nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilikda byurokratik to'siqlar mavjud, bu normalar eskirib qolgandir;**

beshinchidan, **ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan qo'llanilayotgan hamkorlik usullari samara bermayotganligi;**

oltinchidan, **nodavlat notijorat tashkilotlarning moddiy texnika ta'minoti hanuzgacha qoniqarsiz holatda qolmoqda.**

Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida qator choralar belgilangan. Mazkur farmon bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha maslahat kengashi tarkibi va Maslahat kengashining asosiy vazifalari tasdiqlanganligi e'tiborga sazovor bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasida ko'pgina rivojlangan davlatlar singari Milliy gvardiya organlari bilan fuqarolik jamiyati institutlari o'zaro hamkorligining o'ziga xos ko'rinishlari bor. Bunday hamkorlikning asosiy yo'nalishi inson huquqlar va jamiyat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi hamkorlikdir. Fuqarolik jamiyati institutlari aynan inson huquqlari va manfaatlarini ta'minlash masalalarida Milliy gvardiya organlari bilan hamkorlik qilishni taklif etib, tegishli tashabbuslar bilan chiqmoqdalar[7]. Chunki bugungi kunda bunday yondashuvlar Milliy gvardiya organlari faoliyatining asosiy mazmunini tashkil etadi. Milliy gvardiya organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida hamkorlikni rivojlantirishda o'zaro ishonchni shakllantirish zarur. Tabiiyki, bunday ishonch osongina, o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Buning uchun bir tomondan fuqarolik jamiyati institutlari o'z salohiyatlarini hamda imkoniyatlariga tegishli davlat organlarini ishontirishlari lozim; ikkinchi tomondan, jamiyatda huquqni muhofaza qilish organlarining, jumladan Milliy gvardiya organlari xodimlarining ijobiy obrazini shakllantirish bo'yicha sabr-matonat bilan maqsadli harakatlarni amalga oshirishlari lozim.

- **Bunda xodimlarning jamoatchilik bilan uchrashuvlari, bevosita hamda telemuloqotlarni muntazam tashkil etish;**
- **jamoatchilik qabullarini yo'lga qo'yish;**
- **ommaviy axborot vositalarining imkoniyatlaridan foydalanish, tegishli targ'ibot hamda ma'rifiy tadbirlarni uyushtirish foydali bo'lishi tabiiy.**

Milliy gvardiya organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida hamkorlikni takomillashtirishning istiqbolli yo'nalishlaridan yana biri – huquqbuzarliklar profilaktikasi bilan Ichki ishlar bo'limlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamkorlikda shug'ullanishlaridir. Mahalla instituti samaradorligining isboti sifatida O'zbekistonda Milliy gvardiya xodimlari o'rtasida o'tkazilgan ijtimoiy so'rovnomada, Milliy gvardiya xodimlarining 94 foizi, profilaktika faoliyati aynan mahallalar bilan hamkorlikda o'tkazilganda yuqori natija berishini bildirishgan. Hozirgi zamon talabidan kelib chiqadigan bo'lsak, hamkorlikni ayrim sohalarda amalga oshirish bilan cheklanib qolish kerak emas, balki Milliy gvardiya organlari bilan fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish, jinoyatchilikka qarshi kurashish va boshqa sohalarda aholining turli qatlamlari, fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkilotlar, jamg'armalar, jamoat birlashmalari, harakatlar va boshqa tashkilotlar bilan turli jabhalarda ham hamkorlikni faollashtirish, rivojlantirib borish lozim. Shundagina, Milliy gvardiya organlari o'zlarining faoliyat yo'nalishlarini to'laqonli bajarishlari, fuqarolar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda jamiyatning boshqa qatlamlarini to'la-to'kis ishonchini qozonishlari mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Milliy gvardiya organlari bilan fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorlik sohasida yana bir qator muammolarni sanab o'tishimiz mumkin.

Jumladan:

– Davlat rahbarining bir qator ma'ruzalarida jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurash masalalarida jinoyatchilikka qarshi kurash faqat Milliy gvardiya organlarining vazifasi emas, balki butun jamiyatning vazifasi ekanligini ta'kidlab o'tgan. Shunga qaramasdan bugungi kunda Milliy gvardiya organlari bilan fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorlik mexanizmi samarali yo'lga qo'yilmagan (masalan, "mahalla profilaktikasi" tamoyili asosida bitta mahallada huquqbuzarlik yoki jinoyat sodir etilsa nafaqat profilaktika inspektori balki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, xotin-qizlar kengashi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi birgalikda mazkur huquqbuzarlik yoki jinoyatni birgalikda oldini olish yoki ochish choralarini ko'rishi kerak);

– Hozirgi kunda fuqarolar Mahalla fuqarolar yig'ini raislarining ommaviy tadbirlarni o'tkazish hamda jamoat tartibini saqlashga doir huquq va vazifalari qonunlar bilan mustahkamlangan bo'lishiga qaramay, ular ko'p hollarda ushbu dolzarb vazifalarni bajarishdan chetlanib qolmoqdalar yoki mas'uliyatsizlik bilan yondashmoqdalar, jinoyatlarni oldini olish bo'yicha tashabbus va takliflar ko'rsatmayaptilar;

– Hududlarda kunlik sodir etiladigan jinoyatlar va ularning kelib chiqish shart-sharoitlari to'g'risida hududda yashovchi fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlariga yetkazilib, ularni xabardor qilib borish mexanizmi yaratilmagan;

– Fuqarolik jamiyati institutlarini

ISSN 3030-3230

hamkorligini samarali yo‘lga qo‘yib, ular bilan aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini oshirish choralari ko‘rilmasligi;

– Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, shu jumladan, mahallalar bilan huquqni muhofaza etish organlarining shu jumladan Ichki ishlar va Milliy gvardiya organlarining hamkorligiga oid tashkiliy mexanizmlarni va tegishli qonunchilik bazasini o‘rganish shuni ko‘rsatmoqdaki, hali bu sohada foydalanilmagan talaygina imkoniyatlar mavjud.

Fuqarolik jamiyati institutlarini ushbu turiga e’tiborni hisobga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi qonunda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini ham mazkur sheriklikning subyektlari qaroriga kiritish maqsadga muvofiq bo‘lardi. Bunday qonunchilik mazmunidagi tadbir nafaqat ilimiy va huquqiy, balki jiddiy amaliy ahamiyat kasb etadi deb o‘ylaymiz[8].

Xulosa o‘rnida Shuningdek bugungi kunda Milliy gvardiya organlari bilan fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik borasida yana bir qator muammolar mavjudligini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan:

– Ommaviy axborot vositalari va blogerlar bilan jinoyatchilikka qarshi kurashish, uni oldini olish, aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini oshirish bo‘yicha samarali hamkorlik yo‘lga qo‘yilmaganligi, Milliy gvardiya organlari bilan ular o‘rtasida sog‘lom aloqalar o‘rnatilmaganligi;

– Hududlarda kunlik sodir etilgan jinoyatlar va huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘yicha OAVda ko‘rsatuvlar va davra suhbatlari talab darajasida olib borilmasligi, kunlik sodir etilgan jinoyatlar bo‘yicha ko‘rsatuvlar tayyorlanib, namoyish etilmasligi;

– Hududlar bo‘yicha hozirgi kunda yo‘l-transport hodisalari ko‘payib, ko‘plab fuqarolarning o‘limiga sababchi bo‘lib, shundan kelib chiqqan holda mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadga muvofiqligini hisobga olib Milliy gvardiya va Ichki ishlar organlari faoliyatiga nisbatan salbiy munosabatlar kelib chiqishiga sabab bo‘lmasligini oldini olishga qaratilgan hamkorlik tadbirlarini kuchaytirish lozim.

– Bunga ko‘proq haydovchilarning yo‘llarda harakatlanish qoidalari talablarini o‘zlashtirmaganliklari, haydovchilarning o‘qitish talab darajasida olib borilmasligi sabab qilib ko‘rsatilmoqda.

– Huquqni muhofaza qilish organlari shu jumladan, Milliy gvardiya organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o‘rtasida aholining huquqiy faolligini yuksaltirish yo‘nalishidagi ijtimoiy sherikligini joriy etishda ayrim muammoli holatlar, hozircha foydalanilmagan imkoniyatlar ham mavjud.

– Milliy gvardiya organlari tomonidan aholi huquqiy faolligini oshirishga qaratilgan muayyan tadbirlar o‘tkaziladi.

– Lekin, bundan ko‘p hollarda fuqarolik jamiyati institutlarining vakillari xabarsiz.

– Va aksincha, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatiga oid tadbirlarda huquqni muhofaza etish organlari, shu jumladan ichki ishlar organlarining vakillarini ham ishtiroki yetarli darajada emas.

– Har ikki tomon aldohida-alohida faoliyat olib boradi.

– Biri tomonidan amalga oshirilgan va oshirilayotgan tadbirlardan boshqasining xabari yo‘qligi ularning natijasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Jamiyat xavfsizligi va barqarorligini ta’minlash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining faoliyatini takomillashtirishda Davlat va jamoat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikda ishlarni amalga oshirishga doir quyidagilarni taklif etamiz:

1) jamoat tartibini saqlash va jamiyat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha tadbirlarni tashkil etish, axborot ta’minoti, qonun buzilishining profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashda mahalliy boshqaruv organlari bilan yaqin hamkorlikni ta’minlovchi chora-tadbirlarni belgilash;

2) kriminogen holat beqaror bo‘lgan mahallalarda vaziyat barqarorlashgunga qadar “Milliy gvardiya punktlari” ni tashkil etish;

3) xalqaro miqyosda yetakchi mamlakatlarning gvardiya tizimini ilmiy jihatdan o‘rganish va ularning O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasiga tegishli xususiyatlarini tatbiq etish hamda qiyosiy tahlilga asoslangan tadqiqotlar olib borish;

4) jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsiziligini ta’minlash bo‘yicha fanlar kesimida istiqbolli va ustuvor yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqotlarni olib borish uchun shart-sharoit yaratish, bunda mavzular bankini tashkil etish va muntazam monitoring olib borish; shuningdek, sohaga oid amaliy, fundamental va innovatsion loyihalarni doimiy qo‘llab-quvvatlash, startaplarni rag‘batlantirish hamda bu borada xalqaro hamkorlik aloqalarini kuchaytirish maqsadga muvofiq.

Аннотация: В настоящей статье проведен анализ выполнения силовыми структурами, в том числе и Национальной гвардией задач, поставленных на расширенных заседаниях Совета безопасности Республики Узбекистан в целях обеспечения безопасности и стабильности в обществе, проводимых совместно с гражданскими общественными институтами.

Ключевые слова: Стратегия действий, Стратегия развития, Национальная гвардия, институты гражданского общества, соседство, государственные и общественные организации, общественная безопасность, общественный порядок, национальная безопасность, механизм, совершенствование.

Abstract: This article provides an analysis of the implementation by security forces, including the National Guard, of the tasks set at extended meetings of the Security Council of the Republic of Uzbekistan in order to ensure security and stability in society, held jointly with civil public institutions.

Key words: Action Strategy, Development Strategy, National Guard, civil society institutions, neighborhood, state and public organizations, public safety, public security, public order, national security, mechanism, improvement.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. // Xalq so‘zi 2017-yil 8-fevral. № 28 (6722)-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”., // Yangi O‘zbekiston gazetasi. 2022-yil 1-fevral. №-544. – B. 1-3.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi farmoni. №-158-son. https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-2030-strategiyasi-togrisida_519158
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // 2020-yil 24-yanvar. Manba: www. president. uz/uz/lists/view/3324
5. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – T., 2017. – № 15. – 243 modda.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-maydagi “Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni // Xalq so‘zi, 2018 yil 5 may.
7. Odamlarning bunyodkorona mehnatini qadrlab, ularga munosib turmush sharoiti yaratish – eng muhim vazifamizdir // Xalq so‘zi. – 2017. – 18 noyabr.
8. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida O‘RQ-376-son 2014 yil 25 sentabr, (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014 y., 39-son, 488-modda; 2017 y., 37-son, 978-modda, Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018 y., 03/18/456/0512-son).

ISSN 3030-3230

HARBIY XIZMATCHILARDA MUSTAQIL FIKRLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Madjitov Farxod Faxriddinovich,
Milliy gvardiya Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha boshqarmasi kadrlar va saf bo‘limi boshlig‘i

Annotatsiya. Maqolada muallif jamiyat a’zosi sifatida shaxsning mustaqil va erkin bo‘lishi masalalariga to‘xtalgancha, bu borada olimlarning qarashlarini keltirib o‘tadi. Shuningdek, harbiy xizmatchilarda mustaqil fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish darajalari va yondashuvlari haqida fikr yuritadi.

Kalit so‘zlar: harbiy xizmatchilar, fikrlash, tafakkur, erkinlik, mustaqil ishlash, jamiyatdagi o‘zgarishlar, yondashuv, intizom.

Shaxsning mustaqil bo‘lishi chuqur bilim va yuqori ma’naviylikni talab qiladi. Shu o‘rinda aytish joizki, mustaqillik va ma’rifatli bo‘lish – bu bitta darajada turuvchi tushunchalardir. Bilim odamni kuchli iroda va e’tiqodga ega bo‘lgan shaxs, turli qiyinchiliklardan qo‘rqmaydigan, shuningdek, bardoshli, olijanob inson sifatida tarbiyalaydi. Haqiqatan, bugungi kunda adolatli, demokratik huquqiy jamiyat – o‘z haq-huquqlarini biladigan, yuqori ma’naviylik, mustaqil fikrlaydigan, barkamol shaxs istiqomat qiladigan jamiyatdir. Chunki mustaqillik jamiyat a’zolari o‘zlarini erkin va mustaqil fuqarolar sifatida his qilishlari uchun yuqori ma’naviylikning birinchi sharti hisoblanadi. Har bir insonning erkinligi o‘z Vatanining, xalqining erkinligi bilan chambarchas bog‘liq. Har bir inson erkin va ozod yurtdagina o‘zini mustaqil, erkin his qila oladi. Insonning mustaqil fikrlashi, atrofdagi voqea-hodisalar, jamiyatdagi o‘zgarishlarga nisbatan o‘z munosabatini bildira olishi nafaqat uning o‘zi, balki jamiyat taraqqiyoti uchun ham alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘z bilimini mustaqil ravishda oshirish quyidagilarni:

1 motivni, faoliyat maqsadini shakllantirish, bilishga oid vazifa qo‘yish va hal qilish, harakatlarni amalga oshirishning borishi va natijalarini nazorat qilish;

2 mustaqil-faoliyatli kompetentlilikni shakllantirishga olib keluvchi shaxsning mustaqil ta’lim olishi va rivojlanishi mazmunini mustaqil o‘zlashtirishni o‘z ichiga oladi [6].

A.N.Leontev tafakkurni “voqelikni obyektiv xususiyatlar, aloqalar va bevosita hissiy idrok etish mumkin bo‘lmagan obyektlar ham kiradigan munosabatlarda ongli aks ettirish jarayoni”, deb ta’riflaydi [3, 27]. Kognitiv psixologiya vakili R.Solso esa quyidagi ta’rifni taklif qiladi: “Fikrlash – bu aqliy jarayonlarga doir yangi reprezentatsiya shakllanadigan jarayon bo‘lib, bu muhokama qilish, mavhumlashtirish, mulohaza qilish, tasavvur va vazifalarni hal qilishning xayoliy xislatlarining murakkab o‘zaro ta’sirida erishiladigan axborotlarni o‘zgartirish yo‘li bilan sodir bo‘ladi. Fikrlash – aqliy jarayon uchta tarkibining eng mazmunli elementi bo‘lib, u ustunlik bilan emas, balki keng qamrovlilik bilan tavsiflanadi” [5, 459].

D.Kaneman ta’kidlaganidek, uzoq muddatli evolutsiya sharofati bilan insonda ikkita fikrlashga oid tizim shakllandi. Ulardan biri kichik quvvat sarflash bilan tavsiflanadi. U intuitsiyaga asoslangan va ma’lumotga inson tomonidan maqsadli nazoratni talab qilmasdan deyarli darhol ishlov berishga qodir. Ikkinchi tizim bizning e’tiborimiz va diqqatimizni jamlashimizga asoslangan bo‘lib, mantiqiy tanlov bilan bog‘liq. U yuqori quvvat va vaqt bilan farqlanadi. Shunday qilib, biz ko‘pgina qarorlarimizni mantiqqa amal qilmaguncha, balki intuitsiya, subyektiv tajriba yoki ijtimoiy stereotiplarga – birinchi fikrlashga doir tizimga asosan qabul qilamiz [1].

Eng kam qarshilik ko‘rsatish yo‘li bilan borgancha odam xato muhokamalar, reallikni buzilgan tarzda idrok etishga duch keladi. Aynan shuning uchun ham fikrlash muammolarini o‘rgangan qator olimlar tanqidiy fikrlash asnosida mustaqil fikrlashni shakllantirishga alohida e’tibor qaratadilar.

Mustaqil fikrlash, ayniqsa, raqamli zamonda kerak bo‘ladi, chunki har qanday ma’lumot ochiq, biroq ko‘pincha ular ishonchli javob bermaydi. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda chet el olimlari mustaqil fikrlashni zamonaviy dunyoda shaxsning muvaffaqiyati va o‘z-o‘zini ro‘yobga chiqarish qobiliyatini belgilovchi,

uning integrativ sifatga oid tavsifnomasi sifatida yetakchilikni shakllantirish kontekstida o‘rganadilar. Fikrlashga oid ko‘nikmalarni rivojlanishini cheklash kam samarali yetakchilarning paydo bo‘lishiga olib kelishi ta’kidlanadi [8].

A.Martin mustaqil fikrlashga qanday omillar ta’sir ko‘rsatishini muhokama qilgancha, ulardan asosiysi sifatida o‘z-o‘zini yuqori baholashni aytadi. U o‘z-o‘zini yuqori baholash muvaffaqiyatning rivojlanishiga, fikrlashning yuqori mahsuldorligi va individual fikrlashga ko‘maklashadi, deb hisoblaydi. Mustaqil fikrlash shaxsiy taraqqiyot va o‘z-o‘zini ijobiy ifodalashga yordamlashadi [7].

Harbiy xizmatchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantirishdagi asosiy omil esa – bu ularning yuqori rangdagi ofitserlar yordamisiz mustaqil harakat qilishlariga undashdir. Shundagina ular tomonidan olingan bilimlar maqsaddan vositaga aylanadi. O.L.Karpova “oliy maktab oldida ilmiy-amaliy faoliyat orqali o‘z bilim va ko‘nikmalarini maqsadli yo‘naltirilgan, mustaqil chuqurlashtirish, kengaytirishga intiluvchi yuqori ixtisoslik egasi bo‘lgan mutaxassisni tayyorlash vazifasi turadi. Shu munosabat bilan ulardan bilim va malakalarini uzluksiz ravishda mustaqil tarzda oshirib borish muammosi turadi” [2].

Qurolli kurash, jangovar navbatchilik, qo‘shinning jangovar va ma’naviy-psixologik tayyorgarligi, shtablarning boshqaruv faoliyati va harbiy boshqarishning boshqa organlari, harbiy kadrlarni tayyorlash, harbiy-ilmiy faoliyat va boshqalar shaklida amalga oshiriladigan harbiy faoliyatning shakllari bir-biriga chambarchas o‘zaro bog‘langan, bir-birini to‘ldiradi va yuzaga keltiradi. Harbiy xizmat sohasida professionalizmning negizli asosi quyidagilar hisoblanadi:

- **o‘z shaxsiy qarori uchun mas’uliyatni o‘ziga olish;**
- **eng yuqori uyushganlik;**
- **shaxsiy mardlik;**
- **o‘z-o‘zini tanqid qilish;**
- **harakat sabablarini ijtimoiylashtirish.**

Shunday ekan, harbiy xizmatchilarda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish o‘ta dolzarblik kasb etadi. Buning uchun ularda:

- **kasbiy jihatdan o‘z bilimlarini mustaqil oshirish, o‘z-o‘zini takomillashtirishga undash orqali o‘z ustida ishlashlariga turtki berish;**
- **dunyoda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarni ijtimoiy-siyosiy jihatdan tahlil qilishga odatlantirish;**
- **har bir topshiriqni individual tarzda hal qilish va differensiatsiyalashga o‘rgatish;**
- **ularni subyekt tajribasini tashuvchi sifatida yuzaga chiqishlariga ko‘maklashish;**
- **amaliy marshrutni loyihalashga individual tarzda mustaqil yondashishini rag‘batlantirish;**
- **olib borayotgan faoliyatini kasbiy jihatdan o‘z-o‘zini namoyon qilishdagi shaxsiy-ahamiyatli qadriyat sifatida idrok etishiga imkon berish zarur.**

Harbiy xizmatchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishni shartli tarzda 3 ta darajaga ajratish mumkin:

- **Reproduktiv daraja**
- **Kognitiv-izlash darajasi**
- **Ijodiy daraja**

3 Reproduktiv daraja bilimlar – o‘xshash vaziyatlarda namuna bo‘yicha algoritmik faoliyatni, to‘plangan bilimlar va qisman o‘zgargan vaziyatlarda harakatlanishning ma’lum usullaridan foydalanishni nazarda tutadi.

4 Kognitiv-izlash darajasi faoliyatning ongli tajribasini to‘plash va uni nostandart vaziyatlarda qo‘llashni ko‘zda tutadi.

5 Ijodiy daraja tadqiqotchilik faoliyatining metodologik bilimlari va usullarini shakllantirishga yo‘naltirilgan.

Bugungi zamonaviy axborot jamiyati yangi bilim va ko‘nikmalarga, qaror qabul qilishda ijodiy faollikka, kasbiy jihatdan keng qamrovli fikrlashga ega bo‘lgan o‘z kasbining ustalarini tan oladi. Raqobat o‘sib borayotgan sharoitda faoliyat olib boradigan mutaxassis doimiy ravishda o‘zgarib turadigan mehnat sharoitlariga tezda o‘rganishi, moslasha olishi darkor, bu esa, o‘z navbatida, mustaqil bilim olishni, o‘z-o‘zini rivojlantirishni, qo‘ygan shaxsiy maqsadlari asosida o‘z ustida ishlashini taqozo etadi. Bunda ta’kidlash lozimki, ““barcha uchun – butun hayoti davomida o‘qish”, ya’ni uzluksiz ta’lim tushunchasining asosiy qoidasi har bir insonning o‘z-o‘zini ro‘yobga chiqarishiga umid qilishi mumkinligini anglatadi [4].

Harbiy xizmatchilarda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda quyidagi

ISSN 3030-3230

yondashuvlarni ajratish ko‘rsatish mumkin:

– tizimli yondashuv harbiy xizmatchilarning mustaqil fikrlashini tizimli majmua sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi;

- harakatli yondashuv harbiy xizmatchilarning o‘z xizmat vazifasini passiv ijro etish pozitsiyasidan faol harakatlanish, tashabbus ko‘rsatish pozitsiyasiga o‘tishini ta’minlaydi;

– shaxsiy-yo‘naltirilgan yondashuv o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga, o‘zaro harakatlarda ijodiy individuallikni namoyon etishga qodir shaxs bo‘lishiga yordamlashadi, mustaqil faoliyatning shaxsiy jihatlariga, ya’ni o‘z ustida ishlashga urg‘u beradi;

– kompetentli yondashuv kelgusida o‘z sohasidagi bilimlarini mustaqil ravishda oshirishga qodir kompetentli shaxsni shakllantirish texnologiyasini belgilaydi, mustaqil fikrlash uchun dolzarb umummadaniy va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltiradi;

– integrativ-modulli yondashuv – harbiy intizom, vatanparvarlik, elga xizmat, fidokorlik borasidagi nazariy bilimlarni amaliyotga uyg‘unlashtirishga ko‘maklashadi.

Xulosa tarzida aytish mumkinki, zamon bilan barobar odimlash, nafaqat jamiyatdagi, balki butun dunyodagi voqea-hodisalarga o‘zining adekvat munosabatini bildira olishi uchun, shuningdek, favqulodda berilgan topshiriq va vazifalarni o‘ziga xos tarzda bajarishga tayyor bo‘lish uchun harbiy xizmatchilarda mustaqil fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirish dolzarb masala bo‘lib, izchillik va uzviylikni taqozo etadi.

Аннотация. Автор, рассматривая вопросы независимости и свободы личности в качестве члена общества, приводит точки зрения ученых в данной сфере. А также излагает свою точку зрения о степенях и подходах формирования навыков независимого мышления у военнослужащих

Ключевые слова: военнослужащие, мышление, мышление, свобода, самостоятельная работа, изменения в обществе, подход, дисциплина.

Abstract. The author, considering the issues of independence and freedom of the individual as a member of society, provides the points of view of scientists in this field. And also sets out his point of view on the degrees and approaches to the formation of independent thinking skills in military personnel.

Key words: military personnel, thinking, thinking, freedom, independent work, changes in society, approach, discipline.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Канеман Д. Думай медленно... решай быстро. – М.: АСТ, 2014.
2. Карпова О.Л. Педагогическая концепция содействия развитию самообразовательной деятельности студентов вуза. // Дисс. … докт. пед. наук. – Челябинск, 2009
3. Леонтьев А.Н. Избранные психологические произведения: в 2 т. Т. 2. – М.: Педагогика, 1983. С. 27.
4. Минаев Н.М. Актуализация ресурса самообразовательной деятельности студента. // Дисс. ... докт. пед. наук. – Оренбург, 2011.
5. Солсо Р. Когнитивная психология. – СПб.: Питер, 2006. С. 459.
6. Федорова М.А. Теория и методологическое обеспечение формирования самостоятельной работы деятельности студентов в вузе: Дисс. … док. пед. наук. – Орел, 2011.
7. Martin A. The Importance of Independent Thinking. // URL: http://www.leadershipexpert.co.uk/importance-independent-thinking.html. Мурожаат санаси: 11.04.2023.
8. Flores K.I., Matkin G.S., Burbash M.E., Quinn C.E., Harding N. Deficient Critical Thinking Skills among College Graduates: Imlikations for leadership. // Educational Philosophy and Theore, № 44, 2012. PP. 212-230.

НЕКОТОРЫЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРЫ В НАЧАЛЕ 20 ВЕКА В КАЗАХСТАНЕ

МАЛДЫБАЕВ К.Б.,
Старший преподаватель Академии Национальной гвардии Республики Казахстан, соискатель Университета общественной безопасности Республики Узбекистан

Аннотация. Культура Казахстана XIX-XX веков представлена именами талантливых и национально ориентированных мыслителей. Благодаря им были заложены основы национальной литературы, театрального искусства, живописи. Основные достижения этого периода были подробно рассмотрены в этой статье.

Ключевые слова: искусство, культура, прогресс, революция, мировоззрение, живопись, демократия, образование, просвещение.

В начале XX века углубление общественного разделения труда объективно сказывалось на культурной и духовной жизни казахского народа. Просвещенные представители народа добровольно взяли на себя великую миссию «учителей» и своим опытом способствовали развитию культуры родного края.

Нужно отметить, что масштабы для сохранения и воспроизводства прежних обычаев, традиций, нравов были значительно ограничены, но в тоже время образовались новые социокультурные ценности и ориентиры.

И это сказывалось на развитии национального самосознания, которое определяло становление новых идей, мыслей, взглядов в казахском обществе. И весомую роль в данной вопросе сыграла письменная литература в ее современном виде.

У истоков этого явления стояли великие казахские просветители Шокан Уалиханов, Ыбрай Алтынсарин и Абай Кунанбаев.

Историко-тематический обзор взглядов и трудов просветителей позволяют сделать вывод, что все труды носят не описательный, а четко выраженный воспитательный характер и свидетельствуют не только о жанровом разнообразии, но и показывают их авторов, как создателей казахского литературного языка. Нужно отметить, что творчество Абая Кунанбаева определило культурно-просветительское движение конца XIX - начала XX вв., оказало огромное воздействие на последующее развитие казахского литературного языка.

Все казахские мыслители полагали, единственной силой, способной дать реальный толчок движению казахов по пути социально-экономического и культурного прогресса, является их приобщение к русской и европейской цивилизации, поэтому всячески старались этому содействовать.

В связи с этим начало XX века стало периодом дальнейшего расцвета казахской литературы, впитавшей в себя черты казахской, восточной и европейской литературы.

В это время былм закладываются основы современной казахской литературы, окончательно формируется литературный язык.

Видным представителем демократической интеллигенции этого периода был Ахмет Байтурсынов (1873-1913). Он занимался педагогической и литературной деятельностью - переводил басни Крылова, издал популярный среди казахов поэтический сборник «Кырык мысал» и сборник «Маса» (1911). А.Байтурсынова можно назвать первым казахским языковедом - он писал статьи, в которых выступал за чистоту казахского языка, освобождение его от русских и татарских слов.

Представителем нарождавшейся казахской литературы был поэт и прозаик Мыржакып Дулатулы (1885-1925) — автор нескольких поэтических сборников и первого казахского романа «Несчастная Жамал» (1910), выдержавшего несколько изданий и вызвавшего большой интерес у русской критики и казахской общественности. Он также занимался переводами на казахский произведения Пушкина, Лермонтова, Крылова, Шиллера, был новатором и реформатором казахского литературного языка.

ISSN 3030-3230

Спандияр Кобеев (1878-1956) известен как переводчик басен Крылова и автор одного из наиболее значительных казахских романов «Калым» (1913).Писатель и журналист Мухамеджан Сералыулы (1872-1929), известный своими произведениями «Топ жарган» (1900), «Гульгашима» (1903), переводом поэмы «Рустем-Зораб из Шахнаме Фирдоуси», был главным редактором журнала «Айкап» (1911-1915), вокруг которого группировались прогрессивные творческие силы.

Сотрудничавший с журналом Султанмахмуд Торайгыров (1893-1920) писал стихи и рассказы на темы неравенства, он автор романа «Камар Сулу». В журнале также печатались Султан-Махмут Торайгыров, Сабит Донентаев, Таир Жомартбаев и другие.

С именем Магжана Жумабаева (1893-1937) связано внедрение в казахское стихосложение новых поэтических форм, а в казахский литературный язык — стилистической системы, которая сохраняется по сей день. Он начал писать стихи с 14 лет и печатался почти во всех газетах и журналах на казахском и татарском языках. В 1912 году в Казани вышел его поэтический сборник «Шолпан».

Шакарим Кудайбердыулы (1858-1931) был религиозным философом, пытавшимся в трактате «Мусылман-шылдыкшарттары» (Оренбург, 1911) обосновать догматы ислама при помощи логического метода, В этом же году он опубликовал одну из первых работ по истории казахов – «Родословная тюрков, киргизов, казахов и ханских династий». Шакарим был автором большого числа стихотворений, поэм и прозаических произведений. Он перевел в стихотворной форме «Дубровского» Пушкина, своими учителями считал Байрона, Пушкина, Лермонтова, Хафиза, Навои, Канта, Шопенгауэра.

В конце XIX - начале XX вв. группа «книжников», в которую входили Нуржан Наушабаев, Машур-Жусуп Копеев и другие, проповедовала патриархальные взгляды и собирала фольклор. Вокруг газеты «Казах» (1913) группировались А.Байтурсунов, М.Дулатов, М.Жумабаев и др. Образовательный процесс колониальных окраин Российской империи начинается в принятия в 1870 году Закона о национальных школах — «О мерах по образованию населяющих Россию инородцев», которым вся система просвещения делилась на 3 категории; первая для весьма мало обрусевших, вторая для достаточно обрусевших, третья для полностью обрусевших. По данному закону в Казахстане стали сперва создаваться школы разного типа, но все они были на русском языке. Так, в Акмолинской и Семипалатинской областях открылись школы-интернаты и сельско-хозяйственные начальные училища, в Тургайской и Уральской областях — аульные школы, волостные (одноклассные), двухклассные училища, в Семиреченской и Сырдаринской — «русско-туземные» школы, в Букеевской Орде -старшинские и участковые русские школы. С начала XX века по системе Ильминского И. стали открываться и русско-казахские школы.Однако население продолжало получать образование в мектебах и медресе, причем большинство их существовало на нелегальном положении (для их открытия требовалось специальное разрешение колониальных властей).

Значительным событием конца XIX-начала XX вв. было открытие «новометодных» («джадидских») учебных заведений. Идейным вдохновителем джадидизма в просвещении был крымский просветитель Исмаил бей Гаспралы. Сторонники «нового метода» стояли за реформу мусульманской школы, широкое внедрение светских дисциплин (географии, истории, естествознания, русского языка), новую методику обучения.

В начале XX века в Казахстане начинается распространение книг для населения, как духовного, так и светского содержания.

В издании этих периодических изданий активное участие принимали представители казахской демократической интеллигенции начала XX века: **Байтурсунов А., Букейханов А., Дулатов М., Сералин М., Каратаев Б., Сейдалин Ж., Дорайгыров С., Тогусов К., Габбасов Г.** и другие.

Культурная жизнь Казахстана этого периода отличается от предыдущих этапов истории прежде всего появлением новых жанров, формированием многожанрового, профессионального искусства; корнями уходящего в многовековую казахскую культуру.

На начало XX в. приходится заметное развитие казахской литературы и журналистики, время окончательного оформления современного литературного языка, появление казахской драматургии, первых казахских романов. Именно в этот

период начинает складываться современная казахская культура. В этот период продолжали развиваться традиционные виды казахского искусства, получившие свое развитие на предыдущих этапах исторического развития: устная литература и музыкальное творчество. Особое развитие получает песенное искусство. Казахи продолжали петь песни Абая, Мусы Байжанулы, Биржан сала и Акан сери. Заметный след в культуре казахского народа оставили; поэт-лирик Мусабек Байзакулы (1849-1932 гг.), акын и сочинитель поэм -«Кисса» Арип Танирбергенов (1856-1924) поэт-книжник, Нуржан Наушабаев (1859-1919), акын Балуан Шолак (Нурмагамбет) Баймурзин (1864-1919) и др.

Становление изобразительного искусства Казахстана в начале XX века связано с именем Хлудова Н.Г. Он внес заметный вклад в становление профессионального изобразительного искусства в Казахстане организацией в 1920-м году частной художественной студии, где получили первые специальные знания и навыки многие живописцы, ставшие затем гордостью казахского искусства, в том числе А.Кастеев, С.Чуйков, А.Бортников, В.Уфимцев и многие другие.

Таким образом культурное развитие Казахстана в начале XX века характеризуется становлением основных её составляющих, которые отвечали прежде всего интересам Российской империи для развития русского образования и культуры среди инородцев. Эта колониальная политика царизма соответственно препятствовала развитию казахской культуры. Перед Октябрьской революцией казахи имели очень тонкий слой образованной интеллигенции: около 100 человек имели высшее и незаконченное высшее образование, порядка 1000 являлись выпускниками гимназий, прогимназий училищ, а также было несколько тысяч людей с восточным образованием в религиозной оболочке. Это, конечно, мало, но именно они и, в частности, те из них, которые получили европейское образование, формировали своеобразный политический климат. Именно этот тонкий слой был чрезвычайно плодородным, кроме того, по сравнению с нашими другими среднеазиатскими братьями, он был довольно значительным.

Annotatsiya. XIX-XX asrlardagi Qozog‘iston madaniyati iste’dodli va milliy yo‘naltirilgan mutafakkirlarning ismlari bilan ifodalanadi. Ularning sharofati bilan milliy adabiyot, teatr san’ati, rassomchilik asoslari yaratildi. Ushbu davrning asosiy yutuqlarini biz ushbu maqolada batafsil ko’rib chiqdik.

Kalit so‘zlar: san’at, madaniyat, taraqqiyot, inqilob, dunyoqarash, rasm, demokratiya, ta’lim, ta’lim.

Abstract. The culture of Kazakhstan of the XIX-XX centuries is represented by the names of talented and national thinkers. Thanks to them, the foundations of national literature, theatrical art, and painting were laid. The main achievements of this period were discussed in detail in this article.

Key words: art, culture, progress, revolution, outlook, painting, democracy, education, education.

Использованная литература:

1. Жапанов К. Казахи рассказали, как учат детей. (Как учат нас своих детей)// Дала уялаятынын газета. - Алматы, 1994.
2. Аппасов С. О необходимости образования. (О независимости образования)// Дала уялаятынын газета. - Алматы, 1994.
3. Жапанов Н. История, которую наука нуждается в изучении. (Неспособность к образованию); О. Алгеранов. Еще один шаг к науке. (Еще шаг к просвещению)// Дала уялаятынын газета. - Алматы, 1994.
4. Беходжин Х. Медресе казахов. (Учреждения -школы) - Алматы, 1994.
5. Дулатов М. Государственная дума тоже казахская//Айкап. - Алматы, 1995.
6. Букейханов А. На страже духовной культуры. 1915 год//А. Букейханов. Работает. - Алматы, 1994.Цит. по: Ф.Д. Ашнин, В.М. Алпатов, Д.И. Насилов. Репрессированная тюркология. - М., 2002.
7. Садуакасулы С. Когнитивные исследования, статьи. - с. 1. - Алматы: Алаш, 2003.

ISSN 3030-3230

AFG‘ON MUAMMOSINI BARTARAF ETISH – MINTAQAVIY XAVFSIZLIKNI TA’MINLASHNING MUHIM TENDENSIYASI SIFATIDA

Sattorov Asrorjon,
O‘zbekiston Respublikasi
Jamoat xavfsizligi universiteti dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlashda muhim yo‘nalish hisoblangan Afg‘onistonda xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlashning muhim masalalari, bu hududda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik barqarorligining muhim tendensiyasi ekanligi yoritilgan va bu muammoni bartaraf etishdagi istiqbolli yondashuvlar tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: transchegaraviy muammolar, “Tolibon” harakati, inkluziv hukumat, tranzit yo‘lak, “Lazurit koridori”, “Mozori Sharif – Kobul-Peshovar” loyihasi, “Manesar-Antiterror-2022”, “Osiyo yuragi” konferensiyasi.

Hozirgi vaqtda Afg‘onistondagi ziddiyat va keskinliklar makoni bo‘lib qolishini oldini olish bo‘yicha qator mintaqaviy va xalqaro loyihalar amalga oshirilib kelinmoqda. Uning hududida faoliyat yuritayotgan “Tolibon” harakati Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan do‘stona aloqa olib borishga harakat qilmoqda. Lekin uchinchi kuchlarning aralashuvi hududdagi xavfsizlik va barqarorlikka ta’sir etish ehtimoli baland hisoblanadi. Mintaqadagi transchegaraviy muammolar, transmilliy manfaatlar bu hamkorlikka raxna solishi hech gap emas.

Hozirda Markaziy Osiyo ba’zi rivojlangan davlatlarning muhim geostrategik ahamiyat kasb etgan, ulkan tabiiy resurslar, yuqori tranzit-transport potensialiga ega manfaatlar va maqsadlar kesishuvi makoniga aylanib ulgurdi. Shuning bilan bir qatorda geosiyosiy voqelikda G‘arb va Xitoyning bu davlatlar bilan o‘zaro hamkorlikni o‘rnatish borasidagi siyosiy strategik maqsadlari va yondashuvlari konstruktiv xarakterga ega. Chunki Markaziy Osiyo davlatlari hozirda Rossiya ta’siri doirasidagi holi hududga aylanib bo‘ldi. Biroq, kelajakda boshqa global o‘yin vakillari bu mintaqani qayta taqsimlash bo‘yicha o‘zining manfaatlarini ko‘zlab strategik rejalar tuzishi mumkinligini inkor qilib bo‘lmaydi. Bu esa ayni paytda geosiyosiy makondagi roli o‘zgarayotgan mintaqa ustidan nazoratni qo‘lga olishga bo‘lgan intilishlardan har bir siyosiy yetakchidan o‘z davlatini kelajagini o‘ylagan holda sergak tortib faol harakat qilishini talab etmoqda. O‘zbekistonning mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash siyosatini belgilovchi asosiy tamoyillarni yangilanishi, barqaror iqtisodiyot va milliy xavfsizlikni ta’minlashda mintaqaviy hamkorlikning o‘rni hamda davlatlarning xalqaro darajadagi siyosiy mavqeni mustahkamlashda O‘zbekiston tashabbuslaridan konstruktiv foydalanish mumkinligi bugun o‘z tahlillarini kutmoqda.

Ma’lumki, 1979-1989 yillarda Afg‘onistonda yuz bergan fuqarolik urushi natijasida, davlatning urushga safarbar qilingan harbiy xizmatchilari va urush harbiy harakatlari chog‘ida tinch aholini ham qo‘shib hisoblaganda, Afg‘onistondagi o‘sha paytdagi hukumat bergan ma’lumotlarga ko‘ra, 243 ming 900 nafar odam halok bo‘lgan. Shundan 35 ming 700 nafari ayollar, 20 ming 700 nafari yosh bolalar bo‘lgan ekan. Jang harakatlari natijasida 77 ming kishi esa yaralangan yoki nogiron bo‘lib qolgan.

O‘sha davrdagi qo‘shin qismlaridan birining rahbari bo‘lgan Ahmad Shoh Ma’sud bergan ma’lumotlarda esa, davlatdan besh million odam qochib chiqib ketgani keltiriladi.

Biroq, 2021-yilgacha mavjud bo‘lgan afg‘on hukumati ushbu o‘n yillik urushda 330 ming afg‘on halok bo‘lganini aytgan edi.

Urush yillarida Sovet hukumati birinchilardan bo‘lib, Markaziy Osiyoliklarni urushga safarbar qilgan. Bu yillarda O‘zbekistondan jami 64 ming 500 nafar yigit urushga safarbar qilingan va ularning 1522 nafari urushda halok bo‘lgan. Ikki yarim ming nafardan oshiqroq yurtdoshlarimiz esa urushdan nogiron bo‘lib qaytgan. Bu askarlar asosan 18-19 yoshdagi yigitlar bo‘lgan.

Bizga ma’lumki, 1996-2001 yillar davomida

Afg‘oniston zaminida “Tolibon” harakati vakillari hokimiyatni qo‘lga olib boshqargan edi. Keyinchalik 2001-yil 11-sentabr voqealaridan so‘ng BMTning maxsus rezalyutsiyasiga asosan AQSH va uning ittifoqchilari qo‘shinlari tomonidan harakat vakillari to‘liq maxf etilib, Afg‘onistonda hokimiyat demokratik kuchlar qo‘liga o‘tib, hatto davlat tarixida ilk bor prezidentlik saylovlari ham bo‘lib o‘tgan edi.

O‘sha kezlarida afg‘on armiyasi qo‘mondonlari va harbiylari “Shimoliy alyans” tarkibiga kiruvchi qo‘shinda harakatlangan edi. Masalan, 15 ming kishilik harbiylardan iborat guruhda Muhammad Qosim Fahim, Ismoilxon, A.Do‘stim va A.Xaliliy yetakchiligidagi kuchlar katta rol o‘ynagan edi [4.93].

O‘tgan davr mobaynida Afg‘oniston hukumati va jahon hamjamiyati (ayniqsa, AQSH va NATO davlatlari) sa’y-harakatlari bilan ushbu mamlakatda mojaroni bartaraf etish va davlatchilikni qurish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgan edi.

Markaziy Osiyo mintaqasiga bu tahdidlardan tashqari yana quyidagi jiddiy sinovli holatlar ham mavjud:

- **mintaqada kuzatilayotgan noqonuniy migratsiya;**
- **energiya resurslari tuzilmasidagi farqlar va suvdan foydalanish muammolari;**
- **noan’anaviy tabiatning ekologik tahdidlari (yadro qurollarini ishlab chiqarish yoki sinovdan o‘tkazish xavfi, iqlim o‘zgarishi, atrof-muhitning tanazzulga uchrashi va boshqalar.)**

O‘tgan davr mobaynida Afg‘oniston mintaqadagi barcha mamlakatlar bilan amaliy hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga intilgan edi va nufuzli mintaqaviy va xalqaro tuzilmalar ishida ishtirok etib kelmoqda edi. Oldinroq mamlakatda Konstitutsiya qabul qilindi, ikki marta prezidentlik va parlament saylovlari o‘tkazildi; bir qator viloyatlarda xavfsizlikni nazorat qilishni boshlagan xavfsizlik tuzilmalari tuzildi. Biroq, mamlakatdagi vaziyat hali ham keskinligicha qolayotgan edi [1. 23].

Bugungi kunga qadar afg‘oniston muammosini qator xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilganligini aytish mumkin.

Afg‘onistonda tinchlikni ta’minlash, mamlakatda inson huquqlarini ta’minlash, u yerda iqtisodiy, sanoat infratuzilmalarini keng joriy qilish, Afg‘onistondagi mavjud muammolarni bartaraf etishning mexanizmlari va ularni takomillashtirishga oid qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Xususan qator tadqiqotchilar A.X.Xo‘jayev, R.M.Alimov, U.A.Xasanov, N.A.Qosimova, V.V.Paramanov [8] kabilarning Markziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash sohalariga bag‘ishlangan tadqiqotlarda afg‘on muammosining u yoki bu jihatlari. U yerdagi jarayonlarning mintaqa xavfsizligiga bo‘lgan ayrim tahdidlari ochib berishga harakat qilingan. Bu tadqiqotlarda O‘zbekiston Respublikasining Afg‘onistondagi xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash borasidagi tashabbuslari, yoki “Tolibon” harakati hokimiyatga kelgandan keyingi jarayonlar yoritilmagan. Bugungi kunda Afg‘onistonda yuz berayotgan o‘zgarishlar, u yerdagi davlat siyosatining Markaziy Osiyo mintaqasiga hozirgi kundagi ta’sirini ilmiy jihatdan o‘rganish ahamiyatlidir.

Qo‘shni mamlakat Afg‘oniston bilan chegaradosh bo‘lgani va ushbu mamlakatdan kelayotgan muammo va xatarlarga munosib javob qaytarishi qiyin bo‘lgan Markaziy Osiyo mamlakatlari u yerda barqarorlik va tinchlik bo‘lishidan hammadan ko‘ra ko‘proq manfaatdordir. Ular uchun Afg‘onistonning iqtisodiy sherik, Ipak yo‘lining ham Eron (Chobahor), ham Pokiston (Gvadar) marshrutlari doirasida jahon bozorlariga chiqish uchun muqobil tranzit hudud sifatidagi maqomi ham juda muhimdir. Markaziy Osiyoning eng yirik savdo va tranzit kabi – markazi va Markaziy va Janubiy Osiyoga elektr quvvati yetkazib beruvchi mintaqaga aylanishi, shunga ko‘ra, mintaqada ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik va taraqqiyotga erishishi ushbu vazifalarni amalga oshirish bilan bog‘liq ekani hech kimga sir emas.

Jarayonning energetika bilan bog‘liq qismi Markaziy Osiyo mamlakatlarini Osiyo hamda Ozarbayjon va Turkiya orqali Yevropa bozorlari bilan bog‘lashning potensial imkoniyatlari hisobga olinsa, katta ahamiyatga ega ekani ma’lum bo‘ladi, qolaversa, bu Amerika va Turkiya munosabatlarining hozirgi maqomiga ham zid emas. Umuman olganda, Markaziy Osiyo mamlakatlarining Afg‘onistondagi faolligini shu bilan tushuntirish ham mumkin.

ISSN 3030-3230

Shu bilan birga so‘ngi ikki yilda Afg‘onistonda qo‘shni davlatlar bilan hamkorlikda bir nechta iqtisodiy loyihalar amalga oshirilib kelinmoqda.

So‘ngi yillarda Afg‘oniston bilan Turkmaniston uchta qo‘shma infratuzilma obyekti ochilganini e’lon qildi. Foydalanishga topshirilgan obyektlar sirasiga 30 kilometrli Aqina – Andxo‘y temiryo‘l tarmog‘i, Turkmanistonning Kerki shahridan Afg‘onistonning Shibirg‘on shahriga qadar tortilgan elektr quvvati uzatish liniyasi, Imomnazar (Turkmaniston) – Aqina (Afg‘oniston) va Sarhadobod (Turkmaniston) – Turg‘undi (Afg‘oniston) yo‘nalishlari bo‘yicha yotqizilgan optik tolali aloqa tizimi ham kiradi. 2021-yil yanvarida Ozarbayjon bilan Turkmaniston “Do‘stlik” konida tabiiy yonilg‘i resurslarini qidirib topish va ishga tushirish bo‘yicha memorandum imzoladi. Ikkala tomon ham Sharqiy O‘rta yer dengizini Afg‘oniston bilan bog‘laydigan va yuklarni Yevroosiyo markaziga yetkazib berishni osonlashtiradigan “Lazurit koridori” transport arteriyasiga muhim ahamiyat bermoqda [1]. Bu loyihalar albatta Afg‘onistondagi iqtisodiy imkoniyatlarning kengayishiga, aholi farovonligi, iqtisodiy infratuzilmalarni rivojlanishiga xizmat qiladi.

Yana shunga ham e’tibor qaratish zarurki, 2021-yil sentabrida qurilishi boshlanishi mo‘ljallangan “Mozori Sharif – Kobul” temir yo‘li qurilishini AQSHning Xalqaro taraqqiyot bo‘yicha moliya korporatsiyasi mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish rejalashtirilmoqda [2]. AQSHning Afg‘oniston muammosini hal qilish bo‘yicha maxsus vakili Zalmay Xalilzod may oyi boshida Toshkentga safari chog‘ida tomonlar Afg‘onistondagi tinchlik jarayonini mustahkamlash masalalarini muhokama qilgan edi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Xitoyning “Bir makon va bir yo‘l” tashabbusi doirasida ham muloqotini davom ettirmoqda va SHHTning Afg‘onistondagi vaziyatni izga solish bo‘yicha guruhining faoliyatini yuqori baholamoqda. Ayni chog‘da 2022-yil 30-martda Dushanbeda Istanbul jarayonining bir bo‘lagi sifatida “Osiyo yuragi” deb nomlangan konferensiya bo‘lib o‘tgan edi.

Afg‘onistonga qo‘shni O‘zbekistonning siyosati alohida ahamiyatga ega. Tavsifi keltirilgan vaziyat O‘zbekiston hududida chet mamlakatlar harbiy bazalari va obyektlarini joylashtirish va o‘zbek qurolli kuchlarining chet mamlakatlardagi tinchlikparvarlik amaliyotlari va harbiy mojarolarda ishtirok etishini istisno qiladi. O‘sha harbiy mojarolar mintaqadagi vaziyatni beqarorlashtirishi va hozirgi jug‘rofiy-siyosiy qarama-qarshilik kuchayishi va undan kelib chiqadigan oqibatlarga sabab bo‘lishi mumkinligi tushunarli. O‘z navbatida 2020-yil yozidayoq Qozog‘iston Prezidenti Qosim-Jo‘mart To‘qayev “Qozog‘istonda AQSH harbiy bazasini qurish muhokama qilinayotgani ham, kun tartibida turgani ham yo‘q”, deb aytgan edi [1].

Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘z xavfsizligi va rivojlanishi maqsadlari va vazifalarini olg‘a surish yo‘lida dunyoning yetakchi davlatlaridan teng masofaga uzoqlashgan holda ko‘p vektorli siyosat olib bormoqda. Bu siyosat albatta mintaqa barqarorligi va xavfsizligi bardavomligiga xizmat qiladi.

Afg‘oniston hukumati va ularning xalqaro hamkorlari hali asosiy muammolarni hal qila olmadilar — mamlakat xavfsizligi va barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash zarur hisoblanadi.

Mintaqa xavfsizligi va barqarorligi mamlakatimiz tashqi siyosati, investitsion muhitning barqarorlashuviga xizmat qiladi.

O‘zbekiston rahbari tashabbusi bilan Afg‘onistondagi siyosiy vaziyatni barqarorlashtirish, tinchlikni ta’minlash va harbiy xavfsizlikni mustahkamlash borasida o‘tgan davr davomida qator amaliy tashabbuslar ilgari so‘rildi.

Xususan, BMT Bosh Assambleyasining 2017-yil 19-sentabrdagi 72-sessiyasida ushbu mintaqada hamkorlikni mustahkamlash, dunyo davlatlarini ushbu davlatdagi muammo va mojarolarni birgalikda bartaraf etishga chorlagan edi. O‘zbekiston rahbari “Afg‘onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish nafaqat mintaqaviy, balki global xavfsizlikni ta’minlashning muhim sharti bo‘lib qoladi. Aminmizki, Afg‘onistonda tinchlikka erishishning yagona yo‘li – markaziy hukumat va mamlakat ichidagi asosiy siyosiy kuchlar o‘rtasida oldindan hech qanday shart qo‘ymasdan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot olib borishdir. O‘zbekiston Afg‘onistonning iqtisodiy tiklanishiga, uning transport va energetika infratuzilmasini rivojlantirishga, milliy kadrlarini tayyorlashga katta hissa qo‘shmoqda va bundan keyin ham hissa qo‘shadi. Afg‘oniston masalasi global miqyosdagi masalalar markazida bo‘lishi lozim. Xalqaro hamjamiyatning sa’y-harakatlari,

birinchi navbatda, Afg‘onistondagi o‘tkir ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishga qaratilishi kerak” degan ne chog‘lik muhim fikrlarni amaliy takliflarni ilgari so‘rgan edi [2].

Shuningdek, ushbu sammitda belgilangan BMT shafeligidagi Afg‘oniston bo‘yicha “Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasidagi hamkorlik va mintaqaviy sheriklik” mavzusidagi xalqaro konferensiya 2018-yil 27-28-mart kunlari Samarqand shahrida bo‘lib o‘tdi.

Mamlakatimiz rahbari ushbu xalqaro anjumaning ahamiyati, mintaqada xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash uchun Afg‘onistondagi tinchlik muhim o‘rin kasb etishini bildirib, “Afg‘onistonda xalqaro terrorchi guruhlarning kengayishi, zo‘ravonlik va qon to‘kishlar, narkobiznesning barham topmayotgani – bularning barchasi bu mamlakatdagi vaziyatni jahon jamoatchiligi tomonidan inkor etilishiga yo‘l qo‘yib bo‘lmasligini ko‘rsatmoqda” deb ta’kidlagan edi [3.362].

Ma’lumki, Afg‘onistonda 2021-yil avgust oyidan hokimiyat “Tolibon” harakati qo‘liga o‘tdi va bu davlatda inkluziv hukumat tuzishga harakatlar boshlandi. Bu harakat vakillarining hokimiyatni qo‘lga olishi xalqaro anjumanlarda ilgari so‘rilgan afg‘on xalqi o‘z taqdirini o‘zi hal qilishi lozimligi haqidagi tashabbuslarning amaliy ifodasi desak bo‘ladi. Lekin hokimiyat vakillari tomonidan qilingan va’dalar, davlatda demokratik jarayonlarni mustahkamlash, inson huquqlarini ta’minlashga doir islohotlar juda sust olib borilmoqda.

Mintaqada barqarorlik va xavfsizlikni ta’minlashning yana bir muhim yo‘nalishi Afg‘oniston hududidan Markaziy Osiyoni Fors ko‘rfazi mintaqasi bilan bog‘lashga xizmat qiladigan temir yo‘l tarmog‘ining o‘tkazilishidir.

2018-yil dekabrda O‘zbekiston, Rossiya, Qozog‘iston, Afg‘oniston, Pokiston temir yo‘l kompaniyalari rahbarlari uchrashuvi bo‘lib o‘tgan edi. 2021-yil fevral oyida O‘zbekiston, Afg‘oniston va Pokiston hukumati rahbarlari Mozori-Sharif – Qobul – Peshovar temir yo‘lini qurish bo‘yicha yo‘l xaritasini imzoladilar. Ushbu hujjatga ko‘ra ushbu loyihani joriy yil may oyida tayyorlash rejalashtirilgan edi. Shuningdek, yo‘l qurilishi esa sentabr oyida boshlanishi belgilangan edi.

Unda Mozori-Sharif – Qobul – Peshovar temir yo‘li qo‘rilishi bo‘yicha qo‘shma ishchi guruh va moliyaviy konsorsium tashkil qilish haqida kelishib olingan edi. Ushbu loyihaning kelajakda amalga oshirilishi va ishga tushirilishi davlatlararo hamkorlik va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashning yangi imkoniyatlarini hosil qiladi.

Dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra loyiha qiymati 5 milliard dollarni tashkil etadi. Temir yo‘l uzunligi esa 573 kilometrni tashkil etadi. Undan yilga 20 million tonnagacha yuk tashish mumkin bo‘ladi [5].

Kelajakda mazkur tarmoq Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlaridan boshlanib Hindiston, Pokiston, Afg‘oniston, O‘zbekiston, Rossiya va Yevropagacha bo‘lgan global “transport karidori”ga aylanishi mumkin.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish doirasida ham Afg‘onistonda tinchlikni ta’minlash, mintaqadagi ijtimoiy, siyosiy jarayonlarga jalb etish, mintaqada terrorizmga qarshi kurashda ushbu mamlakatni jalb qilish kabi vazifalar va maqsadlar belgilangandir [6].

O‘zbekiston Afg‘onistonda afg‘on xalqi boshiga ulkan ofatlar olib kelgan, bugun mintaqa uchun jiddiy tahdidlar manbaiga aylangan ko‘p yillik qonli urushlarga chek qo‘yish borasidagi sa’y-harakatlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mamlakatimiz BMTning Afg‘onistonni mojarodan keyingi tiklanish dasturlarini amalga oshirishga samarali hissa qo‘shib kelmoqda.

O‘zbekiston – Afg‘oniston chegara hududlarida xalqaro gumanitar yuklarni yetkazib berish uchun ko‘prik ochdi, Afg‘onistondagi ko‘plab infratuzilma obyektlarini barpo etishga ham ko‘maklashilmoqda.

2023-yil 14-sentabr kuni Tojikiston poytaxti Dushanbe shahrida bo‘lib o‘tgan Markaziy Osiyo davlat rahbarlari Maslahat Kengashining beshinchi yig‘ilishi doirasida ham mamlakatimiz prezidenti bu borada mintaqa tinchligini ta’minlashga xizmat qiladigan qator tashabbuslarni ilgari so‘rdi. Xususan O‘zbekiston rahbari O‘zbekiston tashabbusi bilan qabul qilingan BMT Bosh Assambleyasining Markaziy va Janubiy Osiyo o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni mustahkamlash to‘g‘risidagi maxsus rezolutsiyasini qo‘llab-quvvatlaganligi uchun minnatdorlik bildirgan edi.

Ushbu tashabbusning davomi sifatida Hindiston, Pokiston va Xitoy bozorlariga chiqish uchun muqobil transport yo‘laklarini ilgari surish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish

ISSN 3030-3230

muhimligi yana bir bor aytib o‘tildi.

Hamkasblarimning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash chora-tadbirlari yuzasidan bildirgan takliflarini ham qo‘llab-quvvatlayman.

Shu ma’noda, mamlakatlarimizda yetarli miqdorda ishlab chiqarilayotgan keng turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan aholini kafolatli ta’minlashning kompleks tizimini birgalikda ishlab chiqish muhim, deb o‘ylayman. Bu, eng avvalo, boshoqli don, yog‘-moy va ozuqa ekinlari, sarxil va qayta ishlangan meva-sabzavot, go‘sht-sut va ko‘plab boshqa mahsulotlardir.

Afg‘onistondagi Tolibon hokimiyati bilan mintaqadagi ayrim davlatlar o‘z munosabatni o‘rnatib, hamkorlikka intilmoqda. Janubiy Osiyo mintaqasi davlatlari, jumladan Hindiston va bevosita qo‘shnisi hisoblangan Pokistonning bu hukumat bilan aloqalari qandayligi ham muhim. Shu nuqtai nazardan, Hindiston 2022-yilda SHHTning ikkita mashg‘ulotini boshladi. Ulardan birinchisi 2022-yil oktabr oyida Hindistonda bo‘lib o‘tadigan “Manesar-Antiterror-2022” qo‘shma aksilterror mashqlari. Ikkinchisi, Qozog‘istonda o‘tkazilishi rejalashtirilgan “Do‘stlik chegarasi” qo‘shma chegara operatsiyasi. Xitoy, xususan, Pokiston va Hindistonni SHHT doirasida birlashtirishga intiladi. Xitoy ham, Rossiya ham Hindiston bilan hamkorlikni Markaziy Osiyo xavfsizligi uchun muhim deb biladi.

Yangi Dehli Markaziy Osiyoda raqobatchi emas. Hindiston hamkorlikni afzal ko‘rayotgan hamkorlar qatoriga kiradi. Biroq, Hindiston Markaziy Osiyodagi Rossiya-Xitoy raqobatidan foydalanib, ajralib turishni istashi mumkin. Masalan, Tolibon Hindistonga Pokistonni muvozanatlashtira oladigan ishtirokchi sifatida qaraydi. Boshqacha qilib aytganda, Pokistondan xohlagan narsasini ololmasa, Tolibon Hindiston bilan munosabatlaridan Islomobodga qarshi savdo vositasi sifatida foydalanishi mumkin. Boshqacha aytganda, mintaqada uchinchi kuch sifatida ishtirok etayotgan Hindiston barcha tomonlar uchun jozibador ishtirokchi sifatida qabul qilinadi.

Natijada, Markaziy Osiyo xavfsizligini ta’minlash uchun Hindiston kabi yangi ishtirokchilarni qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega. Boshqa tomondan, mintaqa xavfsizligiga imkoniyatlardan ko‘ra ko‘proq tahdidlar mavjud. Bu tahdidlarning oldini olish, avvalo, mintaqadagi kuchlarning qanday qadamlar qo‘yadiganiga bog‘liq.

Shunday qilib, Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘z xavfsizligi va rivojlanishi maqsadlari va vazifalarini olg‘a surish yo‘lida dunyoning yetakchi davlatlaridan teng masofaga uzoqlashgan holda ko‘p vektorli siyosat olib bormoqda.

Nazariy jihatdan ko‘rib chiqilgan tamoyillar siyosiy realizm qoidalariga to‘liq mos tushadi. Afg‘onistondagi voqealar qanchalik dramatik bo‘lmasin, pirovardida asosiy rolni baribir davlat o‘ynaydi: mojaroni hal etish aynan uning harakatlari, resurslari va muloqotlariga ko‘p jihatdan bog‘liq. Hali-hamon jarayonda mintaqaviy manfaat va kuchlar muvozanati muhim rol o‘ynashda davom etmoqda. Ayni choqda vaziyatni tartibga olishda konstruktiv yondashuv roli sezilarli, ular davlatning identitet va manfaatlari rolini, hukmron qadriyatlarni, madaniyatni, me’yor va g‘oyalarni (islom dini) tan olish hamda ushbu masalalar bo‘yicha jamiyatda mavjud diskursdan iborat. Afg‘onistondagi siyosatni shakllantiruvchi doiralar tafakkuridagi ushbu paradigmalar birikuvi, amaliyot ko‘rsatishicha, eng samarali xarakterga ega.

O‘zbekistonning mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash siyosatida Afg‘oniston hududida tinchlik, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash eng muhim masala bo‘lib qolaveradi. Bu tashabbus va amaliy harakatlar xalqaro hamjamiyat tomonidan ham tan olinib e’tirof qilinmoqda.

O‘zbekistonning mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash va Afg‘onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish borasidagi say-harakatlari xalqaro ekspert doiralari va xorijiy ommaviy axborot vositalarida katta qiziqish uyg‘otmoqda.

Xususan, “Centreline” jurnali bosh muharriri A.Bxatti Prezident Shavkat Mirziyoyevning Afg‘onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish bo‘yicha strategik qarashlarga ega mintaqaviy siyosatini yuqori baholadi va “Toshkentning Afg‘oniston bo‘yicha siyosati”dagi ustuvor yo‘nalishlarni bayon qildi. Uning fikricha, O‘zbekistonning Afg‘oniston yo‘nalishidagi faol ishtiroki Afg‘oniston Islom Respublikasida tinch taraqqiyotni ta’minlashda xalqaro say-harakatlarni kuchaytirishga xizmat qildi [7].

Аннотация. В данной статье освещаются вопросы обеспечения безопасности и стабильности в Афганистане, являющиеся важным направлением в обеспечении региональной безопасности, обеспечение социальной, политической, экономической стабильности в этом регионе, что является важной тенденцией в обеспечении стабильности безопасности в Центральноазиатском регионе, и анализируются перспективные подходы к преодолению этой проблемы.

Ключевые слова: трансграничные проблемы, движение "Талибан", инклюзивное правительство, транзитный коридор, Лазуритный коридор, проект Мазари Шариф – Кабул-Пешавар, Манесар-Антитеррор-2022, конференция "Сердце Азии".

Annotation. This article highlights the issues of ensuring security and stability in Afghanistan, which is an important direction in ensuring regional security, ensuring social, political, economic stability in this region, which is an important trend in ensuring security stability in the Central Asian region, and analyzes promising approaches to overcoming this problems.

Key words: cross–border problems, the Taliban movement, inclusive government, transit corridor, Lapis Lazuli Corridor, Mazari-Sharif-Kabul-Peshawar project, Manesar-Antiterrorism-2022, "the Heart of Asia" Conference.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Канистантин Сирожикин «Проблема 2014» и безопасност в Центральной Азии. Центральной Азия и Кавказ. Том 16 Випуск 3, 2013.
2. Йўлдашева Г. Марказий Осиё тинчликпарвар кучлар Афғонистондан олиб чиқиб кетилгандан сўнг. https://www.uzanalytics.com/xalqaromunosabat/9371/
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқи. Халқ сўзи. 2017 й. 20 сентябрь.
4. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. – Т.: Ўзбекистон. 2018.
5. Рашидов Р.Р. Афғонистонда миллий давлатчилик шаклланиш жараёнлари ва ўзига хос тенденсиялар. Сиёсий фанлар бўйича фалсафа докторлиги (PhD) дисс. – Т.: ТДШИ. 2016.
6. Абдусаломов Н. Ўзбекистоннинг кузатувчилик мақоми Евроосиё интеграсиясига ижобий таъсир кўрсатади. Халқ сўзи. 2021 й. 11 март.
7. https://uzbekembassy.com.my/uzb/news_press/xalqaro_ekspertlar_uzbekistonning_mintaqaviy_xavfsizlikni_taminlash_va_afgon_muammosini_hal_etishdagi_say_harakatlari_haqida.html
8. Хўжаев А.Х. Китайский фактор в Центральной Азии. – Т. Фан. 2004., Алимов Р.М. Центральной Азия: общность интересов. – Т.: Шарқ. 2005., Хасанов У.А. Региональноя безопасность и национальные интересы (Центральноазиатский регион). – М. 2004., Параманов В.В. Геостратегия США в Центральной Азии.: Автореф. дис... конд. полт. наук. – Тошкент, 2002.

ISSN 3030-3230

UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI YARATISHDA MILLIY O‘ZLIGI ANGLASHI VA TARIXIY ONGNI RIVOJLANTIRISHNING FALSAFIY JIHATLARI

Miraxmedov Jaxongir Muxsinovich,
Qo‘qon davlat pedagogika instituti
katta o‘qituvchisi, f.f.d (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada Uchinchi Renessans poydevorini yaratish hamda jamiyatda izchil islohotlarni amalga oshirishda yoshlar milliy o‘zligi anglashi va tarixiy ongini rivojlantirishning falsafiy jihatlari tahlili qilingan. Shuningdek, O‘zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda yoshlar tarixiy ongi, ma’naviy-axloqiy tarbiyasining konseptual asoslari va uni amalga oshirishda strategik vazifalari atroflicha o‘rganilgan.

Kalit so‘zlari: Uchinchi Renessans, Birinchi va Ikkinchi Renessans, Yangi O‘zbekiston, ma’naviy-ma’rifiy ishlar, milliy o‘zligini anglash, tarixiy ong, davlat siyosati, tarix falsafasi, ma’naviy qadriyat, g‘oyaviy-mafkura,ta’lim tizimi.

Ushbu maqolada O‘zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda yoshlar tarixiy ongi, ma’naviy-axloqiy tarbiyasining konseptual asoslarining bugungi holatlari, milliy tarbiya tizimi samaradorligini ta’minlashning turli darajalari, maqsadlariga mos uslub va vositalari ilmiy tadqiq qilingan.

“Renessans” so‘zi – fransuzcha “Renaissonce”, italyancha – “Rinascimento” – qayta yuzaga kelmoq, yangidan tug‘ilmoq, qayta tirilish, uyg‘onish – degan ma’nolarni anglatadi. Birinchi Sharq Uyg‘onish davri – IX-XII asrlarda mintaqamizda yuz bergan «Ma’rifiy Renessans» hisoblanadi. Birinchi Ma’rifiy Uyg‘onish davrida buyuk allomalar, qomusiy bilim sohiblari, mashhur mutafakkirlar yetishib chiqqan. “Ikkinchi Sharq Uyg‘onish davri – XIV-XVI asrlardagi «Temuriylar Renessansi»dir. Bunda Amir Temur bunyod etgan ulug‘ saltanatning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Sohibqiron bobomiz ilm-fan va madaniyat ravnaqiga keng imkoniyatlar yaratgan, din peshvolari, olimlar, san’atshunoslar, yozuvchilar, shoirlarga alohida g‘amxo‘rlik ko‘rsatgan. Bu ma’naviy-ma’rifiy siyosat natijasida Sharq Uyg‘onish davrining ikkinchi bosqichiga asos solingan.

Xalqimizning asriy an’analari va zamonaviy demokratik jamiyat tamoyillari asosida ma’rifatparvar davlat barpo etish va yangi ma’naviy makonni yaratish, Yangi O‘zbekistonni jahon ilm-fani va madaniyati markazlaridan biriga aylantirish, aholining islohotlarga daxldorlik tuyg‘usini va uning bu yo‘ldagi safarbarlik ruhini yanada kuchaytirish orqali “Yangi O‘zbekiston – Uchinchi Renessans” g‘oyasini amalga oshirish mumkin.

O‘zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda yoshlar tarixiy ongi, ma’naviy-axloqiy tarbiyasining konseptual asoslari va uni amalga oshirishda strategik vazifalari atroflicha o‘rganilgan.

Adabiyotlar tahlili.“Uchinchi Renessansni XX asrda ma’rifatparvar jadidlar amalga oshirishlari mumkin edi. Nega deganda, bu fidoyi va jonkuyar zotlar butun umrini milliy uyg‘onish g‘oyasiga bag‘ishlab, o‘lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni g‘aflat botqog‘idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etganlar. Shu yo‘lda ular o‘zlarining aziz jonlarini ham qurbon qilganlar hamda “Ilmdan boshqa najot yo‘q va bo‘lishi ham mumkin emas” degan hadisi sharifni hayotiy e’tiqod deb bilganlar. Milliy istiqlol, taraqqiyot va farovonlikka, avvalo, ma’rifat orqali, dunyoviy va diniy bilim, zamonaviy ilm-hunarlarni chuqur egallash orqali erishish mumkin, deb hisoblaganlar.

Bu davrda Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydulla Xo‘jaev, Abdurauf Fitrat, Ibrat domla, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir, Ashurali Zohiriy, Hoji Muin va boshqa yana yuzlab ulug‘ insonlar Milliy uyg‘onish va Millatparvarlik harakatining oldingi saflarida turgan. Ular yangi usul maktablari bilan bir qatorda, odamlarning dunyoqarashi va turmush

tarzini o‘zgartirishga qaratilgan gazeta-jurnallar, nashriyot va kutubxonalar, teatrlar tashkil etganlar”. [1]

Birinchi va Ikkinchi Renessans mamlakatimizda qachon bo‘lib o‘tganligi, ana shu Renessanslar tufayli bizning xalqimiz jahon tamadduniga qanday hissa qo‘shganligi Prezident Sh.Mirziyoevning 1-oktabr - O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida to‘la va mukammal sharhlab berildi. Unda shunday deyilgan: “Biz keng ko‘lamli demokratik o‘zgarishlar, jumladan, ta’lim islohotlari orqali O‘zbekistonda yangi Uyg‘onish davri, ya’ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o‘zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik. Bu haqda gapirar ekanmiz, avvalo, uchinchi Renessansning mazmun-mohiyatini har birimiz, butun jamiyatimiz chuqur anglab olishi kerak”. [2]

Prezidentimiz o‘z so‘zida davom etarkan, quyidagi fikrlarni davom ettirdi: “Men yuqorida Aristotelning fikrlarini bejiz eslamadim. Hammangizga yaxshi ma’lum, antik davrda Yunonistonda yongan ilm mash’alasi to‘qqizinchi – o‘n ikkinchi asrlarda Markaziy Osiyo hududida qayta porladi. Bu davrda yurtimiz hududida birinchi Renessans yuzaga keldi va u butun dunyo tan oladigan mashhur daholarni yetishtirib berdi. Xususan, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamahshariy singari o‘nlab buyuk allomalarimizning jahonshumul ilmiy-ijodiy kashfiyotlari umumbashariyat taraqqiyoti rivojiga beqiyos ta’sir ko‘rsatdi. “Islom madaniyatining oltin asri” deb e’tirof etiladigan bu davrda ona zaminimizdan yetishib chiqqan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Abul Mu’in Nasafiy kabi ulug‘ ulamolar butun musulmon olamining faxru iftixori va cheksiz g‘ururi hisoblanadi. O‘n beshinchi asrda Sohibqiron Amir Temur bobomiz asos solgan va uning munosib avlodlari davom ettirgan muhtasham saltanat, yurtimizda ikkinchi Uyg‘onish, ya’ni ikkinchi Renessans davrini boshlab berdi. Bu davrda Qozizoda Rumiy, Mirzo Ulug‘bek, G‘iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi singari benazir olimlar, Lutfiy, Sakkokiy, Hofiz Xorazmiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi mumtoz shoir va mutafakkirlar maydonga chiqdi. Sharafiddin Ali Yazdiy, Mirxond, Xondamir kabi tarixchilar, Mahmud Muzahhib, Kamoliddin Behzod singari musavvirlar, ko‘plab xattot va sozandalar, musiqashunos va me’morlarning shuhrati dunyoga yoyildi”. [3]

Tahlillar va natijalar. “Yangi O‘zbekiston – bu ibora Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan va bugungi kunda butun xalqimizning qalbidan chuqur joy olgan, umummilliy harakatga aylanib borayotgan ezgu g‘oyadir. Bu g‘oya zamirida: bir tomondan, bugungi va ertangi avlodlarimizning “Uchinchi Renessans” poydevorini qo‘yishdek ezgu maqsad-muddaolari, ikkinchi tomondan, milliy tariximizda Birinchi va Ikkinchi Uyg‘onish davrlariga asos solgan ulug‘ ajdodlarimiz, alloma bobolarimizning orzu-intilishlari va armonlari, uchinchi tomondan, bunyodkorlik, yaratuvchanlik, har doim o‘qish va izlanishga da’vat o‘z mujassamini topgan. Donishmand xalqimiz har ikki Renessans davrida jahonning eng ilg‘or, taraqqiy etgan xalqlari qatorida bo‘lgani barchamizga ulkan g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi

Darhaqiqat, Buyuk ipak yo‘lining chorrahasida joylashgan O‘zbekistonda ham azaldan yuksak sivilizatsiya va madaniyat o‘choqlaridan biri bo‘lganini ko‘ramiz. O‘zbek xalqining boy ilmiy-madaniy, tarixiy merosi, qadimiy yozuvlar, bebaho tarixiy me’moriy obidalar, nodir qo‘lyozmalar, turli osori atiqalar davlatchilik tariximizning uch ming yillik teran ildizlaridan dalolat beradi. Shunday ekan har ikkala Uyg‘onish davrida ham eng muhim jihat — davlatning e’tibori, mamlakat boshqaruvida olib borilgan odilona va oqilona siyosat, ta’lim-tarbiya ustuvor bo‘lgan. Bundan tashqari, insonlarda yuksak axloq, ilm-fanga tashnalik bilan birga, borliq sirlarini ochish va yangi ilm yaratishga ishonch kuchli bo‘lgan.

O‘zbek xalqining milliy o‘zligini anglash va tarixiy ongini shakllantirish masalasi bir qator holatlar tufayli ko‘p qirrali va o‘ziga xosdir.

Fikrimizcha, milliy o‘zligini anglash va tarixiy ongini shakllantirishda asosiy muammolari quyidagilardan iborat bo‘lgan:

1. **davlat, jamiyat va insonning ma’naviy, tarixiy ongini shakllanishini tushuntirish;**
2. **turli fuqarolik jamiyati institutlari va ijtimoiy harakatlarini paydo bo‘lishi va rivojlanishini tushuntirib berish;**
3. **milliy o‘zligini anglash va tarixiy ongini shakllantirish voqeliklarining o‘ziga xoslik asoslarini fosh qilish;**

ISSN 3030-3230

4 tarixiy haqiqatlarni aniqlashga qaratilgan muammolarni tushunish va hal qilish uchun o‘tmish manbalaridan samarali foydalanish va boshqalar.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan 2017 yilning fevral oyida qabul qilingan **“2017-2021 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining rivojlanish Strategiyasi”** davlat va jamiyatning ijtimoiy va huquqiy munosabatlari, ayniqsa, ma’naviy-ma’rifiy, ijtimoiy-madaniy sohalarni isloh qilish va rivojlantirishning yangi bosqichi sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Bilimli va yuksak tafakkurli insonlar va yoshlar Uchinchi Renessans ijodkorlari hisoblanadi. Uchinchi Renessans yaratish bir yoki ikki kishining ishi emas. Uni barpo etish uchun mamlakatning har bir vakili — xoh yosh bo‘lsin, xoh katta — barcha barobar harakat qilmog‘i lozim. Renessans yaratishga ishonish bilan birga, qattiq harakat ham qilish shart. Birinchisi, aniq hayotiy ehtiyojlarni qondirish zarurati asosida yuzaga keladigan g‘oya, fikr, mulohaza, taxmin, farazga ishonchdan iborat ma’naviy-ruhiy holat.

Ma’lumki, har qanday fikr ham g‘oya bo‘la olmaydi. Uning g‘oyaga aylanishi uchun odamlarni birlashtiradigan, o‘z orqasidan ergashtira oladigan xususiyat bo‘lishi lozim. Demak, Prezidentimizning “Uchinchi Renessans poydevorini yaratamiz”, degan fikri g‘oyaga aylanishi, ro‘yobga oshishi uchun, avvalo, barchamiz birdek ishonishimiz, targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borib, odamlarning dunyoqarashida ana shu g‘oyaga ishonchni, ma’naviy-ruhiy holatni shakllantirishimiz lozim. Chunki muayyan dunyoqarash asosidagi g‘oyalar, timsollarni ixtiyoriy yoki an’ana tufayli haqiqat sifatida qabul qilgan hamda muayyan jamoa oldida shu ishonchiga sodiq qolishga ichki his-tuyg‘u bilan iqror bo‘lgan inson o‘sha g‘oyalarda nazarda tutilgan munosabatlarning tashuvchisi, qadrlovchisiga aylanib, boshqalarni ham shunga da’vat qiladi.

O‘zbekistonda XXI asrda Uchinchi Renessans davri barpo etilishiga ishongan odam qalban yurtimizni avvalgi Renessanslar davrida bo‘lgani kabi, eng taraqqiy etgan mamlakatlar qatorida ko‘radi. Yurtimizning kelajagi nima sababdan buyuk bo‘lishi, nega bunchalik ishonch bilan aytilayotgani haqida tushunchasi bor, shuning uchun ham u xulosa chiqara oladi. Ikkinchi Renessans poydevorini yaratishda bosh bo‘lgan Amir Temur ishni dastlab farzandlar tarbiyasidan boshladi. U yoshlar tarbiyasi borasida qator muhim ishlarni amalga oshirdi.

Uchinchidan, davlat kelajagi bo‘lgan yoshlarni yuksak axloqiy fazilatlarga ega, insonparvar, jismonan baquvvat, vatanni sevadigan, harbiy bilimga ega, milliy g‘ururli etib tarbiyalashni asosiy talablardan deb bildi. Fuqarolarni ham shunga ishontira olgan Sohibqiron mamlakatning ma’naviy, madaniy, ilmiy qudratini yuksaltirishga erishdi. Bu holat mamlakatda ma’naviy boy insonlarning tarbiyalanishiga zamin yaratdi.

Bizning fikrimizcha, Uchinchi Renessansning asos ustunlari bo‘lmish pedagoglar, tarbiyachilar, o‘qituvchi, ziyolilar hamda ota-onalarga katta imkoniyat va sharoitlardan foydalanib, milliy o‘zligini anglash va tarixiy ongini shakllantirishda ma’naviyati yuksak avlodni tarbiyalashimiz va iymonni qaror toptirish choralarini ko‘rishimiz kerak. Avvalo, har bir shaxs, ayniqsa, yosh avlodni Uchinchi Renessans barpo etilishiga ishontirishimiz kerak, deb o‘ylaymiz.

“Bizning uch ming yillik davlatchilik tarixiga, boy va betakror madaniyatga ega bunyodkor xalqimiz bor. Qirq millionga yaqinlashib borayotgan bugungi O‘zbekiston xalqining taqdiri va istiqboli, farovon hayoti uchun barchamiz mas’ul va javobgarmiz. Shu sababdan yurtimizda tinchlik va barqarorlikni asrash va mustahkamlash bundan buyon ham eng muhim vazifamiz bo‘lib qoladi”. [4]

Fikrimizcha, biror kishi milliy o‘zligini anglash va tarixiy ongini shakllantirishida tarixni shunchaki o‘tmish, voqealar va faktlar to‘plami sifatida ko‘rsa, u tarixiy ongdan mahrum bo‘ladi. Boshqacha aytganda, tarixiy bilimga ega bo‘lish tarixiy ongga ega bo‘lishni anglatmaydi. Tarixiy ongga ega bo‘lish tarixiy bilimlarga ilmiy tafakkur darajasida chiqa olishdir. Bu mantiqiy talqin bilan asrlar, ming yillar davomida aytilgan, cheksiz tuyulgan hodisalar to‘pini ochib berishni anglatadi.

Atoqli o‘zbek ma’rifatparvari Abdurauf Fitrat tarix–millatlarning o‘tmishini, taraqqiyotini hamda tanazzulining sabablarini o‘rgatadigan ilmdir[5] deya ta’riflasa, Maxmudxo‘ja Behbudiy tarix ko‘p ahamiyatli va foydali bir narsadir[6] deydi.

Uchinchi Renessans poydevori ta’lim tizimining quyi bo‘g‘ini – maktabgacha ta’lim

muassasasida va umumta'lim maktabida qo'yilib, professional va oliy ta'limda yanada mustahkamlanadi. Shuning uchun mamlakatimizda ta'lim sohasidagi islohotlar yaxlit, ta'limning barcha bosqichlarini qamrab olgan holda amalga oshirilmoqda.

Yangi O'zbekistondagi islohot va o'zgarishlar jarayoni ortga qaytmaydigan tus olib, hal qiluvchi pallaga kirmoqda. Natijadorlik barcha uchun bosh talab, asosiy mezonga aylanmoqda.

Demak, Yangi O'zbekistonda – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda. **Barchamiz uchun Uchinchi Renessans masalasida quyidagilar alohida ahamiyat kasb etadi:**

1) Uchinchi Renessans merosiy vorislik;

2) Ajdodlardan ibrat olish;

3) Uchinchi Renessans tamalini asosli qo'yish;

4) Uchinchi Renessans davrini rivojlantirishda raqamli texnologiyalar taraqqiyoti tendensiyalari bilan hamohangligini ta'minlash.

Uchinchi Renessans davrida quyidagilar e'tibor qaratish kerak:

a) Uchinchi Renessans 1900-2020 yillar davomida jadid ma'rifatparvarlari tomonidan boshlangan va mustaqil O'zbekistonda 2020 yildan boshlab barpo etiladi;

b) Uchinchi Renessans Birinchi va Ikkinchi Renessanslarning mantiqiy davomi hisoblanadi;

c) Uchinchi Renessansda asosiy g'oyalarni Ilm, Milliy Uyg'onish va Taraqqiyot tashkil qiladi;

d) Bu g'oyalar zamonaviy texnologiyalarni ta'sir etishi kerak;

y) Uchinchi Renessans rivoji xalqimizning ong-u shuuridagi g'oyaviy-mafkuraviy o'zgarishlar asosida amalga oshirilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, Uchinchi renessans mamlakatimizdagi tarixiy va tadrijiy an'analarni davom ettira borib, fan – texnika, raqamli texnologiyalar,ma'rifat, ma'naviyat, adabiyot va san'at kabi ko'plab sohalarda yangicha yondashuvlarni talab etadi. Uchinchi Renessansning asos ustunlari bo'lmish pedagoglar, tarbiyachilar, o'qituvchi, ziyolilar hamda ota-onalarga katta imkoniyat va sharoitlardan foydalanib, milliy o'zligini anglash va tarixiy ongini shakllantirishda ma'naviyati yuksak avlodni tarbiyalashimiz va iymonni qaror toptirish choralarini ko'rishimiz kerak. Avvalo, har bir shaxs, ayniqsa, yosh avlodni Uchinchi Renessans barpo etilishiga ishontirishimiz kerak, deb o'ylaymiz. Bugun Yangi O'zbekistonda "Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari" bosh g'oyasiga tayanib, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish vazifasi qo'yilgan ekan, uni bajarish uchun birgina rahbar, pedagog yoki tarbiyachi emas, balki shu Vatan barchamizniki, deya ko'nglida vatanparvarlik, xalqparvarlik, insoniylik fazilatlari mujassam, iymon-e'tiqodi butun bo'lgan har qanday shaxs targ'ibotchi bo'lishi lozim.

Аннотация. В данной статье анализируются философские аспекты развития национального самосознания и исторического сознания молодежи при создании фундамента этапа третьего Ренессанса и осуществлении последовательных реформ в обществе. Также детально изучены концептуальные основы исторического сознания молодежи, духовно-нравственного воспитания и стратегические задачи его реализации при создании фундамента третьего Ренессанса в Узбекистане.

Ключевые слова: третий Ренессанс, первый и второй Ренессанс, новый Узбекистан, духовно-просветительская работа, национальное самосознание, историческое сознание, государственная политика, философия истории, духовная ценность, идейно-идеология,система образования.

ISSN 3030-3230

Annotation. This article analyzes the philosophical aspects of the development of the national identity and historical consciousness of young people in the creation of the foundation of the third Renaissance and the implementation of consistent reforms in society. Also, when creating the foundation of the third renaissance in Uzbekistan, the historical consciousness of young people, the conceptual foundations of spiritual and moral education and strategic tasks in its implementation are studied in detail.

Key words: third Renaissance, first and Second Renaissance, New Uzbekistan, spiritual and educational works, National Identity Awareness, historical consciousness, public policy, philosophy of history, spiritual value, ideological-ideology,educational system.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Saidov. Yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renessans: ma’no-mohiyati, zarurati va mushtarakligi. // 13.01.2024. https://uza.uz.

2.Prezident Shavkat Mirziyoev 1 oktyabr – O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. // 01.10. 2020. www.president.uz

3.Prezident Shavkat Mirziyoev 1 oktyabr – O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. // 01.10. 2020. www.president.uz

4.Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: Ma’naviyat, 2008. –B. 4.

5.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis palatalari a’zolari, siyosiy partiyalar va jamoatchilik vakillari bilan uchrashuvdagi nutqi. Yangilangan Konstitutsiyamiz Uchinchi renessansni barpo etish yo‘lida mustahkam huquqiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi // 08.05.2023. https://president.uz

6. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. IV jild. – Toshkent: Ma’naviyat, 2010. - B. 36.

7.Maxmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. Tuzatilgan va to‘ldirilgan 2-nashr. – Toshkent: Ma’naviyat, 1999. - B. 178

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY GVARDIYASIDA MOLIYAVIY NAZORATNI AMALGA OSHIRISH USLUBIYOTI

Djaydakbayev Murat Turgunovich,
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi
Nazorat-taftish boshqarmasi boshlig‘i, I.f.b.f.d (PhD)

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasida moliyaviy nazoratni amalga oshirishning uslubiyoti tahlil qilingan va nazorat tadbirlarini o‘tkazishda moliyaviy nazorat uslubiyotini takomillashtirish bo’yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: moliyaviy nazorat, moliyaviy nazorat uslubiyoti, moliyaviy nazorat tadbirlarini rejalashtirish bosqichlari, moliyaviy nazorat usullari.

Davlat moliyaviy resurslarini samarali boshqarish hamda budjet mablag‘laridan maqsadli va oqilona foydalanish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda moliyaviy nazorat tizimi faoliyatining yuqori samaradorligini hamda moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni ta’minlash muhimdir.

Respublikamizda bozor munosabatlarini rivojlantirish sharoitida samarali moliyaviy nazoratni shakllantirish davr talabidir, moliyaviy nazoratni takomillashtirish esa uning asosi hisoblanadi. Bu borada O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoev quyidagilarni ta’kidlaydi: “Albatta, Davlat budjeti o‘lchovsiz emas, mablag‘larni qattiq tejash, belgilangan maqsad uchun va oqilona ishlatishni ta’minlash zarur. Bu – hammaga ravshan va rad etib bo‘lmaydigan haqiqatdir”[1].

Shundan kelib chiqib, Milliy gvardiya moliyaviy nazorat xizmati tomonidan bo‘linmalarda moliyaviy nazorat tadbirlari o‘tkazilishida amaliy jihatlarni hisobga olib tahlil qilish zarur.

Adabiyotlar sharhi. Moliyaviy nazoratga metodologik yondashuvlar sohasidagi nazariy tadqiqotlarni tahlil qilishda iqtisodchi olimlarning qarashlarini o‘rganish va bu borada olib borilgan ilmiy izlanishlar bilan yaqindan tanishish lozim.

L.A.Maysigovaning fikriga ko‘ra nazorat doktrinasi amaldagi qonunchilikda aniq belgilangan yagona tamoyillarni o‘z ichiga olishi, tafovutlar va ikki tomonlama talqinlarga yo‘l qo‘ymasligi kerak va uning asosida yagona uslubiyotni ishlab chiqish va rivojlantirish zarur. Aks holda, ilmiy munozaralar hech qachon nazariy doiradan tashqariga chiqmaydi va amaliy muammolarni hal qilish uchun foydasiz bo‘lib qoladi [2]. Bu bilan muallif nazorat tizimini ishlab chiqish va boshqarishda tizimli yondashuvni taklif qiladi.

A.V.Grigorev va A.G. Samsonovlarning fikriga ko‘ra nazorat tartib-qoidalarining muayyan vazifalarini hal qiluvchi moliyaviy nazorat usullari, shuningdek, texnik usullar majmui moliyaviy nazorat uslubiyotini tashkil etadi. Bundan tashqari, nazorat obyekti uchun belgilangan ko‘plab baholash mezonlari moliyaviy nazorat usulining bir qismi hisoblanadi [3].

T.A.Pashkova nazorat organlari tomonidan moliyaviy nazoratning turli usullarini amalga oshirish uslubiyoti tashqi moliyaviy nazoratning tegishli standartlarida mustahkamlangan bo‘lishi lozimligini, hamda, standartlar mamlakat budjeti tizimining barcha darajalarida nazorat vakolatlarini amalga oshirish xususiyatlarini ajratib turadigan darajada farqlanishi kerak ekanligini ta’kidlaydi [4]. Uning fikrida boshqaruvning turli darajalarida moliyaviy operatsiyalarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga oladigan tashqi moliyaviy nazorat standartlarini ishlab chiqish va qo‘llash muhimligi ta’kidlangan. Bu moliya ustidan samaraliroq nazoratni amalga oshirishga yordam beradi va moliya sektorida shaffoflik va risklarni boshqarishni, hamda yuqori samaradorlikni ta’minlaydi.

D.Shaymardonovaning fikricha budjet

ISSN 3030-3230

tashkilotlarida budjet va budjetdan tashqari mablag‘lar sarfini nazorat qilish, ulardan oqilona foydalanishni ta’minlash bevosita hisob ishlarini tashkil qilish va yuritish orqali amalga oshiriladi. Budjet tizimida bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlar budjet tashkilotlarining daromadlar va xarajatlar smetalari ijrosi hisobi uslubiyotini yanada takomillashtirishni talab etadi [5]. Uning fikridan budjet tashkilotlarining hisob yuritish tahliliy bir nechta xarajatlar smetalari asosida topshiriladigan hisobotlari, moliyalashtirish manbalari ko‘p tarmoqliligidan kelib chiqib, budjet tashkilotlarida ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatini tashkil etishning ahamiyati yanada yuqoriligini ko‘rish mumkin.

S.U.Mexmonov, mamlakatimizda budjet tizimi budjetlari ijrosi moliyaviy nazoratida ichki audit faoliyatni o‘rni va ahamiyati ortib bormoqda. Budjet tashkilotlarida ichki audit faoliyati xizmati uchun alohida Ichki audit standartlari qabul qilinishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ichki audit faoliyati audit standartlari asosida tashkil qilinishi audit o‘rganishlarini rejalashtirishga, nazorat va tekshirish turiga, nazorat qilish uchun kerakli ma’lumotlarni to‘plashga, tizimlashtirishga yagona yondashuv ta’minlanadi hamda ichki audit faoliyati samaradorligini baholash imkoniyat yaratiladi deb ta’kidlagan [6].

Moliyaviy nazorat uslubiyotini o‘rganish samarali moliyaviy boshqaruvning ajralmas qismi bo‘lib, muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan moliyaviy nazorat uslubiyotini yanada chuqur tadqiq qilish va takomillashtirish moliyaviy boshqaruv sohasi oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani tahlil qilishda bir qator normativ-huquqiy hujjatlar, mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari o‘rganildi hamda mavzuni yoritishda tahlil, taqqoslash, ilmiy abstraksiya va umumlashtirish kabi tadqiqot usullari hamda umumiy iqtisodiy usullar: tasniflash, guruhlash va boshqalardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Zamonaviy jamiyatda nazorat aniq iqtisodiy muammolarni hal qilishda tartibga soluvchi sifatida tobora ko‘proq foydalanilmoqda. Ammo shuni ta’kidlash kerakki, hozirda moliyaviy nazorat samaradorligi qoniqarli darajada emas. Bunday holatning sabablaridan biri nazorat faoliyatini amalga oshirish uchun yagona qonunchilik va uslubiy asoslarning to‘liq emasligi hisoblanadi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasida moliyaviy nazorat xizmati Milliy gvardiya Qo‘mondoni tomonidan 2020-yilning 20-aprelida 88-son bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Nazorat-taftish boshqarmasi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida” buyrug‘iga muvofiq o‘z faoliyatini amalga oshirmoqda. Nizom moliyaviy nazorat xizmatining maqomi, vazifalari va funksiyalarini, huquqlari va javobgarligini hamda faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

Shuningdek, Milliy gvardiya Qo‘mondonining 2022-yil 18-yanvardagi 18-son bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bo‘linmalarida moliyaviy nazoratni tashkil etish haqida”gi buyrug‘i qabul qilingan va ushbu buyruq bilan “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Nazorat-taftish boshqarmasi tomonidan taftish va tekshiruvlar o‘tkazish bo‘yicha Qo‘llanma” hamda “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bo‘linmalari rahbarlari va ichki tekshiruv komissiyasi tomonidan kassadagi pul mablag‘lari qoldiqlarini tekshirish bo‘yicha Uslubiy ko‘rsatma” tasdiqlangan. Qo‘llanma va Uslubiy ko‘rsatma Milliy gvardiya bo‘linmalarida moliya-xo‘jalik faoliyatni taftish va tekshirishning asosiy usul hamda shakllarini belgilab beradi.

Shundan kelib chiqib, biz Milliy gvardiya moliyaviy nazorat xizmati tomonidan bo‘linmalarda moliyaviy nazorat tadbirlari o‘tkazilishi borasida amaliy jihatlarni hisobga olgan holda tahlil qilishni lozim topdik.

Milliy gvardiya moliyaviy nazorat xizmati markaziy devonning tarkibiy bo‘linmasi hisoblanadi va bevosita Milliy gvardiya Qo‘mondoniga bo‘ysunadi. Moliyaviy nazorat xizmatiga Milliy gvardiya Qo‘mondoni tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod qilinadigan boshliq rahbarlik qiladi. Moliyaviy nazorat xizmati harbiy xizmatchilari, xodimlari va xizmatchilari boshliq taklifiga binoan Milliy gvardiya qo‘mondoni

tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

Moliyaviy nazorat xizmati o‘z faoliyatini Milliy gvardiya Qo‘mondoni tomonidan tasdiqlanadigan yillik nazorat tadbirlari Dasturi asosida amalga oshiradi. Milliy gvardiya bo‘linmalarining moliya-xo‘jalik faoliyatini Dasturdan tashqari nazorat tadbirlarini o‘tkazish Milliy gvardiya Qo‘mondonining va moliyaviy nazorat xizmati boshlig‘ining qaroriga asosan amalga oshiriladi [7].


Milliy gvardiya bo‘linmalarida moliyaviy nazorat xizmati tomonidan o‘tkazilgan nazorat tadbirlari natijalari bo‘yicha har chorakda Milliy gvardiya Qo‘mondoniga axborot-tahliliy ma’lumotlar taqdim etiladi. Ushbu ma’lumotlar natijalari asosida barcha bo‘linmalar ko‘rsatkichlari tahlil qilinib, bo‘linmalarda o‘tkazilishi lozim bo‘lgan nazorat tadbirlarining umumiy yillik rejasi tahlili shakllantiriladi.

O‘tkaziladigan nazorat tadbirlarini rejalashtirishdan oldin nazorat obyektining xarakteri, davlat budjetidan ajratilgan mablag‘lar miqdori, moliya-xo‘jalik faoliyati hajmi, bo‘linmalarni jangovar shayligini ta’minlashning umumiy moliyaviy tizimidagi roli, o‘rni, taftish davri, ichki nazorat tashkil qilinishi, tekshirish o‘tkazilgunga qadar aniqlangan moliyaviy huquqbuzarliklar miqdori to‘g‘risidagi ma’lumotlar ko‘riladi. Shundan so‘ng bajariladigan tadbirlar ketma-ketligini aniqlash uchun dastur tuziladi hamda bo‘linmada o‘tkaziladigan nazorat tadbirining tashkil etilishi va o‘tkazilishi jarayoni amalga oshiriladi.

Moliyaviy nazorat xizmati tomonidan nazorat tadbirlarini o‘tkazish quyidagi 6 bosqichdan iborat (1-rasm).

xulosa qismida aniqlangan moliyaviy huquqbuzarliklar, boshqa xato-kamchiliklar yoritiladi, ayrim hollarda alohida taklif va tavsiyalar beriladi. Ularni kengroq yoritamiz:

- **tashkiliy bosqich** – nazorat obyektiga tegishli boshqa boshqaruv organlariga so‘rovlar yuborish orqali moliyaviy nazorat xizmatida mavjud bo‘lgan nazorat obyekti to‘g‘risidagi, shuningdek tashqi manbalardan zarur hujjatlar va ma’lumotlar to‘plamini shakllantirishdan iborat;
- **dastlabki o‘rganish va tekshirish bosqichi** – moliyaviy nazorat xizmatida shakllantirilgan nazorat obyektiga oid hujjat va ma’lumotlarni (kirim-chiqim, qaytarilgan pul mablag‘lari va qat’iy hisobot blanklari, so‘nggi taftish o‘tkazilgan yil boshidan navbatdagi taftish boshlangunga qadar davrda yil boshidan bo‘lgan davrda olingan moddiy vositalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar), shuningdek nazorat obyektidan va unga tegishli bo‘lgan boshqaruv organlaridan so‘rov orqali olingan qo‘shimcha ma’lumotlarni chuqur o‘rganish va tahlil qilishdan iborat;
- **nazorat obyektida o‘rganish va tekshirish bosqichi** – ushbu bosqichda moliyaviy va boshqa operatsiyalarni aks ettiruvchi haqiqiy hujjatlarni o‘rganish natijalari bo‘yicha bevosita natijalar shakllantiriladi;
- **nazorat tadbirlari natijalarini shakllantirish bosqichi** – nazorat tadbirlarining barcha natijalarini tekshiruvning jamlovchi dalolatnoma shaklida umumlashtirish va tizimlashtirish hamda nazorat obyekti rahbariyatida jamlovchi va ayrim oraliq dalolatnomalariga e’tirozlar uchun taqdim qilish (agar mavjud bo‘lsa);
- **yakuniy bosqich** – nazorat tadbirlari natijalari bo‘yicha aniqlangan kamchiliklarni



1-rasm. Nazorat tadbirlarini rejalashtirish bosqichlari

Olti qismga ajratilgan nazorat tadbirlari Milliy gvardiya moliyaviy nazorat xizmati tomonidan Milliy gvardiya bo‘linmalarida o‘tkaziladi. Bu bosqichlarni boshqa tekshiruv o‘tkazishdan farqli jihatlari shundan iboratki, bartaraf qilish va kelgusida ularga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish orqali choralar ko‘rish, ular asosida tekshirilgan nazorat obyektlari rahbarlariga moliyaviy nazorat xizmati taqdimnomalarini tayyorlash va

ISSN 3030-3230

yuborishdan iborat. Jinoyat alomatlari mavjud bo‘lgan ayrim materiallar belgilangan tartibda huquqni muhofaza qilish organlariga chora ko‘rish uchun yuboriladi.

Monitoring va ijro nazorati bosqichi – tekshirilgan nazorat obyektlaridan moliyaviy nazorat xizmati taqdimnomalarini bajarilishi va huquqni muhofaza qiluvchi organlardan o‘tkazilgan nazorat tadbirlari materiallari bo‘yicha ko‘rilgan choralar to‘g‘risida tizimli ravishda ma’lumot olib borishdan iborat. Ushbu bosqichda moliyaviy nazorat xizmati taqdimnomasini bajarishdan bo‘yin tovlagan yoki o‘z vaqtida bajarmagan mansabdor shaxslar intizomiy javobgarlikka tortilishlari mumkin.

Nazorat tadbirlarining xarakteri va o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, moliyaviy nazorat xizmati rahbari bilan kelishilgan holda tashkiliy bosqich, dastlabki o‘rganish va tekshiruv bosqichi hamda nazorat obyektida o‘rganish va tekshirish bosqichlari bir vaqtning o‘zida birlashtirilishi va bajarilishi mumkin.

Shuningdek ijro nazoratida taklif va tavsiyalar ijrosi o‘rganiladi. Buning natijasida taklif va tavsiyalarning bo‘linma uchun keltirgan foydali tomonlari bilan birga, mavjud muammolari, boshqa xato-kamchiliklari bartaraf etiladi. Bo‘linmaning ichki nazorat tizimi va mas’ul shaxslarning mas’uliyati hamda javobgarligi ham ushbu oxirgi bosqichda ko‘rinadi.

Taftish va tekshiruvni rejalashtirish, avvalo, nazorat tadbirlari dasturi, rejani puxta tuzishdan boshlanadi. Milliy gvardiya Qo‘mondonining 2022-yil 18-yanvardagi 18-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bo‘linmalarida moliyaviy nazoratni tashkil etish haqida”gi buyrug‘i bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Nazorat-taftish boshqarmasi tomonidan taftish va tekshiruvlar o‘tkazish bo‘yicha Qo‘llanma”sida Milliy gvardiya bo‘linmalarida moliya-xo‘jalik faoliyatni hujjatli taftish (tekshiruv) o‘tkazishning namunaviy dasturlari va rejasi belgilab qo‘yilgan.

Ushbu namunaviy dasturlar va rejalar asosida o‘tkaziladigan moliyaviy nazoratni rejalashtirish jarayonini ko‘rib chiqamiz.

Har bir bo‘linmada moliyaviy nazorat xizmati faoliyatini boshlashdan oldin dastur, reja tuzadi. Taftishni rejalashtirish risklarni baholashni o‘z ichiga oluvchi va taftish qilish jarayoni mohiyati, o‘tkazish muddati hamda hajmini belgilab beruvchi taftish rejasini ishlab chiqishdan iborat. Shuningdek, moliyaviy nazorat xizmati taftishchilari nazorat obyektida kasb etikasi prinsiplariga rioya qilishlari, har tomonlama asoslangan takliflar kiritishlari, o‘zlariga yuklatilgan vazifalarni bajarishga sidqidildan va vijdonan yondashishlari, ishga professional munosabatda bo‘lishlari kerak. Taftishchi o‘z faoliyatida umume’tirof etilgan axloq normalari va kasbiy etika tamoyillariga rioya qilish hamda unga yuklatilgan vazifalarni bajarishda xolislik va nazorat obyektidan mustaqil bo‘lishi zarur.

Taftish mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, mavjud taftishchilar bilimi va tajribasi xususiyati hamda ularni malakasini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojni hisobga olgan holda, moliyaviy nazorat xizmatining eng samarali tarkibi tayinlanadi.

Agar, bir nafardan ortiq taftishchi jalb qilinsa, taftish guruhi maqsadlari, qo‘llanilish doirasi va tekshiruv hajmi, taftish o‘tkazish uslubiyoti, ko‘lami hamda taftish ichki nazorat tizimini baholashning boshqa turlarini muhokama qilish uchun rejalashtirilgan yig‘ilish o‘tkazadi.

Moliyaviy nazorat xizmati taftish o‘tkazish rejasida, taftish o‘tkazilish davomidagi bo‘linmaning tegishli huquqi va majburiyatlari, taftish jarayoni haqida umumiy qisqacha ma’lumot va taftishning asosiy bosqichlarida vaqt muddatlari keltirilgan bo‘ladi.

Fikrimizcha, taftish va tekshiruvni rejalashtirishda quyidagilar nazarda tutilishi kerak, ya’ni taftish muhim sohalarni qamrab olganligi, risklarning aniqlanishi, baholanishi va o‘z vaqtida hisobga olinishi hamda samaradorligi va natijadorligini ta’minlovchi tekshiruv samarali to‘g‘ri tashkil etilganligi va boshqarilishi, shuningdek, taftishning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi, tekshiruv faoliyatini boshqarilishi va nazorat qilinishi.

“Har bir auditorlik tekshiruvi, jumladan tekshiruvning maqsadlari, hajmi, bajarilish muddati va resurs taqsimlanishi kerak. Rejada tashkilotning strategiyalari, maqsadlari va tekshiruvga bog‘liq risklari ko‘rib chiqilishi kerak [8].

Fikrimizcha, Milliy gvardiya moliyaviy nazorat xizmati tomonidan kelgusi yil uchun nazorat tadbirlari Dasturini shakllantirishda nazorat obyektlarini nazorat tadbirlari Dasturiga kiritish uchun quyidagi tanlash mezonlariga ahamiyat beriladi:

- **ko‘lami bo‘yicha** – bajaradigan vazifalar xarakteri, moliya-xo‘jalik faoliyati hajmi, xarajatlar tuzilmasi;
- **tizimliligi bo‘yicha** – o‘tgan taftish davrida moliya-xo‘jalik faoliyatining ijobiy yoki salbiy holati.

Nazorat obyektining xarakteri va uning moliya-xo‘jalik faoliyati hajmidan, uning bo‘linmalarni jangovar shayligini ta’minlashning umumiy moliyaviy tizimidagi roli va o‘rni, hamda xarajatlar tuzilmasidan, bajariladigan vazifalar xarakteri va taftish davridan kelib chiqib har bir aniq holatda taftishga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish uchun amaliy faoliyatga, taftish materiallarini rasmiylashtirish va amalga oshirishga sarflanadigan aniq muddatni nazarda tutish zarur.

Taftish va tekshirishlarni o‘tkazishda muddatni qisqartirish ishdagi shoshma-shosharlikka, moliya-xo‘jalik faoliyatini tahlil qilishda jiddiy kamchiliklarga va oqibatda taftish va tekshirishlarni yuzaki o‘tkazilishiga olib keladi. “Yakuniy nazorat tarzidagi moliyaviy nazoratni amalga oshirish muddati o‘ttiz kalendar kundan oshmasligi lozim. Zarur hollarda muddati moliyaviy nazoratni tayinlagan organning rahbari yoki u vakolat bergan shaxs tomonidan uzaytirilishi mumkin” [9].

Moliyaviy nazorat xizmati tasdiqlangan yillik nazorat tadbirlari Dasturiga kiritilgan nazorat obyektlaridan tashqari Milliy gvardiya Qo‘mondonining qaroriga muvofiq alohida tekshiruvlarni o‘tkazishi mumkin. Bundan tashqari bo‘linmalarda kamomad, talon-tarojlik, o‘g‘irlik, noqonuniy o‘zlashtirish holatlari aniqlansa Dasturdan tashqari taftish va tekshiruvlar o‘tkazilishiga ruxsat beriladi.

Milliy gvardiya bo‘linmalaridan har bir bo‘linmaning o‘z xususiyatlaridan kelib chiqib rejalashtirish amalga oshiriladi. Chunki, bo‘linma faoliyati, risklar tahlili, ichki nazorat tizimini baholash va hajmi jihatidan bir-biridan farq qiladi.

Taftish vazifalari taftishning maqsadini izohlaydi. Taftishning asosiy vazifasi:

- **budjet mablag‘laridan foydalanish va budjet hisobini yuritilishi, budjet qonunchiligiga rioya etilishini;**
- **aniqlanayotgan moliyaviy huquqbuzarliklarga yo‘l qo‘yilishi, xarajatlar smetasi va shtatlar jadvallarini tuzilishi, tasdiqlanishi, ijro etilishi tartibi va budjet qonunchiligi buzilishi holatlarini chuqur tahlil qilishi va ularni sodir etish shart-sharoitlarini bartaraf qilish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqilishini;**
- **moliya qo‘shin xo‘jaligini tashkil etish va yuritish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarga rioya etilishini, harbiy xizmatchilarning pul ta’minoti, ish haqi, pensiya, stipendiya, nafaqa, kompensatsiya hamda ularga tenglashtirilgan boshqa to‘lovlarning to‘g‘ri tayinlanishini;**
- **autsorsing xizmati faoliyatini, shartnoma majburiyatlarini va pullik iste’molchilar bilan hisob-kitoblarning bajarilishini, moddiy boyliklarning to‘liq kirim qilinishini va harbiy-texnik vositalarning saqlanishini, ichki nazorat tizimining samaradorligini baholash mumkin.**

Rejalashtirishda risklar tahlili va ularni baholash tadbirlari amalga oshiriladi. Risklar tahlili asosan oldingi o‘tkazilgan tekshiruv, risk darajalari, bo‘linma uchun budjetdan ajratiladigan mablag‘lar miqdori, moliyaviy operatsiyalarning hajmiga bog‘liq holda baholanadi.

Milliy gvardiya moliyaviy nazorat xizmatining nazorat tadbirlari Dasturi nazorat obyekti faoliyati yuzasidan dastlabki o‘tkazilgan monitoring, profilaktika va masofaviy nazorat tadbirlari, moliyaviy hisob va hisobotlar, statistik ma’lumotlar va boshqa materiallarni o‘rganish natijalari asosida ishlab chiqiladi hamda Milliy gvardiya Qo‘mondoni tomonidan tasdiqlanadi. Bo‘linma moliya-xo‘jalik faoliyatini taftish o‘tkazishning namunaviy dasturi ishlab chiqiladi.

Taftish dasturida maqsadlar aniq va ravshan ifodalangan bo‘lib, taftish natijalariga ko‘ra ularga erishilganlik to‘g‘risida tegishli xulosalar chiqarish imkonini beradigan bo‘lishi kerak. Taftish maqsadidan kelib chiqib tekshiruv masalalari aniqlanadi va ular nazorat obyektida

ISSN 3030-3230

taftishchilar bajarishlari lozim bo‘lgan nazorat tadbiri mazmuni va hajmi bilan belgilanadi. Nazorat tadbiri to‘g‘ri taqsimlanishini tasdiqlash uchun taftish hajmini e’tiborga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Taftishga doir ma’lumotlarni yig‘ish. Bu bosqich bo‘linma faoliyati to‘g‘risida barcha moliyaviy va boshqa ma’lumotlardan iborat. Taftish guruhi (taftishchi) nazorat obyekti to‘g‘risida zarur bo‘lgan hujjat va ma’lumotlarni quyidagi manbalardan olib shakllantiradi:

- **normativ-huquqiy hujjatlar, statistik va hisobot ma’lumotlar;**
- **oldingi o‘tkazilgan taftish (tekshiruv) larning dalolatnomalari, xulosa va boshqa materiallari;**
- **nazorat obyektidan va unga aloqador bo‘lgan boshqa boshqaruv organlaridan qo‘shimcha so‘rov orqali olingan ma’lumotlar.**

Nazorat obyekti faoliyatiga nisbatan hujjat va ma’lumotlar bazasi shakllantirib borish mobaynida, uni o‘rganish va natijalarini tizimlashtirish amalga oshiriladi.

Nazorat obyektida ma’lumotlar yig‘ish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- **mas’ul shaxslar bilan dastlabki yig‘ilishni o‘tkazish;**
- **moliya-xo‘jalik faoliyatini taftish o‘tkazish dasturini ishlab chiqilishini yakunlash va tegishli taftish hujjatlarini tayyorlash;**
- **ma’lumotlarni tahlil qilish va baholash, dastlabki natijalar, taklif va tavsiyalarni qayd qilish, so‘nggi yig‘ilishni o‘tkazish.**

Dastlabki yig‘ilishda mas’ul shaxslarga barcha vazifalar va ularning bajarish ketma-ketligi belgilanadi. Bu bosqich asosan dalillarni yig‘ishdan iborat. Bu haqida ichki audit xalqaro standartlarining - 2310 - “Ma’lumotlarni aniqlash” bo‘limida: “Ichki auditorlar berilgan vazifaning maqsadlariga erishish uchun yetarli, ishonchli, tegishli hamda foydali bo‘lgan ma’lumotni aniqlashi kerak”.

Taftish dalillari jismoniy dalillar, hujjat dalillari, guvohlik beruvchi dalillar, tahliliy dalillardan iborat. Tahliliy dalillar quyidagi 2-rasmda ko‘rsatilgan munosabatlarga e’tibor qaratadigan tahliliy tekshirish usulini qo‘llashni ifodalaydi.

Bizning fikrimizcha, moliyaviy nazorat xizmati quyidagi umumiy qoidalar asosida taftish ma’lumotlari ishonchliligini baholaydi:

- **taftishchi tomonidan bevosita olingan taftish dalillari bilvosita taftish dalillariga ko‘ra ishonchliroq hisoblanadi;**
- **hujjat shaklidagi, ya’ni qog‘oz, elektron yoki boshqa axborot tashish vositalari yordamida taqdim etilgan taftish dalillari og‘zaki ravishda olingan dalillarga qaraganda ishonchlidir;**
- **asl hujjatlar yordamida taqdim etilgan taftish dalillari nusxa yoki suratga olingan hujjatlardan ishonchlidir.**

Bo‘linma moliya-xo‘jalik faoliyatini



2-rasm. Tahliliy tekshirish usullari

tahlil qilish va o‘rganish uchun ma’lumotlar zarur. Bo‘linmaning moliya-xo‘jalik faoliyati to‘g‘risida batafsil ma’lumotga ega bo‘lish uchun yuqoridagi hujjatlar zarur hisoblanadi, shuningdek,xizmat zaruriyati sababli boshqa ma’lumotlar so‘ralishi mumkin.

Ichki nazoratni baholash keyingi bosqich hisoblanib, undan maqsad taftish dalolatnomasiga kiritilishi mumkin bo‘lgan har qanday moliyaviy buzilishlarni, xato-kamchiliklarni aniqlash, nazorat riskini kamaytirishni belgilab olishdir.

Yuqoridagilarni inobatga olib, bo‘linma moliya-xo‘jalik faoliyatini o‘rganish masalalariga e’tibor qaratamiz. Ushbu ma’lumotlar orqali bo‘linmaning moliya-xo‘jalik faoliyatini,

shartnomalarini, bo‘lim va xizmatlar faoliyatiga tegishli hujjat va ma’lumotlarni o‘rganamiz.

Bo‘linma moliya-xo‘jalik faoliyatiga oid ma’lumot va hujjatlarni talab qilish uchun amalga oshiriladigan tadbirlar quyidagicha bo‘lishi zarur:

- **bo‘linma moliya-xo‘jalik faoliyati tahlili, barcha moliyaviy operatsiyalari, shaxsiy tarkibi, oxirgi 3 yildagi asosiy ko‘rsatkichlarining tahlili;**
- **bo‘linma mas’ul shaxslari bilan moliya-xo‘jalik faoliyati yuzasidan o‘quv- amaliy uchrashuvlar va suhbatlar o‘tkazish, shuningdek, moliya-xo‘jalik faoliyatidagi muammoli masalalarning tub negizini bilish uchun oldingi o‘tkazilgan taftishlar natijalari bilan tanishish.**

Bo‘linmaning moliya-xo‘jalik faoliyati o‘rganilib, taqdim qilingan so‘rovnomalar to‘ldirilib, taftish (tekshiruv) o‘tkazish bo‘yicha reja va dasturlar tuzilgandan so‘ng asosiy bosqichga, ya’ni taftishni tashkil etish hamda o‘tkazish jarayoniga o‘tamiz.

Taftish va tekshiruvni tashkil etish va o‘tkazish. Bu tasdiqlash bosqichi bo‘lib, taftish usullarini qo‘llash hisoblanadi va quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

barcha bajarilgan tadbirlarni belgilangan tartibda amalga oshirilganligiga ishonch hosil qilish uchun yakunlangan taftish dasturi va boshqa tegishli hujjatlarni o‘rganib chiqish;

dastlabki natijalar, taklif va tavsiyalarni ko‘rib chiqish, zarur hollarda yangilash, shundan so‘ng tadbirlar jarayonining xususiyati va hajmini aniqlash.

Taftishni o‘tkazish uchun bo‘linma moliya-xo‘jalik faoliyati tahlil qilinadi degan xulosaga keldik:

- moliya-xo‘jalik faoliyatga oid barcha ma’lumotlarning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganish va taqqoslash;

- joriy davrdagi ma’lumotlarni prognoz natijalar bilan taqqoslash;

- axborotning turli elementlari o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish;

- boshqa bo‘linmalarning ko‘rsatkichlari bilan ma’lumotlarni taqqoslash.

Bo‘linma faoliyatiga oid barcha ma’lumotlar moliyaviy va moliyaga tegishli bo‘lmagan bo‘lishi mumkin. Usul va amallar moliyaviy va moliyaga oid bo‘lmagan ma’lumotlar o‘rtasidagi bog‘liqliklarni tahlil qilish orqali ma’lumotlarni baholanishi va taqqoslanishidan tashkil topadi. Tahliliy usul va amallar, shuningdek, boshqa tegishli ma’lumotlarga zid bo‘lgan yoki kutilgan ko‘rsatkichlardan ancha farq qilgan, aniqlangan o‘zgarishlar yoki munosabatlarni o‘rganish kabi zarur izlanishlarni o‘z ichiga oladi. Masalan, moliyalashtirilgan va amaldagi xarajatlar (hisobot davri va o‘tgan hisobot davr uchun budjet xarajatlari) taqqoslanishi kerak hamda aniq izoh olish uchun zarur o‘zgarishlar ustida izlanish olib boriladi.


Bo‘linmalarda ichki nazorat tizimi moliyaviy nazorat xizmati taklif va tavsiyalariga ko‘ra tashkil qilingan bo‘lib, samaradorligi yuqori bo‘lsa, u holda turli risklarni maqbul darajagacha kamaytirishga yoki batamom oldini olishga imkon berishi mumkin. Agar ichki nazorat tizimiga yetarlicha ahamiyat berilmay samarasiz tashkil qilingan bo‘lsa, u holda moliyaviy nazorat xizmati o‘z zimmasiga ko‘proq vazifalarni yuklaydi va ish faoliyatini yanada jadallashtiradi.

Moliyaviy nazorat xizmati ba’zan mavjud bo‘lgan barcha ma’lumotlarni tekshirmasdan, taftishning tanlov usulidan foydalanib ishonchli xulosa chiqarishi mumkin. Namuna olishning statistik va statistik bo‘lmagan usullarini ko‘rib chiqamiz (3-rasm). Statistik namuna olishning asosiy usullari tasodifiy va tizimli tanlov hisoblanadi.

Tanlab olish usulida tekshirish aksariyat hollarda asosli test sifatida qo‘llaniladi va hisob-kitob qaydlarining to‘g‘riligi haqida taftish dalillarini taqdim qiladi. Biroq, bu uzoq muddatni talab qiladigan jarayondir. Tanlov hajmini hisoblashda ham alohida yondoshuv talab qilinadi.

Taftish maqsadi bu hisob-kitob qaydnomasining to‘g‘riligi haqida aniq dalillarni olish hisoblanadi. Dalil arifmetik to‘g‘riligiga tekshirilgan, tekshiruvchi tomonidan imzolangan va tashkilot tomonidan rasmiylashtirilgan hujjatlardir. Kuzatuv davrida masalan, 100 ta hisob-faktura mavjud bo‘lib, ularning barchasi bir xil miqdor uchun chiqarilgan. Ma’lumotlarning asosli qaydlari hisob-fakturalar bilan solishtiriladi va har bir hisob-faktura vakolati va kalkulyatsiyasi tekshiriladi. Tanlov kalkulyatsiyasi bo‘yicha 30 ta hisob-faktura tekshirilishi kerak. Biroq, tekshirish va vakolatlash jarayoni nazorat hisoblanib, bu hisob-kitob qaydlarining muvofiqligini tekshirish o‘rniga nazoratning to‘g‘ri faoliyat yuritganini tekshirish imkoniyatini berishi mumkin. Bu jarayon kamroq tanlab olishni talab etadi, ehtimol 50 tadan ortiq bo‘lmagan namuna talab qilishi mumkin.

ISSN 3030-3230



3-rasm. Tanlov uchun elementlarni tanlash usullari

➤ **Xulosa, hisobot, taklif va tavsiyalarni shakllantirish.** Hujjatlarni ko‘rib chiqishning asosiy prinsipi shundan iboratki, guruhning kam tajribali a’zolari tomonidan amalga oshirilgan taftish ishi guruhning tajribali a’zolari tomonidan ko‘rib chiqilishi zarur.

Hisobotni tuzish quyidagi tadbirlarni o‘z ichiga oladi:

taftish hisoboti loyihasini tayyorlash va taqdim etish;

boshqaruv organdan yozma javoblarini so‘rab olish, ularning javoblarini o‘z ichiga olgan yakuniy taftish hisobotini tayyorlash va taqdim etish.

Taftish guruhi rahbari umumiy javobgar shaxs bo‘lib, bajarilgan ishlarning sifati, hujjatlar va natijalar uchun mas’ul hisoblanadi.

Taftishni rasmiylashtirish bu, amalga oshirilgan taftish jarayonlari, olingan dalillar, natijalar va xulosalar haqidagi hisobot. Moliyaviy nazorat xizmati ish hujjatlari degan atamani ishlatadi.

Ishchi hujjatlar taftishning barcha bosqichlarini, ya’ni rejalashtirishdan to taftish natijalari bo‘yicha hisobot berishga qadar jarayonni o‘z ichiga oladi. Uchinchi tomon foydalanuvchisi taftish davomida bajarilgan amallarni mustaqil ravishda takrorlashi uchun hujjatlar yetarli darajada batafsil yoritilishi lozim. Ma’lumotni rasmiylashtirish taftish xulosalari va natijalarini asoslash, taftish maqsadlariga erishilganligini rasmiylashtirilgan tarzda tasdiqlash, bajarilgan ishlarning qonuniyligi va to‘liqligini tasdiqlash, taftishning sifatini nazorat qilish uchun shart-sharoitlarni ta’minlash uchun zarurdir. Olingan ma’lumotlarga rioya qilmaslik, suiiste’mol qilish, firibgarlik va korrupsiya risklari to‘g‘risida ma’lumot yozib olinishi va rasmiylashtirilishi kerak. Bunday ma’lumotlardan keyingi tekshirishlarni boshlashda yoki boshqa obyektlarni tekshirish paytida foydalanish mumkin. Barcha hujjatlar (shu jumladan maxfiy hujjatlar) belgilangan tartibda saqlanishi, qabul qilinishi lozim.

Taftishchilar tekshirish natijalari, taklif va tavsiyalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni taqdim etishdan tashqari, taftish hisobotlarini taqdim etish jarayoni nazorat obyektining rasmiy javobini olish, kelishilgan harakatlar va muddatlarni qayd etish imkonini beradi va obyekt tomonidan takomillashtirish ishlarini amalga oshirish uchun moliyaviy nazorat xizmati tomonidan monitoring qilish uchun asos yaratadi.

Bu jarayonlar yakunlanganidan keyin hisobot yoziladi va taftish natijalari bo‘linmaning rahbariga yetkaziladi.

Shuningdek, taftish xulosasi taftish natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yaxshilash, ustuvor yo‘nalishlarni belgilash, rejalashtirish tegishli tuzatishlarni kiritish bo‘yicha amaliy yordam berishi lozim. Moliyaviy nazoratning asosiy maqsadi ham yordam berish hisoblanadi. Shu

bilan birga bo‘linmalarda oldingi o‘tkazilgan tekshiruv natijalari bilan solishtirilib, o‘zgarishlarni baholashi lozim.

Moliyaviy nazorat xizmatining batafsil ma’lumoti, xulosasi, quyidagi tarzda ifodalash mumkin:

- **mezonlar – normativ-huquqiy hujjatlar yoki ichki audit xizmatining ilg‘or tajribalari bo‘yicha ekspert xulosasi;**
- **shartlar – moliyaviy nazorat xizmati tomonidan olingan taftish dalillari;**
- **risk – belgilangan mezonlar va shartlar o‘rtasidagi nomutanosiblik, nomuvofiqlik va noaniqlik bilan bog‘liq bo‘lgan risklar [10].**

Bundan tashqari xulosada taklif va tavsiyalar ko‘rsatilishi kerak. Taklif va tavsiyalar bo‘linmaning aniqlangan salbiy holatlarini bartaraf etish maqsadidagi harakatini belgilab beradi. Taklif va tavsiyalar bo‘linma faoliyatini ijobiy tomonga o‘zgartirishga qaratilgan bo‘lib, undagi xato-kamchiliklarni bartaraf etish hamda oldini olish uchun xizmat qiladi.

Moliyaviy nazorat xizmati taftish natijalari va yakuni bo‘yicha umumiy ma’lumotlarni Milliy gvardiya Qo‘mondoniga belgilangan tartibda taqdim etadi. Taftish natijalari nazorat-taftish ishlari bazasiga kiritiladi.

Taftish natijalari va yakuni bo‘yicha Milliy gvardiya Qo‘mondoni tomonidan qonuniy qaror qabul qilinishi zarur. Shundan so‘ng, taftishda aniqlangan xato-kamchiliklarni bartaraf etish uchun bo‘linma rahbariga Moliyaviy nazorat xizmati taqdimnoma yuboradi.

Taftish natijalari yakuniy hisobotda, dalolatnomada, ma’lumotnomada ko‘rsatilgan xato-kamchiliklar, takliflar va tavsiyalarning ijro etilishiga bo‘linmaning rahbari mas’ul hisoblanadi.

Ijro nazorati. Ijro nazorati quyidagi tadbirlarni o‘z ichiga oladi:

bo‘linma rahbariyati tomonidan chora-tadbirlarning bajarilishini nazorat qilish va tekshirish;

zaruriyat sababli tekshiruvni takroran o‘tkazish.

Taklif va tavsiyalarni ijro etilishini monitoring qilish avvalo bartaraf etish tadbirlarining bajarilishini nazorat qilishdan boshlanadi hamda katta mas’uliyat talab etiladi. Takliflarni ijro etishni taqsimlash:

taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish;

xato-kamchiliklarni bartaraf etish rejasini ishlab chiqish va tekshirish;

rejaning bajarilishi, bajarilishi to‘g‘risida hisobot taqdim etish;

rejaning to‘liq bajarilganligini tekshirish va rahbariyatga ma’lumot (hisobot) taqdim etish.

Shu bilan birga taftish tomonidan monitoringga ta’sir etuvchi omillar aniqlanadi. Tekshiruvlarni o‘tkazish manbalari va ustuvor yo‘nalishlari mavjud bo‘lganda, birinchi navbatda, monitoring o‘tkazish muddatlari va hajmi quyidagilarga bog‘liq (4-rasm):

Moliyaviy nazorat xizmati bo‘linma rahbariyati tomonidan taftishdan so‘ng berilgan taklif va tavsiyalarni ijro etilishi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar holatini monitoring qiladi.

Moliyaviy nazorat xizmati berilgan taklif va tavsiyaning ahamiyatiga, hisobotda (dalolatnomada, ma’lumotda) ko‘rsatilgan xato-kamchiliklarni bartaraf etish uchun qilinadigan chora-tadbirlar o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini hisobga olib, ijro nazoratining xususiyati, muddati va hajmini belgilaydi.


Yuqoridagilarni inobatga olgan holda aytishimiz mumkinki, moliyaviy nazorat uslubiyoti - bu davlat organlari va muassasalari tomonidan davlatning moliyaviy resurslarini to‘g‘ri boshqarish va nazorat qilishni ta’minlash uchun qo‘llaniladigan prinsiplar, usullar, tartiblar va vositalar tizimi. Bu moliyaviy boshqaruvning muhim jihati bo‘lib, davlat moliyaviy operatsiyalarining shaffofligi, samaradorligi va huquqiy ishonchliligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Xulosa va tavsiyalar. Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasida moliyaviy nazoratni amalga oshirish uslubiyotining turli jihatlarini tahlil qilish jarayonida ushbu soha mutaxassislariga moliyaviy nazorat usullarini qo‘llashga yordam beradigan mezonlar aniqlandi.

Maqolada keltirilgan moliyaviy nazorat usullarini tizimlashtirish va tasniflash nafaqat O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasida, balki Qurolli Kuchlar vazirlik va idoralariga moliyaviy resurslarni yanada samarali boshqarish, risklarni aniqlash va moliyaviy normalar va qoidalarga rioya etilishini ta’minlash imkonini beradi.

Moliyaviy nazorat moliyaviy boshqaruvning asosiy omili bo‘lib, uni samarali qo‘llash moliyaviy barqarorlikka erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqola moliyaviy nazorat sohasida kelgusi tadqiqotlarni amalga oshirish uchun xizmat qiladi.

ISSN 3030-3230



4-rasm. Taftishga ta'sir etuvchi omillar

Аннотация. В статье анализируется методология осуществления финансового контроля в Национальной гвардии Республики Узбекистан и даются рекомендации по совершенствованию методологии финансового контроля при проведении контрольных мероприятий.

Ключевые слова: финансовый контроль, методология финансового контроля, этапы планирования мероприятий финансового контроля, методы финансового контроля.

Annotation. The article analyzes the methodology of implementation of financial control in the National Guard of the Republic of Uzbekistan and gives recommendations on improving the methodology of financial control in conducting control activities.

Key words: financial control, financial control methodology, stages of planning financial control measures, financial control methods.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-avgustdagi PQ-3231-son "Ta'lim va tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida" Qarori. Kirish rejimi: https://lex.uz.

2. Майсигова Л.А. Формирование единой методологии финансового контроля: проблемы и решения // Международный бухгалтерский учет, 2004. – №2. – С. 22-24.

3. Григорьев А.В., Самсонов А.Г. Виды, формы и методы финансового контроля, их систематизация // Журнал прикладных исследований, 2021. – № 5 (6). – С. 412-418.

4. Пашкова Т.А. Внедрение новых методов финансового контроля в деятельность органов внешнего муниципального финансового контроля // Инновационные аспекты развития науки и техники, 2020. – №1. – С. 60-65.

5. Shaymardonova D. "Budjet tashkilotlarini moliyalashtirish manbalari, ular bo'yicha smetalarni tuzish va ijrosi hisobining xususiyatlari" // Xalqaro moliya va hisob ilmiy elektron jurnali, 2017. – 2-son. – B. 24-27.

6. Mehmonov S.U. Budjet tashkilotlarida ichki auditning uslubiy ta'minotini takomillashtirish // Xalqaro moliya va hisob, 2018. – 1-son. – B. 1-9.

7. O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo'mondonining 2022-yil 18-yanvardagi 18-son "O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bo'linmalarida moliyaviy nazoratni tashkil etish haqida"gi Buyrug'i.

8. INTOSAI Financial Audit Guidelines are based on the International Standards on Auditing, 2200 Engagement Planning. Kirish rejimi: https: theiia.org/standards.

9. O'zbekiston Respublikasining Budjet Kodeksi. Kirish rejimi: https://lex.uz.

10. Xamidova Z.U. Budjet tashkilotlarida ichki audit xizmatini tashkiliy uslubiy jihatlari // Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi tezislar to'plami. T., 2020. – B. 56- 58.

O‘ZBEKISTONDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING USTUVOR YO‘NALSHLARI

Soatov Sanjar Sarvarovich,
Bojxona qo‘mitasining
Bojxona instituti kafedra boshlig‘i

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda import, eksport va ishlab chiqarish omillari ustuvor ahamiyatga ega ekanligidan kelib chiqib, ijtimoiy ahamiyati yuqori bo‘lgan makaron mahsulotining tashqi savdo ko‘rsatkichlari va ichki ishlab chiqarish imkoniyatlari o‘zaro qiyosiy tahlil qilindi. Shuningdek, ushbu ilmiy maqolada O‘zbekistonning makaron mahsulotlari importiga bog‘liqlik ko‘rsatkichlari, makaron mahsulotlarining ichki bozordagi narxi, bojxona to‘lovlari hamda berilayotgan imtiyozlarning iqtisodiy-ijtimoiy samarasi tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotdagi tahlillar natijasi umumlashtirilgan holda ilmiy asoslangan xulosa va takliflar berildi.


Kalit so‘zlar: Eksport, import, tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi (TIFTN), importga bog‘liqlik koeffitsiyenti, natriy glutamat, stavka, kuskus, aksiz solig‘i.

Kirish va tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Davlatimiz Rahbari huzurida 2022-yil 5-sentabr kuni asosiy oziq-ovqat mahsulotlari narxining barqarorligini ta’minlash va zaxirasini yaratish chora-tadbirlari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi. Ushbu, yig‘ilishda Prezidentimiz, ichki bozorda 25 turdagi oziq-ovqat mahsulotlari ta’minoti importga bog‘liq bo‘lib qolayotganligini tanqid qilindi va ushbu ushbu mahsulotlarni o‘zimizda ishlab chiqarish bo‘yicha loyihalar tayyorlash vazifasi qo‘yildi. Mazkur 25 turdagi oziq-ovqat tarkibida makaron mahsulotlari ham mavjudligidan kelib chiqib, quyida makaron ishlab chiqarish, eksport va import ko‘rsatkichlari hamda makaron turlari va birlik narxlarining statistik ko‘rsatkichlari o‘zaro ilmiy qiyosiy tahlil qilish asosida maviud muammolar aniqlandi va shu asosida ilmiy xulosalar berildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasi va Xalqaro savdo markazining rasmiy statistik ma’lumotlari o‘zaro qiyosiy tahlil qilingan. Shuningdek tadqiqotda tizimli tahlil va omilli tahlil metodlari asosida ilmiy asoslangan xulosalar berilgan.

Makaron mahsulotini O‘zbekistonda ishlab chiqarish imkoniyatlari tahlili. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy saytidan olingan ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda 348 ta makaron ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyat yuritayotgan bo‘lib, 2022-yilda 69 ming tonna makaron mahsulotlari ishlab chiqarilgan[1].

Makaron ishlab chiqaruvchi korxonalar soni hududlar kesimida tahlil qilinganida deyarli 60 foizi quyidagi 3 ta hudud hissasiga to‘g‘ri keladi. Xususan, korxonalarning **24 foizi (83 ta)** Farg‘ona viloyatida, **22 foizi (78 ta)** Toshkent hududida va **11 foizi (37 ta)** Samarqand viloyatida joylashgan (1-diagramma).



1-diagramma. Hududlar kesimida makaron ishlab chiqaruvchi korxonalar soni

ISSN 3030-3230

Yuqoridagi diagrammadan ko‘rish mumkinki, makaron ishlab chiqaruvchi korxonalar soni bo‘yicha eng past ko‘rsatkich Sirdaryo (2%), Qashqadaryo (2%) va Jizzax (1%) hissasiga to‘g‘ri keladi.

Makaron mahsulotining eksporti tahlili. Makaron eksporti 2023-yilda **4,5 ming tonnani (3,5 mln. doll.)** tashkil qilib, 2022-yilga nisbatan 2,6 ming tonnaga yoki **2,4 barobarga oshgan** (2022-y. 1,9 ming tn, 1,9 mln $) bo‘lib, jami 16 ta (2022-y. 14 ta) davlatga eksport qilingan. Eksportning **77 foizi Afg‘oniston** (3,1 ming tn) va Tojikiston (0,4 tn) davlatlariga amalga oshirilgan [2].


Ma’lumot uchun: 2022-yilda O‘zbekiston makaron eksporti bo‘yicha davlatlar orasida 92 – o‘rinni egallagan[3].

Hududlar bo‘yicha makaron eksporti tahlil qilinganida, 2023-yilda jami eksport miqdorining **76 foizi** (3,4 ming tonna) Toshkent hududiga to‘g‘ri kelgan (2022-yilda jami eksport miqdorining 71 foizi).


Makaron mahsulotining importi tahlili. Makaron importi tahlil qilinganida, 2023-yilda **18 ming tonnani** (27 mln. doll.) tashkil qilib, 2022-yilga nisbatan **2,7 ming tonnaga** yoki 18 %ga oshganligi (2022-y. 15 ming tn, 25 mln doll.) ma’lum bo‘ldi[2].

Ma’lumot uchun: 2022-yil ma’lumotiga ko‘ra O‘zbekiston makaron importi bo‘yicha dunyo mamlakatlari orasida 72 – o‘rinda turadi[3].

Makaron jami 19 ta (2022-y. 20 ta) davlatdan olib kirilgan bo‘lib, importning **92 foizi Rossiya** (8 ming tn) va **Qozog‘iston** (8,6 ming tn) hissasiga to‘g‘ri keladi.



2-diagramma. Hududlar kesimida makaron eksporti (tonnada)



3-diagramma. Hududlar kesimida makaron importi (tonnada)

Hududlar bo‘yicha makaron importi tahlil qilinganida, 2023-yilda jami importning **83 foizi** (15 ming tonna) Toshkent hududiga to‘g‘ri kelgan (3-diagramma). **Ma’lumot uchun:** 2022-yilda Toshkent hududida makaron importi 8,5 ming tonnani tashkil qilib, Respublika bo‘yicha ulushi 55 foiz bo‘lgan.

Shuningdek, yuqoridagi diagrammadan ko‘rish mumkinki 2023-yilda Sirdaryo, Jizzax, Navoiy, Surxondaryo va Namangan hududlarida umuman makaron mahsulotlari importga rasmiylashtirilmagan.

Makaron mahsulotining tasniflanishi va o‘ziga xos xususiyatlari. Tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nominklaturasiga muvofiq makaronning tasniflanishi uning tarkibida tuxum borligi, qattiq bug‘doy unidan tayyorlanganligi, uni qayta ishlash orqali tez tayyor bo‘ladigan lapsha mahsulotlari hamda granula (kuskus) shakllariga keltirilishiga qarab belgilanadi. Shunga ko‘ra mazkur makaron turlarining importi tahlil qilindi (1-jadval).

1-jadval

Makaron mahsulotlari turi bo‘yicha importining yillar kesimida jadvali[2]

Tovar kodi	Makaron turi	2022		2023	
		Vazni (Tonnada)	Qiymati (ming doll.)	Vazni (Tonnada)	Qiymati (ming doll.)
190211	Tuxumli makaron	301,8	441,4	196,6	305,2
190219	Tuxumsiz qattiq makaron	4 472,9	4 695,4	7 597	6 150,4
190230	Tez tayyorlanadigan lapsha	10 569,3	19 885,8	10 263,5	20 899,5
190240	Kuskus	0,9	2,9	3,6	8,1
Jami		15 345,1	25 025,4	18 060,5	27 363,1

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rish mumkinki, makaron mahsuloti importi tarkibida eng yuqori ulushga ega bo‘lgan turlari bu - tez tayyorlanadigan lapsha va tuxumsiz qattiq makaron hisoblanadi. Shunga ko‘ra, quyida ushbu makaron turlari bo‘yicha undirilgan bojxona to‘lovlari, qo‘llanilgan imtiyozlar va tovarning birlik narxlari tahlil qilindi.

2022 va 2023-yillarda tez tayyorlanadigan lapsha mahsuloti importining qiymati deyarli bir xil ko‘rsatkich, ya’ni **20 mln. AQSH dollari** bo‘lsa ham undirilgan bojxona boji 2023-yilda **2,7 martaga** kamaygan. Buning asosiy sababi sifatida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-martdagi PF-41-son Farmoniga muvofiq, ushbu tovar importida bojxona boji nol stavka qilib belgilanganligi bilan izohlanadi *(2025-yilning 1-yanvariga qadar)*.

Ma’lumot uchun: 2023-yilda jami 70,4 mlrd.so‘m bojxona to‘lovlaridan imtiyozlar qo‘llanilgan bo‘lib, uning 69 foizi (48,7 mlrd. so‘m) tez tayyorlanadigan lapsha mahsulotlariga to‘g‘ri keladi.

Biroq, tez tayyor bo‘ladigan lapsha tarkibida inson tanasida quyidagi bir qator buzilishlarni keltirib chiqaradigan juda xavfli natriy glutamat moddasi mavjud:

- u tanada suyuqlikni ushlab turadi, buning natijasida bo‘g‘inlarda shishlar kuzatiladi
- yuqori qon bosimi saqlanib qoladi.
- asta-sekin odamlarni o‘ziga qaram qilish xususiyatiga ega;
- oshqozon yarasi va gastritni yuzaga keltiradi.
- kuchli allergik reaksiyaga olib kelishi mumkin.

Shu bilan birga, bolalar, homilador ayollar, keksalar va surunkali kasalliklari bo‘lgan odamlar uchun tez tayyorlanadigan lapsha iste’mol qilish tavsiya etilmaydi[4].

Shunga ko‘ra, ayrim xorijiy davlatlarda inson salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan mahsulotlarga, shu jumladan tez tayyorlanadigan lapshaga nisbatan bojxona boji va aksiz solig‘i belgilangan. Jumladan:

Buyuk Britaniyada qattiq makaron mahsulotlari uchun aralash stavkada bojxona boji belgilangan bo‘lib, bunda **7,7** foiz **+24,6 €/100 kg**. Tez tayyorlanadigan lapsha mahsulotlariga esa har **100** kg uchun **54,3 €** bojxona boji belgilangan.

Hindistonda 2023-yildan makaron mahsulotlari uchun **30 foiz** bojxona boji joriy qilingan[5];

Pokistonda 2023-2024-yil uchun makaron mahsulotlari importiga **30 foiz** bojxona boji joriy qilingan[6];

ISSN 3030-3230

Keniyada 2021-yildan makaron mahsulotlari uchun **20 foiz** aksiz solig‘i joriy qilingan[7].

Ma’lumot uchun: O‘zbekistonda ham joriy yilning 1-aprelidan inson sog‘lig‘iga zararli bo‘lgan **gazli va energetik ichimliklarga** aksiz solig‘i joriy etiladi.

Shuningdek, makaron importi tarkibida tez tayyorlanadigan lapsha mahsulotining ulushi yuqoriligidan kelib chiqib, ushbu tovarga bo‘lgan yillik ehtiyoj va importga bog‘liqligi tahlil qilindi.

2-jadval

O‘zbekistonning tez tayyorlanadigan lapsha iste’moliga bo‘lgan yillik ehtiyoji va importga bog‘liqligi (tonnada)

Ko‘rsatkichlar		2022
A	Import	10 569
B	Eksport	1549
C	Ichki ishlab chiqarish	3223
D	Yillik ehtiyoj = A+C-B	12243
Importga bog‘liqlik = A*100/D		86%

Yuqoridagi ko‘rish mumkinki, O‘zbekistonning tez tayyorlanadigan lapsha iste’moliga bo‘lgan yillik ehtiyojining **86 foizi** import hisobiga qoplanmoqda. Shuningdek, 2023-yil ma’lumotlariga ko‘ra tez tayyorlanadigan lapsha mahsuloti importining 86 foizi Qozog‘iston *(7 ming tonna)* va Rossiya *(2 ming tonna)* hissasiga to‘g‘ri keladi.

Shu bilan birga, tez tayyorlanadigan lapsha mahsulotlari uchun berilgan bojxona imtiyozlar, ushbu tovarning ichki bozordagi narxining pasayishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmagan. Xususan, “Rollton” markali 90 gr lapsha “Uzum” savdo platformasida **7000 so‘mdan** va Korzinka savdo do‘konlarida **8490 so‘mdan** sotilmoqda[8]. Biroq ushbu tovarning importdagi birlik narxi o‘rganilganda o‘rtacha **3000 so‘mdan** va har bir 90 grammlik qadoq uchun o‘rtacha **360 so‘m** bojxona to‘lovlari undirilgan. Shunga ko‘ra bir dona 90 grammlik qadoqdagi “Rollton” lapshasining importdagi tan narxi o‘rtacha **3360 so‘mni** tashkil etadi. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rish mumkinki, bugungi kunda mazkur tovarning ichki bozorda sotuvchi tomonidan belgilangan qiymat import tan narxidan deyarli **2-3 barobar** qimmatga sotilmoqda.

Xulosa va takliflar. Yuqorida keltirilgan, makaron mahsulotlarining chuqur va tizimli tahlili natijasida quyidagi xulosa va takliflar ishlab chiqildi:

Birinchidan, mazkur tahliliy ma’lumotnomada keltirilgan barcha diagrammalardan ko‘rish mumkinki, 2023-yilda Sirdaryo, Jizzax, va Qashqadaryo hududlarida makaron mahsulotlari ishlab chiqarilishi, eksporti va importi juda ham past ko‘rsatkichda bo‘lib, bu esa mazkur hududlarda ishlab chiqarishni kengaytirish lozimligini ko‘rsatmoqda.

Ikkinchidan, makaron ishlab chiqaruvchi tashkilotlarning soni bo‘yicha Farg‘ona viloyati eng ko‘p ulushga (83 ta) ega bo‘lishiga qaramasdan, ushbu hududdagi makaron ishlab chiqaruvchilar tomonidan deyarli eksport amalga oshirilmagan. Bu esa, o‘z navbatida mazkur hududning makaron eksporti salohiyatidan samarali foydalanish imkoniyatlari mavjudligidan dalolat bermoqda.

Uchinchidan, makaron eksporti va importi faqatgina 2 ta mamlakatga bog‘lanib qolgan. Shunga ko‘ra, makaron tashqi savdosida mamlakatlarni diversifikatsiya qilish maqsadga muvofiq. Bu O‘zbekiston uchun yangi bozor va qulay raqobat muhitini yaratadi.

To‘rtinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-martdagi PF-41-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2025-yil 1-yanvarga qadar tovarlarni olib kirishda bojxona bojining nol stavka belgilanadigan tovarlar ro‘yxati”dan tez tayyorlanadigan lapsha mahsulotini *(TIF TN kodi – 1902 30 bo‘lgan)* chiqarish bo‘yicha ushbu hujjatga o‘zgartirish kiritish hamda tez tayyorlanadigan lapsha mahsulotini importi uchun aksiz solig‘ini joriy qilish taklif etiladi.

Аннотация. В данной статье, исходя из значимости факторов импорта, экспорта и производства в обеспечении безопасности пищевых продуктов в Узбекистане, сопоставлены показатели внешней торговли и возможности внутреннего производства макаронных изделий высокой социальной значимости. Также в данной научной статье анализируются показатели зависимости Узбекистана от импорта макаронных изделий, цены макаронных изделий на внутреннем рынке, таможенных сборов, а также экономический и социальный эффект от предоставленных льгот. По обобщенным результатам анализа в данном исследовании были даны научно обоснованные выводы и предложения.

Ключевые слова: Экспорт, импорт, товарная номенклатура внешнеэкономической деятельности (ТНВЭД), коэффициент импортозависимости, глутамат натрия, ставка, кускус,

Abstract. In this article, based on the importance of import, export and production factors in ensuring food safety in Uzbekistan, the foreign trade indicators and domestic production possibilities of pasta products of high social importance were compared. Also, this scientific article analyzes the indicators of dependence on the import of pasta products, the price of pasta products in the domestic market, customs fees, and the economic and social effect of the given benefits. The results of the analyzes in this study were summarized and scientifically based conclusions and suggestions were given.

Key words: Export, import, Foreign Economic Activity Commodity Nomenclature(FEACN), import dependence coefficient, monosodium glutamate, rate, couscous.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy sayti – URL: https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/34339-o-zbekistonda-2022-yilning-dekabr-oyida-1-490-4-tonna-makaron-ishlab-chiqarildi
2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasidan olingan ma’lumotlar asosida muallif ishlanmasi.
3. Xalqaro savdo makazining rasmiy sayti - www.trademap.org
4. The composition of the beef-flavored doshirak. Does «Doshirak» harm the figure? Calorie content of the finished dish and its effect on health .// article // - – URL: https://espressomio.ru/en/american-kitchen/sostav-doshirak-so-vkusom-govyadiny-vredit-li-figure-doshirak/
5. Hindiston rasmiy sayti - – URL: https://cbic.gov.in/resources//htdocs-cbec/customs/cst2023-010523/Customs%20Tariff%20(Chap-1%20to%2098)%20on%2001-05-2023.pdf
6. Pokiston rasmiy sayti - – URL: https://download1.fbr.gov.pk/Docs/20231117151131245 11PAKISTAN CUSTOMSTARIFF-2023-24.pdf
7. Kenya davlatining rasmiy sayti - URL: https://www.kra.go.ke/images/publications/Excise-Duty-Act-2015-Revised-2021.pdf
8. Uzum onlayn savdo platformasi - URL: https://uzum.uz/ru/product/lapsha-rollton-so-223289

ISSN 3030-3230

ZAMONAVIY JAMIYATDA TEXNOLOGIYANING JAMOAT XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI

Xoliqov Shuhrat Abduhamidovich,
O'zbekiston Respublikasi
Jamoat xavfsizligi universiteti,
Axborot texnologiyalari kafedrasi katta o'qituvchisi

Musanov Kenjaboy Pulatovich,
O'zbekiston Respublikasi
Davlat xavfsizlik xizmati, Chegara qo'shinlari katta ofitseri

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy jamiyatda texnologiyaning jamoat xavfsizligiga ta'siri tadqiq qilinadi. Jamoat xavfsizligi sohasidagi texnologik yutuqlar, kuzatuv va monitoring tizimlari, ma'lumotlar xavfsizligi xavflari, tadqiqotni ijtimoiy aniqlashtirish, huquqni muhofaza qilish organlarida tanaga taqilgan kameralar, kelajakdagi yo'nalishlar va tavsiyalar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Dasturiy ta'minoti va apparat texnologiyasi, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, Jamoat xavfsizligi, monitoring tizim,

Zamonaviy jamiyatda butun dunyodagi odamlar xavfsiz va erkin muhitda yashaydi va ishlaydi. Zamonaviy ilm-fan va texnologiya ijtimoiy hayotning barcha sohalariga, ayniqsa tez rivojlanayotgan kompyuter dasturiy ta'minoti va apparat texnologiyasiga, elektr boshqaruv texnologiyasi va tarmoq aloqasi texnologiyasiga kirib bordi. Ushbu texnologiyalarning rivojlanishi odamlarning hayot va mehnat shaklini o'zgartirdi va u jamoat xavfsizligi bilan tobora chambarchas bog'liq. Ijtimoiy muhitdagi o'zgarishlar va zamon talablariga moslashish maqsadida zamonaviy ilg'or texnologiyalar jamoat xavfsizligini ta'minlash, jamoat xavfsizligini ta'minlash, harbiy hudud va tabiiy ofatlarga tayyorgarlik ko'rishda keng qo'llanilmoqda. Ushbu talablar ijtimoiy totuvlik va barqarorlik, shaxsiy tana va mulk xavfsizligi, jumladan texnologik xavfsizlik, tarmoq xavfsizligi va organlarning jismoniy xavfsizligi uchun xavfsizlik va'dalarini o'z ichiga oladi. Texnologik rivojlanishning jamoat xavfsizligiga ta'siri. Xavfsizlik fanlari, Xavfsizlik va (yoki) himoya davri mashhurlik va evolutsiya asosan ilmiy texnologiya va jamiyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq. Qadimgi himoya vositalariga suyak san'atini tozalash va tashqi sehrli marosimlarni o'tkazish, tashqi materiallarni himoya qilish, qurol olib yurish, mustahkam qal'a devorlarini qurish, kuchli va kuchli kengayish muassasalari kiradi. Atrof va boshqa mustahkam qalin xavfsizlik choralari kelajak avlodlar uchun ushbu usullarning o'ziga xos cheklovlari doimiy ravishda o'rganiladi va ularni yengishga harakat qiladi. Ushbu turdagi xavfsizlik texnologiyalari fan va tizim yo'nalishi bo'yicha mustaqil ravishda past darajadan yuqori darajaga qadar ishlab chiqilgan va tadqiqot sohalari va amaliy ehtiyojlar ma'lum bir doirada cheklanishi kerak. Maydon xoch texnologiyasini, engil, keng va noyob ijodni yaratadi. Jamoat xavfsizligi sohasida, shuningdek, xavfsizlikni boshqarish, ofatlarni boshqarish, ogohlantirish, ma'lumot, qo'mondonlik va jo'natish, aniqlash va boshqalar kabi himoya texnologiyasi sohasining boshqa omillari texnologiyaning professional darajasini har tomonlama rag'batlantirish va evolutsion rivojlantirish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Funksiyasi[3].

Faqat yigirma yil oldin, dunyoning turli burchaklaridagi odamlar bir-biri bilan muloqot qilishlari va yo'lda lahzalar va g'oyalarni baham ko'rishlari mumkin bo'lgan bog'langan onlayn dunyoda yashash xayoldan boshqa narsa emas edi. Bugungi kunda biz mobil telefonlar va simsiz aloqa vositalarining keng doirasi orqali bunday davrga kirish imkoniga egamiz. Zamonaviy texnologiyalar tomonidan taqdim etilgan ushbu harakatchanlik va erkinlik transport va sog'liqni saqlashdan tortib jamoat xavfsizligi va xavfsizligigacha bo'lgan son-sanoqsiz yangi domenlar, ilovalar va xizmatlarga olib keldi. Garchi texnologiya va uning eng yangi yuksalishlari, masalan, narsalar interneti, 5G aloqasi, innovatsion bulutli hisoblash platformalari va sun'iy intellekt etuklashishda davom etayotgan bo'lsa-da, ularning turli ijtimoiy sohalarga ta'siri chegaralari to'liq tushunilmagan va ularning imkoniyatlaridan to'liq

foydalanilmayapti. Ushbu cheklov, shuningdek, aqlli shahar va yirik tadbirlar muhitida jamoat xavfsizligini loyihalash va ishlatish bosqichlarida ham amal qiladi. Foydalanuvchilar turli ijtimoiy media platformalarida o‘zlarining turmush tarzi, faoliyati va qiziqishlarini doimiy ravishda baham ko‘rishadi va yangilaydilar. Mobil ilovalar va kraudsorsing platformalarining keng assortimenti foydalanuvchilarga katta olomondan foyda olish va jamoaviy bilim va aqlni rivojlantirish imkonini beradi. Odamlarning xulq-atvori, shuningdek, ommaviy tartibsizliklar, talon-taroj qilish, odam o‘g‘irlash, suiqasd, baxtsiz hodisalar va xavf-xatarlardan qochish, o‘t qo‘yish, talon-taroj qilish, otishma, o‘g‘irlik, avtomashinalarni o‘g‘irlash, vandalizm, zo‘ravonlik kabi juda ko‘p jinoiy va xavfli xatti-harakatlarga kundalik moyilligi, nafrat va kamsitish doimo rivojlanib boradi. Bu haqiqat politsiya, harbiylar, o‘t o‘chiruvchilar, shoshilinch tibbiy yordam xizmatlari va xususiy xavfsizlik kabi jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha manfaatdor tomonlarga ko‘p sonli texnologik yutuqlardan foydalanish, odamlarning katta qismi uchun hayot sifatini yaxshilash uchun himoya va qo‘llab-quvvatlashni ta’minlash uchun ortib borayotgan yukni yuklaydi. va oilalar. Boshqa tomondan, texnologiya ikki qirrali qilich bo‘lib, shaxsiy hayot, xavfsizlik va axloqqa yangi muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Ijtimoiy media, mobil ilovalar va kraudsorsing ma’lumotlari kabi yangi texnologik elementlarning aqlli xavfsizlik nazorati javob berish, zamonaviy AKT muhitida o‘qitish va jamoat xavfsizligi menejerlarini optimallashtirishning an’anaviy sohalariga ta’siri ilmiy va boshqa usullarni qo‘llash orqali chuqur o‘rganilishi kerak[2].

Tadqiqotning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat: - Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) yuqori darajadagi jamoat xavfsizligini ta’minlashdagi ahamiyatini ko‘rsatish. - Bugungi jamoat xavfsizligi arxitekturalarida innovatsiyalar ko‘lamini o‘rganish. - Zamonaviy jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha tadqiqotlarning ba’zi asosiy muammolariga oydinlik kiritish. - Ilgarilar innovatsion elektron hukumat va elektron xizmatlar yechimlarini ishlab chiqish orqali bunday qiyinchiliklarni qanday yengib o‘tayotganini tasvirlash. - Dunyo bo‘ylab ilg‘or texnologiya tajriba sxemalari va sinov o‘rnatish moslamalarini va ular bilan bog‘liq aqlli muhitlar, shaharlar, binolar va ofat stsenariylarini taqdim etish. - Rivojlanayotgan texnologiyalar va tajriba sxemalari kommunikatsiyalarni takomillashtirish va real vaqt rejimida ma’lumotlarni to‘plash va zamonaviy jamoat xavfsizligiga asoslangan bilimlarni oshirish nuqtai nazaridan taqdim etayotgan asosiy afzalliklarni o‘rganish. - manfaatdor tomonlarga, amaliyotchilarga va hukumat tomonidan moliyalashtiriladigan tadqiqot dasturlari a’zolariga texnologiyani rivojlantirish va tadqiqotning kelajakdagi yo‘nalishlarini taklif qilish[4,5].

Jamoat xavfsizligi sohasidagi texnologik yutuqlar

So‘nggi yigirma yil ichida texnologik taraqqiyot zamonaviy jamiyatning kundalik hayotini sezilarli darajada o‘zgartirdi. Ushbu yangi innovatsion mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqilishining tobora tez sur’atlari bizning jamoat xavfsizligi, konstitutsiyaviy va inson huquqlari muammolari haqidagi fikrimizni ham o‘zgartirmoqda. Ushbu tez texnologik o‘zgarishlar ko‘p odamlarni tashvishga soldi. Qonunchilikni tushunish va rivojlantirish, ma’lum darajada, davom etish uchun kurash olib bordi. Bunday o‘zgarish fuqarolarning jamoat xavfsizligini ta’minlashda qabul qilinadigan mas’uliyat darajasining ijtimoiy normalariga ham ta’sir qilishi mumkin. Ushbu majburiyatlarning ba’zilari an’anaviy bo‘lishi mumkin, chunki asosiy xizmatlarni yetkazib berish davlatning yagona domeni bo‘lib, ko‘pincha jamoatchilikni ularning hayotiga xavf tug‘diradigan siyosat yoki aktyorlardan himoya qilishi kutiladi. Inson qadr-qimmati va texnologik taraqqiyot o‘rtasidagi bu dixotomiya jiddiy huquqiy va siyosiy muammodir. Ushbu bobda biz texnologiya zamonaviy jamiyatda jamoat xavfsizligiga qanday ta’sir qilganini qisqacha ko‘rib chiqamiz. Biz birinchi navbatda zamonaviy iste’mol mahsulotlaridan, shuningdek, mudofaa va xavfsizlik bozorlarida taklif etilayotgan tashkiliy mahsulotlar va xizmatlardan olingan kuzatuv imkoniyatlarini ko‘rib chiqamiz. Smartfonlar va planshetlar kabi qurilmalarning keng qo‘llanilishi pastdan yuqoriga va yuqoridan pastga ma’lumotlarning sezilarli darajada ekspluatatsiyasiga olib keldi. Real vaqt rejimida ko‘plab global fuqarolarning shaxsiy faoliyati va muloqot usullarini kuzatish va kuzatish mumkin. Katta ma’lumotlarning analitik yutuqlari endi ushbu zamonaviy kuzatuv qobiliyatlariga yanada kattaroq qiymat berish imkonini beradi. Keyin biz sun’iy intellektdan keyingi avlod mahsulotlarini ishlab chiqish va raqib niyatining bashoratli holatini yaratish uchun qanday foydalanilayotganini ko‘rib chiqamiz. Bu kuzatuv bozorining kelajakdagi rivojlanishiga

ISSN 3030-3230

sezilarli ta’sir ko‘rsatadi, chunki ilg‘or tahlillar tushuncha, qadriyatlar va hatto ishontirish uchun qo‘llaniladi. Internetga asoslangan mahsulotlar va xizmatlar tomonidan yaratilgan kuzatuv shakllarini to‘ldirish va avtomatlashtirish vositasi sifatida raqamli interfeyslar, audio yoki vizual vositalardan foydalanish imkoniyati misli ko‘rilmagan shaxsiy ma’lumotlarning qo‘lga kiritilishiga sabab bo‘ldi.

Kuzatuv va monitoring tizimlari

Kuzatuv va monitoring tizimlarida texnologiyadan foydalanish ko‘p yillarga borib taqaladi va odatda jamoat xavfsizligini ta’minlashda qo‘llaniladi. Inson faoliyatini nazorat qilish uchun turli tizimlar qo‘llaniladi va jinoiy adliya bo‘limlari va harbiy muassasalar tomonidan faol qo‘llaniladi. Mashhur misollar orasida markazlashtirilgan CCTV, avtomobil ichidagi mobil ma’lumotlar terminallari, tanaga o‘rnatilgan kameralar va raqamlarni avtomatik aniqlash kiradi. Ular real vaqtda yoki oflayn rejimda ko‘rib chiqish uchun video, audio va tasvir ma’lumotlarini olish uchun ishlatiladi, lekin ko‘pincha bitta sensorli kiritish usullari bilan cheklanadi, inson operatorlarini talab qiladi va avtonomiyaga ega emas yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlarda cheklangan. Bunga javoban, tadqiqot hamjamiyatida ma’lumotlarni o‘rganish va ushbu ko‘plab platformalar uchun yangi imkoniyatlarni ochish uchun kompyuterni ko‘rish va multimedia tahlil tizimlarini ishlab chiqish, avtomatlashtirish va inson operatorini kengaytirishga e’tibor qaratildi. Biroq, bu harakatlar texnologiyani ishlab chiqishdan keyin sinovdan o‘tkazish yoki baholash usullariga AR-GE bilan mos kelmadi. Texnologiya bilan bog‘liq muammolar faqat joylashtirishda aniqlanadi va inson operatorlariga chek qo‘yish odatiy harakat yo‘nalishi hisoblanadi. Avtomatlashtirilgan inson monitoringi imkoniyatlarini ishlab chiqish uchun texnologiyaga asoslangan usullardan foydalanadigan tadqiqotchilar kirishning noto‘g‘riligiga ega. Ushbu noto‘g‘ri fikrlar ataylab emas, balki ma’lumotlar manbai - inson operatoridan kelib chiqadi. Yo‘l kuzatuvidan olingan video tasvirlarni metama’lumotlarga aylantirish, olomon tasviridan piyodalarning xatti-harakatlarini modellashtirish, tanaga kiyilgan kameradan odamlarni aniqlash va kuzatish, shuningdek, video yozuvlarni ko‘rish va tinglash talabi doimiy kirish bo‘lishi mumkin. paketlardagi qidiruv vazifasini bajarish uchun politsiya operatsiyasi. Ushbu o‘z-o‘zidan ma’lumot olish va modellarni o‘rgatish uchun ushbu tizimlarning barchasi inson tomonidan sinovdan o‘tkazilishi kerak. Shunday qilib, har bir holatda, vazifalar, ish yuki va kontekst inson sinov bosqichidan kelib chiqadi. Taxmin qilish mumkinki, kompyuter ko‘rish va multimedia tahlili va umumiy usullar, jumladan, dasturdan dasturgacha umuman sezgir bo‘lmagan va kirish taraflamasidan qat’iy nazar “a’lo” samaradorlikka ega bo‘lgan mashinani o‘rganishga asoslangan yondashuvlar rivojlangan. Ammo boshqa ko‘plab dastur sohalarida amalga oshirilgan «katta ma’lumotlar» va tovar hisoblash resurslari haqidagi va’da ma’lumotlar siyrak, noxolis va tasodifiy bo‘lib qolayotgan jamoat xavfsizligi sohasida amalga oshirilmadi. Muxtasar qilib aytganda, to‘liq avtomatlashtirilgan oylik yordamchi inson operatori muammosiga juda ko‘p e’tibor qaratilayotganini ko‘rish mumkin, biz muvaffaqiyatsiz xarajatlarni kamaytirish maqsadiga erishish uchun avtomatlashtirish o‘rtasidagi ziddiyatlarga qanday qilib ko‘proq aralashishimiz mumkin[10].

Biometrik texnologiya identifikatsiyalash yoki autentifikatsiya qilish maqsadida shaxsiy xususiyatlar va xususiyatlarni tahlil qiluvchi va o‘lchaydigan identifikatsiyalash texnologiyalarining keng doirasini o‘z ichiga oladi. Bu xususiyatlar yoki belgilar barmoq izlari yoki irisni skanerlash kabi fiziologik xususiyatlar yoki ovoz yoki qo‘l yozuvi kabi xatti-harakatlar xususiyatlarini o‘z ichiga oladi. Biometrik baholash tizimlari an’anaviy token yoki bilimga asoslangan metodologiyaga qaraganda ko‘proq aniqlik, soddalik va katta xavfsizlikni taklif qiladi. Biometrik identifikatsiya texnologiyasi an’anaviy identifikatsiyalash usullari bilan bog‘liq mavjud muammolarni o‘zgartirishi yoki yengillashtirishi mumkin va bu bilan eskisini buzishi va yangi ilovalarni joriy qilishi mumkin. Binobarin, biometrik tizimlar biometrik aniqlikni oshirish, biometrik texnologiyalarni qo‘llash imkoniyatlarini kengaytirish, maxfiylik va xavfsizlikni himoya qilishga e’tibor qaratib, tadqiqotchilar va operatsion tomondan katta e’tiborni tortdi. Biometrik xususiyatga ega bo‘lish o‘tkazilmaydigan va ro‘yxatga olingan xususiyat umumiy nou-xau bo‘lmaganligi sababli, biometrik texnologiyadan foydalangan holda shaxsiy autentifikatsiya da’vo qilingan shaxsni rad etmaslikni ta’minlaydi. Rad etmaslik, xizmatdan foydalanuvchi haqiqatda xizmat ko‘rsatuvchi provayderga taqqoslash uchun biometrik xususiyatni taqdim etishini va ikkalasi

ham rad etmaslik xizmatlari bilan o‘zaro javobgar bo‘lishi mumkinligini tasdiqlaydi. Biometrik tekshirish yondashuvi hisob nomlaridan noto‘g‘ri foydalanishga, shuningdek, yashirin sirlarni ochish, o‘g‘irlash va qayta ishlatishga qarshi kurashishning jozibali usulidir. Biometrik xususiyatlarni tekshirishning o‘ziga xosligi shundaki, aktivlar ruxsatsiz kirishdan samarali himoyalanishi kerak[8].

Kelajakda aqlli shaharlarda jamoat xavfsizligi bo‘yicha yangi texnologiyalarni qo‘llash ko‘payishi kutilmoqda. Aqlli shaharlar hozirdan keyingi yigirma yil va undan keyingi yillarda dunyo aholisining aksariyat qismi uchun hukmron yashash muhitini tashkil etishini hisobga olsak, turli huquqiy va axloqiy jihatlarni, ayniqsa, sun’iy intellektdan foydalanish, mashinalarni o‘rganish, Narsalar interneti, kichik uchuvchisiz uchuvchi samolyotlar, katta ma’lumotlar tahlili va boshqalar. Ushbu bobda bunday texnologik jihatlar va ularning huquq, axloq va jinoyatlarning oldini olish doktrinasiga ta’siri tanqidiy ko‘rib chiqiladi. Muhokama yaxshi tashkil etilgan xalqaro asosga ega. Hozirgi vaqtda huquqbuzarliklar profilaktikasi asosan jinoyatchilikka qarshi kurashning amaliy darajasiga qaratilgan. Axloqiy o‘lchov ko‘pincha e’tibordan chetda qoladigan ko‘rinadi. To‘g‘ri, jinoyatni yo‘q qilishga yordam beradigan vositalar mavjud, ammo bunday choralar fuqarolarning atrof-muhitini xavf ostiga qo‘yish xavfi ham mavjud. Ularning qulay muhiti ularga ishlash, o‘qish, o‘ynash va bo‘sh vaqtlarini o‘tkazish, yolg‘iz qolish yoki oila bilan birga bo‘lish imkonini beradi. Bu politsiyaga kuniga 24 soat nazorat qilish imkonini bermaydi. Ushbu tamoyildan kelib chiqqan holda, aqlli shahardagi sun’iy intellektning raqamli korteksi borgan sari yechilishi qiyin bo‘lgan muammolarni qanday hal qilishi shubhali bo‘lishi mumkin. Bunday keng qamrovli nazorat choralarini qo‘llash fuqarolarni o‘ziga xos ishonchsiz qoldiradi: bu ularning erkinligini yo‘qotadi[8,9].

Bugungi kunda jamiyatda texnologiya tomonidan yaratilgan maxfiylikka tajovuzlarga qaramay, jamoat xavfsizligi agentliklari o‘z jamoalarini himoya qilish uchun ushbu yutuqlardan foydalanmoqda. Maxfiylikka to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiladigan texnologiyaning ikkita sohasi mavjud: biri maxfiylik huquqlari buzilgan hollarda texnologiyadan foydalanishni va texnologiyaning jamiyatga ta’sirini o‘z ichiga oladi. Yangi texnologiyaning fuqarolarning xulq-atvori bilan bog‘liq muammolar va shaxsiy hayotni kuzatish va ularga aralashish qobiliyati xulq-atvorga ta’sir qilish va nazorat qilish uchun birinchi marta «ma’rifat va’dasining fohishaligi» dan foydalanishni anglatishi mumkin. Zamonaviy texnologiyalar, jumladan, genetik implantatsiya qilingan identifikatsiya va kuzatuv tizimlari, takomillashtirilgan ma’lumotlar bazasi texnologiyalari, mijozlar xatti-harakatlarini kuzatuvchi xarid qilish aravalari, milliy identifikatsiya tizimining talablarini amalga oshirish va simsiz aloqa xizmatlaridan foydalanishning ko‘payishi maxfiylik bilan bog‘liq ko‘plab tashvishlarni keltirib chiqardi. Texnologiyaning ko‘p sonli faoliyat bilan shug‘ullanadigan odamlarning faoliyatini kuzatish qobiliyati katta tashvish tug‘diradi. Jamiyatga ta’siri sezilarli. Bunday jamiyatni qo‘llab-quvvatlash uchun zarur bo‘lgan barcha infratuzilma mavjud resurslarning imkoniyatlarini kuchaytiradi va kuchaytiradi. Ta’sir ko‘rsatadigan sohalardan biri jamoat xavfsizligi va buzg‘unchi agentlar, terrorizm orqali himoya qilish yoki savdolashishni xohlaydigan shaxslar yoki uyushgan guruhlar. Bunday faoliyatlar jamiyatning kundalik ishlarini bajarish qobiliyatiga yetarlicha ta’sir ko‘rsatdi, chunki favqulodda xizmatlar, masalan, yong‘in bo‘limlari, qutqaruv guruhlari va boshqa jamoat xavfsizligi agentliklari o‘z-o‘zidan to‘la huquqli idoralarga aylandi. Ularning federal huquqni muhofaza qilish idoralari infratuzilmasiga qo‘shilishi muhim voqea bo‘ldi va tahdidlarning murakkabligi va ko‘lami ortib borayotganiga nisbatan jamoat xavfsizligi evolutsiyasi ushbu idoralar uchun yangi imperativlarni keltirib chiqardi va bundan keyin ham shunday bo‘ladi. Ularning jamiyat uchun barqarorlashtiruvchi kuch sifatidagi funksiyasi bunday aralashuvni talab qiladi, chunki jamoat xavfsizligini ta’minlash jamiyatning barcha boshqa shakllarining ishlashiga imkon beradi. Uning yo‘qligi betartiblik kuchlari uchun suv toshqinlarini ochish bilan tengdir[6,7].

Ma’lumotlar xavfsizligi xavflari

Murakkab, o‘zaro bog‘langan texnologik tizimlardagi zaif tomonlardan foydalangan xakerlar haqida butun dunyo bo‘ylab har kuni dalillarni topish qiyin emas. Balog‘atga etmagan bolalarning sarguzashtlari bilan shug‘ullanmoqchi bo‘lgan past malakali xakerlardan kelib chiqadigan jamoat xavfsizligiga ko‘plab tahdidlar mavjud. Biroq, ko‘pincha hukumat yoki kuchli siyosiy tashkilot tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan juda murakkab, murakkab, yaxshi moliyalashtirilgan aktyorlar tomonidan

ISSN 3030-3230

taqdim etilgan xavfdan ko‘proq. Ushbu aktyorlar to‘plami zaif va zaif tomonlardan yomon yoki jinoiy maqsadlarda foydalanishga intiladi. Ular iqtisodiy va jismoniy xavfsizlik uchun muhim bo‘lgan tizimlarga ishonchni susaytirishdan tortib, katta miqdordagi intellektual mulkni yoki haqiqatan ham pulni tortib olishgacha bo‘lgan maqsadlarga ega bo‘lishi mumkin. Muvaffaqiyatli jinoyatlar, aksariyat hollarda, jinoyatchilar uchun moliyaviy foydali bo‘lgan dunyoda, katta hajmdagi qimmatli va mulkiy ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan texnologik tizimlarga hujum qilish uchun aniq rag‘bat mavjud. Moliyaviy xizmatlar sektori kiberjinoyatlarning haqiqiy nishoni bo‘lib qolmoqda va eng ko‘p hujumga uchragan biznes sektori sifatida tanilgan. Moliyadan keyin aniq ishlab chiqarish keladi. Sog‘liqni saqlash xizmati kabi muhim shaxsiy ma’lumotlarga ega bo‘lgan sektorlar ham jiddiy nishonga olingan. Jinoyatchilar odatda mustaqil xakerlardir. Muhim xavfsizlik choralariga ega bo‘lgan har qanday o‘rnatish odatda potensial tajovuzkorlar tomonidan qiyinchilik sifatida qabul qilinadi. Qiziqarli o‘rnatishda muhim yoki murakkab xavfsizlik mahsulotlarining mavjudligi xakerning hech bo‘lmaganda xavfsizlik texnologiyasini buzish uchun bir qator urinishlar qilish ehtimolini oshiradi.

Tadqiqotni ijtimoiy aniqlashtirish

Vinyetlar deb ham ataladigan amaliy tadqiqotlar ijtimoiy olimlarga tajriba o‘tkazish qiyin, axloqiy bo‘lmagan yoki imkonsiz bo‘lgan mavzular bo‘yicha tadqiqot savollarini o‘rganishga yordam beradi. Bunday sharoitlarda tizimli so‘rov ko‘pincha noto‘g‘ri va amaliy tadqiqotlar ko‘pincha ma’lumotlarni to‘plashning eng mos usuli hisoblanadi. Keys tadqiqotlari bilan tajribaviy va kuzatuv ma’lumotlari to‘planadi. Tajriba yoki so‘rov orqali gipotezalarni yaratish qiyin bo‘lishi mumkin bo‘lgan amaliy tadqiqotlar tadqiqotning kashfiyot bosqichida ayniqsa foydali bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, agar o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlash mumkin bo‘lsa, bir nechta amaliy tadqiqotlar umumiy bilimga hissa qo‘shishi mumkin. Loyihamizning tadqiqot qismida biz professionallar ishtirokidagi fokus-guruhlardan foydalandik. Keyin kundalikni ishonchliligi va qulayligi bo‘yicha sinab ko‘rish uchun batafsil omillar tahlilini va o‘zaro tasnifini o‘tkazdik. Ushbu ish keyingi bo‘limlarda tavsiflanadi. Tajribali tadqiqotdan foydalanish barcha so‘rov tadqiqotlari uchun muhimdir va ta’kidlanganidek, suhbat yoki kundalik tuzilishini loyihalashda foydalanilgan ushbu pilot tadqiqot natijalari bilan fokus-guruhlardan foydalanish orqali yaratilgan natijalar o‘rtasida aloqa o‘rnatilishi mumkin. kundalik. Tajribali kuzatishlarga boy bo‘lishidan tashqari, kundalik ma’lumotlarni qidirish va tahlil qilishning yanada murakkab usullaridan foydalanish va tasdiqlash uchun vositani taqdim etishi mumkin. Respondentlar haqida oldindan kodlangan kuchli taxminlarga ega anketalardan farqli o‘laroq, kundaliklar javoblarni “Ochiq matn” formatida to‘plash imkonini beradi. Kamchilik shundaki, ochiq matn transkriptini tahlil qilish ko‘p vaqt talab etadi va inson ishtirokini talab qiladi [5].

Aqlli shaharlar tashabbuslari texnologiya va shahar infratuzilmasidan foydalanish orqali jamoat xavfsizligini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Ammo ularning mohiyatiga ko‘ra, ular yaxshi tuzilgan shahar shaklida faoliyat yuritib, toza, sog‘lom, aqlli, jonli va farovonroq jamiyatni rivojlantirishga intilishadi. Aqlli shaharlar tarafdorlarining fikricha, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish barqarorlikni, hayot sifatini, xizmatlar ko‘rsatishda samaradorlik va tenglikni oshirishi mumkin. Hozirda Yevropa Ittifoqi o‘z shaharlarini “aqlli” bo‘lish yo‘lida harakat qilishni buyuradi, biroq dunyoning aksariyat yirik shaharlarida allaqachon faol aqlli shaharlar tashabbuslari mavjud. Bunday shaharlarda faol va fuqarolarga yo‘naltirilgan xizmatlarni taqdim etish uchun moslashtirilgan va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘z ichiga olgan muhit bo‘lishi kutilmoqda, bu esa shaharlarning barqaror, raqobatbardosh va innovatsion bo‘lishiga imkon beradi. Oltita asosiy aqlli tashabbuslarga aqlli energiya, aqlli mobillik, aqlli muhit, aqlli odamlar, aqlli hayot, aqlli boshqaruv va aqlli iqtisodiyot kiradi. Shaharlar turli darajadagi qobiliyat, imkoniyat va imkoniyatlarga ega. Shunday qilib, aqlli deb tasniflangan shaharlar tomonidan qo‘llaniladigan faoliyat va operatsion yondashuvlar o‘rtasida tafovut topish ajablanarli emas. Aqlli shaharlar jamoat xavfsizligini oshirishda samarali bo‘lishi uchun jamoat xavfsizligi manfaatdor tomonlarning aqlli shahar tashabbuslarida ishtirok etishi muhimdir. Jamoat xavfsizligining maqsadi hayotni muhofaza qilish va saqlash bilan bog‘liq g‘amxo‘rlikdir. Hayotga hurmat tufayli politsiya qurol olib yurish huquqiga ega va politsiya faoliyatining qonuniyligini aniqlashda hayotni himoya qilishni hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Jamoat xavfsizligi an’anaviy ravishda aqlli shahar faoliyatining bir qator tamoyillarining bir qismini tashkil qiladi va

ularga tayanadi. Ammo farqli tomoni shundaki, jamoat xavfsizligi aqlli hamjamiyat doirasining bir qismi sifatida ko‘rib chiqilishi kerak. Ushbu turkum turli xil aqlli shahar tashabbuslari va jamoat xavfsizligi nazariyasini tavsiflaydi va tushuntiradi. Ko‘plab aqlli shahar tashabbuslari mavjud va ba’zilari boshqalardan ko‘ra ko‘proq mashhur. Bu, qisman, tashabbusga bag‘ishlanishi mumkin bo‘lgan mavjud resurslar va shahar va uning aholisining tashabbusga tayyorlik darajasi bilan bog‘liq. Ushbu turli tashabbuslar raqamli belgilar, intellektual transport tizimlari (ITT) va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) kabi turli raqamli va boshqa texnologiyalarning kombinatsiyasini talab qiladi. Ushbu aqlli tashabbuslar shahar xizmatlari sifati va samaradorligini oshirish, shahar xarajatlari va resurslarni sarflashni kamaytirish, fuqarolar va hukumat o‘rtasidagi aloqani yaxshilashga yordam beradi. Aqlli shahar ilovalari mashinadan mashinaga (M2M) texnologiyalari yoki narsalar interneti (IoT) yordamida ishlaydi, turli ilg‘or aqlli qurilmalar, sensorlar, boshqaruv tizimlari va shahar ma’lumotlarini xavfsiz tarmoq orqali axborot bilan ta’minlash, asosiy afzalliklarini aniqlash va shahar boshqaruvining kamchiliklari,va umumiy hayot sifatini yaxshilash.

Huquqni muhofaza qilish organlarida tanaga taqilgan kameralar

Garchi tanaga kiyiladigan kameralar huquqni muhofaza qilish organlarida texnologik taraqqiyotning nisbatan yangi sohasi bo‘lsa-da, bu kamera tizimlari jamoat xavfsizligi kun tartibida allaqachon yuqori ko‘rinishga erishgan. Ommaviy axborot vositalari va advokatlar fuqarolarning shikoyatlarini hal qilishda ham, hibsda o‘lim holatlarini ko‘rib chiqishda ham, oldindan aytib bo‘lmaydigan va tez-tez o‘zgaruvchan qarama-qarshilik sharoitida huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatining obyektiv hisobini ta’minlashning bir usuli sifatida tanaga kiyiladigan kameralarni himoya qiladi. Yozib olish moslamasining ko‘zga ko‘rinadigan mavjudligi to‘qnashuvlarda qatnashgan ofitserlar va fuqarolarning yaxshi xulq-atvorini uyg‘otishi kutilmoqda, aks holda u erda bo‘lmagan dalillarga asoslangan politsiya “cheklovi” vazifasini bajaradi. Ba’zilar, qasamyod qilgan zobitlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarlik holatlari kamayishini, qonuniy kuch ishlatish ko‘payishini va huquqni muhofaza qilish organlarida tanaga taqilgan kameralar mavjudligi natijasida nojo‘ya xatti-harakatlar bo‘yicha fuqarolarning shikoyatlari kamayishini kutishadi. Biroq, hozirgi vaqtda tanaga kiyiladigan kameralar jamiyatning belgilangan ehtiyojlari yoki talablariga qanchalik javob berayotgani ochiq tashvish bo‘lib qolmoqda. Tanaga kiyiladigan kameralar shaffoflikka erishadimi va jamoatchilikni tashvishga soladigan xatti-harakatlarni yoritadimi? Foydalanish siyosati va hamjamiyatlarning texnologiya haqida juda ijobiy qarashlari mavjud bo‘lsa-da, ular undan jamoatchilikka eng ko‘p foyda keltiradigan sharoitlarda foydalanmoqdami va ular ushbu yozuvlar olingan ma’lumotlarni shaffof tekshirish va baholash uchun taqdim etadimi? huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati? Tanaga kiyiladigan kamera haqidagi bilimlar kundan-kunga o‘sib borayotgan bo‘lsa-da, tadqiqot hali ham texnologiyaning mo‘ljallangan va kutilmagan ta’siri nuqtai nazaridan juda chuqur noma’lumlarga ega va davomli tadqiqotlar tavsiya etiladi. Avtoulov kameralari yoki tanaga kiyiladigan kameralar bo‘ladimi, audio-video yozib olish amaliyotlarining cheklangan sharhlari, bu amaliyotlar DNK tahlilidagi yutuqlarga o‘xshash yutuqlarga erishayotganini ko‘rsatadi, ammo ular iste’mol qilinadigan resurslardan azob chekishda davom etmoqda. jarayon orqali. va boshqa yordamchilar hujjatlar qachon kuzatuvga aylanishi va bu texnologiyalar tergovni yakunlashda yordamchidan ko‘ra ko‘proq operativ ta’sir qiladimi, deb so‘rab, yuzni tanish texnologiyasi bo‘yicha munozara uyushtirdilar. Bugungi kunga kelib, tanaga kiyiladigan kameralarning haqiqiy ekspluatatsion xarajatlari yoki tejamkorligi aniqlanmagan. Hozirgi vaqtda tanaga kiyiladigan kameralarning mexanik va fiskal natijalariga oid adabiyotlar kam.

Kelajakdagi yo‘nalishlar va tavsiyalar

Mualliflar, paydo bo‘lgan va ustuvor raqamli vositalarni va yaqin kelajakdagi axborot texnologiyalariga investitsiyalar, siyosatlar, texnologiyalar va munosabatlarni o‘zlashtirish natijalari bo‘yicha doimiy kuzatuv huquqni muhofaza qilish organlari va demokratiyaning barcha a’zolari jamoalar o‘rtasidagi munosabatlar uchun o‘rnatilishi va doimiy ravishda kuzatilishi kerakligini taklif qiladi. Mavjud har bir inson huquqlariga hurmat talabini baholashga ustuvor ahamiyat beradigan dolzarb mavzular, mavjud tadqiqotlar tomonidan yetarli darajada hal etilmagan sohalar, qayta aniqlangan favqulodda

ISSN 3030-3230

atamalarning o‘ziga xosligi, tadqiqot xatti-harakatlariga asoslangan mavzular va xatti-harakatlar kuzatuvlari yetarlimi yoki imkoniyatlar yoki texnologiyalarda tizimli ta’sirlar mavjudmi , shuningdek, individual jinoyatchilikka qarshi kurashning ta’siri; o‘zaro ta’sirni yoki jamoat xulosalaridan foydalanishni, o‘rtacha va o‘ta katta miqdordagi resurslarni talab qiladigan yoki jamiyatning chidamliligini tiklash uchun kutilayotgan hodisalar uchun o‘tkaziladigan favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik tadbirlari. Tergov yoki ijro etish asosan jinoiy xatti-harakatlardan kelib chiqmasa, sud tomonidan aniqlangan shaxsning xatti-harakatlari yoki hodisalarini aniqlashga tizimning o‘zaro ta’siri va qobiliyati; har bir insonning huquqlarini himoya qilish va ishonchga olib kelishi, shuningdek, individual foydalanish faoliyati kabi qonun ustuvorligi orqali tahlildan tahlil qilishni talab qiluvchi tizimlarga ham bir xil darajada tayanadi. Jamoat politsiyasi faoliyatining kuchli an’anasi - chidamlilikni saqlab qolish uchun ularga texnologiya talab qilmasdan turib yondashishdir. Keyingi qadamlar bizning ishlab chiqilgan texnologiyalarimiz va Konstitutsiyada nazarda tutilgan buyruqni amalga oshirish o‘rtasidagi keskinlik sohasida huquqshunos olimlar bilan tahlilni o‘z ichiga olishi kerak

Zamon talablariga mos axborot texnologiya vositalarini jamiyat hayotiga tatbiq qilish va ijtimoiy-iqtisodiyotni raqamlashtirish, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari xodimlari tomonidan dasturiy platformalar va sun’iy intellekt vositalarini ishlab chiqib uni to‘g‘ri yo‘nalishga safarbar etib kelishmoqda. Dasturiy va apparat vositalarini kelajakda ishlash taklif etish o‘z navbatida jamoat xavfsizligiga ta’sir etmay qolmadi. Jamoat xavfsizligi sohasidagi texnologik yutuqlar bilan bir qatorda kuzatuv va monitoring tizimlari ma’lumotlar xavfsizligi xavflari tadqiq etishni davr talabi sifatida qabul qilinadi. Tadqiqotni ijtimoiy aniqlashtirish va huquqni muhofaza qilish organlarida tanaga taqilgan kameralar kelajakdagi yo‘nalishlar va tavsiyalarni huquqni muhofaza qilish organlari, jamoalar o‘rtasidagi munosabatlar uchun o‘rnatilishi va doimiy ravishda kuzatilishi kerakligini taklif qiladi.

Аннотация: В статье исследуется влияние информационных технологий на общественную безопасность в современном обществе. Проанализированы технологические достижения в области общественной безопасности, системы наблюдения и мониторинга, риски безопасности данных, социальное разъяснение исследований, камеры, носимые на теле в правоохранительных органах, будущие направления и рекомендации.
Ключевые слова: программное обеспечение и аппаратные технологии, информационно-коммуникационные технологии, общественная

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. А.О. Завьялова. Влияние информационных технологий на национальную безопасностьгосударства
2. С. М. Иванов, А. С. Иванов. Роль информацинных технологий в обеспечении национальной безопасности
3. Безопасность информационных технологий: Вызовы и тенденции
4. Daniel Araya, Mai Mavinkurve. Emerging Technologies, Game Changers and the Impact on National Security.
5. Егшатян М. И.,Титова Е.Р Информационная безопасность в современном мире
6. Крицкая А.А., Безрукова Д.С., Пустовалова Ю.С. и др. Роль информационных технологий в обеспечении национальной безопасности
7. Roba Abbas, Katina Michael, Jeremy Pitt, Kathleen M. Vogel, and Mariana Zafeirakopoulos, Artificial Intelligence (AI) in Cybersecurity: A Socio-Technical Research Roadmap.
8. Seharish Gillani, Ahmed Dermish and Jeremiah Grossman of the UNCDF Policy Accelerator. The role of cybersecurity and data security in the digital economy.
9. Maria Eflova, Yulia Vinogradova, and Aleksandr Vitushkin. The impact of artificial intelligence on the development of modern society.
10. Security policy impact in the modern world

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YASHIRIN IQTISODIYOT ULUSHINI QISQARTIRISHDA ZAMONAVIY SOLIQ MA’MURCHILIGINI JORIY ETISHGA OID

Nabiyev Feruz Nurmurodovich,
Iqtisodiyot va moliya vazirligi Soliq-bojxona siyosati va daromadlarni prognozlashtirish departamenti yetakchi mutaxassisi

Annotatsiya. **Mazkur maqolada budjet tushumlari barqarorligini ta’minlashda zamonaviy soliq ma’murchiligini joriy etishning muhimligi tadqiq etilgan. Shuningdek, soliq ma’murchiligining bugungi kun holati tahlil qilingan, budjet barqarorligiga salbiy ta’sir qiluvchi omillar hamda rivojlangan mamlakatlarning ilg‘or tajribalari o‘rganilgan. Yuqorida qayd etilgan holatlardan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasida zamonaviy soliq ma’murchiligini soliq organlari faoliyatini transformatsiyasi orqali amalga oshirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.**

Kalit so‘zlar: zamonaviy soliq ma’murchiligi, deklaratsiya, yuqori daromadga ega jismoniy shaxslar, soliq inspeksiyasi, soliq qarzdorligi inspeksiyasi, hududlararo soliq inspeksiyasi, mahalla soliq inspektori, o‘ta yirik soliq to‘lovchilar ma’murchiligi, inson resurslari tizimi, korrupsiyaga nisbatan immunitet.

Bugungi kunda, budjet daromadlari barqarorligini ta’minlash, soliq ma’murchiligining shaffof tizimini yo‘lga qo‘yish, yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish hamda sohadagi korrupsiya holatlarini bartaraf etish soliq xizmati organlari oldidagi eng dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Mazkur yo‘nalishlarda hukumatimiz tomonidan tizimli islohotlar olib borilmoqda.

Xususan, tadbirkorlik subyektlariga soliq yukini kamaytirish maqsadida soliq turlari 16 tadan 9 taga kamaytirildi. O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi qabul qilindi, 2019-yil 1-yanvardan boshlab majburiy ajratmalar (3,2%) bekor qilindi. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i stavkasi tijorat banklari uchun — 22 foizdan 20 foizga, dividendlar va foizlar ko‘rinishidagi daromadlar bo‘yicha to‘lov manbaidan ushlab qolinadigan foyda solig‘i stavkasi 10 foizdan 5 foizga, mol-mulk solig‘i stavkasi 5 foizdan 2 foizga, yagona soliq to‘lovi stavkasi 5 foizdan 4 foizga va yagona ijtimoiy to‘lov stavkasi 15 foizdan 12 foizga pasaytirildi.

Shuningdek, jismoniy shaxslarning ish haqidan olinadigan 8 foizli sug‘urta badali bekor qilindi hamda soliq stavkasi 22,5 foizgacha bo‘lgan 4 pog‘onali daromad solig‘ining yagona stavkasi 12 foiz etib belgilandi.

Budjetdan tashqari jamg‘armalarga mazkur yig‘imlarni bekor qilish hisobiga 7 mingga yaqin korxonalar har yili o‘rtacha 6 trln so‘m soliq to‘lashdan ozod etildi.

Bundan tashqari, iqtisodiyotga soliq yukini adolatli taqsimlash hamda qo‘shilgan qiymat solig‘i zanjiri uzluksizligini ta’minlash maqsadida tovar aylanmasi 1 mlrd so‘mdan oshgan soliq to‘lovchilar QQS to‘lashi belgilandi va mazkur soliq stavkasi 20 foizdan 12 foizga tushirildi hamda qo‘shilgan qiymat solig‘ini qoplab berish amaliyoti joriy etildi.

Shu bilan birgalikda soliq yukini kamaytirish orqali tadbirkorlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash borasida amalga oshirilgan bir qator ijobiy ishlar natijasida umumbelgilangan soliq to‘lovchilar soni 23 barobarga (178 ming) ortdi. Rasmiy band bo‘lgan xodimlar soni 130 foizga (5,1 mln nafar) ko‘paydi. Yuridik shaxs sifatida mol-mulk solig‘ini to‘lovchi korxonalar soni 8,4 barobarga (77,3 mingta) oshdi.

Shuningdek, tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan umumiy tarzda berilgan yengillik va imtiyozlar natijasida ularning ixtiyorida 2017-2023 yillarda 281,3 trln.so‘mga yaqin mablag‘ qoldirildi.

Yuqorida keltirib o‘tilgan islohotlar shuningdek, milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sishi, tadbirkorlik subyektlari sonining oshishi hamda faoliyatlarning kengayishiga qaramasdan soliq xizmati organlari samaradorlik ko‘rsatkichlarini yanada oshirish bo‘yicha bir

ISSN 3030-3230

qator imkoniyatlar mavjud.

Adabiyotlar sharhi

Zamonaviy soliq ma’murchiligini joriy etish orqali mamlakatning budjet-soliq siyosati samaradorligini oshirish bo‘yicha bir qator xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tadqiqot olib borishgan. Xususan, g‘arb olimlari K.Taufik [1], S.Fabrizio, S.Kalestine va O.Oyyebolalar [2] zamonaviy soliq ma’murchiligini joriy etishda raqamli texnologiyalarning muhimligi, normativ-huquqiy bazani soddalashtirish, institutsional strategiyani amalga oshirish hamda inson resurslariga alohida e’tibor qaratish zarurligini ta’kidlab o‘tganlar.

Bundan tashqari, rus tadqiqotchi olimlari Ye.Gorshenina [3], Ye.Noyeva va V.Evseyevlar [4] budjet soliq siyosati samaradorligiga bevosita soliq ma’murchiligini takomillashtirish orqali erishish mumkinligini aytib o‘tishgan. Bunda, soliq ma’murchiligini takomillashtirishda birinchi navbatda soliq stavkalarining tadbirkorlik subyektlari uchun qulay bo‘lgan me’yorlarda bo‘lishi (Laffer egri chizig‘i misolida) shuningdek, soliqqa tortish mexanizmining sodda ekanligi muhim ahamiyat kasb etishi ta’kidlangan.

Shu bilan birgalikda, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining 2022-yilgi hisobotida rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda soliq ma’murchiligining joriy holati hamda uni isloh qilish bo‘yicha tegishli taklif va tavsiyalar keltirib o‘tilgan. Mazkur takliflarda asosan inson omilini maksimal qisqartirish, biznes jarayonlarni raqamlashtirish hamda soliq yukini tegishli maromda saqlab turish keltirib o‘tilgan. [5]

Shuningdek, mahalliy tadqiqotchi olimlar Sh.Tashmatov [6] transfert narxlarni belgilashda soliq nazoratini takomillashtirish, I.Niyazmetov [7] soliq siyosatidagi bo‘shliqlarni istiqbolli soliq mexanizmlarini joriy etish orqali to‘ldirish, S.Voronin [8] zamonaviy soliq islohotlarida soliqqa tortishning ilmiy asoslariga mos kelishiga alohida e’tibor qaratib o‘tgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot doirasida “O‘zbekiston Respublikasida zamonaviy soliq ma’murchiligini joriy etish orqali budjet-soliq siyosati samaradorligini yanada oshirish” mavzusiga doir empirik ma’lumotlar tahlili o‘tkazildi. Shu bilan birgalikda, “kontent” tahlil, “SWOT” tahlil, “Pattern” metodi, ekspert so‘rovi hamda dala so‘rovlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Yuqori daromadga ega bo‘lgan jismoniy shaxslarni maxsus deklaratsiya asosida soliqqa tortish tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha

Hozirda, jismoniy shaxslar tomonidan olingan daromadlarni soliq xizmati organlarida deklaratsiya asosida rasmiylashtirish amaliyoti joriy etilgan bo‘lsa-da, ayrim fuqarolar tomonidan soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash hamda olingan daromadlarni yashirish holatlari kuzatilmoqda.

Ma’lumot o‘rnida: 2022 yilda jami 1 399 nafar jismoniy shaxslar tomonidan 4 639,2 mlrd. so‘m miqdoridagi xarajatlar amalga oshirilgan bo‘lib, mazkur fuqarolarning 44 foizi (yoki 612 nafari) rasmiy ish joyiga ega bo‘lmagan biroq, daromadi 4 591,2 mlrd.so‘mni, 56 foizi (yoki 787 nafari) rasmiy ish joyiga ega biroq, daromadi 47,9 mlrd.so‘mni tashkil qilgan.

Mazkur amaliyot bo‘yicha bir qator ilg‘or xorijiy mamlakatlar (Shveysariya, Norvegiya, Ispaniya, Niderlandiya, Italiya, Argentina) tajribalari o‘rganib chiqilganda, yuqori miqdordagi daromadga va mol-mulkka ega bo‘lgan jismoniy shaxslarga nisbatan “majburiy deklaratsiya” asosida soliqqa tortish tartibi joriy etilganligi ma’lum bo‘ldi. Bundan tashqari, “Capgemini” menejment va axborot texnologiyalari bo‘yicha maslahat kompaniyasi tomonidan yuqori daromadga ega bo‘lgan shaxslar daromad miqdoridan kelib chiqib, 5 ta guruhga sementlangan. [9]

Yuqorida keltirilgan holatlarni bartaraf etish shuningdek, budjet daromadlarining barqarorligini ta’minlash maqsadida amalga oshirilgan xarajatlardan kelib chiqqan holda yuqori daromadga (5 mlrd so‘mdan ortiq) ega bo‘lgan jismoniy shaxslarni (Nigh Net Worth Individuals) maxsus deklaratsiya asosida soliqqa tortish tizimini joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Soliq ma’murchiligida yagona soliqqa tortish rejimini joriy etish bo‘yicha

So‘nggi yillarda milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sishi, tadbirkorlik subyektlari sonining oshishi hamda faoliyatlarning kengayishiga qaramasdan hududiy soliq xizmati organlarining ish samaradorligi ko‘rsatkichlari turg‘un holatda saqlanib qolmoqda. Mazkur muammoni keltirib chiqaruvchi bir qator omillar mavjud.

Xususan, soliq qonunchiligida soliqqa tortishning yagona rejimi mavjud emas. Ya’ni

tadbirkorlik subyektlari aylanma hajmidan kelib chiqib, 3 xil turdagi tabaqalashtirilgan soliq rejimlari asosida soliqqa tortiladi. Shuningdek, bugungi kunda fuqarolar yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro‘yxatdan o‘tmasdan, 100 dan ortiq faoliyat turi bilan o‘zini o‘zi band qilish bilan shug‘ullanishi mumkin. Bunda, mazkur shaxslar tomonidan mehnat staji hisoblanishi uchun budjetdan tashqari pensiya jamg‘armasiga ijtimoiy soliq to‘lanadi. Ushbu soliqqa tortish rejimlarining rang-barangligi tadbirkorlik subyektlari tomonidan olgan daromadlarini soliqdan bo‘yin tovlash maqsadida yashirish uchun imkoniyat sifatida foydalanib kelinmoqda (1-jadval).

2023 yilda tadbirkorlik subyektlari tomonidan to‘langan soliqlar hamda soliq rejimlari bo‘yicha soliq yukining qiyosiy-tahliliy jadvali [10]

1-jadval

	O‘zini-o‘zi band qilganlar	Qat’iy soliq to‘lovchi YATTlar*	AOS to‘lovchilar (YATT, Yuridik shaxslar)*	Umumbelgilangan tartibda soliq to‘lovchilar (YATT, Yuridik shaxslar (yirik soliq to‘lovchilardan tashqari))*
Soni (ming nafar)	2 500,0	195,0	356,5	211,1
To‘laydigan soliqlari	Ijtimoiy soliq (ixtiyoriy)	Daromad solig‘i, ijtimoiy soliq	Aylanmadan olinadigan soliq	Foyda solig‘i, QQS, Ijtimoiy soliq, yer va mol-mulk solig‘i
Soliqlar summasi (mlrd.so‘m)	90,5	399,0	2 407,3	24 435,9
O‘rtacha soliq yuklamasi (ming. so‘m)	36,4	2 046,1	6 752,6	115 755,0

**Izoh: YATTlar soni – 240,7 mingta, yuridik shaxslar soni – 501,7 mingtani tashkil etgan.*

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, bugungi kunda tadbirkorlik subyektlari tomonidan soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash maqsadida olingan daromadlarini yashirish, tovar-aylanmalarini kamaytirib ko‘rsatish orqali soliq rejimlarida imkoniyati mavjud. Bundan tashqari muammoni keltirib chiqaruvchi omil sifatida hududiy soliq xizmati organlarining soliq to‘lovchilar bilan o‘zaro hamkorlikdagi munosabatlari (til biriktirish) orqali soliq to‘lovchining soliqdan bo‘yin tovlashga bo‘lgan harakatini keltirish mumkin.


Soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash holatlarini bartaraf etish, soliq to‘lovchilarga teng raqobat muhitini yaratish hamda davlat budjeti barqarorligini ta’minlash maqsadida biznes uchun yagona tartibdagi soliq rejimini joriy etish. Mazkur rejimda tadbirkorlik subyektlari tovar-aylanmalari hajmidan qat’iy nazar bir xil miqdordagi soliq yukini (soliq stavkalarini) belgilash zarur.

Korrupsiyadan holi bo‘lgan hududlararo soliq inspeksiyalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha.

Hozirda, soliq ma’murchiligidagi mavjud bo‘lgan turli xildagi soliqqa tortish rejimlari tadbirkorlik subyektlari hamda hududiy soliq xizmati organlarining o‘zaro hamkorlikdagi faoliyatini kuchaytirishga imkoniyat yaratmoqda. Xususan, tadbirkorlik subyektlari tovar-aylanmalarini oshib ketmasligi maqsadida yashirin faoliyat yuritsa-da ushbu holatlarga manfaat evaziga loqayd bo‘lish uchun soliq xizmati organlari xodimlari bilan munosabatga kirishmoqdalar.

Mazkur munosabatlarni bartaraf etish, tizimda korrupsiya holatlarini oldini olish, shaffof soliq ma’murchiligini yo‘lga qo‘yish hamda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish maqsadida hududiy soliq inspeksiyalari samaradorligi va joylashgan joyning xususiyatlaridan kelib chiqib, ularni optimallashtirgan holda 2 - 3 ta hududni qamrab oladigan tumanlararo soliq inspeksiyalari faoliyatini bosqichma-bosqich joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi (1-rasm).

ISSN 3030-3230



1-rasm. Eksterritoriallik prinsipi asosida hududlararo soliq inspeksiyasi faoliyatini yo‘lga qo‘yish

Soliq xizmati organlarida markazlashtirilgan yagona murojaatlar bilan ishlash tizimini joriy etish bo‘yicha

Bugungi kunda, soliq xizmati organlarida soliq to‘lovchilar tomonidan yuborilgan murojaatlarni (xat, telefon, telegram, ijtimoiy tarmoqlar orqali) hisobga yurituvchi yagona platforma shuningdek, mazkur murojaatlarni ko‘rib chiqilishi holati bo‘yicha qayta aloqa (feedback) tizimi yo‘lga qo‘yilmagan. Natijada, soliq to‘lovchilar tomonidan noroziliklarning bildirilishi fonida soliq xizmati organlarining salbiy imidjini shakllanishiga sabab bo‘lmoqda.

Ma’lumot o‘rnida: 2023 yilda jami soliq xizmati organlariga kelib tushgan, murojaatlar soni 1276,8 ming.ta (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 64,1 mingtaga ko‘p)ni tashkil etib, shundan, 429,7 mingtasi (yoki 33,6 foiz) bevosita soliq xizmati organlari tomonidan 847,1 mingtasi (yoki 66,3 foiz) Soliq qo‘mita huzuridagi “Soliq servis” DUK tomonidan ko‘rib chiqilgan. Murojaatlarda o‘tgan yilning mos davriga nisbatan quyidagi yo‘nalishlarda o‘sish dinamikasi kuzatilgan. Xususan, 1) Soliqqa oid tushuntirishlar berish – 18 foizga, 2) Soliqlardan ozod qilish va imtiyozlar berish – 48 foizga, 3) Tadbirkorlik subyektlari faoliyatidagi qonunbuzarliklar – 25 foizga, 4) Tizim xodimlari ustidan shikoyat – 2 foizga hamda boshqa yo‘nalishlardagi murojaatlar – 18 foizga o‘sgan. [11]

Shu bilan birgalikda, Soliq qo‘mitasida ijtimoiy tarmoqlarda soliq xizmati organlari imidjiga putur yetkazadigan maqolalar, izohlar va ma’lumotlarni real vaqt rejimida monitoring qilish hamda operativ tarzda choralarni ko‘rish xususiyatiga ega bo‘lgan tizim yoki tuzilma faoliyati yo‘lga qo‘yilmagan.

Ma’lumot o‘rnida: hozirda ko‘plab ijtimoiy tarmoqlarda kontent tahlil olib borish imkoniyati yo‘lga qo‘yilgan. Xususan, “Telegram” ilovasi orqali soliq qo‘mitasi faoliyatiga oid barcha maqola, repost, izohlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni “TGStat” internet sayti orqali aniqlash mumkin. Bunda, “Soliq qo‘mitasi” so‘zlari ishlatilgan barcha kontentlar bir interfeysda yig‘iladi hamda ijobiy va salbiy guruhlarga ajratiladi.

Soliq to‘lovchilarga qulaylik yaratish, soliq bo‘yicha murojaatlarning yagona bazasini shakllantirish, mazkur murojaatlarning hal qilinishi bo‘yicha qayta aloqani yo‘lga qo‘yish orqali soliq xizmatining imidjini yanada oshirish shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda soliq xizmati organlari to‘g‘risidagi kayfiyatdan xabardor bo‘lish hamda o‘z vaqtida chora ko‘rish maqsadida Soliq qo‘mitasida Yagona murojaatlar hamda situatsion markaz faoliyatini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiqdir.

Soliq qarzdorligini qisqartirish maqsadida yangi institutsional tizim hamda mexanizmni joriy etish bo‘yicha

So‘nggi yillarda olib borilgan islohotlar natijasida soliq ma’murchiligi soddalashtirilgan, soliq turlari qisqartirilgan hamda soliq stavkalari pasaytirilgan bo‘lishiga qaramasdan, tizimda

soliq to‘lovchilarning boqimandaligi dinamikasi oshib bormoqda (2-jadval).

Soliq qarzdorligining o‘sishi dinamikasi to‘g‘risidagi jadval [12]

2-jadval
mlrd.so‘mda

Soliq turlari	01.01.2023	01.01.2024	Farqi	
			So‘mda	Foizda
Foyda solig‘i	965,4	2 121,1	1 155,6	119,7
Yer solig‘i	887,4	1 496,2	608,8	68,6
Suv solig‘i	262,6	370,3	107,7	41,0
QQS	4 355,4	5 864,3	1 508,8	34,6
Mol-mulk solig‘i	273,5	340,4	66,9	24,5
Daromad solig‘i	810,3	966,2	155,9	19,2
Aylanmadan soliq	426,1	403,8	-22,3	-5,2
Aksiz	273,6	204,4	-69,2	-25,3
Nedra	288,7	58,1	-230,6	-79,9
Jami	**8 543,0**	**11 824,7**	**3 281,7**	**38,4**

Soliq qarzdorligining o‘sish dinamikasi bevosita soliq qarzini undirish mexanizmining yetarli darajada takomillashmaganligi, soliq qarzini qisqartirish bo‘yicha olib borilayotgan faoliyat samaradorligining past ekanligidan dalolat beradi.

Yuqorida kuzatilgan salbiy tendensiyani oldini olish shuningdek, soliq nazorati va soliq qarzini undirish bo‘yicha amalga oshiriladigan ishlarni takomillashtirish hamda markazlashtirilgan nazorat tizimini joriy qilish maqsadida Soliq qo‘mitasi huzurida Soliq nazorati va soliq qarzi bilan ishlash bo‘yicha hududlararo soliq inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish hamda inspeksiyasining quyidagi asosiy vazifalarini belgilash maqsadga muvofiq hisoblanadi:

tadbirkorlik subyektlarida yagona prinsip asosida soliq tekshiruvlarini o‘tkazish;

doimiy ravishda soliqqa oid huquqbuzarliklarni oldini olish hamda profilaktik tadbirlarni o‘tkazish;

yuzaga kelgan soliq qarzini undirish va unga oid sud va soliq organlari qarorlari ijrosini ta’minlash.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, ilg‘or mamlakatlar tajribalari, xalqaro miqyosdagi iqtisodchi olimlar ilmiy ishlari hamda mamlakatda soliq ma’murchiligi bo‘yicha tahlillar natijasi zamonaviy soliq ma’murchiligini joriy etishda bir qator tizimli islohotlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda.

Yuqorida sanab o‘tilgan muammolarni bartaraf, soliq ma’murchiligidagi biznes jarayonlarni optimallashtirish, soliq xizmatlari sifatini yanada oshirish shuningdek, soliq xizmatida professional kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida, quyida keltirib o‘tilganlarni joriy etish zarurdir:

- **2024 – 2030 yillarda soliq ma’murchiligi va soliq organlarini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish hamda mazkur strategiya doirasida maqsadli ko‘rsatkichlarni belgilash;**
- **Soliq to‘lovchilarga ko‘rsatilayotgan xizmat sifatini yanada oshirish shuningdek, soliq qonunchiligi bo‘yicha yagona yondashuv asosida maslahatlar berish tizimini yo‘lga qo‘yish (bunda, Soliq qo‘mitasi markaziy apparati tarkibiy tuzilmasida murojaatlar bilan ishlash bo‘yicha alohida tuzilma faoliyatini tashkil etish);**
- **Soliq organlari tomonidan tadbirkorlik subyektlariga (ariza beruvchilarga) muayyan bitim bo‘yicha soliqqa tortish va uning yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan soliq oqibatlarini dastlabki baholash to‘g‘risida “Tax rulling” tamoyili asosida xizmatni yo‘lga qo‘yish;**
- **Soliq organlari xodimlari faoliyatining samaradorligini baholash (KPI) tizimini joriy etish. Bunda, har bir soha yo‘nalishlari bo‘yicha strategik, taktik va operativ baholash indikatorlarini ishlab chiqish. Mazkur tizim asosida xodimlarning samaradorlik ko‘rsatkichlaridan kelib chiqib, rag‘batlantirish mexanizmini joriy etish;**
- **Soliq nazorati va soliq qarzini undirish bo‘yicha amalga oshiriladigan ishlarni takomillashtirish hamda markazlashtirilgan nazorat tizimini joriy qilish maqsadida Soliq qo‘mitasi huzurida Soliq nazorati va soliq qarzi bilan ishlash bo‘yicha hududlararo soliq inspeksiyasini tashkil etish.**
- **Soliq organlarida korrupsiya holatlarini bartaraf etish shuningdek, soliq to‘lovchi va soliq organlari xodimlari o‘rtasida til biriktirish**

ISSN 3030-3230

holatlarini oldini olish maqsadida hududlararo soliq inspeksiyalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish.

Soliq qo‘mitasi tarkibiy tuzilmasida soliq tizimining joriy holatini, soliq ma’murchiligidagi muammo va kamchiliklarni tizimli ravishda tahlil qilish, soliq tizimini takomillashtirish hamda zamonaviy soliq ma’murchiligini joriy etish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar markazi faoliyatini yo‘lga qo‘yish.

Аннотация. В данной статье рассматривается значение внедрения современного налогового администрирования в обеспечении стабильности доходов бюджета. Также анализируется современное состояние налогового администрирования, изучаются факторы, негативно влияющие на бюджетную стабильность, и передовой опыт развитых стран. С учетом вышеизложенных обстоятельств разработаны предложения и рекомендации по внедрению современного налогового администрирования в Республике Узбекистан путем трансформации деятельности налоговых органов.

Ключевые слова: Современное налоговое администрирование, декларация физических лиц с высокими доходами, проверка налоговой задолженности, межрегиональная налоговая инспекция, районный налоговый инспектор, администрирование особо крупных налогоплательщиков, кадровая система, иммунитет от коррупции.

Abstract. This article discusses the importance of introducing modern tax administration in ensuring the stability of budget revenues. The current state of tax administration is also analyzed, factors that negatively affect fiscal stability, and the best practices of developed countries are studied. Taking into account the above circumstances, proposals and recommendations have been developed for the introduction of modern tax administration in the Republic of Uzbekistan by transforming the activities of tax authorities.

Key words: Modern tax administration, declaration of individuals with high incomes, verification of tax debt, interregional tax inspectorate, district tax inspector, administration of especially large taxpayers, personnel system, immunity from corruption.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Modernization of the Tax Administration System: A Theoretical Review of Improving Tax Capacity” E3S Web of Conferences 73, (2018)
2. “The promise and limitations of information technology for tax mobilization” World bank blogs march 15, 2023.
3. “Бюджетно-налоговая система государства” Экономическая теория. Учебное пособие. – Тверь: ТвГУ, 2012.
4. “Реализация бюджетно-налоговой политики государства” УДК 336.02 DOI 10.23672/t0403-6841-8028-e.
5. “Перечень инициатив в области налоговых технологий” ОЭСР (2022 г.), https://www.oecd.org/tax/forum-on-tax-administration/tax-technology-tools-and-digital-solutions/.
6. “Трансферт нархларни белгилашда солиқ назоратини такомиллаштириш” Тошкент молия институти Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция материаллар тўплами Тошкент – 2022.
7. “Солиқ сиёсатидаги бўшлиқлар” Ўзбекистон Республикасида солиқ маъмуриятчилиги самарали фаолиятини таъминлаш: назарийконцептуал асослар ва амалиёт муаммолари мавзусидаги конференция тўплами. Тошкент – 2022.
8. С.А.Воронин “Пути развития классификации налогов и сборов в Республике Узбекистан” Ташкент – 2022.
9. Франция давлати Глобал ва инновацион консалтинг компаниясининг 2023 йилги ҳисоботи https://www.capgemini.com/us-en/about-us/who-we-are/our-brands/capgemini-engineering/
10. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги 2023 йилги ҳисоботи ҳамда Солиқ қўмитасининг “Factbook 2023” журнали.
11. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Солиқ қўмитасининг 2023 йил якунлари бўйича ҳисоботи “Factbook 2023”.
12. Солиқ қўмитасининг расмий веб сайти https://soliq.uz/page/elektron-broshyuralar-2.

HARBIY XIZMATCHILARNING IJTIMOIY HIMOYASIDA PENSIYA TA’MINOTINING O‘RNI

Berdiyeva Umida Ubaydullayevna,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. **Ushbu maqolada davlat tomonidan harbiy xizmatchilarga belgilangan ijtimoiy ta’minot, ijtimoiy himoya tushuncha, turlari va imtiyozlari bayon etilgan bo‘lib, alohida harbiy pensiyani mohiyatiga va ahamiyatiga urg‘u qaratilgan. Shu bilan birga fuqarolik pensiyasi bilan harbiy pensiya solishtirish orqali ularni afzalliklari tahlil qilingan. Bundan tashqari mamlakatimizda “Harbiy xizmatchilar (xodimlar) va ularning oila a’zolarining davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi Qonun loyihasi harbiy xizmatchilar pensiya ushbu sohani rivojlantirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.**

Kalit so‘zlar: ijtimoiy ta’minot, ijtimoiy himoya, pensiya, nafaqa, pensiya ta’minoti, pensiya olish huquqi, xizmat yillari, pensiya tayanch miqdori, pensiyaga ustama haqlar, pensiya turlari, pensiya olish shartlari, pensiyaning umumiy eng yuqori miqdori.

Inson manfaatlari eng oliy qadriyat sifatida e’zozlanayotgan, fuqarolar uchun hech kimdan kam bo‘lmagan farovon va to‘kis hayot sharoitlarini barpo qilish o‘zining oliy maqsadi ekanini butun jahonga e’lon qilayotgan bizning davlatimiz va jamiyat uchun aholini, birinchi navbatda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga muhtoj aholi qatlamlarini ishonchli ijtimoiy ta’minlash vositalarini yaratish, ularni muntazam takomillashtirib borish uchun kurashish tabiiy holdir. Buning natijasida kuchli ijtimoiy muhofazalash siyosatini real ta’minlay oladigan huquqiy negiz va zarur tizim yuzaga keltirildi uni samarali ishlashini amalda ta’minlash, davlatimiz ijtimoiy siyosatini real ro‘yobga chiqarilishi ezgu maqsadlarimizdan sanaladi.

Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “.... inson manfaati va yana bir bor inson manfaati islohotlarning bosh maqsadi etib belgilandi” [1].

Ijtimoiy ta’minot davlat faoliyatining asosiy yo‘nalishi ekanligi davlatimiz tomonidan muntazam va izchil amalga oshirib kelinayotgan keng qamrovli hamda ulkan chora-tadbirlarda, keyingi yillardagi har bir yilni ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo‘naltirilganligi, shunga to‘la muvofiq keluvchi davlat dasturlari ishlab chiqilishi hamda ularning to‘la ro‘yobga chiqarilishida o‘z ifodasini topmoqda.

M.A.Usmanovaning qayd etishiga ko‘ra, “Ijtimoiy ta’minot olish huquqi insonning asosiy huquqlaridan biri sifatida tan olinar ekan, uning amalga oshirilishi uchun zarur tashkiliy-huquqiy sharoitlar yaratilishi, moliyaviy va iqtisodiy asoslarining mustahkamlanishi, qonun hujjatlarining yanada takomillashuvi muhim ahamiyatga ega” [4].

Mamlakatimizda yuritib kelinayotgan ijtimoiy siyosatning inson manfaatlari tomon yo‘naltirilganligi eng avvalo, fuqarolarni ijtimoiy ta’minot olishga bo‘lgan huquqlari Konstitutsiyamizda kafolatlanishi bilan birga ulardan amalda to‘liq foydalanish uchun zarur huquqiy vositalar barpo etilganligi, moddiy va ijtimoiy yordamlar olishning tashkiliy jihatdan ta’minlanganligida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu sohadagi qonunchilikni takomillashtirilishi va rivojlantirilishida xalqimizning mehr-muruvvat va saxovat ko‘rsatish borasidagi qadimiy milliy an’analarimiz hamda qadriyatlarimiz bilan bir qatorda ijtimoiy ta’minot olish huquqiga doir jahon standartlariga ham tayanib ish ko‘rilayotgani davlatimizning demokratik va insonparvar qiyofasini yanada yaqqol namoyon qilmoqda. Xususan, BMT tomonidan qabul qilingan “Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi”, “Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risida”gi xalqaro hujjatalilarda fuqarolarning ijtimoiy ta’minot olishga bo‘lgan huquqi va davlatning mazkur huquqni ta’minlash bilan bog‘liq majburiyatlari mustahkamlab qo‘yilgan.

Ijtimoiy himoya taraqqiyotimizning strategik maqsadlaridan sifatida uning huquqiy

ISSN 3030-3230

asoslarini mustahkamlash va takomillashtirish – davlatimiz hamda jamiyatimiz oldidagi eng dolzarb vazifalardan biri bo‘lib sanalar ekan olimlar tomonidan “Ijtimoiy himoya”, “Ijtimoiy ta’minot” tushunchalariga bergan tariflari e’tibor qaratish maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida ham “Ijtimoiy ta’minot” tushunchasiga “Keksaygan, mehnatga layoqatsiz bo‘lgan va boquvchisini yo‘qotgan fuqarolarga moddiy, tibbiy va ijtimoiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha davlat tomonidan belgilangan ijtimoiy-iqtisodiy chora-tadbirlar tizimi” [2] deya ta’rif keltirilgan.

Professor D.Q.Ahmedov ham ilmiy izlanishlari natijasida “Ijtimoiy himoya” tushunchasini “keng ma’noda bu-mamlakat aholisini ijtimoiy va moddiy muhofaza qilinishini ta’minlaydigan va jamiyatda qaror topgan huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy chora-tadbirlar majmui; tor ma’noda – davlat va jamiyatning yoshi, salomatligi holati, ijtimoiy ahvoli, tirikchilik vositalari bilan yetarli ta’minlamagani tufayli yordamga, ko‘makka muhtoj fuqarolar to‘g‘risidagi g‘amxo‘rligi” deb ta’rif beradi[5].


Yuridik adabiyotlarda “Ijtimoiy ta’minot deganda – fuqarolarni qariganda, mehnat qobiliyatini to‘la yoki qisman yo‘qotgan taqdirda, boquvchisini yo‘qotgan hollarda, shuningdek bolali oilalarni moddiy jihatdan ta’minlash va xizmat ko‘rsatish davlat tizimidir” deya ta’rif berilgan [6] .

Bu borada A.R.Ijayevaning fikricha, ijtimoiy siyosatning yakuniy maqsadi – inson, uning farovonligi, ijtimoiy himoya va ijtimoiy rivojlanish, kun kechirishni ta’minlanganligi va ijtimoiy xavfsizlikni ta’minlashdan iboratdir. Muallifning fikriga ko‘ra, ijtimoiy siyosat nafaqat mablag‘larning mavjudligi, balki, shaffoflik, oshkoralik, adolatlilik bilan tavsiflanishi va jamiyat manfaatlarini ko‘zlab o‘tkazilishi, ko‘pchilik tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi, faol va intiluvchan xarakterda bo‘lishi kerak [7].

Mamlakatimizda harbiy sohasida ham ijtimoiy himoya keng qamrov bilan amalga oshirib kelinmoqda va bunda harbiy xizmatchilarimizning ijtimoiy ta’minot olishga oid konstitutsiyaviy huquqlarini yana ham kengaytirish, uning kafolatlarini kuchaytirish orqali berilayotgan moddiy-ijtimoiy yordamlarni miqdor va sifat jihatdan yana ham yaxshilash, ijtimoiy adolat va qonuniylik tamoyillari buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik, hayot darajamiz o‘sishi bilan mutanosib ravishda pensionerlar moddiy turmush sharoitlari yuksalib borishiga erishish maqsadlari nazarda tutiladi.

Bunga yaqqol misol sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi kontseptsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-27-son Farmoni[3] va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 13-martdagi “Vatan himoyasi va el-yurtimiz tinchligi yo‘lida halok bo‘lgan harbiy xizmatchilar va xodimlar oila a’zolarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-34-son Farmoni[3]qabul qilinishi harbiy xizmatchi va xodimlar ijtimoiy himoyasi yanada yuqori bosqichga olib chiqishga, yangidan-yangi mexanizmlarni nazarda tutadigan Hukumat qarorlarini qabul qilishga xizmat qiladi.

Ta’kidlash joizki, milliy qonunchiligimizda ham harbiy xizmatchilar ijtimoiy ta’minoti bo‘yicha kafolat, imtiyozlar, kompensatsiya va ularni qo‘llash bo‘yicha prinsipial qoidalar aks etgan. Qonunchilikka binoan barcha harbiy xizmatchilar O‘zbekiston Respublikasining davlat budjeti mablag‘lari hisobidan oziq-ovqat, pul, kiyim-kechak, uy-joy ta’minoti bilan ta’minlanadi, qonunchilikda belgilangan pensiya va tibbiy ta’minot hamda boshqa ijtimoiy kafolat va imtiyozlardan birdek foydalanadi[3].



1-rasm. Harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoya subyektlari

Qonunchiligimizda harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoya uch toifadagi shaxslarga-ya'ni ijtimoiy himoya subyektlarga bo'linadi:


- harbiy xizmatga chaqirtirilganlar;
- haqiqiy harbiy xizmat o'tayotganlar;
- harbiy xizmatdan iste'foga (rezervga) bo'shatilganlar.

Harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasi quyidagicha shakllarga ega:

- Harbiy xizmatchilarning hayoti va sog'lig'ini muhofazalash bo'yicha davlat majburiy sug'urtasi;
- Harbiy xizmatchilarning davlat ijtimoiy ta'minoti tizimi (pul ta'minoti, kompensatsiya, pensiya va nafaqalar);
- Harbiy xizmatchilarning ijtimoiy xizmat ko'rsatish (tibbiy,sanatoriya-kurort, davolanish va reabilitatsiya va boshqalar);
- Ijtimoiy yordam va imtiyozlar (uy –joy,ta'lim, transport).

Harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyalash muddatiga ko'ra ikki xil turga bo'linadi:

- vaqtinchalik yoki bir martalik (sug'urta badali,nafaqa va kompensatsiyalar);
- doimiy (pul ta'minoti, tibbiyot, pensiya).



1-rasm. Harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasi shakllari [8]

Harbiylar xizmatchilar va xodimlarning ijtimoiy himoyasini ta'minlashda "Ijtimoiy himoya", "Ijtimoiy ta'minot" haqida olimlarimizning fikrini o'rganish ularning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari doirasini muammolarini aniqlashga yordam beradi:

Iqtisodchi olim S.V.Vasiyev	harbiy xizmatchilar ijtimoiy ta'minotining minimal standarti va zaruriy talabi sifatida majburiy joriy qilinadi. [8].
Rossiya olimi Roik V. D.	pensiya ta'minoti ijtimoiy ta'minotning bir qismi bo'lib, davlatning eng muhim vazifalaridan biridir[9]
N.Antipyeva	ijtimoiy imtiyozlarni qo'llashda harbiy xizmatchilar va ularning oilalari alohida subyekt tariqasida ko'riladi va ijtimoiy ta'minotning samarali tizimi Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilari hayoti va manfaatlarini yaxshilash maqsadini ko'zlaydi[10].
Rossiya olimi N.Serebryakova	esa harbiy xizmatchilarning ijtimoiy ta'minot turlarini asosiy 4 ta toifaga ajratadi: pensiya, uy-joy (doimiy, vaqtincha), pul-moddiy ta'minoti (mehnatga haq to'lash, kompensatsiya, imtiyoz) va sog'liqni saqlash (majburiy va tibbiy sug'urta) [11]

ISSN 3030-3230

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilsak bo‘ladiki, harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoyasida shakllari ichida pensiya ta’minotini harbiy xizmatchilarni xizmat zahmatlarini yengish va uzluksiz xizmat qilish ruhlantirish xizmat qiladi.

Pensiya ta’minoti ijtimoiy ta’minotning bir qismi sifatida davlatning muhim funksiyalaridan biri hisoblanadi. Fuqarolarning davlatning tuzilishi va imkoniyatlariga mos ravishda ijtimoiy ta’minotga bo‘lgan huquqlari Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning Bosh Assambleyasi tomonidan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 22-moddasida belgilab quyilgan. Unga ko‘ra, pensiya ta’minoti – muayyan davlat qonunchiligida o‘rnatilgan tartibda, asosiy daromad manbasini qariyalik, nogironlik va boquvchisini yo‘qotgan fuqarolarni moddiy ta’minlashga yo‘naltirilgan huquqiy va iqtisodiy chora-tadbirlar majmuasidir.

Qonunchiligimizda “harbiy pensiya” hech qanday tarif berilmaganligi va u termin sifatida mavjud emasligi achinarli holat va kelgusida uni qonunlarimizga qo‘shish kerak deb hisoblayman.

Zero, harbiy pensiya harbiy xizmatchilarning doimiy jangovar shayligi, jangovar vazifalarini bajarishi, harbiy xizmatdagi qiyinchiliklar mavjudligi, bularga hayoti va sog‘lig‘ini tikkaligi, harbiy xizmat tashqari boshqa faoliyat bilan (tadbirkorlik faoliyat bilan) shug‘ullanish taqiqlanganligi va boshqa cheklovlar bilan bog‘liq xizmat qilish harbiy xizmatchining yo‘qolgan daromadlari uchun kompensatsiya ekanligi fuqoralik pensiyalardan ancha ustunliklarga ega bo‘lishi kerak deb hisoblayman.

Olimlar harbiy xizmatchilarning uzoq yillik xizmati uchun pensiyasi harbiy xizmatchilarning xizmat muddati oldingi harbiy xizmatdan olingan. Ular mehnat pensiyalari xarakteriga ega, harbiy xizmatchining yo‘qolgan ish haqini qoplash, shuningdek, harbiy xizmatning og‘irligi va mahrumligini qoplash va ularga o‘zlarining ijtimoiy-huquqiy tabiatiga xos bo‘lmagan ma’no - har qanday to‘lov bo‘lishi mumkin emas [12].

Krixin S.V. Harbiy pensiya harbiy xizmatning o‘ziga xos xususiyati tufayli davlat tomonidan kafolatlangan kompensatsiya choralari tizimiga kiritilgan va bunday kompensatsiyani tartibga solishning davlat-huquqiy usullaridan biri bo‘lib, harbiy xizmatdan nafaqaga chiqqan shaxslarning mulkiy manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan ta’minotidir-deb hisoblaydi[13].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, harbiy pensiya ta’minoti, masalan, fuqarolik davlat pensiya ta’minotidan har tomonlama ustunliklarga ega bo‘lishi kerak degan xulosaga kelsa bo‘ladi. Aks holda, ma’lum bo‘lishicha, harbiy xizmat paytida sog‘liqqa yetkazilgan zarar va boshqa cheklovlar davlat tomonidan davlat xizmatchisining nafaqaga chiqqanida yo‘qolgan daromadidan past baholanadi. Shuning uchun biz ushbu nuqtai nazardan, masalan, harbiy pensiya to‘g‘risidagi qonunda belgilanishi mumkin bo‘lgan harbiy pensiya ta’rifida aks ettirishni zarur deb hisoblaymiz.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, “harbiy pensiya” tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilishi maqsadga muvofiq: **Harbiy pensiya** - bu uni olish huquqi tegishli qonun hujjatlarida belgilangan shartlar va me’yorlarga muvofiq belgilanadigan, belgilangan xizmat muddatiga ega bo‘lganda yoki nogironlik bo‘lganda uning oila a’zolariga yoxud boquvchisini yo‘qotganda, shuningdek boshqa asoslarga ko‘ra davlat budjetidan beriladigan to‘lovdir [15].

Binobarin, “O‘zbekiston Respublikasining Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi qonunning 39-moddasiga asosan Milliy gvardiyaning harbiy xizmatchilari (xodimlari), boquvchisini yo‘qotgan taqdirda esa ularning oila a’zolari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va miqdorlarda davlat pensiya ta’minotini olish huquqiga ega [4].

Olimlar fikriga ko‘ra, harbiy pensiyalar har doim fuqarolarni harbiy xizmatga jalb qilishning asosiy omillaridan bo‘lib kelgan. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, fikrimizcha harbiy pensiya fuqarolik pensiyasidan ustuvorlikka ega bo‘lishi kerak [4].

Shuning uchun mamlakatimizda harbiy xizmatchilarning pensiya ta’minot bilan fuqarolarning pensiya ta’minoti afzalliklarini taqqoslash orqali ko‘rib chiqamiz:

1-jadval

O‘zbekisondagi harbiy xizmatlarning pensiya ta’minotini fuqarolik pensiya ta’minoti bilan taqqoslash jadvali[14]

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, fuqarolik pensiya tizimini harbiy pensiya tizimi taqqoslaganda qator ustunliklarga egaligi ko‘rinib qoldi:

1. Fuqarolik pensiya tizimini milliy qonunchilikka egaligi va yildan yilga takomillashib borishi bilan ustunlikka ega. Jumladan, harbiy xizmatchilarning pensiya ta’minlash SSSR Oliy Sovetining 1468-1 sonli qarori bilan amalda bo‘lgan “Harbiy xizmatchilarning pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi 1990-yil 28-apreldagi

№	Ko‘rsatkichlar	Fuqarolik pensiya	Harbiy pensiya
1.	Tartibga soluvchi qonun	O‘zbekiston Respublikasining 1993 yil 3 sentabrdagi “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi 938-XII-son Qonuni	SSSR Oliy Sovetining 1468-1 sonli qarori bilan amalda bo‘lgan “Harbiy xizmatchilarning pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi 1990 yil 28 apreldagi qonuni
2.	Pensiya huquqi	pensiya yoshga chiqqanda pensiyaning eng kam staj (7 yil)ga egaligi uchun	20 yil xizmati uchun
3.	Pensiya eng kam miqdori	yoshga doir pensiyaning eng kam miqdori	rasmiy belgilangan yoshga doir pensiyaning eng kam miqdoridan kam bo‘lmaydi.
4.	Pensiya yoshi	ayollarga-55 yosh erkaklarga-60 yosh	kichik ofitser va serjantlar -45yosh, katta ofitserlar - 50 yosh, polkovniklarga - 55yosh
5.	Pensiya olish uchun talab kilinadigan eng kam ish staj(xizmat yili)	Umumiy ish staji 7 yildan kam bo‘lmasligi kerak	- 20 yil - 25 kalindar yil, shundan 12,5 ish staji va 12,5 yil xizmat yil
6.	Pensiya uchun to‘liq ish staji	erkaklarda 25 yil, ayollarda 20 yil	20 yil
7.	Pensiya manbasi	Pensiya Fondi	Davlat budjeti
8.	Pensiya turi	1.Yoshga doir pensiya 2.Nogironlik pensiya 3.Boquvchisini yo‘qotganlik pensiya	1.Belgilangan xizmat yillari uchun pensiya 3.Boquvchisini yo‘qotganlik pensiya
9.	Pensiya tayanchi miqdori	55%	40%
10.	Pensiya oshirilish miqdori	20 yildan oshgan xar bir yilga 1% oshiriladi.	20 yildan oshgan xar bir yilga 3 % oshiriladi.
11.	Pensiya hisoblash bazasi	Oxirgi 10 yilning istalgan 5 yilgi oylik maoshini o‘rtachasi	Lavozim maoshi Unvon maoshi xizmat yillari uchun foizli ustama; oziq-ovqat payogi o‘rniga oylik pul kompensatsiyasi.
12.	Pensiya miqdorini chegarasi	12 barovar bazaviy pensiya miqdori oshmasligi	10 barovar bazaviy pensiya miqdoridan oshmasligi
13.	Ish haqi yoki boshqa daromad mavjud bo‘lganda pensiyalar to‘lash	Pensiya huquqi paydo bo‘lganda daromadlaridan qa’tiy nazar pensiyani 100% to‘lanadi	Pensiya huquqi paydo bo‘lganda xizmatdan bo‘shatilgandan keyin 100% to‘lanadi.
14.	Jamg‘arib boriladigan pensiya	mavjud	mavjud emas

qonuniga asosan ta’minlanishi, haligacha 30 ortiq yil o‘tganligiga qaramasdan milliy harbiy pensiya qonunimiz qabul qilinmaganligi achinarlidir. Lekin bu sohada o‘tgan yili O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 13-martdagi “Vatan himoyasi va el-yurtimiz tinchligi yo‘lida halok bo‘lgan harbiy xizmatchilar va xodimlar oila a’zolarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-34-son Farmoni 6-bandida “Harbiy xizmatchilarning pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi qonun loyihasini ishlab chiqish va 2023 yil 1 dekabrga qadar Vazirlar Mahkamasiga kiritish vazifasi belgilanib [3],

ISSN 3030-3230

mazkur hujjatning ijrosini ta’minlash maqsadida qonun loyihachi uch versiyada “projekt.gov.uz” saytiga joylashtirilgan:

- qonun loyihasining birinchi bosqichi 2023-yil 5-aprel kuni ID-78254 (V-1) raqami bilan “Harbiy xizmatni o‘tagan, ichki ishlar organlari va bojxona organlarida xizmat o‘tagan shaxslar hamda ularning oilalarining davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonun loyihasi;

- qonun loyihasining ikkinchi bosqichi 2023 yil 11 iyul kunidan ID-78254 (V-2) raqami bilan “Harbiy xizmatchilar (xodimlar) va ularning oila a’zolarining davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi Qonun loyihasi muhokamaga qo‘yildi.

- qonun loyihasining uchinchi bosqichi 2024-yil fevral oyida QL-173/21-6 raqamli bilan Harbiy xizmatni o‘tagan, ichki ishlar organlari va bojxona organlarida xizmat o‘tagan shaxslar hamda ularning oila a’zolarining davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida Qonun loyihasi muhokamaga qo‘yildi.

Qonun loyihasining asosiy g‘oyasi – Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Milliy gvardiya, Davlat xavfsizlik xizmati, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati, Bojxona qo‘mitasi va Elektron texnologiyalarni rivojlantirish markazining harbiy xizmat (xizmat) o‘tagan oddiy askar, serjant va ofitserlar tarkibiga mansub kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatchilari (xodimlari)ni hamda ularning oila a’zolarini pensiya bilan ta’minlashdir.

2. Pensiya huquqini vujudga kelishi fuqarolik pensiya tizimida ham harbiy pensiya tizimida ham o‘ziga yarasha afzalliklari mavjud. Fuqarolik pensiya huquqi vujudga kelishi uchun fuqaro pensiya yoshiga yetganda (erkak-60 yosh, ayol-55 yosh) eng kam ish staji(pensiya uchun talab qilinadigan eng kam ish staji-7 yil) ga ega bo‘lsa yetarlidir. Harbiy pensiya huquqi esa nomidan xam ko‘rinib turibdiki, harbiy xizmatchilar uzoq yillik xizmat qilgan uchun (20 yil) vujudga keladi va yosh bilan bog‘liq emas. Harbiy pensiya 20 yillik harbiy xizmatni qiyinchiliklari va xavf-xatarlari bilan birgalikda, xizmatni uzluksizligi va uzoq yil davomiyligi bilan ajralib turadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, fuqarolik pensiyasida mavjud bo‘lgan yoshga doir pensiyaning to‘liqsiz ish staji uchun pensiya berilsa, harbiy pensiyada esa bunday ko‘rinishi mavjud emas.

3. O‘zbekiston fuqarolar yoshga doir pensiya yoshi erkaklar uchun-60 yosh, ayollar uchun-55 yoshni tashkil qiladi. Harbiy xizmatchilar xizmatni cheklashgan yoshi ham tabaqalashgan bo‘lib, kichik ofitser va serjantlar tarkibiga-45 yosh, katta ofitserlar tarkibiga- 50 yosh, polkovniklarga - 55 yosh qilib belgilangan. Bunda ko‘rinib turibdiki, harbiy pensiyada harbiy xizmatni o‘ziga xosligi va qiyinchiliklari erta pensiya chiqish imkonini beradi. Fuqarolik pensiyasida ham pensiyaga imtiyozlar asosida erta chiqish mavjud.

4. Fuqarolikda yoshga doir pensiyaning tayanch miqdori 55% foizi qilsa, harbiy pensiyada uzoq yillik xizmatlar uchun pensiya tayanch miqdori 40% tashkil qiladi. Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) tomonidan qabul qilingan “Ijtimoiy ta’minotning minimal me’yorlari to‘g‘risida”gi 102-sonli Konvensiya hamda Yevropa ijtimoiy ta’minot kodeksida barcha mamlakatlar pensionerlar uchun ijtimoiy ta’minotning minimal me’yorlariga erishish lozimligi ko‘rsatilgan. Ijtimoiy ta’minotning minimal xalqaro me’yorlariga ko‘ra, pensiya tizimida qoplanish koeffitsiyenti 40 foizdan kam bo‘lmasligi tavsiya etilgan. Ilg‘or xorijiy mamlakatlarda uzoq yillik xizmatlar uchun pensiya tayanch miqdori yuqoriligi armiyani ijtimoiy ta’minoti yuqoriligi bilan tavsiflanadi. Jumladan Qozog‘istonda (25 yil uchun), Rossiya Federatsiyasi (20 yil uchun), Ukraina (20 yil uchun), Moldova (20 yil uchun), Belorussiya (20 yil uchun) va Ozarbayjonda (20 yil uchun) 50 foizni, Qirg‘iziston (20 yil uchun) va Turkmaniston (25 yil uchun)) bu ko‘rsatkich 50% tashkil qiladi.

5. Fuqarolik pensiyasida o‘n ikki barobar bazaviy pensiya miqdori chegarasi mavjud bo‘lib, harbiy pensiyada bu miqdor o‘n barobar tashkil qiladi.

6.Fuqarolik pensiyasida harbiy pensiyada mavjud bo‘lmagan jamg‘arib boriladigan pensiya turi mavjudligi ularni qarilikda bu jamg‘armalardan foydalanishi bilan ustunlikka ega. Ilg‘or xorijiy mamlakatlar hattoki harbiy pensiya ta’minotida jamg‘arib boriladigan pensiya turi mavjudligi ularni qarilikda moddiy jihatdan farovonligini oshiradi.

Yuqoridagi o‘rganilgan tadqiqotlar va tahlillarga tayangan holda mamlakatimizda harbiy xizmatchilarning pensiya ta’minotini takomillashtirish maqsadida quyidagi qonunchilikka taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Pensiya ta’minotiga oid masalalarni huquqiy tartibga solish orqali xizmat jozibadorligini oshirish, harbiy xizmatchilar pensiya masalasining sobiq Ittifoq davridagi

eski Qonun bilan tartibga solinayotgani, uning ayrim moddalari amaldagi qonunchilikka zidligi sabab amaliyotda bu borada qiyinchiliklar yuzaga kelayotganligi sababli O‘zbekiston Respublikasining “Harbiy xizmatchilar va ular oila a’zolarining pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi qonuniga o‘zgartirishlar kiritish yoki yangi qonun hujjatini qabul qilish maqsadga muvofiq;

2. O‘zbekiston Respublikasining “Harbiy xizmatchilar va ular oila a’zolarining pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi qonuniga yangi qonun hujjatini qabul qilish ilg‘or xorijiy mamlakatlar tajribasidan foydalanish maqsadga muvofiq;

3. O‘zbekiston Respublikasining “Harbiy xizmatchilar va ular oila a’zolarining pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi qonuniga yangi qonun hujjatini qabul qilishda qonunga doir asosiy tushunchalarni kiritish va amaldagi qonunchiligimizda fuqarolarda mavjud barcha imtiyozlarni muvofiqlashtirish maqsadga muvofiq;

4. Xorijiy mamlakatlar tajribasini inobatga olgan holda O‘zbekistonda harbiy xizmatchilarning pensiya tayanch miqdorlarini 50 foiz belgilash;

5. O‘rganilgan xorijiy mamlakatlar tajribasi hamda harbiy xizmatchilar rag‘batlantirish maqsadida, O‘zbekistonda pensiyaning umumiy eng yuqori miqdorini 85 foizga oshirish maqsadga muvofiq;

6. Harbiy xizmatchilarning pensiyaga ustama haqlar qo‘shish:

- ilm-fanga qo‘shgan hissasi uchun: fan nomzodi yoki falsafa doktori (PhD) (yoki xorijiy mamlakatlarda ularga tenglashtirilgan darajalar) (keyingi o‘rinlarda falsafa doktori deb ataladi) ilmiy darajasiga ega shaxslar uchun — yoshga doir pensiyani eng kam miqdorining 50 foiziga teng miqdorda; fan doktori (Doctor of Science) (yoki xorijiy mamlakatlarda unga tenglashtirilgan daraja) (keyingi o‘rinlarda fan doktori deb ataladi) ilmiy darajasiga ega shaxslar uchun — yoshga doir pensiyani eng kam miqdorining 100 foiziga teng miqdorda

- sportga qo‘shgan hissasi uchun xalqaro sport ustalariga, Olimpiya (Paralimpiya Surdlimpi) chempionlariga, yoshga doir pensiyani eng kam miqdorining 50 foiziga teng miqdorda;

- O‘zbekiston Respublikasi faxriy unvonlari va davlat mukofotlariga egalari qonunlarda belgilangan tartibda va miqdorda;

- ayni vaqtda esa pensiyani rasmiylashtirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo‘mondoni buyrug‘i bilan “Harbiy xizmatchilarning pensiya ishlarini rasmiylashtirish va yuritish Tartibi”ni tasdiqlash taklif maqsadga muvofiq.

7. Harbiy pensiya miqdorini o‘n barobar bazaviy pensiya miqdorini fuqarolar singari o‘n ikki baravarga oshirish maqsadga muvofiq

8. Fuqarolik pensiyasida harbiy pensiyada mavjud bo‘lmagan jamg‘arib boriladigan pensiya mexanizmini harbiy xizmatchilarga ham tatbiq qilish maqsadga muvofiq.

Аннотация. в данной статье излагаются понятие, виды и льготы социального обеспечения, социальной защиты военнослужащих, установленные государством, делается акцент на сущности и преимуществах отдельной военной пенсии. При этом анализировались их преимущества путем сравнения гражданской пенсии с военной пенсией. Кроме того, в нашей стране проектом закона «О государственном пенсионном обеспечении военнослужащих (сотрудников) и членов их семей» разработаны предложения и рекомендации по развитию данной сферы пенсионного обеспечения военнослужащих.

Ключевые слова: пенсия, пособие, пенсионное обеспечение, право на пенсию, годы службы, базовый размер пенсии, надбавки к пенсии, виды пенсий, условия получения пенсии, общий максимальный размер пенсии, оформление пенсии.

Abstract. This article describes the concept, types and benefits of Social Security, Social Protection established by the state for military personnel, with an emphasis on the essence, concept, morality, and nature of a separate military pension. At the same time, their advantages were analyzed by comparing a civil pension with a military pension. In addition, in our country, the draft law “on the state pension provision of military personnel (employees) and their family members” has been developed proposals and recommendations on the development of this field of pension of military personnel.

ISSN 3030-3230

Key words: Social Security, Social Security, pension, pension, pension provision, right to pension, years of Service, Pension base amount, pension surcharges, types of pensions, terms of retirement, total maximum amount of pension.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.– Xalq so‘zi. 2017 yil 23-dekabr
2. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 4-jild. – T.: O‘zME Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. - B. 87.
3. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi // www.lex.uz
4. Usmanova M.A. “O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy himoyani tashkil etishning fuqarolik-huquqiy muammolari”: Y.fan. d-ri. …diss. - Toshkent: TDYUI, 2006. - 293 b.
5. Ahmedov D.Q. Ijtimoiy ta’minot huquqi. – T.: TDYUI, 2008 yil. – 38 b
6. A.Inoyatov. “O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy ta’minot huquqi”. Darslik. Mas’ul muharrir - T.: TDYUI, 2005 yil. – B. 18.
7. Ижаева А.Р. «Концепция развития пенсионной системы Российской Федерации в посткризисный период». Автореферат дисс.канд.экон.наук…М.,2013.С.
8. Васильев С.В. Обязательное государственное страхование в системе социальной защиты военнослужащих: автореф...дисс.канд.экон.наук. Ярославль. 2004. –С.3.
9. Роик В.Д. «Пенсионная система России: история, проблемы и пути совершенствования». М.: МИК, 2007. С. 116
10. Антипьева Н.В. «Социальное обеспечение военнослужащих: проблемы правового регулирования» автореф. дисс.док-ра.юрид.наук. Санкт-петербург.2010. - С.3.
11. Серебрякова Н.А. «Совершенствование системы социальной защиты военнослужащих» автореф...дисс.канд. экон.наук. Саратов. 2009 г. - С.13
12. Фатеев К.В., Харитонов С.С. «О проблемах пенсионного обеспечения граждан, уволенных с военной службы» //Право в Вооруженных Силах. - Военно-правовое обозрение. - 2010. - №9
13. Кирюхин С.В. «Совершенствование пенсионного обеспечения лиц, проходивших военную службу в силовых структурах государства: вопросы теории и практики» С-39
14. Тютюнов Н.В. «Государственное пенсионное обеспечение военнослужащих и пути его совершенствования» автореф...дисс.канд.юрид.наук. Москва, 2012 г. - С.3.
15. Ilmiy tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan mustaqil tayyorlangan

GLOBAL IQLIM O‘ZGARISHLARI SHAROITIDA INKLUZIV IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASH BO‘YICHA

Elov A.A.,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti bosh ilmiy xodimi, h.f.f.d (PhD)

Annotatsiya. **Maqolada Koreyaning global iqlim o‘zgarishlari oqibatlarini yumshatish va unga moslashish bo‘yicha ko‘rgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlari, inkluziv va innovatsiyalarga asoslangan iqtisodiy o‘sish islohotlari va ularning natijalari, Koreya tajribasini O‘zbekiston sharoitida qo‘llash bo‘yicha takliflar bayon etildi.**

Kalit so‘zlar: Koreya, iqlim o‘zgarishi, inkluziv iqtisodiy o‘sish, innovatsion o‘sish, aholi daromadlari, bandlik, inson kapitali.

Janubiy Koreya (keyingi o‘rinlarda Koreya) global iqtisodiy tanazzul tufayli inkluziv iqtisodiy o‘sishni ta’minlash borasida hamda o‘z fuqarolari uchun hayot darajasi va sifatini oshirishda sezilarli yutuqlarga erishganligi, uning bu boradagi tajribasini o‘rganish zaruriyatini ko‘rsatadi.

Koreya iqtisodiyotining asosiy qismini global iqlim o‘zgarishlariga zaif bo‘lmagan sohalar (xizmat ko‘rsatish va sanoat) tashkil qilsa-da, iqtisodiy o‘sish eksportga bog‘liqligi sababli iqtisodiyot global iqlim o‘zgarishlari oqibatlariga ta’sirli ekanligi kuzatiladi.

Bugungi kunda Janubiy Koreya yalpi ichki mahsulotining 58%ini xizmat ko‘rsatish, 32%ini sanoat va 2%ini qishloq xo‘jaligi sektori tashkil qilib,

2023-yilda global iqtisodiyot sekinlashganligi hisobidan Koreya yalpi ichki mahsulotini 1,4%ga o‘sishiga erishilgan bo‘lsa, 2024-yilda 2,2-2,6%ga o‘sish prognoz qilingan [1].

Iqlim o‘zgarishlariga moslashish va uning oqibatlarini yumshatish borasida Koreya hukumati tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, asosan sanoat tarmoqlarida issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirishga qaratilgan bo‘lib, uning tashkiliy-huquqiy asoslari yetarli darajada rivojlangan.

Jumladan, Koreya 2015-yilda ichki darajadagi emissiya savdosi sxemasini, 2016-yilda “Issiqxona gazlarini kamaytirish bo‘yicha milliy yo‘l xaritasi”ni,

2020-yil iyul oyida “Yashil chidamlilik strategiyasi”ni qabul qilgan. Ularga asosan 2030-yilga kelib issiqxona gazlari emissiyasini 40%ga qisqartirishni hamda

2050-yilda uglerod neytralligiga erishishni maqsad qilgan [2].

2021-yil mart oyida “Qayta tiklanadigan energiya to‘g‘risida”gi Qonunini qabul qilinib, unda 2034-yilga kelib qayta tiklanadigan energiya manbalari ulushini 25 foizga oshirish maqsad qilingan. 2022-yilda “Uglerodli neytral yashil o‘sish ko‘rinishi va amalga oshirish strategiyasi” tarmoqlar kesimida ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilgan.

Biroq, 2023-yilda Koreyaning yangi hukumati iqlim siyosatida belgilangan 100% qayta tiklanadigan manbalardan foydalanish “juda qimmat” ekanligini ma’lum qilib [3], uning o‘rniga “Atom energetikasi dasturi”ni rivojlantirish va yadroviy energetikadan bosqichma-bosqich voz kechish lozimligini qayd etgan [4].

Mazkur normativ-huquqiy hujjatlarda ishlab chiqarish sanoatining raqamli transformatsiyasini rag‘batlantirish, ekologik toza avtomobillar va energiya ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, ekologik toza tarmoqlar raqobatbardoshligini oshirish, kam uglerodli va yashil iqtisodiyotga o‘tishni kuchaytirish belgilangan. Xususan, ushbu islohotlar avvalo Koreya sanoatining asosiy “BIG3” tarmoqlarini, jumladan yarimo‘tkazgichlar, bio-sog‘liqni saqlash, kelajak avtomobillarini ishlab chiqarishini qamrab olishi hamda aloqa tarmoqlar (5G), sun’iy intellekt va “DNK” sohalariga ham kengaytirilishi nazarda tutilgan.

2023-yil yanvar oyida hukumat mamlakatni dekarbonizatsiya qilish maqsadida atom energiyasidan foydalanishga qaratilgan “O‘ninchi elektr energiya rejasi”ni ishlab chiqdi. Unda qayta tiklanadigan elektr energiyasi ulushini

2020-yildagi 6 %dan 2030-yilda 21,6 %gacha va atom energetikasini 33% gacha oshirish hamda ko‘mirni 21,2% gacha kamaytirishni maqsad qilgan [5].

ISSN 3030-3230

Shuningdek, 2050-yilga kelib mamlakatda elektr energiyasini ishlab chiqarishning 13,8-21,5%ni vodorod va ammiak yoqilg‘isi turbinalarida olish rejalashtirilgan. Bunda, 2028-yilga kelib 150 MVt quvvatga ega vodorod toifasidagi birgalikda yonish sinovining 50 foizi, 20 foizli ammiakni birgalikda yoqish sinovi esa 2027-yilda yakunlanadi [2].

Yuqoridagilardan tashqari, 2012-yil oktabr oyida Incheonning Songdo shahrida Yashil iqlim jamg‘armasi kotibiyati faoliyati yo‘lga qo‘yilib, ushbu jamg‘arma rivojlanayotgan mamlakatlarda iqlim o‘zgarishlari oqibatlarini yumshatish va moslashtirishga ko‘mak ko‘rsatish bilan shug‘ullanadi.

Janubiy Koreya turli global inqirozlar sharoitida va undan keyin davrlarda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga qaratilgan inkluziv iqtisodiy o‘sish tajribasiga ega kam sonli davlatlardan biri hisoblanadi. Shu sababli, tadqiqot davomida uning ushbu tajribasi o‘rganildi.

Jumladan, 2017-yilda Koreyada birinchi marta Prezident Mun Chje In ma’muriyati amaliyotga innovatsion va inkluziv o‘sish modelini joriy qilgan. Ushbu model orqali iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish uchun aholining quyi va o‘rta qatlam ish haqlarini oshirish va daromadlarni samarali taqsimlashga qaratilgan “Daromadga asoslangan o‘sish rejasi” amaliyotga joriy qilingan. Bunda, uy xo‘jaliklari daromadlarini oshirish orqali yalpi talab va iqtisodiy o‘sishni ta’minlash maqsad qilinib, uning mazmun-mohiyati quyidagi uchta asosiy siyosatda: 1) uy xo‘jaliklari daromadlarini oshirish; 2) ijtimoiy xavfsizlik va farovonlikni kengaytirish, 3) yashash xarajatlarini kamaytirish [6] yo‘nalishlarida namoyon bo‘ladi (1-jadvalda batafsil keltirilgan).

Koreya hukumati inkluziv iqtisodiy o‘sishning asosiy shartlaridan biri bo‘lgan aholi o‘rtasidagi tabaqalanishni bartaraf etishda moliyaviy mexanizmlardan samarali foydalanganligini ko‘rish mumkin.

Jumladan, yirik korxonalar uchun korporativ daromad solig‘i 22%dan 25%gacha oshirildi. Shuningdek, kam va o‘rta daromad oluvchi fuqarolar daromadlarini oshirish maqsadida 500 mln von va undan ko‘p daromad oluvchilar uchun daromad solig‘i 40%dan 42%ga hamda 300 mln von daromadlar uchun 38%dan 40%ga oshirildi.

Aholining zaif qatlamini qo‘llab-quvvatlash uchun 2017-2020-yillarda eng kam ish haqi miqdori bosqichma-bosqich 50%ga, pensiya miqdori

21%ga (206 vondan 250 vongacha) oshirilib, kam ta’minlangan fuqarolar va qariyalar uchun maxsus ishlab chiqilgan umrbod daromadlarni qo‘llab-quvvatlash dasturlari joriy qilindi.

Ish o‘rinlari yaratilishini rag‘batlantirish uchun ishchilarni yollagan kichik kompaniyalarga imtiyozlar belgilanib, muqim ish o‘rniga ega bo‘lmaganlarni doimiy ish bilan ta’minlash, ishsizlikni kamaytirish uchun yangi davlat xodimlarini yollash choralari ko‘rildi [7].

Koreya Prezidenti huzurida Ish o‘rinlarini yaratish bo‘yicha qo‘mita tashkil etilib, aholining kam ta’minlangan qismi va yoshlarning bandligini qo‘llab-quvvatlash milliy tizimi yo‘lga qo‘yildi. Ushbu tizim ish qidirish bo‘yicha maslahat berib borishi, bo‘sh ish o‘rinlarini taqdim etishi, ishsizlarga 6 oy davomida ijtimoiy to‘lovni amalga oshirishi kabi choralarni ko‘rishi lozim. Natijada, mamlakatda ishsizlik darajasi 2020-yilda 4% [9] bo‘lgan bo‘lsa, 2021-yilda 3,7%, 2022-yilda 2,9%, 2023-yilda 2.7%ni tashkil qilgan [10].

1-jadval

Janubiy Koreyaning inkluziv o‘sish bo‘yicha ko‘rgan chora-tadbirlari [8]

Asosiy siyosat yo‘nalishi	Amalga oshirilgan chora-tadbirlar
Ish o‘rinlarini yaratish va sifatini oshirish	1. Mehnat bozorida kam ta’minlangan bandlik guruhlari (yoshlar, xotin-qizlar) uchun soliq imtiyozlari va nodavlat ishchilarni oddiy ishchilarga o‘tkazish orqali xususiy ish o‘rinlarini yaratishni kengaytirish; 2. Davlat sektorida ish o‘rinlarini yaratish; 3. Kichik va o‘rta korxonalar uchun yoshlarni ishga yollashni moliyaviy rag‘batlantirish; 4. Ish vaqtini haftasiga 68 soatdan 52 soatgacha (40 soat oddiy va 12 qo‘shimcha ish vaqti) qisqarish.

Yashash xarajatlarini kamaytirish	1. Tibbiy sug‘urta qoplamasini yaxshilash va tibbiy xarajatlarni kamaytirish; 2. Qariyalarni parvarishlash xarajatlarini kamaytirish; 3. Bepul o‘rta maktab ta’limini joriy etish va kam ta’minlangan oilalarga oliy ta’limni qo‘llab-quvvatlash orqali ta’lim xarajatlarini kamaytirish.
Uy xo‘jaliklari daromadining o‘sishini ta’minlash	1. Kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlagan holda eng kam ish haqini oshirish; 2. Daromad solig‘i krediti va bolalar uchun soliq kreditidan foydalanishni kengaytirish; 3. Ijtimoiy sug‘urtani qo‘llab-quvvatlash.
Ijtimoiy himoya tizimini kengaytirish	1. Ishsizlik nafaqasi kafolatini uzaytirish; 2. Mehnatni sug‘urtalashni kengaytirish; 3. Bandlikni qo‘llab-quvvatlash milliy tizimini joriy etish; 4. Asosiy turmush vositalarini qo‘llab-quvvatlash uchun yengillashtirilgan talablarni joriy qilish; 5. Bola parvarishi bo‘yicha nafaqani joriy etish va uzaytirish; 6. Bazaviy pensiya qamrovini kengaytirish va stavkasini oshirish

Shuningdek, ijtimoiy sug‘urta mukofotlarini oshirish, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun kredit to‘lovlarini kamaytirish, bolalar nafaqalarini joriy etish, ishsizlikdan sug‘urta qilish ko‘lamini kengaytirish, tibbiy yordam, bola parvarishi va uy-joy xarajatlarini qisqartirish choralari ko‘rildi.

Bundan tashqari, Koreyaning “Mehnatni sug‘urta qilish to‘g‘risida”gi qonuniga o‘zgartirish kiritish orqali barcha ishchilarni ishsizlikdan sug‘urtalash chorasi ko‘rildi. Natijada, davlat ijtimoiy xarajatlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi keskin o‘sib, 2017-yilda 10,1%, 2019-yilda 12,3%, 2020-yilda 14,4% [11], 2021-yilda 14,5% [12], 2024-yilda 15.5%ni [13] tashkil qildi.

Kam ta’minlangan aholi qatlamini qo‘llab-quvvatlash maqsadida bazaviy pensiya (keksalarga daromadlarning 40 foizidan past qismi to‘lanadi) va nogironlik nafaqalari, 7 yoshgacha bo‘lgan bolalari bo‘lgan barcha uy xo‘jaliklariga nafaqalar ham kengaytirildi, ushbu nafaqa dastlab faqat yoshga to‘lmagan bolalari bo‘lgan oilalar uchun mavjud bo‘lgan.

Ko‘rilgan choralar natijasida, 2018-yilda birinchi marta kam maosh oluvchi ishchilar ulushi 20 foizdan kamroqqacha kamaydi, ijtimoiy himoya qamrovini kengaytirish orqali 2019-yilda 4,7 million xonadon nafaqa oldi. O‘rtacha ish haqining 2/3 qismidan kam maosh oladigan kam maoshli ishchilar ulushi 2017-yildagi 22,3 foizdan 2018-yilda 19 foizga va 2019-yilda 17 foizga, 2020-2023-yillarda o‘rtacha 15% foizga kamaydi, shu bilan birga ish haqi tengsizligi sezilarli darajada qisqardi [14].

Shu bilan birga, Koreya iqtisodiy o‘sishning inkluzivligini ta’minlash uchun bolalarni parvarish qilish va ta’limni qo‘llab-quvvatlash, bandlik sug‘urtasi qamrovini kengaytirish hamda yoshlar, ayollar va qariyalar kabi aholining zaif qatlamlari uchun kasbiy tayyorgarlikni kuchaytirish orqali zaif guruhlarning iqtisodiy va ijtimoiy ishtirokini yaxshilashga e’tibor qaratdi.

Koreyada innovatsiyalarga asoslangan o‘sish siyosati, xususan inson kapitalini rivojlantirish choralari jamiyatning inkluzivligi va farovonligini rag‘batlantirgan (2-jadvalda batafsil).

Alohida ta’kidlash lozimki, Koreyaning eksportga asoslangan o‘sish strategiyasi tor doiradagi sektorlar va korxonalarni qo‘llab-quvvatlash orqali iqtisodiyot uchun inkluzivlik va barqarorlik bilan bog‘liq bir qator muammolarni hal qilishga yordam bergan. Hozirda mazkur yo‘nalishdagi islohotlar izchil davom ettirilmoqda.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, so‘nggi 10 yillikda Koreyada iqlim o‘zgarishlariga moslashish va uning oqibatlarini yumshatishning tashkiliy-huquqiy asoslari jadal rivojlandi. Global iqlim o‘zgarishlari kabi turli inqirozlar va undan keyingi davrda Koreyaning inklyuziv va innovatsiyalarga asoslangan o‘sish modeli iqtisodiyot rivojlanayotgan davlatlar uchun foydali hisoblanadi. Ayniqsa, ish o‘rinlari yaratilishini rag‘batlantirish, ijtimoiy himoyani kuchaytirish, yashash xarajatlarini kamaytirish, uy xo‘jaliklari daromadlarini oshirish mexanizmlari hamda innovatsion rivojlanish choralari amaliyotda tajribadan o‘tganligi, buning ortidan so‘nggi yillarda ijobiy natijalarga erishilayotganligi ahamiyatlidir.

Kelgusida global iqlim o‘zgarishlari

ISSN 3030-3230

2-jadval

Innovatsiyalarga asoslangan o‘sish siyosati [8]

№	Asosiy yo‘nalishlar	Amalga oshirilgan asosiy chora-tadbirlari
1	Tanlangan tarmoqlarga strategik investitsiyalar	1. Ilmiy-tadqiqot byudjetini ko‘paytirish; 2. 3+1 strategik soha (sun’iy intellekt, vodorod iqtisodiyoti, inson resurslarini rivojlantirish)lariga sarmoya kiritish; 3. Sakkizta asosiy sohani qo‘llab-quvvatlash: kelajak avtomobillari, bio-salomatlik, aqlli sanoat, sanoat majmuasi, fintech, yangi energiya sanoati, aqlli shaharlar, aqlli fermalar va dronlar.
2	Tartibga solish tizimidagi innovatsiyalar	1. Tartibga solingan sandbox va tartibga solinmaydigan maxsus zonalarni joriy etish; 2. Salbiy listing tizimini joriy etish.
3	Venchur va startap ekotizimini yaratish	1. Yangi biznes boshlovchilar uchun soliqlarni kamaytirish va imtiyozlar berish, umumiy sanoat ob’ektini yaratish; 3. Tijoratlashtirishni qo‘llab-quvvatlashni kengaytirish; 4. Kichik va o‘rta korxonalarni qo‘llab-quvvatlash, xususan kichik biznes va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun past foizli kreditlar ajratish; 5. Sanoatning barcha sohalari va xizmatlarni qo‘llab- quvvatlashni kengaytirish.

sharoitida O‘zbekistonning barqaror iqtisodiy o‘sishini ta’minlashda Koreyaning quyidagi tajribalarini qo‘llash taklif etiladi:

1) O‘zbekiston iqtisodiyotini global iqlim o‘zgarishlariga moslashtirish va uning oqibatlarini yumshatishga doir chora-tadbirlar hamda ularni amalga oshirish mexanizmlarini nazarda tutuvchi “Global iqlim o‘zgarishlariga chidamlilikni oshirish va issiqxona gazlarini kamaytirish bo‘yicha milliy yo‘l xaritasi”ni qabul qilish;

2) qayta tiklanuvchi energiya manbalari infratuzilmasini yaratish va undan foydalanish qimmatligi sababli, O‘zbekiston iqtisodiyotini dekarbonizatsiya qilishda atom energiyasidan foydalanishga qaratilgan chora-tadbirlarni jadallashtirish;

3) O‘zbekistonda ko‘mir sanoatini rivojlantirishni qayta ko‘rib chiqqan holda kelgusida iqtisodiyot tarmoqlarida ko‘mirdan foydalanishni imkon qadar qisqartirishga qaratilgan choralarni belgilash;

4) kelgusida O‘zbekistonda elektr energiyasini ishlab chiqarishda vodorod va ammiak yoqilg‘isi turbinalarida foydalanish imkoniyatlarini tadqiq etish;

5) energiya ishlab chiqarishda issiqxona gazlarini qisqartirish va kam uglerodli sanoatga o‘tishda Janubiy Koreya bilan hamkorlik qilish;

6) O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sish barqarorligini ta’minlash uchun Koreyaning inklyuziv va innovatsiyalarga asoslangan o‘sish modeli mexanizmlaridan foydalanish. Xususan, aholining yashash xarajatlarini kamaytirish choralarini ko‘rish.

Аннотация. В статье изложены организационно-правовые меры, принятые Кореей для смягчения последствий глобального изменения климата и адаптации к ним, реформы экономического роста, основанные на инклюзивности и инновациях, и их результаты, а также предложения по применению корейского опыта в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: Корея, изменение климата, инклюзивный экономический рост, инновационный рост, доходы населения, занятость, человеческий капитал.

Annotation. The article outlines the organizational and legal measures taken by Korea to mitigate and adapt to the effects of global climate change, economic growth reforms based on inclusivity and innovation, and their results, as well as proposals for the application of Korean experience in the conditions of Uzbekistan.
Key words: Korea, climate change, inclusive economic growth, innovative growth, income, employment, human capital.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Michael Roh. How can Korean Consumer Goods companies achieve profitable growth in challenging macro-economic conditions?, June 5, 2024 // https://www.simon-kucher.com/en/insights/
2. Permanent Mission of the Republic of Korea to the United Nations. Development and Climate Change // https://overseas.mofa.go.kr/
3. Tachev V. Climate Change in South Korea: Floods, Heat and Looking Away. 21 August 2023 // https://energytracker.asia/
4. https://earth.org/how-climate-change-is-unfolding-in-south-korea/
5. https://climateactiontracker.org/countries/south-korea/
6. Lee, K. K. (2024). Korea's economic growth and the growth model in the changing global economy. The Japanese Political Economy, 1–24. https://doi.org/10.1080/2329194X.2024.2325981
7. Choong Yong Ahn, Beware the Law of Unintended Consequences: Why South Korea's Income-Led Growth Policy Isn't Working. September 2019 (Vol.14 No.3) // https://www.globalasia.org
8. Mazkur jadval Janubiy Koreya Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.
9. Aaron O'Nil. Distribution of gross domestic product (GDP) across economic sectors South Korea 2022. Jule 4, 2024. // https://www.statista.com/statistics/
10. Embassy of Switzerland in the Republic of Korea. Economic Report 2024 REPUBLIC OF KOREA 28 June 2024 // https://www.eda.admin.ch/seoul
11. Berg, A., J. D. Ostry, C. G. Tsangarides, and Y. Yakhshilikov. 2018. "Redistribution, Inequality, and Growth: New Evidence." Journal of Economic Growth 23 (3): 259–305. doi: 10.1007/s10887-017-9150-2.
12. Public social spending as a share of gross domestic product (GDP) in South Korea in 2021, by sector // https://www.statista.com/statistics/1464484/
13. https://en.wikipedia.org/wiki/Economy_of_South_Korea
14. Joo, S., K.-K. Lee, W. J. Nah, S. M. Jeon, and J. Dong-Hee. 2020. "The Income-Led Growth in Korea: Status, Prospects and the Lessons for Other Countries". Korea Institute for International Economic Policy Research Paper, Policy Analysis 20–01.

ISSN 3030-3230

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Jamoat xavfsizligi” ilmiy-amaliy jurnalida chop etish uchun maqolalarni rasmiylashtirishga qo‘yiladigan
TALABLAR

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Jamoat xavfsizligi” ilmiy-amaliy jurnalida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, ularning yo‘nalishlari, bosqichlari va natijalari, ijtimoiy-gumanitar, texnikaviy, huquqiy, iqtisodiy shuningdek, harbiy fanlar sohasida erishilgan yutuqlar, ilg‘or xorijiy tajribaning ilmiy-nazariy tahlili va natijalari nashr etiladi. Jurnal bir yilda to‘rt marta (har chorak) chop etilib, unda quyidagi asosiy ruknlar bo‘yicha ilmiy maqolalar e’lon qilinadi:

- KONSTITUTSIYA, INSON HUQUQLARI VA MILLIY QONUNCHILIK;
- JAMOAT TARTIBI VA JAMOAT XAVFSIZLIGI;
- HARBIY SOHADAGI ISLOHOTLAR;
- IJTIMOIY TARAQQIYOTNING DOLZARB NAZARIY-AMALIY MASALALARI;
- TA’LIM-TARBIYA JARAYONI;
- IQTISODIYOT: NAZARIYA VA AMALIYOT;
- TEXNIKA VA TEXNOLOGIYALAR TARAQQIYOTI;
- XORIJIY TAJRIBA;
- YOSH OLIMLAR MINBARI.

Maqolani tahririyatga topshirish uchun KERAKLI HUJJATLAR

1. Tahririyatga taqdim etilayotgan qo‘lyozma bo‘yicha muallif ilmiy-tadqiqot ishi olib borayotgan tashkilot rahbariyatining **xati**, maqolani chop etish mumkinligi haqidagi **ekspert xulosasi** hamda **ikkita taqriz** bo‘lishi kerak. Maqola o‘zbek, rus yoki ingliz tilida yozilgan bo‘lishi mumkin. Maqola nomi, uning 8-10 qator (500 tadan oshmagan chop etish belgilar) hajmdagi annotatsiyasi hamda kalit so‘zlari o‘zbek, rus va ingliz tillarida berilishi lozim, shuningdek muallif(lar)ning familiya, ism-shariflari, ish joylari (OTM, ITI, tashkilot) ham uch tilda taqdim qilinishi zarur.
2. Tahririyatga qo‘lyozma matni ikki nusxada topshiriladi, ikki nusxasi ham barcha mualliflar tomonidan imzolanadi. Maqolaning elektron ko‘rinishi ham taqdim etiladi.

Maqola mualliflarining familiyalari, ism-shariflari, ish joyi va lavozimi, manzillari, elektron manzillari (E-mail) hamda xizmat va uyali telefon raqamlari ko‘rsatilgan ma’lumotnoma beriladi.

Maqolani rasmiylashtirish TALABLARI

1. Maqola matni MS Word matn tahrirgichda Times New Roman shriftida 14 o‘lchamda terilgan bo‘lishi kerak.
2. Maqola hajmi bir intervalda bosilgan matn hisobida (jadvallar, rasmlar va adabiyotlar ro‘yxati bilan birgalikda) to‘liq 8-10 bet bo‘lishi kerak.
3. Varaq o‘lchami: 210x297 mm (A4 - format), rasm (sxema, grafik)larning o‘lchamlari 6x9 sm dan oshmasligi kerak. Matn chegarasi o‘lchami: yuqoridan - 2,0 sm, pastdan – 2,0 sm, chapdan – 3,0 sm, o‘ngdan – 1,5 sm bo‘lishi kerak.

1. Maqoladagi materiallarda eng zaruriy matematik ifodalargina berilishi kerak.

2. Maqola boshida UDK, keyingi qatordan (berilgan o‘lchamda bosh harfda, o‘rtada, qalin qilib) maqolaning nomi, undan keyingi qatorda muallif(lar)ning familiyasi va ism-sharifi, keyingi qatorda muallifning ish joyi (OTM, tashkilot, muassasa nomi) kichik bosma harfda o‘zbek, rus, ingliz tillarida teriladi. Keyingi qatordan maqola annotatsiyasi kursivda yoziladi. Keyingi qatorda 8-10 ta so‘zdan iborat kalit so‘zlar yoziladi. Bir qatordan so‘ng maqola matni teriladi.

3. Maqola bo‘lim va punktlarga bo‘linishi mumkin. Bo‘limlarning nomi qalin shriftda alohida qatorda tegishli ravishda kichik bosma (qalin) harflar bilan terilib, matn chap tomonidan tekislanadi. Punktlar nomi matnning birinchi qatoriga (qalin qilib) kiritiladi.

4. Adabiyotlar (so‘nggi 10 yildagilar tavsiya etiladi) ro‘yxati maqola oxirida, matndagi havolalar ketma-ketligi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro‘yxatida quyidagilar ko‘rsatiladi: a) jurnalda bosilgan maqolalar va ma’ruza tezislari uchun - muallifning familiyasi, ismi sharifi, maqolaning nomi, jurnalning nomi, nashr yili, soni yoki qismi (bo‘lsa) va betlari; b) kitoblar uchun - muallifning familiyasi, ismi sharifi, kitobning nomi, nashr joyi (shahar), nashriyot nomi, nashr yili, betlari.

5. Tahririyat barcha maqolalarni taqrizga yuboradi.

6. Tahririyatga maqolaning tahririyat taqrizidan keyin qayta ishlangan matni topshirilgan vaqt maqolaning tahririyatga tushgan kuni hisoblanadi.

Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar ko‘rib chiqishga qabul qilinmaydi, maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi. Maqolani ko‘rib chiqish natijalarini muallif tel: (71) 230-32-71, (71) 230-32-82 (kommutator) va 1045, 1046 ichki telefonlar orqali bilishi mumkin.
E-mail: info@mgjxu.uz

Tahririyat manzili: 100109, Toshkent viloyati, Zangiota tumani, Chor-su qo‘rg‘oni, O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti.

Original maket O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetining Tahririyat-noshirlik bo‘limida tayyorlandi.

Maqolalar har qanday usulda to‘liq yoki qisman ko‘chirib bosilganida «Jamoat xavfsizligi» ilmiy-amaliy jurnalidan olinganligi ko‘rsatilishi shart.

Qo‘lyozmalarga taqriz berilmaydi va ular qaytarilmaydi.

Tahririyat xatlar mualliflari bilan yozishmaydi. Tahrir hay’atining fikri muallif fikridan o‘zgacha bo‘lishi mumkin. Qo‘lyozmalar mazmuni va keltirilgan faktlarning haqiqiyligi uchun muallif javobgar.

Nashr. lits. №148674. 20.10.23. Bichimi 60x84 1/8. «Times New Roman» garniturasida raqamli bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog‘i 13,25. Adadi 10 nusxa.

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti bosmaxonasida chop etildi.

Bosishga ruxsat etildi 25.09.2024 y. Buyurtma № 235.

© O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2024 y.